



*Jahon xalq ertaklari*

# OSIYO



**MERIYUS**  
**Toshkent - 2009**




To'plab nashrga tayyorlovchi  
**Erkin YuSUPOV**

Ma'lumotlar muallifi va mas'ul muharrir  
**Asror SAMAD**

O'zining asil o'g'lonlari, Qahramonlari — Alpomish, Manas, Ertarg'inlar haqida yuz, ming yillar burun mumtoz dostonlar yaratgan xalqlar dilkash va maftunkor ertak janri rivojiga munosib hissa qo'shmay, ya'ni bu janrning o'ziga xos, ajoyib namunalari yaratmay qolarmidi?!

Ha, o'zbek, qozoq, tojik, qirg'iz va qoraqalpoq xalqlari dunyoga xalq ijodiyotining chinakam mahsuli deya e'tirof etilgan ertaklari bilan ham mashhur. Mazkur kitobga xuddi shu qon-qarindosh, qardosh elatlarning, qolaversa, ularga qit'adosh xalqlarning eng sara ertaklari kiritilgan. Ularning ba'zilari (ya'ni o'zbek tiliga allaqachon o'girilib, bosilganlari) qaytadan tayyorlangan bo'lsa, ayrimlari ilk marta asldan tarjima qilinib nashr etildi.



ISBN 978-9943-360-63-1

© "MERIYUS" HMNK,  
Asror Samad (ma'lumotlar), 2009-yil.




## *BIRI BIRIDAN MAROQLI.*

XVIII asrga qadar xalq og‘zaki poetik ijodi bilan antropologlar, etnograflar va hatto arxeologlar o‘z sohalariga hamohang tarzda shug‘ullanishgan. Umuman, XVIII asrga qadar xalq og‘zaki poetik ijodiga adabiyot, musiqa, antropologiya, etnografiyaning bir qismi sifatida qaralganligi ma‘lum. XVIII asrdan boshlab esa, xalq og‘zaki poetik ijodiyoti alohida fan sifatida maydonga kelib, u folklorshunoslik, deb ataldi. Barcha xalqlarda bo‘lganidek, bizning qadimiy tafakkur tariximizda folklor materiallarini to‘plash XI asrdan ko‘zga tashlanadi (Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘at-t-turk” asari nazarda tutiladi). Ammo o‘zbek folklori asarlarini nashr etish XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi, desak xato bo‘lmas, chunki, shu davrga kelib “Yusuf va Zulayho”, “Hikoyati Go‘ro‘g‘li sulton” xalq dostonlari alohida kitob shaklida nashr etildi, bundan tashqari, venger sayyohi Vamberi va rus missioneri Ostroumov to‘plagan va nashr etgan xalq ertaklari, maqol va matallari bunga dalildir.

XX asrning boshlaridan esa, xalq og‘zaki poetik ijodiga rosmana qiziqish boshlanib, o‘zbek folklorshunosligi fani vujudga keldi va o‘shandan e‘tiboran xalq og‘zaki poetik ijodining namunalari bir qator kitoblarga jamlanib nashr etildi.

Keyingi paytda, aniq qilib aytganda, 2000 yildan boshlab ayniqsa ertaklar to‘plamlari ko‘payib bormoqda. Nafaqat o‘zbek xalq ertaklari, balki boshqa xalqlarning ham ertaklari ko‘plab chop etila boshlandi. Taxminan XX asrning 50-yillariga qadar kitobxonlarga o‘zbek folklori namunalari taqdim etilgan bo‘lsa, 50-yillarning adog‘idan boshlab o‘zga xalqlarning dostonlari, ertaklari ham nashr etila boshlandi. Endilikda kitob javonlarimizda qoraqalpoq, turkman, ozarbayjon dostonlari qatorida “Rus xalq ertaklari”, “Ukrain xalq ertaklari”, “Boltiqbo‘yi xalqlari ertaklari”, “Turk xalq ertaklari”, “Tojik xalq ertaklari”, “Arab xalq ertaklari”, “Fors xalq ertaklari” va boshqa ko‘plab xalqlarning ertak to‘plamlari ham joy olgan. O‘sha



50-yillarning adogʻidan boshlab “Ming bir kecha” — arab ertaklari sakkiz jildligining nashr etilishi ham kitob madaniyati sohasida ulugʻ ishlardan hisoblanadi.

Har bir sohada boʻlganidek, nashr ishlarida ham soddadan murakkabga qarab boriladi. Shu paytga qadar turli xalqlarning ertaklari alohida nashrlarda yashab kelmoqda. Bugunga kelib biz kitob javoningizga 6 kitobdan iborat boʻlishi rejalashtirilgan «Jahon xalqlari ertaklari» turkumini taqdim etmoqdamiz. Har bir kitobni unga ertaklaridan namunalari kiritilgan xalqlarning mamlakatlari joylashgan hudud atalishidan kelib chiqib nomladik.

Masalan, qoʻlingizdagi «Osiyo» deb nomlangan ilk kitobdan xuddi shu ulkan hududli qitʻada yashayotgan xalqlarning eng yaxshi ertaklari oʻrin oldi. Ikkinchi kitobga Uzoq Sharq mamlakatlari xalqlarining xuddi shunday sara ijod namunalari kiritilgan. Uchinchi kitobda esa, mashhur namunalari allaqachon jajji oʻquvchilarimizni mamnun etgan Kavkaz xalqlarining ertaklari eʻlon qilinadi. Toʻrtinchi kitob janr taraqqiyotiga katta hissa qoʻshgan va qoʻshayotgan Yevropa xalqlarining ertaklaridan tashkil topadi. Beshinchi kitob Shimoliy va Janubiy Amerika mamlakatlari xalqlarining ertaklari asosida tayyorlanmoqda. Va, nihoyat, oxirgi toʻplam esa, ertaklari hali bizga unchalik yaxshi tanish boʻlmagan Afrika va Okeaniya mamlakatlari xalqlarining ijod namunalari tarkib topadi.

Biz bu turkumda barcha xalqlardagi bor ertaklarni qamrab olishni oldimizga maqsad qilib qoʻymadik. Binobarin, bu nashrning akademik nashr emas, balki, ommabopligini hisobga olgan holda eng mazmundor, eng qiziqarli ertaklarni tanladik. Tanlash jarayonida oʻzbek tiliga tarjima qilingan ertaklarga eʻtiborimizni qaratdik va yangi ertaklar esa, olim va adib Asror Samad tarjimasida taqdim etilayotir.

Allaqachon, turli xalqlarning haqiqiy ijodi sifatida umumjahon maʼnaviy-maʼrifiy qadriyatining oʻziga xos namunalari, deya eʻtirof etilgan mashhur ertaklar jajji oʻquvchilar qalbidagi kitobsevarlik tuygʻusini yanada kuchaytirishga hissa qʻshadi, deb ishonamiz.

Erkin YUSUPOV,  
«MERIYUS» nashriyoti direktori



## MARKAZIY OSIYO




### O'ZBEK XALQ ERTAKLARIDAN



*O'zbek xalqi og'zaki poetik ijodida ertaklar talaygina va ular XX-asrning 20–30-yillaridan beri nashr etilmoqda va har bir nashrda yangi-yangi ertaklar qo'shib borilmoqda. Ma'lumki, XX-asrning ikkinchi o'n yilligigacha bizda xalq poetik ijodi namunalari to'planmagan va ilmiy jihatdan o'rganilmagan edi. 1918 yilda ta'sis etilgan “Maorif” jurnalining 1–2-qo'shma sonida jurnalxonlarga quyidagicha murojaat qilingan edi:*

*“Xalq tilinda og'izdan-og'izga so'ylanib yuraturg'on turli hikoyalar, rivoyatlar, topishmoqlar, kulgi so'zlar, maqollar, she'rlar va shunga o'xshash xalqning e'tiqodini, urf-odat ham turmushina oil qanday bo'lmasin so'zlarni va umuman xalq adabiyotini yig'ib “Maorif” mujalasi idorasiga yozib yuborilsin”.*

*Ehtimolki, mana shu murojaatnoma o'zbek folklorshunosligining vujudga kelishiga, shu jumladan, ertaklarning to'planishiga ham turtki bo'lgandir. Zero, 1925 yilda O'zbekiston xalq maorifining ilmiy kengashi huzurida O'zbeklarni o'rganish qo'mitasi ham tuzilib, unda G'oz Olim Yunusov boshchiligidagi yosh ilmiy xodimlar ancha ishlarni amalga oshirdilar. Bu yosh ilmiy xodimlar Hodi Zarif, Buyuk Karimov, Muzayyana Alaviya, Fattoh Abdullayev, Safo Zufarov, Sobirjon Ibrohimov, Mansur Afzalovlar edilar. Bu yoshlar ishtirokida O'zbekistonning turli viloyatlariga folklor va etnografik ekspeditsiyalar uyushtirildi va juda ko'p asarlar yozib olindi. Lekin yoshlarning bu g'ayratli harakatlaridan oldin ham xalq asarlarini to'plash ishlari bo'lgan, ammo bu ish*



*O'zbekistonga missionerlik maqsadida kelgan A.Kushakeviya, N.Lyapunova, A.Vasileev, A.Somoylovich, I.Ostroumov, V.Bartold, A.Divayev, I.Berzin, Ya.Lyutsh, V.Radlov'lar tomonidan amalga oshirgan edilar. Lekin ularning asl niyatlari ehtimol mahalliy sharoit, o'zbek xalqining ochiqko'ngilligi, boy adabiy-badiiy merosi oldida hech narsaga arzimas bo'lib ko'ringanligi uchun ham ilmiy tadqiqot ishlariga berilib ketgan bo'lishlari mumkin. I.Ostroumov hatto o'zbek ertaklaridan ba'zilarini nashr ettirdi ham.*

*Lekin folklor namunalari, shu jumladan, xalq ertaklarining rosmana nashrlari keyinroq amalga oshdi va natija o'laroq Hodi Zarifning "O'zbek folklori" majmuasida (1-jild, 1939) bir qancha ertaklar berildi, shu yili Buyuk Karimov nashrga tayyorlagan "O'zbek xalq ertaklari", 1953 yilda Mansur Afzalov, Xolid Rasul tayyorlagan "O'zbek xalq ertaklari", 1960–63-yillarda "O'zbek xalq ertaklari"ning ikki jildligi (bu ikki jildlikda Afzalov va Rasullardan tashqari Zubayda Husainova ham ishtirok etgan), 1960 yilda Fattoh Abdullayev tayyorlagan "Xorazm ertaklari", 1969 yilda Tojiboy G'oziboyev tayyorlagan "Namangan xalq ertaklari" maydonga keldi. "O'zbek adabiyoti 15 yil ichida" (1939 yil) kitobida ham ertaklar berildi, 1939 yilda yana alohida ravishda "O'zbek xalq ertaklari" to'plami nashr etildi. Hozirgi kunda esa, ertaklar to'plamlari ko'plab nashr etilmoqda.*

*Biz bu jildda o'zbek xalq ertaklaridan hali nashr etilmaganlarini tanlab berdik. "Oltmish og'iz yolg'on" ertagi xorazmlik folklorshunos Nasrullo Soburov arxividan olindi, ertak 1969 yilda yozib olingan bo'lib, aytuvchining nomi aniqlanmagan, "Tushning ta biri – jiyda" ertagini folklorshunos olim Tilovqul Ashurov 1970 yilda Buxoroda yozib olgan, aytuvchisi aniqlamagan. "Yaxshilik bilan Yomonlik" ertagini Xorazm viloyati, Yangiariq tumanida istiqomat qilgan Muslima Shermatova aytgan bo'lib, uni mashhur tilshunos olim Fattoh Abdullayev 50-yillarda yoki undan oldin yozib olgan, Tilovqul Ashurov menga 1970 yili taqdim etgan "G'amsiz kishi bormi" ertagini uning onasi, Buxoro viloyati, Vobkent*



*tumanida istiqomat qilgan Fotima Ashurova aytgan. “Xo’ja savdogar” ertagi mashhur “Ozodachehra” ertagining varianti bo’lib, uni Toshkent shahar, Beshyog’och dahasidagi “Rakat” mahallasi, Tropicheskaya ko’chasining 38-uyda istiqomat qilgan Habiba Ikromovadan 1968 yilda yozib olganman, xuddi shu yili o’sha rahmatlik onaxondan “Bit o’ldi — burga azador bo’ldi” ertagini yozib olib, keyin onam — Vaziraxon Said Nu’monxon a’lam qiziga o’qib berganimda, bu ertakning mashhurligini aytgan va chala qolgan joylarini to’ldirgan edi. “Yoriltosh” ertagi — mashhur ertak emas, tamomila yangi mazmunda, Buxoro shahridan Oysha Muxtorova aytgan (adabiyotshunos Halima Muxtorovaning onasi). Bu ertakni Tilovqul Ashurov yozib olgan va menga 1970 yilda taqdim etgan edi. “Yursang sayoq, yeysan tayoq” ertagini Chimkent viloyati, Man-kenti qishlog’ida istiqomat qilgan Qizil To’xtametovadan 1969 yili yozib olganman.*



## OLTMISH OG'IZ YOLG'ON



Bor ekan-da yo'q ekan, och ekan-da to'q ekan, bir podshoh bo'lgan ekan. Uning bir bo'yi yetgan qizi bor ekan. Podshoh shaharga shunday jar soldiribdi:


- Kimda-kim oltmish og'iz yolg'on gap aytolsa, o'shanga qizimni beraman, davlatimning yarmiga ega qilaman, agar gapirolmasa, kundaga boshini qo'yaversin.

Yolg'on gap bo'lsa yolg'on-da, oltmish og'iz yolg'onni topolmay o'libmizmi, degan ne-ne yigitlar kelib, podshohga ro'para bo'libdi, ko'plari yolg'onni o'n og'izga ham olib borolmay, kallasini kundaga qo'yibdi.

Shaharning chekkasidagi bir kulbada bir kal bor ekan, o'sha kal bu xabarni eshitib, shiftga qarab olti oy o'ylab yotibdi. Shu olti oyda oltmish og'iz yolg'on gap topibdi. Kal qalpog'ini boshiga bostirib, belini chilvir bilan bog'lab, bir kaft nosni tanglayining tagiga tashlab, eshagini qashlab, ha, chu, jonivor, deb podshohning saroyiga kelibdi. Podshoh undan "Sen kimsan? Nima arzing bor?" - deb dag'dag'a bilan so'ragan ekan, kal bidirlab ketibdi:


- Ey, podshohi olam, siz arz so'radingiz, men dodimni aytay: otamning belida, onamning qornida edim. O'sha vaqtda bobomning olti yuz oltmishta oti bor edi, men shu otlarni boqar edim. Kunlardan bir kuni bobomning otlaridan biri yo'q bo'lib qoldi, u ot biya edi, biya bo'lganda ham bo'g'oz edi, tug'ishi yaqin edi. Ko'p axtardim, zang'ar hech yerda yo'q, qalpog'imni to'ntarib ustiga chiqib qarasam, biya ikki toshliq yo'lga borib tug'ibdi. U zang'arni toychog'i bilan birga olib kelay deb yo'lga chiqdim, yo'limda Amudaryo uchradi. Daryo yetti qavat yaxlabdi, oyog'im bilan yurib o'tay dedim, o'tolmadim, emaklab o'tay dedim, o'tolmadim, oyog'imni osmonga qilib, boshimni yax ustiga qo'ygan edim, pirillab o'tib ketibman. Borib baytalni topib min-





dimu, toychoq'ini oldimga olay desam, ko'tarolmadim, toychoqqa mindimu baytalni yelkamga olib, Amudaryodan bir hatlab o'tib oldim.

Bobomning bir eshagi bor edi, bu yetmagandek, bir qaldirg'ochi ham bor edi. O'sha qaldirg'och uch kechayu uch kunduz uchdi, bir baliqning dumidan qanotigacha arang yetdi. Baliqning suyagidan yog'och kesdik, o'sha yog'ochlarni jamlab bir saroy qurdik. Saroyning bir yog'ida bobomning o'zi yotadi, bir tomonida bola-chaqasi tirikchilik qiladi, bir yog'ida eshagi bog'loqlik turadi. Bir kuni bobomning o'sha eshagi o'ldi. Terisini shilib ustaga berdik, usta uni oshlab, bichdi. Teridan to'qson juft zaifona, sakson juft mardona kavsh tiktirdik. Xuddi kun ko'rmas joyidan bir juft etiklik kesib, uni kosibga berdik, kosib etik tikib berdi. Bozorga borib bir pud yog' oldim, uni etigimga surkasam, bir poyiga yetib, ikkinchi poyiga yetmadi. Yog' yetmagan ikkinchi poyi arazlab ketib qoldi. U borib-borib, bir boyga ikki qop tariqqa mardikor tushgan ekan. Axtarib borgan edim, meni ko'riboq terakning tepasiga chiqib oldi. Men chiqolmay pastda qoldim. Tushasanmi, tushmaysanmi, deb kesak otaveribman, kesak otaveribman, otgan kesaklarim o'n ikki tanob yerni shudgor qilib qo'yibdi. Bu shudgor bekor ketmasin deb, u yerga tarvuz ekdim. Tarvuzlar juda yaxshi bo'ldi. Bir tarvuz ozgina teshilib qolibdi. Qo'limda yetti dona sham bilan haligi tarvuzning ichiga kirib, bir poy etigimni axtardim. Tarvuzning ichiga qo'shnimizning bir bo'talog'i ham kirib ketgan ekan, uni ham tashqariga olib chiqdim, etigimning chap poyini aldab-suldab terakning ustidan tushirib oldim. Boy bilan hisob-kitob qilishdik, u bizga ikki qop tariq berdi. Tariqni bir pishiq qopga solgan edik, turmay to'kildi, xaltalarga solib edik, ulardan ham to'kilib tushdi, bobomdan qolgan bir yirtiq qop bor edi, o'shanga solgan edik, to'kilmadi. Tariqni tuyaga ortdik, tuya cho'kib qoldi, otga ortgan edik, beli sinib ketdi, eshakka ortgan edik, ko'tarolmay tuproqqa ag'anadi. Bobomning bir xo'rozi bor edi, bobom unga bir qop bug'doy ortib tegirmonga ketgan edi, o'shani olib kelib, tariqni ortdik. Xo'roz gandiraklab-gandiraklab zo'rg'a joyiga olib bordi.



Ey, podshohim, hisoblang-chi, oltmish og'iz gapingiz bir yuz yigirma og'iz bo'lmadimi? - debdi kal.

10

Podshoh hisoblab ko'rsa, bir yuz yigirma og'iz yolg'on bo'libdi.

Podshoh kalga qarab:

- Endi sen kishi bilmas hunarni topib kel, bor, ana, senga qirq kun muhlat, - deb yuboribdi.

Kal saroydan chiqib, to'g'ri onasining oldiga kelibdi.

- Ona, ona, podshohning oltmish og'iz yolg'onini qotirib keldim, u menga kishi bilmas hunarni topib kel, dedi, endi siz meni bir ustaga olib borib topshiring, kishi bilmas hunarni topaman, - debdi.

Ona-bola ko'chama-ko'cha, guzarma-guzar kezib usta izlashdi, uchragan ustalarning hunari kalga ma`qul kelmadi, bir ko'chadan o'tib ketayotsalar, bir chol muz ustida qatlama pishirib yeb o'tirganmish.

Buni ko'rgan kal:

- Ona, ana shu odamga shogird bo'lsam kerak, - debdi.

Kalning onasi:

- Usta bobo, shu o'g'lim sizga shogird bo'lsin, eti sizniki, suyagi meniki, - debdi.

U usta sehrgar ekan.

- Xo'p, mayli, - debdi. - Qirq kundan keyin suyaklarini yig'ishtirib olib ketaverasiz.

Sehrgarning bir pandavaqi, burni puchuq, ko'zi g'ilay, yuzlari shaftoli qoqiday, qovurg'alari shiftning toqiday bir qizi bor ekan. Bu qiz kalni ko'riboq oshiq bo'lib qolibdi. Kal uni aldabdi, men senga uylanaman, ammo otangning hiyla-nayranglarini menga o'rgat, debdi. Qizning ham sehrgarlikdan ancha xabari bor ekan, kalga otasidan pinhona o'rgata boshlabdi. Kal tamizli emasmi, darhol ancha-muncha ishlarni o'rganib olibdi. Yetmaganiga o'zi fikrlab topib, tuppa-tuzuk sehrgar bo'lib olibdi.

Kal bir oy sehrgarning xizmatini qilibdi, sehrgar unga og'ir-og'ir ishlarni buyurarkan-u, ammo hunarini o'rgatmas ekan. Oradan bir oy o'tib, u kalni



sandiqqa solib qo'yib, o'sha sandiqning ichida osh-suvini berib turibdi. "Seni sandiq ichida semirtirib, so'yib yeyman", debdi. Buni ko'rgan qiz kaldan // ayrib qolishini bilib, uning onasiga xat yozibdi. "Shunday-shunday, tez // 11 yetib keling, bir haftadan keyin otam o'g'lingizni so'yadi".

Kalning onasi ham halloslab yetib kelibdi.

- Usta bobo, o'g'limni bersangiz, o'tin-cho'pga qiynalib qoldim, - debdi onasi.

Sehrgar kalni bergisi kelmay, u-bu deb bahona qilgan ekan, kalning onasi shang'illab, mahallani boshiga to'plaguday bo'libdi, sehrgar siri ochilib qolishidan cho'chib sandiqni ochibdi. Sandiqdan kal chiqib kelibdi.

Ona-bola sehrgarning uyidan nari ketishibdi. Yo'lda ketishayotsa, bir guzarda yigitlar xo'roz urishtirayotganmish. Bir kishining xo'rozi yengilib, toji qi p-qizil qon bo'lib qochibdi.

- Ona, men xo'roz bo'lay, meni shu kishilardan biriga ming tangaga soting, siz uyga ketavering, ketingizdan yetib boraman, - debdi kal.

- Ey, qo'y bema'ni gapni, qanaqa qilib xo'roz bo'la qolasan? - debdi onasi.

Kal onasining ko'z oldida bir yumalab qirchang'i ot bo'libdi, onasi o'tay desa o'tkazmabdi. Onasi qo'rqibdi. Uning qo'rqanini ko'rgan kal yana asliga qaytib:

- Men qanday ekanman, ona? - deb so'rabdi.


- Durust ekansan, xo'roz bo'lsang, bo'la qol, - debdi.

Kal bir dumalab xo'rozga aylanibdi, kampir uni qo'ltig'iga qisib olib haligi xo'roz urishtiruvchilarning oldidan o'taveribdi. Xo'rozi qochgan yigit kampirning qo'ltig'idagi xo'rozni ko'rib:

- Momo, xo'rozni sotasizmi? - deb so'rabdi.

- Sotaman, ming tanga, bundan kami bo'lmaydi, - deb savdoni qattiq qilibdi.

Haligi yigit ming tanga berib, xo'rozni olibdi, oliboq maydonga tashlabdi. Kal-xo'roz qaqqolab, hezlanib, dam-badam maydondagi



raqibiga qarab-qarab, yerdan don cho'qigandek bo'lib boraveribdi. Raqibi yaqin kelganda bir tepib o'ldiribdi, ikkinchi va uchinchi raqiblarini ham tepib o'ldirib, parr etib devorga ko'tarilibdi. Devorning narigi tomoniga tushib, yana kal suratida ketaveribdi. Hozirgina sotib olgan xo'rozini yo'qotgan yigit hovliqib kelib:

- Shu yerdan bir qizil xo'roz o'tmadimi? - deb so'rabdi.

Kal uni boshqa tomonga solib yuboribdi, o'zi uyiga yetib olibdi.


O'sha kecha yotib, ertan-mertan turib:

- Ey, ona, men bir bo'taloqqa aylanaman, bozorga olib tushing, bahoimni o'n ming tanga deng, ammo olgan odamga boshvog'imni bermang, - debdi.

Kampir bo'taloqqa aylangan kalni jilovidan ushlab bozorga jo'nabdi. Bozor eshigi oldida haligi sehrigar uchrabdi, bo'taloqqa xaridor bo'libdi. Kampir o'n ming tanga degan ekan, savdolashmay, o'n ming tangani sanab beribdi. Kampir bo'taloqning boshvog'ini yechib olayotgan ekan, sehrigar, men boshvog'i bilan olaman, ayting narxini, debdi. Kampir bir eski arqonni olmas, degan ko'ngilda o'n ming tanga degan ekan, sehrigar darrov sanab berib, bo'taloqni yetaklab ketibdi. Kal ko'zini yoshlab, yuragini dog'lab sehrigarning yetagida ketaveribdi. Sehrigar uyiga kelib, qiziga tez xanjarimni olib chiq, deb buyuribdi. Qiz razm solsa, bu bo'taloq o'sha kal ekan, uyga kirib xanjarni yengi ichiga berkitibdi-yu, otasiga xanjarni topolmadim, deb bahona qilibdi. Sehrigar, buni ushlab tur, deb kalning jilovini qiziga tutqazib, o'zi uyga kirib ketganda qiz boshvoqni kesib yuboribdi. Kal bir aylanib asliga qaytib qochib qolibdi.

- Ota, bo'taloq qochdi, - deb baqiribdi qiz.

Kal keta turib ortiga qarasa, sehrigar halpillab ortidan quvyapti. Bir dumalab kaptar bo'lib uchib ketibdi. Sehrigar esa, bir dumalab kalx-at bo'lib ortidan quvibdi. Kal uchib borib, saroyga qo'nibdi, podshohning chakkasida bir dona gul bo'lib ochilib turaveribdi. Sehrigar qo'lga do'mbira olib, saroy darvozasi oldida podshohni maqtab dos-ton aytib turaveribdi. Podshoh maqtovdan erib ketib:



- Ey, baxshi, tila tilagingni, - deb yuboribdi.

- Menga chakkangizdagi gulni bersangiz bas, - debdi sehrgar.

Podshoh bu baxshilarning esi yo'q bo'lar ekan, bitta gul so'radiya, deb chakkasidagi gulni sehrgarga uzatibdi, gul sehrgarga tegishi bilan uning tikanlari qo'lga qattiq botibdi, sehrgar dodlab yuboribdi. Gul qo'lidan tushibdi. Gul podshohning ko'zi oldida tariq bo'lib sochilib ketibdi. Sehrgar darhol tovuq bo'lib, donlarni bitta-bitta terib yebdi, sochilib ketgan tariqlardan bittasi podshoh kavshining patagi ichiga kirib qolibdi. Tovuq hamma donlarni yeb bo'lib, qaqolab o'sha yashiringan donni izlabdi. Tariq shaqolga aylanib, tovuqni bosib yeb qo'yibdi.

Shaqol bir aylanib kalga aylanibdi.

- Assalomu alaykum, podshohi olam, endi ko'rdingizmi kishi bilmas hunarni? - debdi kal.

Podshoh to'y-tomosha qilib qizini kalga beribdi, kal esa murodu maqsadiga yetibdi.

## TUSHNING TA'BIRI - JIYDA


Qadim zamonda bir podshoh otasidan qolgan davlat ishlarini yuritmay, faqat uxlar ekan, uxlagandan keyin turli tushlar ko'rar ekan, uyqudan uyg'onib, tushining ta'birini munajjimlardan so'rar ekan.

Kunlardan bir kun uyqudan uyg'onib qirqta munajjimini chaqirtiribdi, tushining ta'birini so'rabdi.

- Ey, podshohimiz, oldin tushingiz mazmunini ayting, so'ng biz ta'bir izlaylik, - debdi munajjimlardan biri.

Podshoh inqillab ko'rgan tushini aytib beribdi:

- Tushimda bir boqqa kiribman, bog'ni aylanib yurganimda bir



14 tog'ni ko'ribman, tog'ning o'rtasida ikkita tentak odam bilan bir sog'ni ko'ribman. Tog'ning qoq o'rtasida bir mevali daraxt bor ekan, uning mevasi pishgan ekan, mevasidan tatib ko'rish uchun shoxidan uzibman, og'zimga olib bormasimdan uyg'onib qolibman. Shu tushimni ta`bir qilinglar.

Podshohning bunaqa tushlari ko'p bo'lar ekan, ularni ta`bir qilaverish munajjmlarning joniga tekkan ekan. Shuning uchun munajjmlarning kattasi ta`zim bajo keltirib:

- Ey, podshohim, kishining tushiga har narsalar kiraveradi, hammasini ta`bir qilish shart emas, - debdi.

Podshohning jahli chiqibdi, uyqudan shishgan qovoqlarini bulutdek uyib:

- Tushimni kechgacha ta`bir qilmasalaring, boshlaring o'limda, mollaring talonda, - deb yuboribdi.

Munajjmlarning o'takasi yorilib, boshlaridan hushlari uchib, burchak-burchakka borib tushga ta`bir izlay boshlashibdi. Munajjmlardan bittasi yurak yutib yana podshohning huzuriga kirib:

- Ey, olampanoh, tushingizda ko'rganingiz daraxtning oti nima edi? - deb so'rabdi.

- Qayerdan bilaman, bilsam senlardan so'rarmidim? - deb dag'dag'a qilibdi podshoh.


- Mevasi nimaga o'xshardi? - deb yana so'rabdi munajjim.

- Mevasi tilloga, bargi kumushga, shoxi temirga o'xshardi, - deb javob beribdi.

- Dunyoda bunga o'xshash daraxt borligini bilmaymiz, - deb ming'irlabdi munajjim.

- Dunyoda yo'q narsani men tushimga kiritmayman, o'sha daraxtni qayerdan bo'lsa ham menga topib berasanlar, tushimning ta`birini aytasanlar, endi yo'qollaring, uyqum kelyapti, - debdi podshoh va taxtiga takya qilibdi.

Munajjmlar kechgacha chuvillashibdi, tush ta`birini topisholmabdi,



endi nima qilamiz, deb hayron bo'lib turishganda podshohning otboqari nima gapligini so'rabdi. Munajjimlar voqeani aytishgan ekan, meni podshohning oldiga olib kiringlar, ta'birini men aytaman, - debdi.

15

Otboqarni podshohning huzuriga olib kirishibdi.

- Ey, podshohim, ko'rgan tushingiz bashoratli, tog' - balandlik, bog' - yaxshi iqlim, daraxtlar - rizq, siz baland bir ko'shk qurib, o'sha yerda toza havodan nafas olib uxlar ekansiz, tushingizdagi ikki "tentak" - a'yonlaringiz, "sog'" - o'zingiz, ko'rgan daraxtingizga kelsak, u - jiyda, men ertaga Sarimsoq buvaning hovlisidan bir shoxini olib kelib beraman, - deb munajjimlarni o'limdan saqlab qolibdi.

Podshoh darhol baland ko'shk qurishni buyuribdi, otboqar olib kelgan jiyda daraxtini ko'shking tagiga ektiribdi.


## YAXSHILIK BILAN YOMONLIK

O'tgan zamonlarda Yaxshilik bilan Yomonlik degan odamlar yashagan ekan. Ular o'rtaga non qo'yib, bir-birlari bilan do'st bo'lishibdi.

Kunlardan bir kun ikkovi safar jabduqlarini rostlab yo'lga tushishibdi, dunyoni ko'rib, aqlarini peshlab olmoqchi bo'lishibdi. Yo'l yurib, yo'l yursalar ham mo'l yurib, bir manzilga qo'nishibdi, qorinlari ochib, ovqat yemakka o'tirishibdi. Yomonlik erinibgina xurjunini ochmoqchi ekan, Yaxshilik:

- Ikkovimiz xurjun kavlab yurmaylik, mendagi nonlardan yeb qo'ya qolaylik, - debdi ko'ngli ochiqlik bilan.

Yomonlik bu gapga darrov ko'nibdi, ikkovining qorni to'yib, yomon fe'lni qo'yib, yana haytto-hayt deb yo'lga tushishibdi. Yo'llarni bosib o'tib, manzillarda qo'nib, doim Yaxshilikning non-ponini yeb, qorinni qappaytirib ketaveribdilar. Yaxshilikning xurjuni bo'shabdi, yeyishga non uvoq ham qolmabdi. Bir manzilga qo'nib, endi nonushta



qilaylik, deb o'tirib, Yaxshilik Yomonlikning xurjuniga tikilib turibdi. Yomonlik teskari qarab, Yaxshilikka orqa o'girib, xurjuniga qo'lini tiqib, bitta qotgan kulchani olib, suvga botirib yeb o'tiribdi, Yaxshilik non so'rasa, Yomonlikning qoshi buralib, rangi o'zgarib, ko'zlari olayib, bo'yin tomiri tortishib, "Non yo'q", deb bermabdi.

Yaxshilik ochlikka sabr qilib, tishlarining kirini so'rib yuraveribdi, qancha yo'l bosgandan keyin Yaxshilikning sillasi qurib, qorni hushtak chalib, Yomonlikdan yalinib bir burda non so'rabdi.

- Nima desang qilayin, qul bo'l desang bo'layin, bir burda noningni darig' tutma, - deb yalinibdi.


- Agar bitta ko'zingni o'yib bersang, bitta kulcha beraman, - debdi Yomonlik ko'zlarini chaqchaytib, og'zining tanobi qochib irshayib.

Yaxshilikka ochlik g'alaba qilib, ich-ichidan bir narsa uzilib, noiloj qolib, bir ko'zini o'yib beribdi, Yomonlikdan bittagina kulcha olib, nafsini qondiribdi.

Yana yo'l yurishibdi, yo'l yurishsa ham mo'l yurishibdi, Yaxshilikning ochlikdan madori qurib, oyoqlarini arang bosib yurib, bir chinor tagiga kelib to'xtabdilar. Yomonlik xurjunini ochib, non olib, uni chap-chulp chaynab yeb o'tiraveribdi, Yaxshilikning bir ko'zi chaqchayib, ikkinchi ko'zidan qon oqib, dam-badam qornini quldiratib o'tiraveribdi. Yana ochlikka chidolmay Yomonlikdan non so'rabdi. Yomonlik ikkinchi ko'zingni o'yib bersang, non beraman, debdi. Yaxshilik noilojlikdan ikkinchi ko'zini ham o'yib beribdi. Yomonlik ikkala ko'zi yo'q Yaxshilik bilan hamroh bo'lishni istamay, uni tashlab, ko'nglini g'ashlab, o'zini hushlab, Yaxshilikning laqmaligidan kulib, o'z aqlining zo'rligidan maqtanib yo'lga ravona bo'laveribdi.

Yaxshilikka dunyo qorong'u bo'lib, paypaslanib, yiqilib-surilib chinorning soyasiga o'tib olibdi, paypaslana-paypaslana o'sha yerdan bir tegirmon tosh topib o'tirib olibdi. O'tirgandan keyin tagidagi tosh qimirlaganday bo'libdi, uning tagi bo'shday tuyulibdi. Yaxshilik paypaslanib, haligi tegirmon toshni kuch bilan sal itargan ekan, nari





surilibdi. Yaxshilik yana paypaslanib, qo'li bilan shu tosh tagida bir chuqur borligini bilibdi. "Kel, bu kunimdan ko'ra shu chuqurga tushib yotib o'lib ketganim yaxshi", deb o'ylabdi u va chuqurga bir amallab tushib olib, ustiga tegirmon toshini tortibdi.

Yaxshilik o'zini o'limga chog'lab yotgan ekan, yer ustida g'ovur-g'uvur tovushlar eshilibdi. Tegirmon toshi ustida uch-to'rt kishi o'tirib gaplashishayotgan ekan.

- Biz, jinlar bilgan gapni odamzod bilmaydi, mana shu chinor bargidan kimki ko'ziga surtsa, ko'r bo'lsa ochiladi, - debdi bittasi.

- To'g'ri aytasan, biz bilgan sirlarni odam bolasi qayoqdan bilsin! - debdi ikkinchi jin. - Mana bu tepalikda bir ko'r sichqon bor, har kuni oftob chiqishi bilan inidan uchta gavharni olib chiqib o'ynab o'tiradi.


Uchinchi jin aytibdi:

- Mening bilganimning oldida senlarning aytganlaring bir ermak, - debdi uchinchi jin. - Mana shu tepaning ortida bir cho'pon qo'y podasini yoyib yuradi. Qo'ylarning ichida bitta ko'k rangli qo'chqor bor. Kimda-kim kasal bo'lib, o'lim to'shagida yotgan bo'lsa, ana shu qo'chqorni so'yib, terisiga kasalni o'rab qo'yib, uning kalla-pochasini pishirib, sho'rvasidan ichirsa va miyasini yedirsa, o'limtik kasal ham darhol tuzaladi.

Ular gaplasha-gaplasha tarqalishibdi. Yaxshilik yana hayotdan umidvor bo'lib, toshni bir amallab, inqillab-sinqillab surib, paypaslanib chuqurdan chiqibdi, ne mashaqqat bilan chinorning bargidan ikkita uzib olib, ikkala ko'ziga surtibdi, ko'zlari yarq etib ochilib ketibdi. Jinlar aytgan tepalik tomon borib qarasa, bir ko'r sichqon uch dona gavhar o'ynab o'tirgan emish, u sichqonni quvib solib, uchta gavharini olib cho'ntagiga solib qo'yibdi. Tepalikdan pastga qarasa, bir cho'pon yaylovda podasini yoyib qo'yganmish, sinchiklab qarab, jinlar aytgan ko'k rangli qo'chqorni ko'ribdi. U cho'ponga uchrab:

- Anavi ko'k rangli qo'chqorning narxi qancha? - deb so'rabdi.

Kitob.uz № 328328



18\

- E, musofir, kuching yetmaydi, uning narxi bir dona gavharga teng, - debdi cho'pon.

Yaxshilik cho'ntagidan bitta gavharni olib cho'ponga beribdi va qo'chqorning bo'yniga arqon tashlab sudrab yo'lida ketaveribdi.

Yaxshilik qo'chqorni sudragancha ketaveribdi, ketaveribdi, oxiri bir shahar darvozasi oldidan chiqib qolibdi. Shahar darbozabonlari uning yo'lini to'sishibdi.

- Bu shaharga faqat tabib kishilar kirishi mumkin, sen yo'lingdan qolma, - debdi ular Yaxshilikka.


Yaxshilik sababini so'ragan ekan, podshohning qizi o'limtik bo'lib yotganligini, hech bir tabib uning dardiga davolamayotganini aytishibdi.

- Uni davolaydigan tabib menman, podshohingizga xabar qiling, menga malikani ko'rsatsin, - debdi Yaxshilik.

Darvozabonlar ishonishni ham, ishonmaslikni ham bilmay, har ehtimolga qarshi saroyga xabar berishibdi. Saroydan mulozim kelib Yaxshilikni boshlab to'g'ri malika yotgan joyga olib boribdi. To'shakda bir ramaqijon qiz hayot bilan o'lim orasida talash bo'lib yotganmish. Yaxshilik darhol qo'chqorni so'yib, terisini shilib, hali oshlanmagan nam, yog'li teriga qizni o'rab qo'yibdi, o'zi qozon osib, kalla-pochalarni tozalab, qozonga tashlabdi, kalla-pochaning suvidan qizga birikki qoshiq ichiribdi, qo'chqorning miyasidan yediribdi, qiz darhol tuzalib o'rnidan turib podshoh otasining oldiga yuguribdi.

Podshoh juda xursand bo'lib, quvonchi ichiga sig'may karnaysurnay chaldirib, to'y boshlab, qizini Yaxshilikka beribdi.

Yaxshilik kuyovlik gashtini uch-to'rt kun surib, navkarlari bilan ovga chiqibdi. As'asayu dabdaba bilan shahardan chiqib ketayotsa, shahar darvozasi oldida bir ahvolda o'tirgan Yomonlikni uchratibdi. Yomonlik tulpor otda kelayotgan Yaxshilikni darhol tanib, otining uzangisiga yopishib, ko'rgan g'urbat kunlaridan hasrat qilib, bu martabalarga qanaqa qilib erishganligini surishtiribdi. Yaxshilikning nomi yaxshilik emasmi,



bu gal ham yaxshilik qilish niyatida sinoatni aytibdi, Yomonlik xayrma`zurni ham unutib, o'sha chinor tomonga yuguribdi. Yaxshilik aytgan o'sha tegirmon toshni topib, uni surib tashlab, chuqurga tushib olibdi, toshni yana qayta ustiga tortib, nafas olmay yotaveribdi.

Bir payt ustida g'o'ng'ir-g'o'ng'ir ovozlarni eshitibdi.

- Chinorga qaranglar, - debdi jinlardan biri. - Ikkita bargi kam. Kimdir olganga o'xshaydi.

- E, nimasini aytasan, sichqonning gavhari ham yo'qolibdi, - debdi ikkinchi jin.


- Cho'pon ham, ko'k rangli qo'chqor ham yo'q. Bizning gaplarimizdan odam bolasi xabar topganga o'xshaydi, mana shu o'tirgan toshimizning tagida bir chuqur bor, shu chuqurga bironta jonzod berkinib, gaplarimizni eshitmaganmikin?

Jinlar maslahat qilishib, toshni kuch bilan surishib qarashsa, Yomonlik chalqayib, ko'zlarini chaqchaytirib yotgan emish. Jinlar sirimizni bilgan shu ekan, deb ikki oyog'idan ko'tarib, osmonu falakka otib yuborishibdi, Yomonlik osmonda necha marta aylanib, nafasi siqilib qiynalib, tappa yerga tushib, parcha-parcha bo'lib ketibdi. Ertagimiz ham shu yerda ado bo'libdi, yaxshilar murodu maqsadiga yetsin.

## G'AMSIZ KISHI BORMI?

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim o'tgan zamonda, o'zi asli yomon-da, bir podshoh bor ekan, bu podshoh zolimlikda nom chiqargan ekan. A`yonlariga, mulozimlariga ahmoq savollar berib, ularni garang qilar ekan, savoliga ko'nglidagidek javob bermaganni zindonga solar ekan.

Qancha a`yonu mulozimlarini zindonga solib bo'lib, oxiri vaziridan:



- Dunyoda g'amsiz odam bormi? - deb so'rabdi.

Vazir ichida kulib, sirtida ta`zim qilib:

- Dunyoda gamsiz odam bo'lmaydi, - deb javob beribdi.

Podshoh darg'azab bo'lib, g'azabidan har tuki tig'day-tig'day bo'lib, vazirini zindonga solibdi.

Saroyda savol beradigan odami qolmagandan keyin podshohlik kiyimlarini savdogarning kiyimlariga almashtirib yo'lga tushibdi. Yo'l yurib-yurib bir joyga borib qolibdi. Bir guzarda to'plangan odamlardan:

- Dunyoda g'amsiz odam bormi? - deb so'rabdi.

Biri yo'q debdi, boshqasi bor debdi. Bor degani unga aytibdi:

- Falon mamlakatga borsang, o'sha yerda g'amsiz odamni ko'rasan, hamisha kulib yuradi, u odam o'sha shaharning podshohi, - deb xabar beribdi.


Podshoh ostidagi tulpor otini chuhlab, charchaganda uhlab, necha kun deganda o'sha shaharga yetib boribdi, shaharning podshohiga ro'para bo'libdi, u podshoh ochiq chehra bilan, mezbonlikning qoidasi bilan bu podshohni kutib olib, to'kin ziyofat qilibdi. Ziyofatdan keyin:

- Xo'sh bo'lsin, xo'sh bo'lsa ham yo'l bo'lsin, - deb so'rabdi.

- Dunyoda g'amsiz odamni izlab yuribman, sizning daragingizni aytishdi, odamlarning aytgani to'g'riga o'xshaydi, g'amingiz yo'qqa o'xshaydi, dasturxoningiz sochiq, chehrangiz hamisha ochiq, g'am-tashvishga eshiklaringiz doimo yopiq, - debdi kelgan podshoh.

Mezbon podshoh kulib qo'yibdi, lekin indamabdi. Mehmondorchilik uch kun bo'libdi, ketadigan kuni ham yetibdi, mezbon podshohga yuzlanib, g'amsizligining sababini so'rab turibdi.

Mezbon podshoh mehmonni boshlab saroyidagi xonalarni ko'rsata boshlabdi: bir xona to'la zabarjad, bir xona to'la tillo, bir xonada kumush, bir xonada yoqut, xullas, butun boyligini ko'rsatib bo'lib, saroyning eng chekkasidagi bir xonaga olib boribdi. Eshikni ochsa, bir chiroyli xotin qop-qora doshqoldek davangi bilan o'ynab o'tirgan emish.



Mezbon podshoh eshikni yopib, mehmonni boshlab, o'zining oromgo-higa olib kelibdi, boshidan o'tganlarini bir-bir hikoya qilib beribdi:


- Mening otam shu shaharning podshohi edi. Amakim unga vazir edi. Men tug'ilganimda amakimning xonadonida ham bir qiz tug'ilibdi, uni menga beshikkertti qilishibdi. Men uch-to'rtga kirganimda otam qazo qildi, amakim taxtni egalladi. Men ulg'ayib taxtga da'vogar bo'ldim, amakim taxtni bergisi kelmadi. Amakim shart qo'ydi, agar bir sandiq tilla bersang, ana, taxt ham seniki, qizim ham seniki, dedi. Amakimning qizi bilan sevishib qolgan edik. Menda bir sandiq emas, chaqa pul ham yo'q edi, dardimni amakimning qiziga aytdim, shunday-shunday, otang mendan bir sandiq tilla talab qildi, dedim. Qiz o'ylab turib: "Siz tunda arkning tagiga kelib turing, men bir sandiq tilla tashlayman, otamga berasiz, keyin murod-maqsadimizga yetamiz", dedi. Tunda arkning tagiga kelib anqayib turgan ekanman, og'ir sandiq ustimga tushdi, mayib bo'lib qoldim. Lekin sudralib bo'lsa ham sandiqni olib ketib, ertasiga o'zimga sal kelib, amakimga sandiqni berdim. U ham va'dasida turib, taxtni berdi, qizini ham menga nikohladi. Chimildiqqa kirgach, qizga aybdor bo'lib qolganimni tan oldim, haligi ko'rganingiz - o'sha qiz, shu uyga zangi bilan kiritib qo'yishga majbur bo'lganman. Ana, birodar, mendagi g'am dunyoda hech kimda yo'q. Ammo dardimni bildirmay, hamisha kulib yuraman.

Mehmon podshoh bu hikoyani eshitib, dunyoda g'amsiz odam yo'qligiga ishonib, o'z yurtiga qaytibdi, lekin ahmoq savollarini berishda davom etaveribdi.



## XO'JA SAVDOGAR

Bor ekan-da yo'q ekan, osmon yiroq, yer qattiq zamonlar ekan. O'sha zamonlarda bir Xo'ja savdogar degan odam bor ekan,



22

u podshohning qiziga uylangan ekan, undan bir qiz ko'rgan ekan. Podshohning qizi shu qizni tug'ib, ajali yetib qazo qilgan ekan. Xo'ja savdogar xotining o'lganiga ko'p qayg'urib, ich-etini yeb, savdogarchiligini ham tashlab, xotinidan qolgan shu birgina yodgorlik qizini bir ko'zlab boqib katta qilaveribdi. Qiz ham kundan-kun, yildan yil katta bo'laveribdi, katta bo'lgan sari husni jamoli oyni uyaltirgudek, ko'zlari chaqnab, yulduzlarni sharmanda qilgudek bo'laveribdi. Ismi jismiga monand Sohibjamol bo'libdi. Sohibjamol hali 16 ga yetmagan ekan, ammo sovchilar eshigining tagidan ketmagan ekan, Xo'ja savdogar qizim hali yosh, deb uni erga bermagan ekan.

Xo'ja savdogar qizining bo'y-bastini ko'rib, quvonib, yuragidan g'am-anduhi arigandek bo'lib, yotib qolgan savdogarchiligini yurgizishni niyat qilib, qaynotasi - podshoh huzuriga boribdi.

- Nevarangizni sizga qoldirsam, yotib qolgan savdo ishimni bo'ldirsam, - debdi.

- Mayli-ku, lekin, bilasiz, Sohibjamolning o'gay buvilari ko'p, ular turtkilasharmikin, deb qo'rqaman, yaxshisi, mening bir pokiza pirim bor, shunga topshiring, qizingizni qog'ozdagi qanddek saqlaydi, siz savdogarchiligingizni bemalol yurgizib kelavering, - debdi.

Xo'ja savdogar ma`qul, deb, ta`zim bajo keltirib, podshoh saroyidan chiqib, shitob bilan pirning oldiga borib, yetti bukilib salom berib, kelishining sababini aytibdi. Pirning oppoq saqoli ko'ksini qoplagan, boshdan-oyoq oppoq kiyinishni ham boplagan, qo'lidan tasbeh tushmagan, shariatni mahkam ushlagan mo'ysafid ekan, Xo'ja savdogarning ko'ngli tinchib, qizini unga topshirib, karvonni boshlab yurtma-yurt ketgan ekan.

Sohibjamol katta hovlida bir o'zi qolib, pir xabar olgani kelganda yuzini berkitib, uning xizmatini qilib yuraveribdi. Bir kuni pir xabar olgani kelganda shamol turgan ekan, qizning ro'molini yuzidan ko'targan ekan, pirning oppoq qoshi ostidagi ukki ko'zlari



qizning oydek jamoliga tushgan ekan, pirning yuragidan tig'i parron o'tib, teshgan ekan.

Pirning ko'ngli buzilibdi, nima bo'lsa ham qizning jamoliga yetishish niyatiga tushib qolibdi.

- Qizim, non-choying bormi? - deb so'rabdi.

Sohibjamol yugurgilab choy qo'yibdi, dasturxon yozibdi. Pir hojatxonaga kirib chiqib qo'lini yuvmasdan dasturxon oldiga o'tiribdi. "Pirim qo'llarini yuvishni faromush qildilar shekilli", deb Sohibjamol dastshu bilan obdastada suv olib kelibdi, pirning qo'llariga suv quyibdi, yelkasidagi oppoq sochiqni berayotganda, pir uning mo'miq bilagiga chang solibdi. Sohibjamol uning qo'lidan chiqishga urinsa ham qo'yib yubormabdi, nomusiga chidolmay, qo'lidagi obdasta bilan pirning yarg'oq boshiga tushirib qolibdi, pirning boshi yorilibdi. Dod degancha podshohning saroyiga borib, arz qilib, qiz bechoraning sha'niga qancha tuhmatni to'qib tashlabdi.

- Xo'ja savdogarning qizidan xabar olay, deb borsam, qirq yigitning o'rtasida kosagullik qilib o'tirgan ekan, meni ko'rib yigitlar tum-turaqay qochishdi, mening o'ynashlarimni qochirding, deb qiz o'lgur meni shu ahvolga soldi, - debdi pir inqillab.

Podshoh pirining atrofida girdikapalak bo'lib, necha aylanib tavof qilib, nevarasining bu ishidan g'azabi jo'sh urib:


- Jallod! - deb bo'kiribdi.

Podshohning bir aqli raso vaziri bor ekan, qizni go'dakligidan tarbiya qilganlardan biri ekan, qizdan bunday bema'nilik chiqmasligini bilib, pirning tuhmat qilayotganiga ko'ngli inonib, podshohning oldida ta'zim qilibdi.

- Podshohi olam, qizga jazo berishni menga buyursangiz, - debdi.

Podshoh vazirga qizni topshirib, pirining yarasini bog'latishga urinibdi.

Vazir Xo'ja savdogarnikiga bir o'zi kelibdi, ko'rsaki, qiz yig'lab o'tirganmish. Vazir hol-ahvol so'rab, nima bo'lganini bilib, qizga



24

kerakli narsalaringni ol, bu yerdan ketamiz, debdi. Qizni boshlab sahroyi biyobonga olib chiqib, bir sardobaning oldiga qo'yib:

- Mana, qizim, yetib keldik, agar gunohing bo'lsa, shu biyobonlarda suyaklaring qolib ketar, agar pok bo'lsang, bir kuni kelib yuzaga chiqarsan, - deb ortiga qaytibdi, yo'lda bir uloqni otib, qonini qizdan olgan bir ko'ylagiga surtib, podshohga beribdi.

Podshoh qonli ko'ylakka qarab, xo'p ish bo'ldi, deb turaversin, endigi gapni Sohibjamoldan eshiting.

Sohibjamol sardobaning oldida qolib edi, xurjunida bor narsasini yeb bitirib edi, yeguligi qolmay, necha kun och qolib edi, sardobaning oldida hushidan ketib yotib qolib edi.


Shu biyobonga ovga chiqqan bir shahzoda ov ovlab yurib, sardoba oldida yotgan chiroyli qizga ko'zi tushibdi, yugurib kelib, qilichining damini nafasiga tutibdi, qilichning dami sarg'ayibdi, "Xayriyat, tirik ekan", deb qizni otiga o'ngarib saroyga olib kelibdi. Qizni enagalarga topshirib, buni parvarish qilinglar, deb tayin qilibdi. Sohibjamol bir-ikki kunda o'ziga kelib, avvalgi husni tarovati qaytibdi. Shahzoda uni olib, qirq qiz ichiga qo'shibdi, u yerda Sohibjamol bir hafta turib, o'zining odobini, axloqining chiroyli ekanligini ko'rsatibdi. Shahzoda uni bir hafta o'rta yoshli xotinlar orasiga qo'yib qo'yibdi, u yerdagi xotinlar ham qizni yaxshi ko'rib qolishibdi. Keyin shahzoda uni bir hafta momolar xizmatiga qo'yibdi, momolar uni duo qilishibdi.

- Ayni men bop qiz ekan, - deb shahzoda podshoh otasining huzuriga kirib arz qilibdi.

- E, o'g'lim, bu biyobondagi asli nasli noma`lum qiz bo'lsa, boshqa mamlakatlarda sen uchun sochini tarab o'tirgan malikalar bor, qo'y buni, - desa ham shahzoda ko'nmabdi, shu qizga uylanmasam, hayttohayt deb boshimni olib ketaman, deb otasini qo'rqitibdi.

Podshoh noiloj qolib, yurtga qirq kechayu qirq kunduz to'y-tomosha berib, shahzodani Sohibjamolga uylantiribdi. Oydan oy o'tib, yil to'lib, Sohibjamol o'g'il tug'ibdi.





Kunlardan bir kun ko'shkning baland ayvonida bolasiga alla aytib o'tirib ekan, uzoqdan karvon qo'ng'irog'i eshitilibdi. Bu Xo'ja savdogarning karvoni ekan, Xo'ja savdogar karvonining qo'ng'irog'i qirq kunlik yo'ldan eshitar ekan. Sohibjamol ko'rgan kunlari esiga tushib, otasini, yurtini sog'inib ko'zlaridan yosh shashqator oqaveribdi. Buning ustiga shahzoda kirib qolibdi. Nega yig'layotganining sababini so'rasa, yurtimni sog'indim, debdi.

- Yurtingda o'ynashing bor ekan-da, - deb bir shapaloq urib chiqib ketibdi.

Ham shapaloq zarbidan, ham sog'inchdan yuragi ezilib o'tirganda enagasi kirib hol-ahvol so'rabdi.

- Erim nuqul sahroyisan, deydi, - debdi Sohibjamol enagaga. - Men aslim falon mamlakatdan, Xo'ja savdogar degan mashhur savdogarning yolg'iz qiziman, buvam o'sha mamlakatning podshohi.

Enaga bu gapni oqizmay-tomizmay podshohga chiqib aytibdi, podshoh o'ylanib, o'yining tagiga yetib:

- Ayt, uni ota yurtiga yuborsam, boradimi? - debdi.

Sohibjamol bu xabardan shod bo'lib, yo'l tadorikini ko'ribdi. Podshohning Ko'rnamak degan bir navkari bor ekan, unga qirq yigit berib, Sohibjamolni as'asa-yu dabdaba bilan yurtiga jo'natibdi.


Karvon yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi, oxiri dam olgani bir manzilga chodir qurib qo'nibdi.

Ko'rnamak Sohibjamolni ko'rgan ekan, ko'rib yuragi shig'g' etgan ekan. Yarim tunda Sohibjamolning chodiriga kiribdi, chaqalog'ini yoniga olib uxlab yotgan juvonning ko'kragiga tizzasini bosib, xanjarini o'qtalibdi.

- Yonimda yotgan bolamdan istihola qilsang bo'lardi, - debdi Sohibjamol.

Ko'rnamak uning qo'ynidan bolani olib, shartta kallasini uzib tashlabdi.

- E, yaxshi qilding, Ko'rnamak, asli ko'nglim senda edi, ammo bugun azador bo'ldim, bolamning jasadini yerga joylay, erta oqshom



sen bilan bo'lay, - deb aldabdi Sohibjamol. - Etagingdan qirqib ber, bola kafanlik qilayin.

26

Ko'rnamak to'ning baridan shartta kesib Sohibjamolga uzatibdi, ertaning kayfi bilan ishshayib chiqib ketibdi. Sohibjamol tamoman erkakcha kiyinib, uzun kokillarini bo'rkinging ichiga berkitib, bolasing kallasini qo'ltig'iga urib, Ko'rnamakning etagidan kesib olingan parchani xurjunning tagiga joylab, bir ot, bir qamchi bilan boshi oqqan tomonga ot surib ketibdi.

Sohibjamol otda yo'rtib keta tursin, endigi gapni Ko'rnamakdan eshiting.


Ko'rnamak xush kayfiyat bilan uyg'onib, Sohibjamolning vaslidan umidvor bo'lib, uning chodiriga qarabdi. Chodir bo'm-bo'sh, Sohibjamol yerda ham, ko'kda ham yo'q emish. Ko'rnamak uning qochganini bilib, kesilgan etagiga yamoq solib, yigitlarni qaytarib, podshohning huzuriga olib kelib, arz qilib turibdi:

- Keliningiz buzuq ekan, biyobonga chiqqandan keyin bir o'ynashini topib, shu o'ynashi bolasini o'ldirib, ikkovi qochib ketdi, mana ko'ring, qochayotib qilichi bilan etagimni kesib ketdi, qancha quvsak ham yetolmay, ortga qaytdik.

Bu gapdan shahzoda xabar topib, mening nomusimni yetti bukdi bu mochag'ar, mening bu yurtda turgilim qolmadi, qayerdan bo'lsa ham uni topib o'ynashi bilan o'ldirmasam, shahzoda emasman, deb qasam ichib yuboribdi. Egniga savdogarlarning kiyimlaridan kiyib, bu ham bir ot, bir qamchi bilan yo'lga tushibdi.

Shahzoda g'azab otiga minib, tog'u toshlardan oshib, biyobonlardan o'tib ketaversin, endigi voqeani Sohibjamoldan eshiting.

Sohibjamol shu ketganicha ketibdi, qancha yo'llardan o'tib, bir o'ngir joyda to'rtta o'g'riga duch kelibdi. O'g'rilar uning ayolligini bilmasdan, yigit deb o'ylab, uxlashini poylab, otini o'g'irlab ketishibdi. Xayriyat, xurjuni joyida qolibdi, xurjunida eri har ehtimolga qarshi bergan bir shisha zahar, bir qopchiqda uyqu dori, xanjar va bolasing kallasini bor



ekan. U xurjunini yelkasiga ortib, otdan ayrilganiga xafa bo'lib, poyu piyoda yo'l bosibdi, yo'l bossa ham mo'l bosibdi, tog'u toshlardan o'tib, bir maydonga tushibdi, maydonning bir chekkasida bir uy ko'rinibdi, shu uyga kiray, bir zum damimni olay, deb o'sha uyga kiribdi. Uyga kirsa, qirq qaroqchi yigit shig'il mast, bo'za ichib, mastlik bilan qiyqirishib o'tirishgan ekan. Sohibjamolni yigit deb o'ylab, saflariga qo'shib, ana, qirq bir bo'ldik, deb xursand bo'lib o'tirishibdi. Sohibjamol tashqariga hojat uchun chiqqan ekan, shamol turib bo'rkini uchiribdi, kokillari orqasiga to'kilibdi. Tashqariga chiqqan qaroqchilardan biri uni ko'rib, ishqiboz bo'lib, tiring'ilibdi.

Sohibjamolning aqli tiniq ishlar ekan, qarshilik ko'rsatsa, qirq yigit qo'shiladi, sharmandasini chiqarishadi, shuning uchun yigitga qaltis savol beribdi:


- Qirqingiz bilan bo'laymi yo sening o'zing bilan bo'laymi?

Yigit, albatta men bilan-da, debdi.

- Agar shuni istasang, sheriklaring sevgimizga xalal bermasligi uchun ularni yo'q qilishing kerak, - debdi Sohibjamol. - Men falon mam-lakat podshohining navarasi bo'laman, seni yurtimga olib borib shah-zoda qilaman, bir sabab bilan biyobonda ov qilib yurib adashib qol-gan edim, ammo seni uchratganim yaxshi bo'ldi, ko'nglimdagi yig-itni topgandekman.

Qaroqchining bu gapdan og'zining tanobi qochib, yana tadbirni Sohibjamolning o'ziga tashlab, qarab turaveribdi. Sohibjamol bo'rkini boshiga bostirib, yigit bilan xonaga kiribdi, qaroqchilar shig'il mast ekan, bo'za idishga zaharni solibdi. Sohibjamol o'rnidan turib alyor aytibdi:

*Oling, jo'ralar, alyor,  
Sizga omad doim yor.  
Shu qadahni oq uring,  
Sizga yana sovg'am bor.*



28

Qaroqchilar alyordan zavq qilib, qiyqirib oppoq urishibdi, 39 qaroqchi ichibdi-yu, tarashaday qotibdi. Sohibjamol yigit bilan ikki tulpor otga minib, qolgan 38 ta otni yetov qilib, yo'lga tushishibdi. Sohibjamol yo'lda ketayotib: "Bu xiramaxovning chorasini qilmasam bo'lmaydi, bir manzilga tushay-da, buni uxlatib, yo'limga ravona bo'lay", deb o'ylabdi. Bir salqin, bog'-rog'li, ariqlarda tiniq suv sharqirab turgan makonga kelishibdi.

- E, shahzoda, endi seni shahzoda desam ham bo'laveradi, chunki buvamning yurtiga yaqinlashib qoldik, toj kiyadigan vaqting yaqin, mana shu joy juda so'lim ekan, bir nafasni rostlab olsak, keyin yana yo'lga tushsak, yurtga borib nikoh o'qitsak, senga kuyovlik jomasini kiydirishsa, - debdi Sohibjamol.

Bu kutilmagan baxtdan entikib qolgan, sal bo'lsa esini yo'qotgan, entikkandan tili aylanmay qolgan qaroqchi otdan tushib, joy hozirlab, Sohibjamolni taklif qilibdi. Xurjundan ozuqalarni olib, dasturxon yozishibdi, Sohibjamol qaroqchini bir ish bilan nari ketkazib, ichadigan sharobiga uyqu dori qo'shib yuboribdi. Qaroqchi, qani, ol bo'lsin, ol-ol bo'lsin, deb sharobni sipqaribdi, bir zumdan keyin ko'zi shig'rayib, og'zi irshayib, o'zini yerga guppa tashlab, xurrak bilan uyqu boshlabdi. Qaroqchining belida kumush kamari, kumush kamariga taqilgan dudama xanjari bor ekan, Sohibjamol, kerak bo'lib qolar, deb ularni yechib olibdi. Yaxshi tulporga minib, 39 otni yetovlab yurtiga qarab ravona bo'libdi. Yura-yura bir yaylovdan chiqibdi. Qarasa, bir cho'pon ko'p qo'ylarni yaylovga yoyib, o'tlatib yuribdi.

- Bu kimning yaylovi? - deb so'rabdi Sohibjamol.

Cho'pon bunday qarasa, ot ustida bir barno yigitcha o'tiribdi, ortida 39 ta ot o't chimdib turibdi.

- E, boyvachcha, kimniki bo'lardi, Xo'ja savdogarniki-da, men ham o'sha zang'arning cho'poni-da, - debdi. - Qani, mehmon, otdan tushing, bir piyola-yarim piyola choyimizni iching.

Sohibjamol otdan tushib, otni egar-jabdug'idan bo'shatib. o'tloqqa



qo'yib, cho'ponning qashshoqona dasturxonini oldiga o'tiribdi. Qattiq nonni choyga botirib yeb, cho'ponni gapga solibdi.

- Yurtda notinchlik, boyvachcha, - debdi cho'pon hasrat daftarini ochib. - Xo'ja savdogar deganning bir chiroyli qizi bo'lguvchi edi, shu qiz buzuqchilik yo'lga kirib ketibdi, deyishadi, podshohning pirini boshini yorib, qochib ketgan, deyishadi, u qiz borib bir shahzodaga tekkan, bir o'g'il tug'ib, otamnikiga borib kelaman, deb biyobonda o'ynashi bilan qochgan, deyishadi, yo'l ustida bir yigitning kumush kamari bilan dudama qilichini o'g'irlagan, deyishadi, o'sha shahzoda, narsasini o'g'irlatgan yigit, yana shahzodaning bir navkari bugungina kelib Xo'ja savdogarning uyiga tushgan, u yerga podshoh ham, uning piri ham kelgan, deyishadi.

Sohibjamol, shoshmasam bo'lmas ekan, deb cho'ponga yuzlanib:

- Senga shu 40 otni bersam, cho'ponligingni menga berasanmi? - debdi.

Kambag'al qirq otni ko'rib, boy bo'lib qolganday suyunib, darrov rozi bo'la qolibdi. Sohibjamol kiyimlarini ham cho'ponga berib, uning ki-yimlarini olib kiyib olibdi, boshiga qo'yning qornini bostirib, xuddi cho'pondek qirmochi kal bo'libdi. Qo'ylarni haydab Xo'ja savdogarning qo'rasi tomonga ravona bo'libdi.


Sohibjamol qo'ylarni qo'raga qamab, Xo'ja savdogarga ko'rinish berib, men keldim, xo'jayin, debdi.

- Kelgan bo'lsang, choy-poyga qarashib tur, aziz mehmonlar bor, - debdi Xo'ja savdogar.

Sohibjamol mehmonxona bilan oshxona orasida qatnab turibdi, mehmonlarning ko'nglini ovlab turibdi.

- E, savdogar, cho'ponlar xo'p ertakchi bo'ladi, deyishadi, cho'pon-cho'liqlarningning orasida bir ertak aytadigani yo'qmi? - debdi podshoh. - Qiziq bir ertak aytsa, yuraklarimizning chigili yozilsa!

Xo'ja savdogar hali javobga og'iz juftlamasdan Sohibjamol podshohga ta'zim qilibdi:



30

- E, olampanoh, cho'pon-cho'liqdan ko'ra ertakka ustasi bo'lmaydi, ko'p ertagim bor, shulardan eng qizig'ini aytib beray, - debdi.

- Ayt!

- E, olampanoh! Bir bor ekan, bir yo'q ekan, xuddi sizning saxti sumbatingizga o'xshagan bir podshoh bo'lgan ekan, sanoqli sakson xotini bor ekan, - deb gap boshlashi bilan, podshoh:

- O', bachchag'ar, meni aytayotgan bo'lmagin tag'in, - debdi cho'chib.

Sohibjamol sabr qiling, degandek ishora qilib, davom etibdi:

- O'sha podshohning biqiningizda savlat to'kib o'tirgan mana bu sersaqol piringizga o'xshagan bir piri ham bo'lgan ekan.

- E, ertaging qursin, jim bo'! - debdi pir jahli chiqib.

Sohibjamol unga ham, sabr qiling, degandek ishora qilib davom etibdi:

- Shu podshoh qizini shahridagi eng boy odam bo'lgan savdogarga beribdi, kuyov xuddi bizning xo'jayinga o'xshar ekan.

Sohibjamol shu zayl boshidan o'tgan voqealarni birma-bir aytib bera turib:


- Etagingizga mos yamoq topolmabsiz, mana shu kafanlik deb kesib olingan parcha sizniki emasmi, - deb qonga belangan lattani shahzodaning biqinida o'tirgan Ko'mnamakning oldiga tashlabdi. Ko'mnamak tizzasiga tushgan lattani uloqtirib:

- Yo'qol bu yerdan, kal, - deb baqiribdi, bizga bunaqa bema'ni ertak kerak emas.

Ko'mnamakning hovrini shahzoda bosib qo'yibdi. Sohibjamol yana hikoyasini davom ettirib, qaroqchi yigitga:

- Mana bu sizning kumush kamaringiz bilan dudama xanjaringiz, mana bu anavi shahzodaning yonida o'tirgan Ko'mnamak o'ldirgan bolamning kallasi deb qo'ltig'idan bolaning kallasini olib o'rtaqa qo'yibdi, o'zi esa boshidan qo'yning qornini olib tashlabdi, uzun kkillari beliga to'kilibdi, yig'lagancha uydan chiqib ketibdi.

Podshoh o'tirgan joyida pirning kallasini olibdi, shahzoda Ko'rnamak bilan qaroqchini o'ldiribdi. Podshoh katta to'y-tomosha qilib, shahzodaga nevarasini boshqatdan uzatibdi, Xo'ja savdogar savdo ishlarini yig'ishtirib goh o'z yurtida, goh nevaralarini sog'insa, Sohibjamolning oldida bo'lar ekan. Shunday qilib, hamma murodu maqsadiga yetibdi, soqoli etagiga yetibdi.



## BIT O'LDI - BURGA AZADOR BO'LDI


Bir zamonda bit bilan burga qalin do'st ekan. Yarim tunda, odamlar shirin uyquda yotganlarida birgalikda qon ichishar ekan.

Bir kuni ikkovi maslahatni pishiq qilib, bir kampirning uyiga kelishibdi, tunni poylab, bit kampirning qo'yniga kiribdi, kampir, ha, yashshamagur, deb bitni tutib, ikki tirnog'ining orasiga olib ezgan ekan, bit o'lgur chiq etibdi, joni uzilibdi. Burga kampirning g'azabidan qo'rqib, bir chinorning tagiga borib g'ing'illab o'tiribdi. Chinorning bir shoxiga hakka in qo'ygan ekan, u burganing g'ing'illashiga g'ashi kelib:

- Namuncha g'ing'illading, nima bo'ldi? - deb so'rabdi.
- Bit o'ldi - burga azador bo'ldi, - debdi burga va yana g'ing'illayveribdi.
- Bit o'lib, burga azador bo'lsa, hakka ham tukini to'kdi, - deb bir silkinib hamma tuklarini to'kib tashlabdi.
- Nima bo'ldi, nega tukungni to'kding? - deb so'rabdi chinor.
- Bit o'ldi - burga azador bo'ldi, hakka tukini to'kdi, - deb javob beribdi u.

- Bit o'lib, burga azador bo'lsa, hakka tukini to'kkan bo'lsa, chinor chilkishta bo'ldi, - debdi chinor va qattiq silkinibdi, barcha barglari duv to'kilib, yalang'och bo'lib qolibdi.

Bularga qo'shilgan bir ahmoq echki ham bor ekan, u har kuni



32

kelib chinorning tanasiga qashinar ekan. Navbatdagi kelishida qarasana, chinorning bitta ham bargi yo'q.

- Ha, nima bo'ldi? - deb so'rabdi echki.

- Bit o'ldi - burga azador bo'ldi, hakka tukini to'kdi, chinor chilkishta bo'ldi, - deb javob beribdi chinor.

Echki ham:

- Unday bo'lsa, echking shoxi shikasta bo'ldi, - deb shoxini chinorning tanasiga bir urib sindiribdi va daryo bo'yiga ketibdi.

- Ha, nima bo'ldi, nega shoxing singan? - deb so'rabdi daryo.

- Bit o'ldi - burga azador bo'ldi, hakka tukini to'kdi, chinor chilkishta bo'ldi, echking shoxi shikasta bo'ldi, - debdi echki.

- Bo'lmasa, daryo ko'l-ko'l bo'lsin, - deb hammayoqqa toshib ketibdi.

Daryo bo'yiga bir odam tariq ekan, tagiga suv mo'l ketganidan hammasi ko't-ko't bo'lib qolibdi.

Shu yerdan ikki mulla o'tib ketayotgan ekan, bu ahvolni ko'rib hayron bo'lishibdi.

- Bit o'ldi - burga azador bo'ldi, hakka tukini to'kdi, chinor chilkishta bo'ldi, echking shoxi shikasta bo'ldi, daryo ko'l-ko'l bo'ldi, tariqlar ham ko't-ko't bo'ldi, - deb javob berishibdi tariqlar.

- Ie, unda mullalar ham bel-bel bo'ldi, - deyishib, bir-birlariga suyanishib qolishibdi.

Mullalar shu alpozda uylariga kelishibdi, xotinalari bu ahvolni ko'rib:


- Ha, nima bo'ldi? - deb so'rashibdi.

- Bit o'ldi - burga azador bo'ldi, hakka tukini to'kdi, chinor chilkishta bo'ldi, echking shoxi shikasta bo'ldi, daryo ko'l-ko'l bo'ldi, tariqlar ko't-ko't bo'ldi, mullalar ham bel-bel bo'ldi, - deb javob berishibdi.

- Unday bo'lsa, oyimlar ham dum-dum bo'ldi, - deb burunlariga pilik tiqib qo'shninikiga chiqishibdi.

- Ha, nima bo'ldi? - deb so'rabdi qo'shni.





- Bit o'ldi - burga azador bo'ldi, hakka tukini to'kdi, chinor chilkishta bo'ldi, echking shoxi shikasta bo'ldi, daryo ko'l-ko'l bo'ldi, tariqlar ko't-ko't bo'ldi, mullalar ham bel-bel bo'ldi, oyimlar dum-<sup>33</sup> dum bo'ldi, - deb javob berishibdi tentak xotinlar.

U tentaklarga bu tentak qo'shilib:

- Undoq bo'lsa, qo'shninglar ham chil-chil bo'ldi, - debdi-da, tokchadagi hamma chinnilarini hovliga otib, bitta qo'ymay sindiribdi.

Kechqurun uning eri kelib qarasa, hovli bilan bitta chinnilar chil-chil bo'lib sinib yotganmish.

- Ha, nima bo'ldi?


- Bit o'ldi - burga azador bo'ldi, hakka tukini to'kdi, chinor chilkishta bo'ldi, echking shoxi shikasta bo'ldi, daryo ko'l-ko'l bo'ldi, tariqlar ko't-ko't bo'ldi, mullalar ham bel-bel bo'ldi, oyimlar dum-dum bo'ldi, men ham chil-chil bo'ldim, - deb javob beribdi.

- Shunaqami? Mana endi o'l-o'l bo'lasan, - deb xotinini tutib olib o'lasini qilib uribdi.

Shuni aytadilar-da, aqlga aql qo'shilsa dono bo'ladi, tentakka tentak qo'shilsa jinni bo'ladi, deb.

## YORILTOSH

Burungi zamonda bir podshohning yolg'izgina qizi bor ekan. Yolg'iz farzandi bo'lgani uchun, undan oldin bolalari tug'ilib o'lavergani uchun uning ismini Toshbibi qo'ygan ekan. Podshoh yolg'izgina qizining taqdirini bilish uchun saroyidagi munajjmlarni yig'ib, qizimning taqdiridan fol ochinglar, deb buyuribdi. Qaysi munajjim qur'a tashlab, qaysi munajjim kitobga qarab, boshqasi qumga shakl chizib, o'ntasi cho'plarni birlashtirib, bir-birlariga qarab hayron bo'lisharmish. Yana boshqatdan fol ochishib, yana boshlarini sarak-sarak qilisharmish.




Oxiri bosh munajjim podshoh huzuriga kirib, folning natijasini aytishga jur'at qilibdi.

34

- Podshohim, bir qoshiq qonimdan keching, bir gap aytaman.  
 - Kechdim, ayt! - debdi podshoh.  
 - Malikamizning taqdirlari murdaga bo'lgan, - debdi bosh munajjim.

Podshohning jahli chiqib, jallod, deb yuborishiga sal qolibdi, lekin qoningdan kechdim, deb qo'yganligi uchun tilini tishlabdi.

Bosh munajjimning gapini eshitib qolgan Toshbibi yum-yum yig'lab o'tiribdi. Nima qilarini o'ylabdi. "Taqdirim murdaga yozilgan bo'lsa, taqdirimni izlab cho'lu biyobonlarga chiqib ketay", deb, bir kuni tunda ovga kiyadigan kiyimlarini kiyib, sayisxonadan yaxshi bir otni tanlab, qo'lga o'q-kamonini olib, xurjuniga kerakli ozuqalarini solib, qani, o'sha taqdirni bir ko'ray, deb yo'lga ravona bo'libdi. Yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi, qancha tog'u toshlardan, qishloqlardan o'tibdi, ammo qaysi joyda aza ko'rsa, o'sha yerdan uzoqroq yuribdi, yura-yura bir biyobondan chiqibdi. Bitta qirning soyasida tamaddi qilib olish uchun o'tiribdi, non tiqilib, suv ichgisi kelibdi. Bu yerda suvni qayerdan topsam bo'larkin, deb atrofga olazarak qarabdi. Hov narida bir qo'rg'on ko'rinibdi. "Shu joyga boray, suv so'ray", deb o'sha tarafga yuribdi. Qo'rg'on darvozasining zulfinini qoqsa, hech kim javob bermabdi. Darvozaning bir tavaqasini itargan ekan, ochilib ketibdi. Katta bog' ekan, bog'ning bir tomonida baland imorat, shu imoratning zinasidan ko'tarilib ichkari kiribdi. Imoratning ichida xonalar ko'p ekan, u xonaning eshigini ochibdi, hech kim yo'q, bu xonaning eshigini ochibdi, pashsha ham uchmasmish. Oxiri bitta katta xonaga kirsam, to'rdagi baland katda bir yigit yotganmish, yaqinroq borib qarasa, yigitning badaniga zich qilib ignalar sanchilganmish. Yigit tirikday yotibdi-yu, ammo qimirlamasmish. Toshbibi yon-veriga qaragan ekan, bir xatni ko'ribdi. Olib o'qisa shunday yozilgan ekan:



- Bit o'ldi - burga azador bo'ldi, hakka tukini to'kdi, chinor chilkishta bo'ldi, echkinging shoxi shikasta bo'ldi, daryo ko'l-ko'l bo'ldi, tariqlar ko't-ko't bo'ldi, mullalar ham bel-bel bo'ldi, oyimlar dum-dum bo'ldi, - deb javob berishibdi tentak xotinlar.

U tentaklarga bu tentak qo'shilib:

- Undoq bo'lsa, qo'shninglar ham chil-chil bo'ldi, - debdi-da, tokchadagi hamma chinnilarini hovliga otib, bitta qo'ymay sindiribdi.

Kechqurun uning eri kelib qarasa, hovli bilan bitta chinnilar chil-chil bo'lib sinib yotganmish.

- Ha, nima bo'ldi?


- Bit o'ldi - burga azador bo'ldi, hakka tukini to'kdi, chinor chilkishta bo'ldi, echkinging shoxi shikasta bo'ldi, daryo ko'l-ko'l bo'ldi, tariqlar ko't-ko't bo'ldi, mullalar ham bel-bel bo'ldi, oyimlar dum-dum bo'ldi, men ham chil-chil bo'ldim, - deb javob beribdi.

- Shunaqami? Mana endi o'l-o'l bo'lasan, - deb xotinini tutib olib o'lasi qilib uribdi.

Shuni aytadilar-da, aqlga aql qo'shilsa dono bo'ladi, tentakka tentak qo'shilsa jinni bo'ladi, deb.

## YORILTOSH

Burungi zamonda bir podshohning yolg'izgina qizi bor ekan. Yolg'iz farzandi bo'lgani uchun, undan oldin bolalari tug'ilib o'lavergani uchun uning ismini Toshbibi qo'ygan ekan. Podshoh yolg'izgina qizining taqdirini bilish uchun saroyidagi munajjmlarni yig'ib, qizimning taqdiridan fol ochinglar, deb buyuribdi. Qaysi munajjim qur'a tashlab, qaysi munajjim kitobga qarab, boshqasi qumga shakl chizib, o'ntasi cho'plarni birlashtirib, bir-birlariga qarab hayron bo'lisharmish. Yana boshqatdan fol ochishib, yana boshlarini sarak-sarak qilisharmish.




Oxiri bosh munajjim podshoh huzuriga kirib, folning natijasini aytishga jur`at qilibdi.

34

- Podshohim, bir qoshiq qonimdan keching, bir gap aytaman.
- Kechdim, ayt! - debdi podshoh.
- Malikamizning taqdirlari murdaga bo'lgan, - debdi bosh munajjim.

Podshohning jahli chiqib, jallod, deb yuborishiga sal qolibdi, lekin qoningdan kechdim, deb qo'rganligi uchun tilini tishlabdi.

Bosh munajjimning gapini eshitib qolgan Toshbibi yum-yum yig'lab o'tiribdi. Nima qilarini o'ylabdi. "Taqdirim murdaga yozilgan bo'lsa, taqdirimni izlab cho'lu biyobonlarga chiqib ketay", deb, bir kuni tunda ovga kiyadigan kiyimlarini kiyib, sayisxonadan yaxshi bir otni tanlab, qo'liga o'q-kamonini olib, xurjuniga kerakli ozuqalarini solib, qani, o'sha taqdirni bir ko'ray, deb yo'lga ravona bo'libdi. Yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi, qancha tog'u toshlardan, qishloqlardan o'tibdi, ammo qaysi joyda aza ko'rsa, o'sha yerdan uzoqroq yuribdi, yura-yura bir biyobondan chiqibdi. Bitta qirning soyasida tamaddi qilib olish uchun o'tiribdi, non tiqilib, suv ichgisi kelibdi. Bu yerda suvni qayerdan topsam bo'larkin, deb atrofga olazarak qarabdi. Hov narida bir qo'rg'on ko'rinibdi. "Shu joyga boray, suv so'ray", deb o'sha tarafga yuribdi. Qo'rg'on darvozasining zulfinini qoqsa, hech kim javob bermabdi. Darvozaning bir tavaqasini itargan ekan, ochilib ketibdi. Katta bog' ekan, bog'ning bir tomonida baland imorat, shu imoratning zinasidan ko'tarilib ichkari kiribdi. Imoratning ichida xonalar ko'p ekan, u xonaning eshigini ochibdi, hech kim yo'q, bu xonaning eshigini ochibdi, pashsha ham uchmasmish. Oxiri bitta katta xonaga kirsam, to'rdagi baland katda bir yigit yotganmish, yaqinroq borib qarasa, yigitning badaniga zich qilib ignalar sanchilganmish. Yigit tirikday yotibdi-yu, ammo qimirlamasmish. Toshbibi yon-veriga qaragan ekan, bir xatni ko'ribdi. Olib o'qisa shunday yozilgan ekan:



- Senga nima olib kelay? - deb so'rabdi u Toshbibidan.  
- Bozorga borsangiz, attorlarda yada toshi bo'ladi, o'shandan bit-tasini olib kelsangiz bo'ldi, - debdi qimtinib.

Yigit bozordan ko'p narsa xarid qilib, oxiri attorning oldiga borib-di. Undan yada toshini so'rabdi, uning bir donasini olib, necha pul beray, desa, olib ketaver, bolam, buning mingtasi bir pul debdi.


- Ota, buni nima qiladi? - deb so'rabdi yigit.

- Buni odamlar oldiga qo'yadi, yuragida hasrat to'lib ketgan bo'lsa, shu hasratini toshga aytadi, tosh yorilsa, uning ko'ngli ham yoziladi, - debdi attor.

Cho'rining qanday hasrati bor ekan, deb yigit hayron bo'libdi, olib kelib toshni qizga beribdi va pana joydan turib uni poylabdi. Toshbibi ovloq bir joyga o'tib oldin uzoq yig'labdi, keyin yig'lab-yig'lab yuragidagi gaplarni to'kib solibdi, munajjimlardan eshitgan gapidan tortib, biyobonga kelgungacha, kelgandan keyin qancha vaqt o'tirib yigitning badanidagi ignalarni bitta-bitta olgunigacha, cho'rini sotib olib, uni boqqanigacha va oxiri o'zi cho'riga aylangunigacha bo'lgan voqealarni bir-bir aytib bo'lishi bilan tosh paq etib yorilibdi.


Yigit haqiqatni bilgach, cho'rini otning dumiga bog'lab, otga ach-chiq qamchi bosibdi, ot shataloq otib cho'rini biyobonda sudrab ketibdi. Yigit Toshbibining otasiga xabar yuboribdi.

Podsho qizi topilganidan shod bo'lib, to'y-tomosha bilan qizini yigitga nikohlabdi, o'sha to'yda men ham bor edim, osh yetmay qolib, arazlab ketib edim.



## YURSANG SAYOQ, YEYSAN TAYOQ

Bir kampirning bitta ulog'i-yu, bitta buzog'i bor ekan. O'sha uloq bilan buzoq maslahatni bir joyga qo'yib, tong bilan say-



ohatga chiqib ketishibdi. Yurib-yurib bir buzuq qo'rg'onga yetib kelishibdi.

38)

Uloq mahmadanaroq, buzoq anqovroq ekan, sayohatga chiqishni ham uloq boshlagan ekan. Qo'rg'onning oldiga kelgach:

- Sen shu yerda kutib tur, men kirib chiqay-chi, bu qo'rg'onda nima bor ekan, - debdi uloq.

Qo'rg'on ichiga kirgan ekan, bir to'da yovvoyi hayvonlarga duch kelibdi. Ularning boshlig'i arslon ekan, atrofida bo'ri, tulki, shaqal, ayiq xizmatda ekan.

- Ana, ov o'z oyog'idan xadi, - debdi tulki suyunib.

Bu gapni eshitgan uloq titrab:


- Tashqarida sherigim ham bor, mendan kattaroq, go'shtliroq, boshlab olib kiray-chi, - deb ortiga qaytibdi. Yugurib chiqib buzoqni qo'rg'onning baland tomiga chiqarib qo'yibdi. O'zi ham bir sakrab chiqib olibdi.

Yovvoyi hayvonlar uloqning sherigi bilan kiravermaganligidan xavotir olib, tulkini chiqaribdi. Tulki qarasa, uloq yo'q. Tili osilib arslonning oldiga kiribdi:

- Taqsir, nima deysizki, uloq ham, uning sherigi ham yo'q.

Hamma hayvonlar to'dalashib tashqariga chiqishibdi. Shaqal bular qayerda bo'lishi mumkin, uzoqqa ketolmagandir, deb fol ochibdi. Fol ochib ko'zini osmonga qadasa, buzoq bilan uloq qo'rg'onning baland tomida turganmish. Bu yirtqichlarning vahshatini ko'rgan buzoqning tiz-zalari qaltirab, bo'g'otning chetida turibdi emasmi, tap etib yerga qulabdi. Buzoq to'rt oyog'ini tik qilib shaqalning ustiga tushayotgan ekan. Uloq:

- O'sha folchini ushlang, o'shani yeyishdan boshlaymiz, - deb baqiribdi. Bu gapni eshitgan yirtqichlarning o'takasi yorilib, ayniqsa shaqalning esi teskari bo'lib, bir qochish qilibdi, buni ko'rgan yirtqichlar uning ketidan poyga qo'yishibdi. Buzoq omon-eson yerga tushgach, uloq ham yoniga tushib, yirtqichlardan berkinishibdi.



Igna:

– Chumchuq do'stim! Chumchuq do'stim! Muncha, qayoqqa shoshmasang? – deb so'rabdi.

Chumchuq unga javob beribdi:

Moda chumchuqni qafasga soldirgan,

Podshoga qarshi jangga otlangan,

Sichqonni ushbu aravaga qo'shgan,

Nar chumchuqman, nar chumchuq, –  
debdi.

– Bo'lmsa men ham sen bilan boraman, nar chumchuq do'stim,  
– debdi igna.

– Yuraqol, – debdi nar chumchuq.

Uchli igna aravachaga chiqib olibdi. Chumchuq tizginni bo'sh qo'yibdi, sichqonni tezlabdi. Sichqon ham kuchining boricha aravani o'qday uchirib borayotganda yo'ldan chayon chiqib qolibdi.

Chayon:

– Chumchuq do'stim! Chumchuq do'stim! Muncha shoshmasang? Qayoqqa? – deb so'rabdi.

Chumchuq unga javoban:

*Moda chumchuqni qafasga soldirgan,  
Podshoga qarshi jangga otlangan,  
Sichqonni ushbu aravaga qo'shgan,  
Nar chumchuqman, nar chumchuq, –*

debdi.

– Bo'lmasa men ham sen bilan ketaman, nar chumchuq do'stim!  
– debdi chayon.

Chayon zaharli dumini gajak qilib nar chumchuqning aravasiga chiqib olibdi.

Chumchuq tizginni bo'sh qo'yib, sichqonga qamchi bosibdi.



Eshigiga gadoy tilanib kelsa, katta ko'ppak itini yechib yuborar, ko'ppak gadoni qishloq chegarasigacha quvib borar ekan.

40) Qishloq yigitlari bir kuni choyxonada o'tirib, Bermasvoyning ziqnaligini mazammat qilib o'tirishibdi. Uning bir burda nonini yegan odamni bilmasliklarini aytishibdi. Oradan bir yigit turib:

- Men shu ziqna boylaringni bir chuv tushirsam nima deysizlar? - debdi.

- Garov o'ynashimiz mumkin, hech narsa qilolmaysan, - deyishibdi jo'ralari.

Yigit so'zidan qaytadiganlardan emas ekan, davrada garov boylanibdi, yigit agar hech ish chiqarolmasa, to'kin bir ziyofat qilib bermoqchi bo'libdi, agar yutsa, davra unga bir ot mindirmoqchiligini aytibdi.

Yigit peshonasida oq qashqasi bor bir otni minib boyning eshigiga boribdi. Eshik, jo'ralari aytganidek, ichidan tambalangan ekan. Ancha taqillatgandan keyin boy: "Kim u bemahalda yurgan?" - deb do'q bilan ovoz beribdi.


- Assalomu alaykum, boy buva! Juda bemahal ham bo'lgani yo'q, so'fi shomga azon aytmadi, men bir yo'lovchi, shu kentning hokimiga dastyorman, boradigan joyimni shom qorong'usida topolmay qoldim, bir kecha otim bilan hovlingizda tunasam, - debdi.

Kentning hokimiga dastyor bo'lgan yigitga eshik ochmaslikka istihola qilib, darvozasini ochibdi. Yigitni oti bilan ichkariga olibdi. Yigit hushyor ekan, oshxonada kalla-pocha, hasip pishayotganligini sezibdi. Bermasvoy odati bo'yicha mehmon oldiga dasturxon yozmay, gaplashib o'tiraveribdi.

- Xo'sh, qayerdan kelyapsiz? Nimalarni ko'rdingiz? - deb so'rabdi Bermasvoy.

- E, boy buva, cho'lu biyobonlarni kezib kelyapman. Biyobondan o'tib kelayotsam, ajoyib bir ilonga ko'zim tushdi. Yopiray,





o'sha ilonning kallasi qozoningizga solingan qo'yning kallasidek keladi, tanasi qozon ichida pishib turgan hasi pga o'xshaydi. Bir urgan edim, kallasi qo'yning kallasidek yumalab ketdi, tanasi hasi pga o'xshab cho'zilib qoldi.

"O, bachchag'ar, qozondagi kalla-pochadan hid olibdiyov", deb o'ylabdi Bermasvoy.

- Mehmon, siz haloldan yeysizmi, haromdanmi? - deb so'rabdi Bermasvoy.

Yigit boyning nima demoqchiligini darrov sezib, ancha-muncha kitob ko'rgan emasmi, salmoqlab javob beribdi:

- Tashna bo'lganda suvning loyqasiga qaralmaydi, taqsir.

Bermasvoyning dami ichiga tushibdi, xotiniga imlab, ovqatni suzib keltirishni buyurishga majbur bo'libdi.

Bermasvoy kalla-pochabilan hasi pgayigitni oshnaqilganigaalam qilib, undan qasdini olmoqchi bo'libdi. Yigitning otiga ko'z tikibdi.

- Mehmon, otingiz zap ot ekanmi! So'yganda nechta qazi chiqarkin?

Yigit Bermasvoyning niyati buzilganini sezib:

- Otimni so'ysa, juda o'ldim deganda 300 ta qazi qilar, keyin bu otning go'shti bilan butun qishloqni boqsa bo'ladi, - debdi.


Yigit tashqariga chiqish bahonasi bilan otxonaga kirib otini boshqa joyga bog'labdi, boyning otini o'z oti o'rniga bog'lab, peshonasiga bo'r bilan oq qashqa yasab qo'yibdi. Keyin xotirjam bo'lib solib berilgan o'ringa kirib yotibdi.

Bermasvoy yigit uxlagandan keyin otxonaga kirib otni so'yibdi. Dar-hol xotiniga otning suyaklarini solib sho'rva qilib, ichiga shilpildoq tashlashni ham buyuribdi. Yigit uyg'ongach:

- Mehmon, kecha yaxshi mehmon qilolmadik, endi ot go'shti bilan bir mehmon qilmoqchi bo'ldim, qani, qo'lni yuving, - debdi.

Yigit sho'rvani ichib, shilpildoqni pok-pokiza tushirib, mezbondan ketish uchun javob so'rabdi.

- Mehmon, - debdi Bermasvoy o'zini xijolatpazlikka solib. -



## UYG'UR XALQ ERTAKLARIDAN

*8 millionga yaqin kishini birlashtirgan uyg'ur xalqi turkiylarning eng qadimgi shaxobchalaridan biridir. Bu xalq hozirda Xitoy Xalq Respublikasiga taalluqli Shinjon viloyatida - Uyg'ur avtonom tumani-da istiqomat qiladi. Uyg'ur tilida so'zlashadigan aholining umumiy miqdori 7,5 million kishidan iborat. Yevropa olimlarining fikrlaricha, "uyg'ur" atamasi miloddan avvalgi 3-2-ming yilliklarning manbalarida ham uchrar ekan. Xitoy manbalarida esa, uyg'urlarning etnogenezi 4-5 ming yil ilgari tilga olingan turkiylarning chidi guruhiga borib taqaladi. Bu xalq uzoq tarixdagi juda ko'p xonliklar, davlatlarning vujudga kelishida katta o'rin tutgan. Qadimiy madaniyatga ega bo'lgan uyg'urlarning o'z yozuvlari ham bo'lib, bu yozuvlar bir necha marta o'zgarishlarga uchragan. Uyg'urlarning 12 maqomi xitoy xalq musiqa san'atiga samarali ta'sir ko'rsatgan.*


*Uyg'ur adabiyotining ham asosi folklor asarlaridir. Qator dostonlar, qo'shiqlar, laparlar, maqol va matallar, ertak va topishmoqlar uyg'ur mumtoz adabiyotining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.*



## QIRG'IZ XALQ ERTAKLARIDAN

43

*Qirg'iziston davlati O'rta Osiyoning shimoli-sharqida joylashgan bo'lib, 200 kv.km<sup>2</sup> yaqin maydonga ega va aholisi 5 million kishidan ko'proq. U juda qadimiy tarixga ega bo'lgan mamlakatlardan biri: bu mamlakat hududida bundan 300 ming yil ilgari odam yashaganligiga arxeologiya fani guvohlik beradi. Arxeologik materiallarning guvohlik berishicha, miloddan avvalgi uchmingyilliklarning oxiri va ikkimingyilliklarning boshlarida mis, jezdan ishlangan qurollar borligi ham aniqlangan. Qirg'izistonning shimolida miloddan avvalgi VII-III-asrlarda saklar, ulardan keyin miloddan avvalgi I-asr va milodiy 2-asr oralig'ida usunlar qabilalari yashaganlar. Qirg'iziston janubi miloddan oldingi II-I-asrlarda Davan davlatiga, milodiy I-IV-asrlarda Kushon saltanati ixtiyorida bo'lgan. Shimoldagi ko'chmanchilar esa, V-asrlardan boshlab o'troqlashganlar. VII-asrga kelib Markaziy Osiyo va Xitoyning bir qismi, Kaspiy bo'ylarida hukmron bo'lgan Turk xoqonligi tarkibida bo'ldi. VI-VIII-asrlarda bu hududda yashagan turkiy ko'chmanchi qabilalar orasida Urxun-Enasoy yozuvi, o'troq aholi orasida so'g'd yozuvi joriy edi. VII-asrgacha bu hududda musulmon dini bo'lmagan, lekin zardushtiylik, shamoniylilik, buddaviylilik, xristianlik keng tarqalgan edi. Qirg'iziston haqidagi ilk yozma manbalar X-asrda paydo bo'ldi. Mo'g'ullar istilosiga qadar Qirg'iziston hududida shaharlar ko'paygan, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlangan, ilm va madaniyat taraqqiy topgan edi. Mo'g'ullar istilosidan keyin bu hudud tanazzulga uchradi. Bu tanazzuldan keyin Qirg'iziston hududida XV-asrning ikkinchi yarmidagina ko'chmanchi qabilalarning birlashuvi bilan mustaqil xonlik vujudga keldi va bu xonlik aholisini asosan qirg'izlar tashkil etgan edi. XVI-asrning birinchi yarmida qirg'izlar uzoq muddat oyratlar bilan urush olib bordilar, XVII-XVIII-asrlarda esa, Turkiston siyosiy-ijtimoiy hay-*




otida qirg'izlarning bosimi kuchaydi, ammo qirg'izlarning siyosiy hayotdagi nufuzi pasaygandan keyin XVIII-asr oxiridan boshlab Rossiya-  
adan panoh tilab qoldilar. Ammo Qo'qon xonligining bosimi bilan qirg'izlarning Rossiya bilan munosabatlari to'xtadi.

Qirg'izlar asosan 2,5 millionga yaqin, sof qirg'iz tilida so'zlashadilar, musulmonchilikning sunniy mazhabiga e'tiqod qiladilar. Qirg'iz nomi ilk marta milodiy I-asrning boshlarida yaratilgan "Xan sulolasi" yilnomasida gezugun shaklida uchraydi, ammo bu qirg'izning xitoycha talaffuzi, xolos. Qirg'izlarning kelib chiqishi haqida ilmda ixtiloflar bor. Qirg'izlarning ilk etnik tarixi xunlar, saklar, usunlar, dinlinlar bilan bog'liq degan fikr mavjud. Qirg'izlarning bir turkumi turkiy xalqlarning etnogenezisida ishtiroki bor, xususan, 92 o'zbek urug'ida qirg'iz etnonimi qayd etiladi.

Qirg'izlarning boy og'zaki ijodi bor. Qirg'izlarning baxshi, kuuchi (kuychi), emchi va hokazo ijrochilari og'zaki ijod namunalarini bizning kunlarimizgacha yetkazib olib kelganlar. Qirg'izlarda alohida "manas"chi degan atama bo'lib, ular faqat "Manas" eposining turli variantlarini ijro etadilar.

Qirg'izlarda ham ertak eng qadimiy epik janr hisoblanib, ertaklarning mazmunida qadimiy urf-odatlar, marosimlar, irim-sirimlarning izlari bor. Biz bu o'rinda juda ko'p qirg'iz ertaklaridan atigi uchtasinigina tanlab berdik, albatta, bunda kitob hajmi va matbaa ijrosining imkoniyatlarini hisobga oldik.





- Yo'q, har holda ikkovingizdan ham men kuchliroq bo'lsam kerak, - debdi Boylik zarda bilan. - Men bo'lmasam inson aqli bo'lsin, baxti bo'lsin, hech vaqo qilolmaydi.

Shu payt ularga yer haydayotgan dehqon yigit uchrab qolibdi. Boylik boshqalardan oldin uning oldiga hovliqib boribdi-da, qo'lidan ushlab:

- Sening haydayotgan yeringdan oltinu kumushlar unsin! - deb xitob qilibdi.

Bir zumda dehqonning haydagan yerida bug'doy o'rniga shaqir-shuqur oltinlar unib chiqa boshlabdi, maysalar o'rniga kumushlar jarangi eshilibdi.

Buni ko'rgan Aql: "Axir men Boylikdan kuchliman-ku", deb bir zumda dehqonning aqlini o'g'irlab qo'yibdi.

Aqlini yo'qotgan dehqon shu zahoti ovulga borib boyga uchrashibdi:

- Mening dalamda bug'doy o'rniga qanaqadir toshlar unib chiqdi, - debdi.

Boy, bu yerda bir sir bo'lsa kerak, deb o'ylab, dehqon bilan uning dalasiga kelibdi. Qarasaki, ekinzorda oltinlaru kumushlar sochilib yotganmish, ammo dehqonning tentakligini sezibdi.

- Bu ekinzorni sen menga ber, - debdi boy. - Men senga bundan yaxshiroq yerimni beraman.

Dehqon bu gapdan juda xursand bo'libdi. Boy esa, isi-bisiga qoldirmay oltinu kumushlarni uyiga tashib olibdi.

Baxt qarasaki, dehqon ham boylikdan, ham aqlidan ajrab qolibdi. Baxt unga yordam bermocchi bo'libdi. Shu zahoti yo'l ustida badavlat bir karvon paydo bo'libdi. Karvondagi savdogarlar dehqonni ko'rib:

- Pokiza, olijanob odamga o'xshaydi, shu kishini karvonboshilikka saylab, unga bo'ysunaylik, - deb maslahat qilishibdi.

Maslahatlari pishib, dehqonning egniga tulki terisidan tikilgan pochapo'stin tashlashibdi, boshiga savsar mo'ynasidan tikilgan qalpoq



48

kiydirishib, yo'rg'a otga mindirishibdi. Dehqon yigit karvonning oldiga tushib, boshqalarni ortidan boshlab ketaveribdi.

Karvon yo'l bosib, ovulga yetib kelib, shu yerda manzil qurishibdi. Oqshom tushishi bilan karvondagi savdogarlardan eng keksasi boyning uyiga kelibdi.

- Boy aka, karvonboshimiz bo'ydoq yigit, - debdi savdogar, - shuning uchun sizning ostonangizga keldik, katta qizingizga sovchimiz.

Boy juda quvonib:

- Agar karvonboshingizga mening qizim ma'qul kelsa, boshim osmonga yetadi, - debdi.

Boy o'rtaga to'y chodirini o'rnatishni va u yerga go'zal qiziga kelinlik libosi kiydirib olib kelishni buyuribdi. Boy bo'lajak kuyovni hurmat bilan kutib olib, chodirga kiritib yuboribdi. Qizlar kuyovni ko'rish umidida chodir atrofida uymalasharmish; ular tirqish-tirqishdan ichkariga mo'ralab kuyovni tomosha qila boshlashibdi.

Kuyovning ko'rinishi jiddiy, qomati kelishgan, lekin soqovdek hech gapirmasmish. Axir, uning aqli o'g'irlangan, nima gapirishni bilmas ekan-da!


- Nega u gapirmayapti? - deb hayron bo'lishibdi qizlar. Demak, boyning qizini o'ziga teng ko'rmayapti.

Bu gaplar boyning qulog'iga ham eshilibdi. "Nega u gapirmaydi? Rostdan ham qizimni o'ziga teng ko'rmayaptimikin? Yoki meni masxara qilmoqchimi?" - deb o'ylarmish boy. Lekin ertalabgacha kutishga qaror qilibdi. Tong otgach, ma'lum bo'lishicha, kuyov bir og'iz ham gapirmabdi.

- Sharmanda bo'ldim, buning kasri qizimga ham urdi! - deb nolibdi boy va odamlarini to'plab, kuyovni o'ldirishga chog'lanibdi.

Shu paytda Boylik, Baxsh va Aql shu ovul yonidan o'tib ketishayotgan ekan. Boy dehqon yigitni o'ldirmoqchi ekanligini bilib qolishibdi. Baxt bilan Boylik Aqlga:

- Biz yengildik, sen kuchli ekansan, dehqonga aqlini qaytar, - deb iltijo qilishibdi.



- Yo'q, har holda ikkovingizdan ham men kuchliroq bo'lsam kerak, - debdi Boylik zarda bilan. - Men bo'lmasam inson aqli bo'lsin, baxti bo'lsin, hech vaqo qilolmaydi.

Shu payt ularga yer haydayotgan dehqon yigit uchrab qolibdi. Boylik boshqalardan oldin uning oldiga hovliqib boribdi-da, qo'lidan ushlab:

- Sening haydayotgan yeringdan oltinu kumushlar unsin! - deb xitob qilibdi.

Bir zumda dehqonning haydagan yerida bug'doy o'rniga shaqir-shuqur oltinlar unib chiqa boshlabdi, maysalar o'rniga kumushlar jarangi eshitilibdi.

Buni ko'rgan Aql: "Axir men Boylikdan kuchliman-ku", deb bir zumda dehqonning aqlini o'g'irlab qo'yibdi.

Aqlini yo'qotgan dehqon shu zahoti ovulga borib boyga uchrashibdi:

- Mening dalamda bug'doy o'rniga qanaqadir toshlar unib chiqdi, - debdi.

Boy, bu yerda bir sir bo'lsa kerak, deb o'ylab, dehqon bilan uning dalasiga kelibdi. Qarasaki, ekinzorda oltinlaru kumushlar sochilib yotganmish, ammo dehqonning tentakligini sezibdi.

- Bu ekinzorni sen menga ber, - debdi boy. - Men senga bundan yaxshiroq yerimni beraman.

Dehqon bu gapdan juda xursand bo'libdi. Boy esa, isi-bisiga qoldirmay oltinu kumushlarni uyiga tashib olibdi.

Baxt qarasaki, dehqon ham boylikdan, ham aqlidan ajrab qolibdi. Baxt unga yordam bermocqi bo'libdi. Shu zahoti yo'l ustida badavlat bir karvon paydo bo'libdi. Karvondagi savdogarlar dehqonni ko'rib:

- Pokiza, olijanob odamga o'xshaydi, shu kishini karvonboshilikka saylab, unga bo'ysunaylik, - deb maslahat qilishibdi.

Maslahatlari pishib, dehqonning egniga tulki terisidan tikilgan pochapo'stin tashlashibdi, boshiga savsar mo'ynasidan tikilgan qalpoq



48

kiydirishib, yo'rg'a otga mindirishibdi. Dehqon yigit karvonning oldiga tushib, boshqalarni ortidan boshlab ketaveribdi.

Karvon yo'l bosib, ovulga yetib kelib, shu yerda manzil qurishibdi. Oqshom tushishi bilan karvondagi savdogarlardan eng keksasi boyning uyiga kelibdi.

- Boy aka, karvonboshimiz bo'ydoq yigit, - debdi savdogar, - shuning uchun sizning ostonangizga keldik, katta qizingizga sovchimiz.

Boy juda quvonib:

- Agar karvonboshingizga mening qizim ma'qul kelsa, boshim osmonga yetadi, - debdi.

Boy o'rtaga to'y chodirini o'rnatishni va u yerga go'zal qiziga kelinlik libosi kiydirib olib kelishni buyuribdi. Boy bo'lajak kuyovni hurmat bilan kutib olib, chodirga kiritib yuboribdi. Qizlar kuyovni ko'rish umidida chodir atrofida uymalasharmish; ular tirqish-tirqishdan ichkariga mo'ralab kuyovni tomosha qila boshlashibdi.

Kuyovning ko'rinishi jiddiy, qomati kelishgan, lekin soqovdek hech gapirmasmish. Axir, uning aqli o'g'irlangan, nima gapirishni bilmas ekan-da!

- Nega u gapirmayapti? - deb hayron bo'lishibdi qizlar. Demak, boyning qizini o'ziga teng ko'rmayapti.


Bu gaplar boyning qulog'iga ham eshilibdi. "Nega u gapirmaydi? Rostdan ham qizimni o'ziga teng ko'rmayaptimikin? Yoki meni masxara qilmoqchimi?" - deb o'ylarmish boy. Lekin ertalabgacha kutishga qaror qilibdi. Tong otgach, ma'lum bo'lishicha, kuyov bir og'iz ham gapirmabdi.

- Sharmanda bo'ldim, buning kasri qizimga ham urdi! - deb nolibdi boy va odamlarini to'plab, kuyovni o'ldirishga chog'lanibdi.

Shu paytda Boylik, Baxsh va Aql shu ovul yonidan o'tib ketishayotgan ekan. Boy dehqon yigitni o'ldirmoqchi ekanligini bilib qolishibdi. Baxt bilan Boylik Aqlga:

- Biz yengildik, sen kuchli ekansan, dehqonga aqlini qaytar, - deb iltijo qilishibdi.





Aql bu iltimosni qabul qilib, dehqonga avvalgi aqlidan ham ikki barobar ko'p fahm-farosat beribdi. Dehqon yigit darhol o'ziga kelibdi, qarasa, uni o'ldirmoqchi bo'lib turganmishlar, u soqol-murtini silab, o'zini tuzatib:

- Boy aka, ikki og'iz gapirishimga ruxsat bering, - debdi.
- Qani, gapirsin-chi, eshitaylik, - deyishibdi to'plangan odamlar. Boy ham rozi bo'libdi.

- Bolaligimda ovulimizga dushman bosqin qilib, hammamiz u yerdan qochib ketgan edik, - deb gap boshlabdi dehqon yigit. - Shunda ovulimizdagi bir qiz erkakcha kiyinib, kokillarini qalpog'i tagiga yashirdi-da, otga minib dushmanga qarshi jangga kirdi. Bir o'zi dushmanlarni quvib solib, qochib borayotgan ovuldoshlarini kulganicha to'xtatib qoldi. Kechadan beri o'tirib o'ylayman, ehtimol, sizning qizingiz ham o'sha qizga o'xshagan botir bo'lishi mumkin-ku!


Boy bu gapni eshitib o'zida yo'q xursand bo'lib ketibdi va katta to'y boshlab yuboribdi.

Dehqon yigit to'ydan keyin go'zal xotinini olib, karvonga boshchilik qilganicha boshqa yurtlarda oldi-sotdi ishlarini rivojlantirish uchun yo'lga tushibdi.

"Aql bo'lmasa, boylik ham, baxt ham yo'q", degan gap o'shandan qolgan ekan.

## BOLA VA SEHRGAR

Qadim zamonlarda bir chol bilan kampir bor ekan. Ularning yolg'izgina o'g'illari va bir-ikki bosh mollari ham bo'lgan ekan. Lekin bir yili qish shunday qattiq kelibdiki, qahraton sovuqdan ularning mollari ham qirilib bitibdi. Chol-kampir juda qashshoqlanib, yeyish-



50

ga bir burda non ham topolmay qolibdilar va yolg'izgina o'g'illarini shaharga, biron odamning xizmatiga berishga qaror qilibdilar.

Chol bilan kampir yolg'izgina o'g'illaridan ham ayrilib qolayotganlariga kuyinibdilar, lekin o'sha paytda hammaning ahvoli ham birdek ekan va bolani uyiga qabul qiladigan odam topilmabdi. Ular o'g'ilni biron odamning xizmatiga berish uchun ko'p sarson bo'libdilar.

Chol navbatdagi shahardan o'g'li bilan qaytishda yo'l ustidagi bir xarsang-tosh ustiga dam olgani o'tiribdi. Birdan, osmondan tushdimi, yerdan chiqdimi, qarshisida oq soqolli bir pakar odam paydo bo'libdi.

- Meni nega chaqirding? - deb so'rabdi pakar.

- Seni chaqirganim yo'q. Shunchaki juda charchab shu yerga o'tirganim, - debdi chol. - Sen o'zing kimsan?

- Meni O'kush deydilar. O'g'lingni bir necha marta shaharga olib borganingni ham bilaman. Aytgin-chi, nima uchun olib borgan eding? - deb so'rabdi pakar.

- Ro'zg'or tebratish qiyin bo'lib qoldi, - deb javob beribdi chol. - O'g'limni birovning xizmatiga bermoqchi edim.

- Unday bo'lsa, o'g'lingni menga bera qol, - debdi oq soqollik. - Men uni o'qitaman. Bir yil o'tib, xuddi shu joyda, shu vaqtda kelib o'g'lingni olib ketishing mumkin.

U shunday debdi-yu, cholga bir tilla berib, o'g'lining qo'lidan ushlab, shu zahoti ko'zdan g'oyib bo'libdi.

Oradan roppa-rost bir yil o'tibdi, chol o'g'lini olib ketgani o'sha xarsangtosh oldiga kelibdi. Darhol qarshisida oqsoqollik pakar paydo bo'libdi va nimalardir deb pichirlagan ekan, yettita qop-qora mushuk paydo bo'libdi.

- Shularning orasidan o'g'lingni tanisang, olib ketaver, - debdi sehrgar.

Chol mushuklardan qaysi biri o'g'li ekanligini taniy olmabdi va yig'lagancha boshi oqqan tomonga ketibdi.



Aql bu iltimosni qabul qilib, dehqonga avvalgi aqlidan ham ikki barobar ko'p fahm-farosat beribdi. Dehqon yigit darhol o'ziga kelibdi, qarasa, uni o'ldirmoqchi bo'lib turganmishlar, u soqol-murtini silab, o'zini tuzatib:

- Boy aka, ikki og'iz gapirishimga ruxsat bering, - debdi.
- Qani, gapirsin-chi, eshitaylik, - deyishibdi to'plangan odamlar. Boy ham rozi bo'libdi.

- Bolaligimda ovulimizga dushman bosqin qilib, hammamiz u yerdan qochib ketgan edik, - deb gap boshlabdi dehqon yigit.

- Shunda ovulimizdagi bir qiz erkakcha kiyinib, kokillarini qalpog'i tagiga yashirdi-da, otga minib dushmanga qarshi jangga kirdi. Bir o'zi dushmanlarni quvib solib, qochib borayotgan ovuldoshlarini kulganicha to'xtatib qoldi. Kechadan beri o'tirib o'ylayman, ehtimol, sizning qizingiz ham o'sha qizga o'xshagan botir bo'lishi mumkin-ku!


Boy bu gapni eshitib o'zida yo'q xursand bo'lib ketibdi va katta to'y boshlab yuboribdi.

Dehqon yigit to'ydan keyin go'zal xotinini olib, karvonga boshchilik qilganicha boshqa yurtlarda oldi-sotdi ishlarini rivojlantirish uchun yo'lga tushibdi.

"Aql bo'lmasa, boylik ham, baxt ham yo'q", degan gap o'shandan qolgan ekan.

## BOLA VA SEHRGAR

Qadim zamonlarda bir chol bilan kampir bor ekan. Ularning yolg'izgina o'g'illari va bir-ikki bosh mollari ham bo'lgan ekan. Lekin bir yili qish shunday qattiq kelibdiki, qahraton sovuqdan ularning mollari ham qirilib bitibdi. Chol-kampir juda qashshoqlanib, yeyish-



50

ga bir burda non ham topolmay qolibdilar va yolg'izgina o'g'illarini shaharga, biron odamning xizmatiga berishga qaror qilibdilar.

Chol bilan kampir yolg'izgina o'g'illaridan ham ayrilib qolayotganlariga kuyinibdilar, lekin o'sha paytda hammaning ahvoli ham birdek ekan va bolani uyiga qabul qiladigan odam topilmabdi. Ular o'g'ilni biron odamning xizmatiga berish uchun ko'p sarson bo'libdilar.

Chol navbatdagi shahardan o'g'li bilan qaytishda yo'l ustidagi bir xarsang-tosh ustiga dam olgani o'tiribdi. Birdan, osmondan tushdimi, yerdan chiqdimi, qarshisida oq soqolli bir pakar odam paydo bo'libdi.

- Meni nega chaqirding? - deb so'rabdi pakar.

- Seni chaqirganim yo'q. Shunchaki juda charchab shu yerga o'tirganim, - debdi chol. - Sen o'zing kimsan?

- Meni O'kush deydilar. O'g'lingni bir necha marta shaharga olib borganingni ham bilaman. Aytgin-chi, nima uchun olib borgan eding? - deb so'rabdi pakar.

- Ro'zg'or tebratish qiyin bo'lib qoldi, - deb javob beribdi chol. - O'g'limni birovning xizmatiga bermoqchi edim.


- Unday bo'lsa, o'g'lingni menga bera qol, - debdi oq soqollik. - Men uni o'qitaman. Bir yil o'tib, xuddi shu joyda, shu vaqtda kelib o'g'lingni olib ketishing mumkin.

U shunday debdi-yu, cholga bir tilla berib, o'g'lining qo'lidan ushlab, shu zahoti ko'zdan g'oyib bo'libdi.

Oradan roppa-rost bir yil o'tibdi, chol o'g'lini olib ketgani o'sha xarsangtosh oldiga kelibdi. Darhol qarshisida oqsoqollik pakar paydo bo'libdi va nimalardir deb pichirlagan ekan, yettita qop-qora mushuk paydo bo'libdi.

- Shularning orasidan o'g'lingni tanisang, olib ketaver, - debdi sehrgar.

Chol mushuklardan qaysi biri o'g'li ekanligini taniy olmabdi va yig'lagancha boshi oqqan tomonga ketibdi.




- O'g'lim, qayerdan kelyapsan, o'zing kimsan? - deb so'rabdi.

- Boy ota, men sayohatchiman, sharq tarafdin kelyapman. Yo'lda kela turib daryo bo'yidan chiqib qoldim, daryoga sho'ng'ishdan oldin uzugimni yechib qirg'oqqa qo'ydim. Cho'milib chiqqach, uzuk esimdan chiqib yo'limda ketaverdim. Ancha joyga borgach, uzugim esimga tushdi. Men cho'milayotgan paytda ikkita qiz daryo qirg'og'ida o'tirgan edi. Shulardan biri sizning qizingiz ekan, barmog'idagi uzuk meniki, aysangiz, uzugimni bersa, - debdi sehrgar.

- Qani, qizim, darhol bu yigitning uzugini ber, - deb buyuribdi boy.

Qiz jahl bilan uzukni barmog'idan chiqarmoqchi bo'lgan ekan, uzuk uning barmog'ini siqib olib chiqmabdi. Bir tomondan boy, ikkinchi tomondan sehrgar tortishibdi, uzuk chiqmas emish. Qiz voy barmog'implab dodlarmish. Bolaning qizga rahmi kelib, uning barmog'idan otilib chiqib, tariq bo'lib sochilib ketibdi. Sehrgar darhol tovuqqa aylanib donlarni terib yeya boshlabdi. Bir chekkada oxirgi tariq qolgan ekan, o'sha tariq yana mayda bo'lakchalarga bo'linib sochilib ketibdi. Sehrgar chumchuqqa aylanib zarra donlarni terib yuta boshlabdi. Ulardan biri birdan qirg'iy bo'lib osmonga ko'tarilibdi va osmondan turib yerga sho'ng'ib, o'tkir tirnoqlari bilan chumchuqning boshini ezib tashlabdi.

Yigitcha O'kush sehrgardan shu tarzda qutulib, yana odam qiyo-fasiga aylanibdi. U sehrgarning uyiga kelib, asirlikdagi odamlarni qutqaribdi, sehrgarning qiziga uylanib, yurtga katta to'y qilib beribdi.




## QOZOQ XALQ ERTAKLARIDAN

54

Yevroosiyo mintaqasining markaziy qismida joylashgan davlatni Qozog'iston, deyдилar. G'arb tarafidan Kaspiy dengizi bilan tutashgan, aholisining umumiy soni 15 millionga yaqin bo'lib, maydoni 2724 ming km<sup>2</sup>ni tashkil etadi. Qozog'iston hududi Volga daryosi quyi oqimidan sharq tarafida Oltoygacha, shimolda G'arbiy Sibir tekisligidan janubda Tangritog'gacha cho'zilgan. Qozog' tili esa dunyo bo'yicha 9,5 millionga yaqin kishi gaplashadi. Qozog' tili turkiy tillarning qipchoq guruhiga mansub; qoraqalpoq va no'g'ay tillari bilan birgalikda qipchoq tillarida bitta guruhchani tashkil etadi. Qozog' tilining shevalarga bo'linishi haqida tilshunoslar orasida ixtilof bor: ba'zi tilshunoslar qozog' tilida shevalar uchramaydi, desa, ba'zilar 2-3 ta shevani ko'rsatadilar. Qozog' adabiy tili XIX-asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan va XIX-asrning oxirlarida Abay va Oltinsarin ijodiy faoliyatlari natijasi o'laroq to'liq shakllandi. "Qozog'" atamasi eng yangi tarixdagi atama bo'lib, ular qadimiy tarixiy manbalarda qora qirg'iz, deb atalganlar, ularning ajdodlari ham saklar va usunoardir. Milodiy asr boshlarida Orol bo'yilarida yashagan alanlar ham qozoqlarning etnogeneziga ta'sir ko'rsatgan. VI-VII-asrlarda hozirgi Qozog'istonning janubi-sharqida yashagan qabilalar G'arbiy Turk xoqonligining qalamravida bo'lgan. Bu davrda turkashlar, telelar, qartuqlar ham kelib, qozog' etnogeneziga samarali ta'sir ko'rsatganligini tarix ta'kidlaydi. XII-asrda bu hududga bostirib kirgan qoraxatoylar (manbalarda kidanlar, deb ataladi) shu yerda qolib, turkiy qabilalar bilan aralashib ketgan. Mo'g'ul istilosi davriga kelib bu hududga naymanlar, keraitlar kirib kelganlar. XV-asrda O'zbek xonligi parchalanib ketishi natijasida Qozog' xonligi vujudga keldi (qozog' xonligi degan atama tarix fanida shartli). Qozog' elatining shakllanishi XVI-asrga to'g'ri keladi va bu elatning uch urug'i mavjud: katta juz, o'rta juz, kichik juz.

Qozog' adabiyoti tarixini folklor asarlari tashkil etadi: qo'shiqlar, maqollar, matallar, ertaklar, dostonlar shular jumlasidandir. "Er Torg'in", "Qambar botir" dostonlari qadimiy adabiyot namunalari hisoblanadi. "Qiz Jibek", "Bayan suluv", "Ayman-sholpon" singari dostonlar XVII-XVIII-asrlar mahsuli, degan fikr mavjud. XV-asrda Asan Qayg'i, Sipira, Qaztug'an, XVI-asrda Do'stpambet, Shalkiiz, XVII-asrda Jiyembet, Marg'aska jirov, Aqtamberdi,, XVIII-asrda Tetiqora, Buqar kabi jirovlar bo'lgan va o'shalar orqali og'zaki ijod namut-snalari yetib kelgan. XIX-asrga kelib oqinlar va shoirlar ko'payib, xalq dostonlarining yangi-yangi variantlari ham paydo bo'ldi.

Qozog' adabiyotida ham ertaklar yetakchi o'rin egallaydi. Qozoqlarning Aldar ko'sa, Jirenschi, Tazsha, Ayozi singari ertak qahramonlari juda mashhur. Qozog' ertaklari qozog', o'zbek, rus, ukrain, latish, ingliz tillarida ko'plab nashr etilgan.



anchagina mayda baliqchalar ilinibdi. Chol hayratga tushib qizga qarabdi. Qiz bo'lsa, hamon o'z joyida, soyabonda o'tirar, uning manglayidan dona-dona ter tomardi.

Shunda qiz cholga kulib debdi:

- Hozirgina dengizda edim, baliqlarni haydab keltirdim!


Chol qizning bu so'zlaridan dong qotibdi, axir, u joyidan siljimagan edi-ku. Qanday qilib dengizga tushgan bo'lsin. Chol voqeaning tagiga yetish uchun qizni gapga solib, so'rabdi. Qizning gapidan shu narsa ma'lum bo'libdiki, cholning ro'baro'sida o'tirgan kimsa oddiy qiz emas, balki dengiz ajdarining qizi ekan.

Qayiq Taoxuadao oroliga yetib kelgach, qiz qirg'oqqa chiqibdi-da, baliqchiga:

- Meni qutqazganing uchun tashakkur aytaman, bobo, maslahatim shuki, bu baliqchalarni yema, alohida hovuzga sol, peshma-pesh tutib sotganing ma'qul, - deb birdan g'oyib bo'libdi. Baliqchi chol qiz aytganini qilibdi - baliqchalarni kichik hovuzga qo'yib yuboribdi, oradan biroz vaqt o'tgach, u hovuzcha qopqog'ini ochib qarasa, unda katta, semiz baliqlar suzib yurganmish. Chol bir kun baliq tutipti, ikkinchi kun tutipti, uchinchi kun - xullas, baliq hech ado bo'lmas emish. Shundan beri Taoxuadao oroliga yaqin joy katta baliqlarga makon bo'lib qolibdi. Shuning uchun bu joyni kishilar "Miyuyyan" - Baliq dengizi deb atay boshlabdilar.

## IT NEGA MUSHUKNI YOMON KO'RADI

Bor ekan, yo'q ekan, kichkinagina xilvat qishloqchada kambag'al bir keksa dehqon yashar ekan. Uning ko'r xotini bor ekan. Bolalari bo'lmaganidan it bilan mushuk ularning



56)

Hech qanday dori-darmon yordam bermayapti, juda qiynalib ketdim. Agar topshirig'imni bajarishga va`da bersang, senga tegmayman, bo'lmasa, suyaklaringni g'ajib tashlayman.

Qodir va`da bergan ekan, sher o'zini chetga olib, yo'l bo'shatibdi. Qodir yo'lida ketaveribdi. Qarasa, quyoshning tafti bilan ko'pchigan dala ustida bir chol, bir kampir va juda ham chiroyli bir qiz xuddi o'likka yig'lagandek uvvos tortib yig'lab o'tirishganmish.

- Nega yig'laysizlar? - deb so'rabdi Qodir.

- Biz yig'lamasdan kim yig'lasin, o'g'lim, - debdi chol ko'z yoshlarini tiya olmay. - Uch yil oldin shu dalani sotib olib, rosa mehnat qildim. Xuddi ona chaqalog'iga parvarish qilgandek, ekinlarni parvarishlaymiz, lekin uch yildan buyon biron marta hosil olganimiz yo'q. Bahorda ekinlarimiz gurkirab o'sadi, lekin yozning o'rtasiga kelganda qancha sug'orsak ham ekinlar quriydi qoladi. Il-dizigacha kuyib ketadi. Buning sababini hech kim bilmaydi, o'lishimiz qoldi xolos, baxtimiz yotgan.


- Mening baxtim yotmagan, ammo qaysidir quyuc bargli daraxtning tagida uxlayapti, uni izlashga ketyapman, - debdi Qodir.

Chol buni eshitib Qodirga yalina boshlabdi:

- Jon bolam, umringdan baraka top, hamisha omading chopsin! Agar baxtingni topsang, undan ekinlarimizning qurib qolish sababini so'rab kel. Duo qilaman.

Qodir bu savolga ham javob olib kelishga va`da berib, yo'lida davom etibdi. Uzoq yo'l yurib katta bir shaharning ustidan chiqib qolibdi, bu xonning poytaxti ekan. Qodir shaharning u yoqqa-bu yoqqa shoshib ketayotgan odamlari orasiga kirishi bilan uni mirshablar tutib, yoqasidan bo'g'ib, xon saroyiga olib kelishibdi. Bunaqa falokatni kutmagan, aybi nimaligini bilmagan Qodir bundan ham battar bo'lishini kutib mirshablar qurshovida xon saroyiga boraveribdi. Lekin xon uni mehribon tabassum va mu-loyim so'zlar bilan kutib olibdi.





- E, musofir, mening mehmonim bo'lgin, - debdi xon, - kimsan va qayerga ketyapsan?

Qodir qo'rqqanidan tutila-tutilla o'zining kimligini va nima uchun yo'lga chiqqanligini aytibdi.

Buni qarangi, xonning ham dardi bor ekan, u Qodirning gapini eshitib bo'lgach:


- E, Qodir, mening ham dardimni eshit, agar baxtni topsang, undan so'ragin: shunday boy va qudratli xonlikning egasi bo'la turib, ko'nglimda nega quvonch yo'q, oltin taxtimda juda ham g'amgin o'tiribman? - debdi. - Javob olib kelsang, seni mukofotlayman.

Qodir xonning huzuridan chiqib yana yo'lga tushibdi. U izlagan narsasini topmaguncha dunyoni uch yil sarson-sargardon kezib chiqibdi. Qodir yurib-yurib bir qora tog'ning etagiga yetib kelibdi, qarasaki, tik qoyada sershox bir qayrag'och turgan-mish, uning qalin soyasida esa, shiryalang'och, kir-chir, sochlari paxmayib ketgan odamga o'xshagan bir maxluq o'likday uxlab yotganmish. Qodir qoyaga ko'tarilibdi. "Nahotki shu mening baxtim bo'lsa?" deb o'ylabdi u va tarvaqaylab uxlab yotgan odamni uyg'ota boshlabdi.

- Ko'zingni och, tur o'rningdan, qara, akamning baxti ertadan kechgacha tinmay ishlab yotibdi, sen esa mening ishlarimni qilmay bu yerda taltayib yotibsan, tur o'rningdan, deyapman! - deb baqiribdi Qodir.

Yotgan odamning uyg'onishi juda qiyin bo'libdi, Qodir uni rosa silkibdi, oxiri u ko'zlarini zo'rg'a ochib, kerishib, uzoq esnab, uyqudan shishgan qovoqlarini ishqalab:

- Qodir degani senmisan? - debdi inqillab. - Oyog'ingni og'ritib bekorga sarson bo'lib yuribsan. Mana shunaqa quyuq bargli qayrag'och tagida uxlamaysanmi maza qilib! Baxt degani akangga o'xshagan mehnat qilganlarga yordam beradi, senga o'xshagan dangasa va nodonlarga emas. Bo'пти, kelishga kelibsan,



58

It unga dalda berib:

- Qo'rqma, men suza olaman. Seni olib o'taman, - debdi. - Biz sehrli dumni albatta topishimiz kerak. Topmasak uyga qaytmaymiz.

Shundan keyin mushuk itning yelkasiga minib olibdi, it uni daryodan olib o'tibdi. Ular yana yo'l yurib, savdogar yashaydigan qishloqqacha boribdilar. Har bir uyga kirib qarabdilar, nihoyat bir hovlida yasangan kishilarni ko'rib qolishibdi: savdogar uylanish taraddudida turgan ekan.

It mushukka:

- Uyga kirib qara-chi, savdogar sehrli dumni qayerga yashirib qo'ygan ekan. Meni uyga kiritmaydilar, men seni qishloq chetidagi tol tagida kutib turaman, - debdi.

Mushuk rozi bo'libdi. Sakrab tomga chiqibdi, tomdan hovliga tushibdi, keyin uyga kiribdi. Qidirib-qidirib qutini topa olmabdi. Karavotning tagiga kirib olib, o'ylay boshlabdi. Shunda sandiqning ostidan bir sichqoncha sakrab chiqib qolibdi. Mushuk darrov tutibdi uni. Sichqoncha yalinib, rahm etishini so'rabdi. Mushuk unga:

- Agar topshirig'imni bajarsang seni yemayman, - debdi. Sichqoncha qaltiroq ovoz bilan va`da beribdi.


- Buyuring, qo'limdan kelganini qilaman, - debdi u.

- Sandiqqa kirib qara-chi, yog'och quti ko'rinadimi. Topsang, menga olib kel.

Sichqonchalip etib sandiqqa kiribdi, qidirib qutichani topibdi-da, uni olib kelib mushukka hurmat bilan topshiribdi. Mushuk qutichani tishlab, uydan hovliga yugurib chiqibdi. Shunda uni savdogar ko'rib qolibdi-da:

- Mushuk qutini o'g'irlab ketyapti! Mushuk qutini o'g'irlab ketyapti! - deb qichqiribdi.

Odamlar mushukning orqasidan quvibdilar, uni tutib bo'larmidi! Mushuk devordan sakrab o'tib, tomdan oshib qochibdi. U yugurib



Qodir bu gapdan oldiniga shoshib qolibdi, keyin boshini tebratib, qo'llarini to'lg'antirib:

- Yo'q, yo'q! - debdi baqirib. - Men xon bo'lmayman, sendan ham menga hech narsa kerak emas, mening baxtim oldinda kutyapti. 59

Shu gapni aytib saroydan chiqibdi va yo'lida davom etibdi. Uni yo'lda chol bilan kampir va ularning chiroyli qizi kutib olishibdi.

- Xo'sh, Qodirjon, bizga qanday xabar olib kelding, gapira qol, - deyishibdi ular

- Qadim zamonda bir boy odam bosqinchilardan qo'rqib sizning dalangiz ostiga qirqta tilla to'la xum ko'mgan ekan, yeringizning hosil bermasligi shundan ekan, xumlarni kavlab olsangiz, dala yana hosildor bo'lar ekan, sizlar dunyoda eng boy odam bo'lar ekansiz, - deb xabar beribdi Qodir.

Kambag'allarning quvonchdan boshlari aylanib ketibdi, ham kulisharmish, ham yig'lasharmish, Qodirni quchoqlasharmish.


- Sen bizlarni xursand qilding, Qodir, - debdi chol. - Endi biz bilan qolib, oltinlarni qazib olishda yordam ber, qizimni berib, seni o'zimga kuyov qilay.

Qodirga chol-kampirlar ma'qul kelibdi, chiroyli qizlari ham yoqibdi, ammo bir oz o'ylab bosh tebratibdi.

- Yo'q, yo'q, meni baxtim oldinda kutyapti, - debdi u va yo'lida davom etibdi. Yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi, oyog'idagi etiklari ham titilib, yalang oyoq qolibdi, o'sha xarsangtosh oldiga kelib qolibdi. U tosh ustiga o'tirib o'ylarmish: "Mana, yo'lim ham tugayozdi, menga va'da qilingan baxt qani?" U shunday o'ylab o'tirganda qarshisida sher paydo bo'libdi.

- Xo'sh, Qodir, menga qanday xabar olib kelding? - deb so'rabdi u bo'kirib.

- Dori olib kelmadim-u, ammo bir maslahat olib keldim, - debdi Qodir. - Agar dunyoda eng nodon, laqma odamni yesang, qorningning og'rig'i bosilar ekan.



60

- Rahmat, og'ayni, - debdi sher. - Endi nodon va laqma odamni izlaganim izlagan. Ehtimol shunaqa odamni topishda sen yordam berarsan? Qani, shuncha yo'l bosib kimlarni ko'rding, nimalar bo'ldi? Aytib bermaguningcha qo'yib yubormayman.

Qodirning hammasini aytib berishdan boshqa iloji qolmabdi, baxt bilan oralarida bo'lgan gapni ham, ayol xonni ham, dalasining tagiga oltin to'la xumchalar ko'milgan chol-kampir va ularning go'zal qizini ham birma-bir aytib beribdi.


Sherning ko'zlari chaq nabdi, bo'ynidagi junlari tikka turibdi, tishlari qisirlabdi.

- Qip-qizil ahmoq ekansan-ku, Qodir! - debdi sher.- Qo'lingga qo'nib turgan baxtni qo'yib yuboribsan-ku. Hokimiyat va hurmatdan, boylik va farovonlikdan, ikkita go'zal qizdan voz kechibsan. Sendan nodonroq odamni men qayerdan topaman. Dunyoni charx aylanib chiqsam ham topolmasam kerak. Sening ahmoq miyang mening qorin og'rig'imni bosadi.

Sher shu gaplarni aytib Qodirga tashlanibdi. Qodir qo'rqqanidan yerga dumalab ketibdi. Buni hisobga olmagan sher uchib borib toshga ko'kragi bilan urilib, o'sha zahoti til tortmay o'libdi.

- Baxtim bor ekan-a! - quvonchidan qichqirib yuboribdi Qodir. - Bir o'limdan qoldim-a! Bu - baxtning o'zi!

Qodir ovulga qaytganda uni taniy olmay qolishibdi: onadan qayta tug'ilgandek, butunday boshqa odamga aylanib qolibdi. Hamisha quvnoq, hamma bilan muloyim salomlashgan, hech kimga ahvolidan hasrat qilmas, hech kimga hasad ham qilmas emish. Ertadan kechgacha xirgoyi qilib ishlar, hamma uning mehnatsevarligini, aqlli bo'lib qolganini maqtarmish. Kun ketidan kun o'tib, mehnatning natijasida Qodirning ro'zg'ori ham butlanibdi, bola-chaqasi ko'payibdi, hozirgacha to'q va farovon hayot kechirayotgan emish.



## QORAQALPOQ XALQ ERTAKLARIDAN


63

*O'zbekiston tarkibida yashovchi yarim milliondan ortiqroq qoraqalpoqlar milodiy II-asr oxiri va IV-asrlarda Orol bo'yi cho'llariga sharqdan xunlar, VI-VIII-asrlarda turkiylar kelib mahalliy qabilalar bilan aralashib ketishi, ilk o'rta asr xalqlari bijanaqlar va o'g'uzlarning shakllanish jarayonida VIII-X-asrlarda shakllangan. X-asr boshlarida bijanaqlarning bir qismi g'arbga, janubiy rus cho'llariga ketgan. Bu yerlarga kelib joylashgan qabilalar rus yilnomalarida "chernые klobuki" (qora qalpoqlar) deb atalgan. Manbalarda qipchoq urugida "qora bo'rkli" degan etnonim ham uchraydiki, bu etnonim ana shu qoraqalpoqlarni anglatasa kerak. Rashiddin ham ularni "qavmi kulahi siyah" (qora bo'rk kiygan qavm), deb atagan. Mo'g'ul istilosi davrida qoraqalpoqlar Volga bo'ylariga, Sariqamish, O'zbo'y, Amudaryoning quyi oqimiga ko'chishga majbur bo'lganlar. Bu xalqning boshiga falokatlar ko'p yog'ilgan; mo'g'ul istilosi, qozoq xoni Abulxayrxon, Xiva xonligi bu xalqni joydan joyga ko'chishga majbur qilganlar va natija o'laroq XIX-asrning boshlarida xalqning asosiy qismi Amudaryo havzasiga ko'chirilgan.*

*Qoraqalpoq tili turkiy tillarning qipchoq guruhiga mansub. Bu tilda yarim millionga yaqin kishi so'zlashadi va qoraqalpoq tili shimoli-sharqiy va janubi-g'arbiy lahjalarga bo'linadi. Lahjalar fonetik jihatdan bir-biridan farq qiladi. Qoraqalpoqlarning adabiy tili XX-asrning birinchi yarmida shimoli-sharqiy lahja asosida shakllangan va ungacha bo'lgan davrda qoraqalpoqlar uchun o'zbek mumtoz adabiy tili asos edi.*

*Qoraqalpoq adabiyotining tarixini ham folklor tashkil etadi: marosim qo'shiqlari, aytis, maqollar va matallar, masallar, tez aytish, ertak, to'lg'ov, terma, dostonlar shular jumlasidandir. Qoraqalpoqlarda ham o'zbeklarda bo'lganidek Alpomish haqidagi doston mashhur bo'lib, qoraqalpoq tilida "Alpatmys" deb ataladi. Bundan tashqari, "Yedige", "Qublon", "Qir qiz", "Shahriyor" dostonlari ham mashhur.*

*Qoraqalpoq ertaklari ham boshqa xalqlarda bo'lganidek, turli-tuman mavzularda: hayvonlar haqidagi, xayoliy, maishiy, hajviy, latifanamo ertaklar ko'p. Ayniqsa, qoraqalpoq xalqining "O'marbek hangomalari" dunyoga mashhur bo'lgan.*



## JANAY ELCHI



Bu voqea qadim zamonda bo'lgan ekan. Bir kuni Buxoro amiri Xorazm xoniga maktub yo'llabdi. Maktubning mazmuni shundoq ekan: "Og'ilxonangizdagi ayg'irlar juda qattiq kishnaydi, bu kishnash bizning yaylovlargacha yetib kelib, baytallarimiz bezovta bo'lmoqda. Ayg'irlaringizga buyursangiz, ular kishnamasa". Bu xatni o'qib Xorazm xoni xafa bo'libdi. "Qo'shnimiz tirnoq orasidan kir izlayapti, urush chiqarishga bahona qidiriyapti. Nima bo'lganda ham uni tinchitish kerak. Uning huzuriga muzokara olib borish uchun aqlli, ayyor, gapdon odamni yuborishim kerak. Ammo bunday odamni qayerdan topsam bo'larkin?" - deb mulohaza yuritibdi xon. U shu xayol bilan vaziru a'yonlariga buyuribdi:

- Mening huzurimga odamlardan eng yomonini, qushlardan eng yomonini, maysalardan eng yomonini keltiring.

"A'yonlarimizning farosatini bir sinab ko'ray-chi", - deb xayolidan o'tkazibdi xon.


Vazirlar va a'yonlar cho'lni otda kezib tullagan bir qarg'a va oq yantoq topishibdi.

- Hech kimga foydasi tegmaydigan tentak odam odamlarning yomonrog'i, foydasiz tullagan qarg'a ham qushlarning yomonrog'i, foydasiz oq yantoq ham maysalarning eng yomonrog'i, - deyishibdi ular. Ular yo'lda keta turib bir podachini ko'rib qolishibdi. Podachi non chaynar va burgani o'ldirar ekan. "Odamlarning yomonrog'i shu chiqar", - deb o'ylashibdi a'yonlar.

- Bu yerda nima qilyapsan? - deb so'rashibdi undan.

- Nega surishtirib qoldilaring, - debdi podachi. - Ko'rmayapsizlarmi, bir paytning o'zida do'stlarimni boqyapman, dushmanlarni o'ldiryapman, qornimni to'yg'izyapman.

A'yonlarga uning javobi ma'qul kelib, xonning buyrug'i bilan uni olib ketishlarini aytishibdi.



## QORAQALPOQ XALQ ERTAKLARIDAN

63

*O'zbekiston tarkibida yashovchi yarim milliondan ortiqroq qoraqalpoqlar milodiy II-asr oxiri va IV-asrlarda Orol bo'yi cho'llariga sharqdan xunlar, VI-VIII-asrlarda turkiylar kelib mahalliy qabilalar bilan aralashib ketishi, ilk o'rta asr xalqlari bijanaqlar va o'g'uzlarning shakllanish jarayonida VIII-X-asrlarda shakllangan. X-asr boshlarida bijanaqlarning bir qismi g'arbga, janubiy rus cho'llariga ketgan. Bu yerlarga kelib joylashgan qabilalar rus yilnomalarida "черные клобуки" (qora qalpoqlar) deb atalgan. Manbalarda qipchoq urug'ida "qora bo'rkli" degan etnonim ham uchraydiki, bu etnonim ana shu qoraqalpoqlarni anglatsa kerak. Rashiddin ham ularni "qavmi kulahi siyah" (qora bo'rk kiygan qavm), deb atagan. Mo'g'ul istilosi davrida qoraqalpoqlar Volga bo'ylariga, Sariqamish, O'zbo'y, Amudaryoning quyi oqimiga ko'chishga majbur bo'lganlar. Bu xalqning boshiga falokatlar ko'p yog'ilgan; mo'g'ul istilosi, qozoq xoni Abulxayrxon, Xiva xonligi bu xalqni joydan joyga ko'chishga majbur qilganlar va natija o'laroq XIX-asrning boshlarida xalqning asosiy qismi Amudaryo havzasiga ko'chirilgan.*

*Qoraqalpoq tili turkiy tillarning qipchoq guruhiga mansub. Bu tilda yarim millionga yaqin kishi so'zlashadi va qoraqalpoq tili shimoli-sharqiy va janubi-g'arbiy lahjalarga bo'linadi. Lahjalar fonetik jihatdan bir-biridan farq qiladi. Qoraqalpoqlarning adabiy tili XX-asrning birinchi yarmida shimoli-sharqiy lahja asosida shakllangan va ungacha bo'lgan davrda qoraqalpoqlar uchun o'zbek mumtoz adabiy tili asos edi.*

*Qoraqalpoq adabiyotining tarixini ham folklor tashkil etadi: marosim qo'shiqlari, aytis, maqollar va matallar, masallar, tez aytish, ertak, to'lg'ov, terma, dostonlar shular jumlasidandir. Qoraqalpoqlarda ham o'zbeklarda bo'lganidek Alpomish haqidagi doston mashhur bo'lib, qoraqalpoq tilida "Алпамыс" deb ataladi. Bundan tashqari, "Yedige", "Qublon", "Qir qiz", "Shahriyor" dostonlari ham mashhur.*

*Qoraqalpoq ertaklari ham boshqa xalqlarda bo'lganidek, turli-tuman mavzularda: hayvonlar haqidagi, xayoliy, maishiy, hajviy, latifanamo ertaklar ko'p. Ayniqsa, qoraqalpoq xalqining "O'marbek hangomalari" dunyoga mashhur bo'lgan.*



## JANAY ELCHI



Bu voqea qadim zamonda bo'lgan ekan. Bir kuni Buxoro amiri Xorazm xoniga maktub yo'llabdi. Maktubning mazmuni shundoq ekan: "Og'ilxonangizdagi ayg'irlar juda qattiq kishnaydi, bu kishnash bizning yaylovlargacha yetib kelib, baytallarimiz bezovta bo'lmoqda. Ayg'irlaringizga buyursangiz, ular kishnamasa". Bu xatni o'qib Xorazm xoni xafa bo'libdi. "Qo'shnimiz tirnoq orasidan kir izlayapti, urush chiqarishga bahona qidiraypti. Nima bo'lganda ham uni tinchitish kerak. Uning huzuriga muzokara olib borish uchun aqlli, ayyor, gapdon odamni yuborishim kerak. Ammo bunday odamni qayerdan topsam bo'larkin?" - deb mulohaza yuritibdi xon. U shu xayol bilan vaziru a'yonlariga buyuribdi:

- Mening huzurimga odamlardan eng yomonini, qushlardan eng yomonini, maysalardan eng yomonini keltiring.

"A'yonlarimizning farosatini bir sinab ko'ray-chi", - deb xayolidan o'tkazibdi xon.

Vazirlar va a'yonlar cho'lni otda kezib tullagan bir qarg'a va oq yantoq topishibdi.

- Hech kimga foydasi tegmaydigan tentak odam odamlarning yomonrog'i, foydasiz tullagan qarg'a ham qushlarning yomonrog'i, foydasiz oq yantoq ham maysalarning eng yomonrog'i, - deyishibdi ular. Ular yo'lda keta turib bir podachini ko'rib qolishibdi. Podachi non chaynar va burgani o'ldirar ekan. "Odamlarning yomonrog'i shu chiqar", - deb o'ylashibdi a'yonlar.

- Bu yerda nima qilyapsan? - deb so'rashibdi undan.


- Nega surishtirib qoldilaring, - debdi podachi. - Ko'rmayapsizlarmi, bir paytning o'zida do'stlarimni boqyapman, dushmanlarni o'ldiryapman, qornimni to'yg'izyapman.

A'yonlarga uning javobi ma'qul kelib, xonning buyrug'i bilan uni olib ketishlarini aytishibdi.









- Yo'q, - debdi podachi, - meni olib borsanglar xonning jahli chiqadi. Odamlarning yomoni uylangandan keyin qaynotasinikiga ko'chib borgan odam. Ana o'shanaqa odamni topib olib boringlar. Qushlarning eng yomoni - tovuq, chunki u go'ng titadi. Xo'jayini unga donni uyib qo'ysa ham, baribir go'ng titaveradi. Maysalarning eng yomoni qora qo'g'a bo'ladi, mevasi hech narsaga yaramaydi, oq yantoqning mevasini mol yeydi.

A`yonlar podachi aytganidek qilib xon huzuriga kelishibdi.

- Bularni o'z tamizlaring bilan topdilaringmi? - deb so'rabdi xon.

- Yo'q, bizga bir podachi o'rgatdi.

Xon o'sha podachini olib kelishni buyuribdi. Navkarlar podachining oyog'ini yerga tekkizmay xon huzuriga olib kelishibdi.

- Seni Buxoro amiri huzuriga elchi tayinlayman, - debdi xon. - U jig'imizga tegib, urush boshlamoqchi. Aqlli, zehning o'tkir ekan. Bizni yarashtir, uni urushdan qaytar.

- Mayli, - debdi podachi, elchingiz bo'lsam bo'la qolay, ammo men bir o'zim Buxoroga boraman, navkar-pavkar kerak emas.


U bir baqiroq tuyaga minib, oldiga uloqchani o'tqazib olib, Buxoro qaydasan, deb yo'lga tushibdi. Buxoro ko'chalarida tuyasi baqirar, uloqchasi ma`rarmish. Bu shovqin-suronga itlar qo'shilib, akillay boshlashibdi. Podachi itlarga kamondan o'q ota boshlabdi. Xufiyalar darhol amirga borib shunday-shunday, nima deysizki, bir musofir shahrimizdagi itlarni otib o'ldiryapti, deb xabar qilishibdi. Amir o'sha musofirni huzuriga olib kelishni buyuribdi.

- Sen kimsan, nega itlarni otib o'ldiryapsan? - deb dag'dag'a bilan so'rabdi amir.

- Men podachiman, bir kuni qo'y podasiga bo'ri hujum qilib qoldi, mana bu itlar uni ko'rib, vovullagandek bo'lishdi-yu, podani himoya qilib, bo'riga tashlanishmadi, - debdi podachi.

- Podani qaysi yaylovga yoygan eding? - deb so'rabdi xon.

- Xorazmdagi yaylovga.



66

- Nima deb aljirayapsan? **Buxorodagi itlar Xorazmdagi bo'rini ko'rarkanmi?**

- **Buxorodagi** baytallar Xorazmdagi ayg'irlarni ko'rganda, nega Buxoro itlari Xorazmdagi bo'rini ko'rmasligi kerak? - debdi podachi.

Amir hayron bo'libdi, bu maynavozchilikning tagidagi gapni tushunibdi va miyig'ida kulib:

- Sen Buxoroga kelayotganingda oldingda kim bor edi? - deb so'rabdi.

- Mening oldimda uloqcham keldi.

Amir yigit savolimga tushunmadi deb o'ylab:

- Sendan kattarog'i ham bormi? - deb so'rabdi yana.

- Mendan kattasi - tuyam.

Amir **Buxoroga** kelgan elchi shu yigit ekanligini tushunibdi. Unga elchilarga ko'rsatiladigan izzat-hurmat ko'rsatibdi va **Xorazm** xoni bilan sulh tuzibdi.

Elchining nomi Janay ekan. O'shandan buyon **zehni** o'tkir, aqlli yigitlarni Janay elchi, deyishar ekan.



## O'MIRBEK LAQQI HANGOMALARIDAN

### Bolalar ham odam

O'mirbek bolaligida tengdoshlari bilan uylari oldida o'ynab yurganda bir chavandoz kelib otini to'xtatib bolalarga baqiribdi:

- O', churvaqalar, bu yerda suv topiladimi?

- Topiladi, - deb javob berishibdi bolalar.

- E, mishiqi! - O'mirbekka buyuribdi chavandoz. - Otimni ushlab turgin.

- Tishlamaydimi? - deb so'rabdi O'mirbek joyidan qimirlamay.

- Yo'q, qo'rqma.

- Tepmaydimi?

- Yo'q, yo'q...



- Qo'limdan chiqib qochib ketsa-chi?  
- E, yo'g'-e! Kela qolsang-chi! Otni ushla!  
- Otingiz shunaqa yuvosh ekan, uni ushlab turishning nima keragi bor? - deb qichqiribdi O'mirbek uy ortiga yashirinib.

Bolalar qotib kulishibdi. Chavandoz qamchisi bilan etigining qo'njiga urib, jahl bilan egarga o'tiribdi.

- Voy, O'mirbek, - debdi bolalardan biri. - Kattalarga shunaqa qo'pol muomala qilasanmi?

- Men emas, u qo'pollik qildi, - deb aniqlik kiritibdi O'mirbek. - U bizni qo'y podasi deb bildi shekilli, salom yo'q, alik yo'q, osmondan oyog'ini uzatib tushganmi?

- Kelinglar, chavandoz-chavandoz o'ynaymiz, - deb taklif qildi bolalardan biri.

- Yaxshisi, jo'xorizor ustidan chumchuqlarni haydaylik, - dedi O'mirbek.

Haligi chavandoz otni haydab borar ekan, O'mirbekning ortidan qichqirdi:


- O', mishiqli, agar tiling shamolda qolgan lattadek silkinaversa, ayt-chi menga, nega jo'xoringning so'tasi oq?

- Siz ham bu dalaga to'kilgan hamma narsani yeyaverganingizda oqarib ketganingizni bir ko'rardim, - dedi O'mirbek va bolalarning qiyqiriq kulgisidan chumchuqlar chirqillab jo'xorizordan qochib ketishibdi.

### **Kosani topolmadim**

O'mirbekning onasi tovuq go'shtini qaynatib bo'lib, o'g'liga qo'shnilarga tovuq sho'rvadan bir kosadan olib chiqib berishini tayinlabdi.

- O'g'lim, xalqimizning azaliy udumini hech qachon esingdan chiqarma, - dedi onasi kosaga sho'rva suzib. - Hamisha qo'shni oshi berib turish kerak.



68)

- Demak, "Xoh ishonang, xoh ishonmang, butun bir tovuqni so'ygandim, ovulga ham yetmay qoldi", degan naql shundan qolgan ekan-da, - dedi O'mirbek onasining qo'lidan bug' chiqib turgan kosani olib.

- Shunaqa bo'lsa kerak, - dedi ona ham kulib.

O'mirbek kosani ehtiyot bilan ushlab, to'kib yubormaslikka harakat qilib sekin keta boshlabdi, ammo birdan qoqilib yerga yiqilibdi. Kosa bir tomonga uchibdi, O'mirbek ikkinchi tomonga.

- Sho'rvani to'kib yubordingmi, yaramas? - deb baqiribdi onasi uy ichidan.

- Yo'g'-e, oyi, - debdi O'mirbek o'rnidan turib egnini qoqar ekan.

- Kosa qayoqqadir ketib qoldi.

### **Kim ayyorroq**


Bolalar ko'chada o'ynab yurib boyning jo'xorizoriga kirib qolishibdi. Boyning qarindoshlaridan bittasi O'mirbekni ko'rib qolib, ko'pchilikning oldida jazosini bermoqchi bo'libdi, ammo bolaning ketidan yugurib yurishni o'ziga ep ko'rmay, O'mirbekni qo'li bilan imlab chaqiribdi:

- O', bolakay, bu yoqqa kelgin, qiziq bir gapim bor, aytaman.

O'mirbek yigitning niyatini darrov fahmlabdi.

- Gapingizni jon deb eshitardim-u, lekin bolalar kattalar bilgan narsani bilishi yaxshi emas-da, - debdi va qochib qolibdi.





## TOJIK XALQ ERTAKLARIDAN

69

*O'rta Osiyoning janubi-sharqida joylashgan, maydoni 143,1 km<sup>2</sup> bo'lgan, 6,5 milliondan ortiqroq aholi yashaydigan davlatni Tojikiston deyiladi. Tojik tili hindu-evropa oilasining eroniy tillar guruhining janubi-g'arbiy shaxobchasiga mansub tillardan biridir. Bu tilda hammasi bo'lib 10 million aholi so'zlashadi, jumladan, O'zbekistonda 1 million aholi tojik tilida muloqot olib boradi. Tojikistonning o'zida esa, 4 million kishi orasida tojik tili muomala tilidir. Tojik adabiy tili III-XV asrlarda shakllangan fors adabiy tili asosida qaror topgan. XX-asrda tojik adabiy tilining so'zlashuv tili bilan yaqinlashuvi natijasida leksikaviy o'zgarishlar ro'y bergan bo'lsa-da, ammo asos-e'tibori bilan forsiy zabonga suyanadi.*

*Tojik yozma adabiyotining manbalari qadimiy boy xalq og'zaki ijodidan boshlanadi. Tojik xalq og'zaki poetik ijodida ham janrlar xilmaxil: lirik qo'shiqlar, maqol va matallar, lo'parlar, topishmoqlar, ertaklar, dos-tonlar. Ko'p hollarda tojik ertaklari o'zbek ertaklari bilan uyqash keladi.*



## PODSHOHNING TIKUVCHI BO'LGANI, PODACHI QIZINING MALIKA BO'LGANI HAQIDA



Menga chin, sizga yolg'on, aytishlaricha, dunyoda qudratli bir podshoh bo'lgan ekan. Yer yuzidagi chumolini hisoblab chiqsa bo'larkan-u. ammo uning boyligini hisoblab tagiga yetib bo'lmas ekan, hammayoqqa qo'li yetar ekan. Uning dono vazirlari barmoqlarining qimirlashidan, qoshlarining imosidan nima demoqchi bo'lganini bilib olishar ekan. Podshohning amri - vojib.

Kunlardan bir kuni podshoh o'zining qo'ylarini tog'lik yaylovlarda boqib yurgan cho'ponning chiroyli bir qizi borligini eshitib qolibdi. "Bunaqa go'zal dunyoning hech yeridan topilmaydi", deyishibdi odamlar. Podshoh o'sha qizni o'z ko'zi bilan ko'rmocqi bo'lib, sayislariga otni egarlatibdi, a'yonlari bilan yo'lga tushibdi. Podshoh cho'ponning manziliga as'asayu dabdaba bilan yetib boribdi. Cho'ponning kulbasi ostonasidan ichkariga qadam qo'yishi bilan xuddi uning ko'ksiga birov pichoq sanchgandek qattiq ihrab yuboribdi: u bunaqa go'zalni umrida ko'rmagan ekan; uning husn-tarovati oldida oy xira tortar, oftob nuri ojizlik qilar ekan.


Podshoh saroyga qaytib hech kim bilan so'zlashmabdi, taom olib kelishsa yemabdi, sharob berishsa ichmabdi, birovni o'limga buyurmabdi, boshqani afvu etmabdi, faqat cho'ponning qizini o'ylab yotibdi. Bir kun o'ylabdi, ikki kun o'ylabdi, ko'p o'ylashga toqati qolmay, uchinchi kuni cho'ponnikiga sovchilarni jo'natibdi.

- Podshohingizning hunari bormi? - deb so'rabdi qiz. - Men biron hunari bor odamga turmushga chiqaman.

Cho'ponning qizidan bunday javobni eshitib, podshoh g'azablanibdi.

- Men - podshohman! Istasam hamma ishni qila olaman. Menga





yana qanday hunar kerak? Tog'lardagi barcha xazinalar, yer ostidagi barcha dafinalar meniki! Tirik ham, o'lik ham mening irodamga bo'ysunadi. Bu beadab qizning aqlini kiritib qo'ymasam, podshoh emasman! - deb yuboribdi podshoh.

Podshoh cho'ponning o'jar qizini qanday jazolashni bir kun o'ylabdi, ikki kun o'ylabdi. Vazirlarining gaplariga quloq solibdi. O'ng qo'l vaziri:

- Cho'ponning qizini dorga osish kerak, otasini ham, - debdi.

- Cho'ponning qizi malikalikka munosib emas, dunyoda bunaqa chiroyli qizlar ko'p, - debdi chap qo'l vaziri.

Podshoh sukut saqlarmish, o'ylarmish. Uchinchi kuni u vazirlarini chaqirib:

- Menga aytinglar-chi, dono vazirlarim, dunyoda eng yaxshi hunar qaysi? - deb so'rabdi.

Vazirlar turli hunarlarni xayollarida sanab o'tibdilar: kulollik - isqirt ish, temirchilik undan battar, isqirti ham ko'p, issig'i ham. Tosh yo'nish chang yutish degan gap. Bo'yra to'qish ham bo'lmaydi, hamisha qo'l tilingan bo'ladi. Vazirlar uzoq o'ylashibdi, oxiri agar biron narsani o'rganish kerak bo'lsa, gilam to'qishdan yaxshisi yo'q, degan qarorga kelishibdi.

Vazirlar manaman degan usta gilam to'quvchini topib kelishibdi, gilam to'quvchi usta saroyda yashab, podshohga hunarini o'rgata boshlabdi.

Podshoh tamizli odam ekan, gilam to'qishni tez o'rganib olib, korافتa to'quvchilardek o'zi gilam to'qibdi. Gilamning burchagiga podshohlik muhrini tushirib, gilamni cho'ponning qiziga yuboribdi. Podshohning xizmatchilari gilamni go'zal qizning oldiga yoyib tashlashganda u oh, deb yuboribdi.

- Bu boshqa gap, - debdi qiz. - Demak, podshoh lavang odam emas ekan, boshiga og'ir kun kelsa, bir burda nonini topib yeya olar ekan. Men unga turmushga chiqishga roziman.



Qiz gilamga mahliyo bo'la tursin, endigi gapni podshohdan eshiting. Xizmatkorlar podshohning sovg'asini cho'ponning qiziga olib ketayotganlarida u gadolarcha kiyinib shahar aylangani chiqibdi. Uning haqida xalq nima deyayotganligini bilishni istabdi. Unga hech kim haqiqatni aytolmas ekan-da, podshohga haqiqatni aytish - kundaga bosh qo'yish ekanligini a'yonlar bilar ekanlar.

Podshoh shahar aylanib yurib choyxonaga kirib qolibdi. Choyxonada ikki kishi shivirlashib gaplashib o'tirishganmish. Ikkovining ham yuzi qahrli, bellarida pichoq ham bor ekan. Rosmana qaroqchilarning o'zi ekan. Podshoh ularga qaradi-yu, yuragi uzilib oyog'iga tushgandek bo'ldi.

"Bularga podshoh ham bir, gado ham, - deb o'ylabdi u. - Keyin podshohligimni aytsam ham kim ishonardi". U choyxonachiga chaqa pul berib, bir kosa palov berishni so'rabdi. Choyxonachi unga palov olib kelishga ulgurmasdanoq, ikkovi pichoqlarini yalang'ochlab podshohning boshiga kelishibdi, yoqasidan olib bir katalak uyga qamab olishibdi. Baqirgan bilan foydasi yo'q, bu yerdagi ovozni hech kim eshitmas ekan. Qaroqchilar podshohning oyoq-qo'llarini pishiq arqon bilan bog'lab yerga yotqizishibdi.


- Menga qara, buni nima qilamiz? - deb so'radi bittasi.

- Shu yerda damini olib yota tursin, - deb javob berdi ikkinchisi. - Agar oshnamizni o'limga hukm qilishsa, jallodni qo'lga olib, oshnamizning o'rniga buni o'ldirishga beramiz.

- Rahm qilinglar, - deb yalinibdi podshoh. - Men podshohdan iltimos qilaman, oshnalarigizni afv etadi.

Qaroqchilar xaxolab kulishibdi.

- Ko'rinib turibdi podshohga yaqin odamliging. Ehtimol uni gilam to'qishga sen o'rgatgandirsan? - deb kesatishib, yana battarroq xaxolashibdi. - Senga o'xshagan daydilarni saroyga yaqin ham yo'latishmas. Himoyachini qaranglaru!



- Agar istasanglar pul beray, - debdi podshoh.

- Ko'rib turibmiz boyligingni. Bitta chaqa pulingga choyxonachi osh suzib berishga ham erindi. E, boyvachchaligingdan o'rgildim!

- Mening ustimdan bekorga kulyapsizlar, haqiqatda men sizlarning boyib ketishlaring uchun yordam beraman, - dedi podshoh. - Podshohga-ku gilam to'qishni o'rgatmaganman, lekin men o'zim gilam to'qishni bilaman. Men to'qib beraveraman, sizlar sotaverasizlar. Mening gilamlarimni qimmatga olishadi.

Qaroqchilar o'ylab qolishibdi.

- Kel, bizdan nima ketdi! Agar rost gapirayotgan bo'lsa, pul ishlaymiz, yolg'on gapirgan bo'lsa, kallasini sapchadek uzib tashlash bir zumlik ish.

Qaroqchilar shunga qaror qilishibdi. Katalak hujragauskuna, ip-pak olib kelib berishibdi, bir ko'zada oldiga suv, bir kosa palov qo'yishibdi.

- Qara, besh kun ichida gilam tayyor bo'lishi kerak, bo'lmasa, kallang bilan xayrlashaver, - deb do'q qilishibdi qaroqchilar va podshohning ustidan qulflab o'z ishlariga ketishibdi.


Besh kun o'tkazib kelishsaki, gilam tayyor emish. Gilamga naqsh qilingan gullari tovlanarmish, bu isqirt hujrada go'yo bir chaman ochilgandek emish.

- Bu gilamni saroyga olib boringlar, - debdi podshoh qaroqchilarga. - U yerda sizlarga bu gilam uchun juda ko'p pul berishadi. Lekin saroyda yashaydigan gilam to'quvchi ustaga ko'rsatinglar, chunki u gilamning haqiqiy narxini biladi.

Qaroqchilar gilamni ko'tarib saroyga borishibdi.

- Ruxsat bersangiz, podshoh onhazratlariga mana bu gilamni ko'rsatsak, - deb iltimos qilishibdi qaroqchilar. - Gilamni ul hazratning muborak oyoqlari ostiga yozsak.

Podshoh bo'lmasa, uning qayerdaligini hech kim bilmasa, gilamni kimga ham ko'rsatishardi. Lekin ularga podshoh yo'qolgan deb bo'larmidi!



74

- Ulug' podshoh orom olyaptilar, - debdi o'ng qo'l vazir.  
- Arzimagan narsalar bilan onhazratimni bezovta qilish mumkin emas, - debdi chap qo'l vazir.  
- Ehtimol bu gilam podshohimizning muborak oyoqlariga arzir, ammo uning narxini biz bilmaymiz, - deyishibdi vazirlar.

- U holda saroy to'quvchisini chaqiringlar, ehtimol, u bilar buning narxini, - deyishibdi qaroqchilar.

Podshohga gilam to'qish hunarini o'rgatgan to'quvchini chaqirishibdi. U gilamni tomosha qilib, debdi:

- Bu juda qimmat gilam. Lekin bu gilam podshohimizga baxt keltiradi, shuning uchun ayamasdan bularga bir xalta tilla beraveringlar.

Qaroqchilar bunaqa mo'may daromaddan suyunib, ta'zim bajo qilganча orqalariga qaytibdilar. Ular hali saroy darvozasidan chiqmaslaridanoq, to'quvchi:

- Bu gilamni podshohimiz to'qiganlar. Ko'ryapsizlarmi, burchakdagi bezaklar ichida u kishining muhrlari tasvirlangan. Cho'ponning qiziga sovg'a qilib yuborgan gilamda ham xuddi shunday muhr bor edi. Endi podshohimizni topish mumkin, - debdi.


O'sha zahotiyoq shaharning to'rt tarafiga navkarlarni jo'natishibdi, gilam sotuvchilarni kuzatishni buyurishibdi. Oradan bir piyola choy ichgulik vaqt o'tmay, ularni kambag'allarning choyxonasidan topishibdi. Navkarlar qaroqchilarni darhol tutib, qo'llarini bog'lab:

- Qani, aytinglar-chi, gilamni qayerdan oldinglar? - deb so'rashibdi.

Qaroqchilar bosh tebratib, bilmaymiz, degan javobdan nariga o'tishmabdi. Navkarlar choyxonaning hamma eshik-iliklarini tekshirib chiqishibdi, oxiri chog'roq bir eshikni ko'rib qolishibdi. Eshik qulflangan ekan. Eshikni buzib kirishsaki, tor hujrada podshoh gilam to'qib o'tirganmish.

Keyin nima bo'ldi deysizmi?

Podshoh saroyga qaytibdi. O'sha zahotiyoq qaroqchilarni jallod qo'lga



topshiribdi. O'ziga hunar o'rgatgan to'quvchini ko'p siylab, mukofotlabdi. Keyin vazirlariga qarab:

- Endi cho'ponning qiziga boringlar, to'y kunini beqilanglar. Undan yaxshiroq umr yo'ldoshi topolmayman. U qiz faqat go'zalgina emas, dunyodagi eng aqlli qiz ekan. Agar o'sha qiz meni hunar o'rganishga majbur qilmaganda, allaqachon o'lib ketardim. - debdi.

Kim buni cho'pchak deydi, kimdir haqiqat, lekin aytishlaricha, bu voqea bo'lgan ekan. To'y ham bo'libdi. O'sha to'yga biz ham to'ylashib bordik, gilam ustida o'tirib palov yedik, ashula aytib, raqs tushdik.



## SINCHALAK


Hikoya qilishlaricha, bir qushcha bo'lgan ekan. U o'rmonda yashab, har yili o'rmondagi eng baland daraxtning eng tepasidagi shoxga in qo'yar ekan. O'sha inda bola ochib, tumshug'ida ularga yemish tashir ekan. Polaponlar uchishga o'rganayotganlarida ana shu baland daraxt oldiga shalpangquloq bir sariq maxluq kelib:

- Ey, sinchalak! Polaponlaringni menga tashla! Tashlamasang, daraxtga chiqib seni ham, polaponlaringni ham yamlamay yutib yuboraman, - der ekan.

Sinchalak nima qilishini bilmas emish. Bir tomondan polaponlariga achinar, boshqa tarafdin qo'rquv uning yuragini ezar ekan. U o'ylab o'ylab oxir polaponlarini pastga tashlabdi. Sariq maxluq polaponlarni yutib, daraxtdan uzoqlashibdi, qush esa, achchiq-achchiq yig'lab qolaveribdi.

Bir kuni u o'rmonda qarg'ani uchratib, unga boshiga tushgan kul-fatni aytib berib yig'labdi.

- Yig'lama, sinchalak! O'sha sariq maxluq - tulki. U juda ham ayyor. Seni aldabdi, daraxtga chiqolmaydi, sening eng tepaga qurgan iningga



yetolmaydi ham. O'sha sariq ayyor yana kelib, polaponlaringni tashla, desa, qo'rqma. Unga: "Yaxshi ish qilmayapsan, tulki", degin. U quppa-quruq ortiga qaytib ketadi, - deb o'rgatibdi qarg'a.

Bu gapni eshitib, sinchalak qarg'aga rahmat aytibdi-da, o'z iniga uchib kelibdi. Tez orada u yana bolalabdi, polaponlari uchishga shaylanib turishganda, yana o'sha sariq tulki daraxt tagiga kelibdi.

- O', sinchalak! Polaponlaringni tashla menga! Tashlamasang, daraxtga chiqib seni ham, polaponlaringni ham yamlamay yutib yuboraman! - deb dag'dag'a qilibdi tulki.

Qushcha qo'rqmabdi, faqat:

- Yaxshi ish qilmayapsan, tulki, - debgina qo'ya qolibdi.

Tulkining jahli chiqibdi:

- Tashla, dedim, senga, tashla! Bo'lmasa daraxtga chiqib dabdalangni chiqaraman! - deb baqiribdi.

Sinchalak yana qo'rqmabdi. Boshini inidan chiqarib yana:

- Yaxshi ish qilmayapsan, tulki, - debgina qo'ya qolibdi.


Tulkining jahli chiqibdi, ammo biron chora topishning iloji yo'q ekan. Bu ahioq qushcha bu gal nega qo'rqmadi ekan, deb o'ylab ortga qaytibdi. "Daraxtga chiqolmasligimga sinchalakning o'z fahmi yetmaydi, - deb o'ylabdi tulki. - Ha, topdim, buni qarg'a o'rgatgan, javobni ham o'sha uqtirgan. Shoshmay tur hali, qarg'a, men senga ko'rsatib qo'yaman!"

Tulki o'ylab-o'ylab, qarg'ani aldash yo'lini topibdi. O'zini balchiqqa belab, katta yo'l ustida xuddi o'lganday cho'zilib yotib olibdi.

Qarqa buni ko'rib uchib kelibdi. Qrasaki, tulkining ko'zlari yuimilgan, qimir etmasdan yotganmish, hatto nafasi ham chiqmasmish. Qarg'a tulkining qursog'i ustiga o'tirib olib:

- Qani, o'zing ayt-chi, ayyor tulki, oldin qursog'ingni yorib tashlaymi, yo ko'zlaringni o'yib olaymi? - deb so'rabdi.

Tulki jim yotganmish. Qarg'a tulki haqiqatdan ham o'lgan ekan, deb o'ylabdi va quvonganidan uning qursog'i ustida sakrab o'ynay



boshlabdi. Qarg'a shu qadar quvonib ketibdiki, tulkinging ko'z ochganini ham, o'tkir tirnoqlari bilan uni changallab olganligini ham sezmay qolibdi. U qarg'ani changallab turib:

- Xo'sh, qarg'avoy, endi sen aytgin-chi menga, seni qanday qilib yeyayin: oldin kallangni uzib olaymi, yo butunligingcha yutib qo'ya qolaymi? - deb so'rabdi.

- Ixtiyor o'zingda, - debdi qarg'a, - istasang, kallamni uzib tashla, istasang butunlay yutib yubor, ammo senga aytib qo'yishim kerak: mening suyaklarim juda qattiq, go'shtim chandir bo'lib ketgan. Oldin shunday qilginki, suyaklarim kemirishga oson bo'lsin, go'shtim yumshasin.

- Go'sht bilan suyaging yumshoq bo'lishi uchun men nima qilishim kerak? - deb so'rabdi tulki.

- Meni chuqur jarlikning bo'yiga ohb bor, bor kuching bilan pastdagi toshga ot, toshga urilganimdan keyin suyaklarim maydalanib, kemirishlik bo'ladi, go'shtim ham holvadek yumshoq va shirin bo'ladi, - deb o'rgatibdi qarg'a.

Tulki qarg'ani chsqur jarlik bo'yiga olib boribdi va bor kuchi bilan pastga uloqtiribdi, qarg'a esa, pastga enib, qanotlarini yozi-bdi va uchib borib bir butoqning ustiga qo'nib olibdi. Xursand bo'lib qag'illab qo'yibdi.

- O'zingni toshga ur! deb baqiribdi tulki. - Suyaklaring maydalanib kemirishlik bo'lsin, go'shting yumshoq va holvadek shirin bo'lsin.

- Yaxshi ish qilmading, sariq aldoqchi, - deb javob beribdi unga qarg'a.

Tulkinging jahli chiqib, qarg'ani yana tutmoqchi bo'lib o'zini jarlikka otibdi va zarb bilan toshga urilib parcha-parcha bo'lib ketibdi. Qarg'a esa, xotirjam o'rmonga uchib kelibdi. Shunday qilib, aqlli qarg'a sinchalakni ham, uning poloponlarini ham, o'zini ham tulkidan qutqaribdi.



## TURKMAN XALQ ERTAKLARIDAN

*Turkmaniston Respublikasi O'rta Osiyoning janubi-g'arbida joylashgan bo'lib, 488,1 kv.km maydonga ega, rasmiy ma'lumotlarga ko'ra aholisi 4,5 milliondan ko'p. Davlat tili turkman tili bo'lib, bu tilda besh millionga yaqin kishi so'zlashar ekan, shundan 2,5 miln. kishi Turkmanistonning o'zida. Turkman tili o'g'uz-qipchoq tillari negizida shakllangan va rivojlangan. Bu tilning sakkizta lahjasi bor: taka, yovmut, sariq, salir, schovdur, ersari, go'klan, truxman. Turkman adabiy tili o'zbek mumtoz adabiyoti bilan uyqash bo'lgan va uni boshqa turkiy xalqlar ham tushunaverganlar. Ammo XX-asrning XX-yillarida turkman tilshunosligi taka lahjasi asosida turkman adabiy tilini shakllantirib, mahdudlashtirdilar.*

*Turkman yozma adabiyoti XVIII-asrning boshlaridan shakllana boshlagan. Turkmanlarning folklor asarlari turkiylar, jumladan, o'zbeklar bilan uyqash: o'zbeklarning xorazmiy baxshilari aytadigan "Sayod va Hamro", "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Yusuf va Zulayho", "Layli va Majnun", "Go'ro'g'li" dostonlarini turkman baxshilari ham aynan aytaveradilar. Turkiylarning "Kitobi dadam Qo'rqut" asari turkmanlarning ham azaliy merosi hisoblanadi. Turkman ertaklari ham mazmun va syujet jihatidan boshqa turkiy xalqlar ertaklari bilan uyqash.*





## KENJA BOTIR



79

Bir beva xotinning Kenja botir degan o'g'li bor ekan. Hali o'zi bola bo'lsa ham tengqurlaridan bo'yi ancha baland, kuchda ham zo'r ekan. Kunlardan bir kun u tengqurlari bilan o'tin terib kelishga bormoqchi bo'libdi.

- Ene, - debdi u onasiga, - bugun men juda ko'p ishlasam kerak, menga yarim pud bug'doy qovurib bering, ketishdan oldin kuch to'plash uchun yeb olay.

Onasi unga yarim pud bug'doyni qovurib beribdi, u qozonning tepasida o'tirib olib bitta ham don qoldirmay yeb, qornini to'yg'azib olibdi. Tengqurlari eshak minib kelishib, uni chaqirishgan ekan, bu tuya minib chiqibdi va birga-birga yo'lga tushishibdi.

Uzoq yurishibdimi, qisqa yurishibdimi, nihoyat bolalar o'rmonga yetib kelishibdi. Kenja botirning o'rtoqlari shox-shabbalarni yig'ishga kirishib ketishibdi. Kenja botir esa, bir daraxtning tagiga cho'zilib olib uxlab ketibdi. Kechga yaqin bolalar uni uyg'otishibdi:

- Ey, Kenja, tur! Biz o'tin yig'ib bo'ldik, qani sen yig'gan o'tin?  
- deyishibdi.

Kenja botir to'ng'illabdi, kerishib o'rnidan turibdi.


- Men yarim pud bug'doyni yeb, kuchimni cho'p yig'ishga sarf qilamanmi? - debdi.

Bolalar unga shox-shabbalarni yig'ib berishibdi.

- Mana, biz senga o'tin yig'ib berdik, tuyangning o'rkachiga ort, - deyishibdi.

- Men yarim pud bug'doyni yeb, kuchimni tuyaning o'rkachiga o'tin ortishga sarflaymanmi? - debdi.

Bolalar uning tuyasi ustiga yig'ilgan o'tinni ham ortib berishibdi.



- Ana, Kenja, o'tiningni ham tuyangning ustiga ortib berdik, o'tir, ketdik uyga, - deyishibdi oshnalari.

- Men yarim pud bug'doyni yeb, kuchimni tuyaning ustiga minishga sarflaymanmi? - debdi Kenja botir va tuyasining ortidan piyoda ketaveribdi.

Bolalar qum sahrosiga chiqishganda bir quduq yonidagi yolg'iz uychaga ko'zlari tushibdi. Bu uychada bir dev yashar ekan.

Dev bolalarning oldiga chiqib kelibdi.

- Oh-oh, odam go'shtining isi kelyapti! - debdi dev va bolalarga mulozamat qilibdi: - Xush kelibsizlar! Bir kecha mening kulbamda yotib, ertaga ketarsizlar.

Bolalar rozi bo'lishibdi va eshaklari ustidagi yukni tushirishibdi. Qorong'u tushgach, ular qumga dumalab uxlab qolishibdi. Ammo Kenja botir uxlamabdi, dev ham o'z xonasida uxlamagan ekan. Dev yarim tunda o'rnidan turib bolalar yotgan joyga pisib kela boshlabdi, Kenja botir ham o'rnidan turib:

- Ha, dev, senga nima kerak? - deb so'rabdi.

- Uyqum kelmayapti-da, - debdi Kenja botir. - Har kuni onam menga uyquga yotishdan oldin elakda suv ichirardi, shunga o'rganib qolibman. Sen ham menga elakda suv olib kelib ichirmasang, uxlolmayman.


- Mayli, - debdi dev, - hozir olib kelib ichiraman.

U elakni olib quduq tepasiga boribdi, elakni suvga botiribdi, ammo ko'targanda suv chiqmabdi, qancha urinmasin elakda suv ololmabdi. U tongacha urinibdi, oxiri charchab Kenja botirning oldiga kelibdi.

- Quduqdan elakda suv tortolmadim, bilishimcha, kimdir quduqni sehrlab qo'yganga o'xshaydi. Endi suvsiz uxlay qol, - debdi dev uh tortib.

- Mayli, - debdi Kenja botir. - Lekin uyqum kelmaganda onam menga quymoq pishirib berardi.

- Bu qo'limdan keladi, - debdi dev.



- Lekin onam quymoqni boshqacha pishirardi, - debdi Kenja botir.  
- Qanday pishirishni aytaman, eshit. Tuxumlarni sindirasan, oqi bilan sarig'ini itga tashlaysan. Menga po'chog'ini pishirib berasan. Po'choq yog' ichida yoyilishi bilan menga olib kel.

Dev quymoq pishirish uchun uyiga kirib ketibdi, Kenja botir esa o'rtoqlarini uyg'otibdi.

- O'tinlarni tashlab, eshaklaringga mininglar, tirikligimizda qochib qolaylik, - debdi.

Bolalar eshaklariga minib, Kenja botir tuyasiga o'tirib, yo'lga tushishibdi. Dev tuxum po'choqlarini yog' ichida pishirguncha ular ancha yo'lga borib olishibdi. Ular yura-yura xon saroyi oldidan chiqib qolishibdi. Kenja botir tuyasini saroy tomonga yo'rttiribdi, bolalar ham unga ergashibdilar.

Xon tong bilan bog'da sayr qilishni yaxshi ko'rar ekan. Odatiga ko'ra bog'da sayr qilib yurganda Kenja botir bilan uning o'rtoqlarini ko'rib qolibdi, ularni qaroqchilar deb o'ylab, soqchilariga ularni qumga haydab yuborishni buyuribdi.


- Ey, xon hazratlari, - deb murojaat qilibdi Kenja botir. - Biz o'rmonga o'tin tergani borgan edik, qaytishda adashdik. Qumda bizni dev yeb qo'yishiga sal qoldi. Bizni haydashga buyurgandan ko'ra, qornimizni to'yg'azishga buyursangiz bo'lardi.

Xon o'ylab turib:

- U devdan hali hech kim qochib qutulmagan. Agar so'zingga ishonishimni istasang, menga devning oltin gilamini olib kel, o'rtoqlaringga bittadan kulcha beraman.

- Bo'pti, - deb rozi bo'libdi Kenja botir. - Gilamni olib kelganim bo'lsin. Faqat menga igna to'la bir qop bersangiz.

Xon xizmatchilariga igna bilan to'latilgan qop berishni buyuribdi. Kenja botir qopni tuyaning ustiga ortib devning oldiga ketibdi. U tuyani bir qum tepalikning ortiga yashirib, o'zi dev nima qilayotganini ko'rish uchun asta boribdi. Dev oltin gilam ustida o'tirib



olib, oldidagi qozonda quymoq pishirish bilan ovora ekan. U tuxum po'choqlari yog' ichida qachon yoyilishini kutar, qozon tagiga o'tin qalar ekan. Hujraning eshigi oldida oltin tovuq qaqolab tuxum tug'ayotgan ekan. O'tin tugab, dev tashqariga o'tin olib kelgani chiqqanda, Kenja botir oltin gilamga ignalarni qadab chiqibdi. Dev o'tin bilan qaytib kirib, qozon oldiga o'tiribdi, ammo shu zahotiyocq bo'kirib o'rnidan turib ketibdi.

- Voy-bo', gilamimni burga bosib ketibdi-ku! - debdi.

Devning shunday jahli chiqib ketibdiki, gilamni yig'ishtirib tashqariga uloqtiribdi. Yana qozon oldiga o'tirib olib tuxum sindirib qozonga sola boshlabdi. Kenja botir gilamni darhol olib tuyasiga minib xon huzuriga yo'l ohbdi. Xon oltin gilamni ko'rib og'zi ochilib qolibdi. U oltin gilamni taxt oldiga yozishni buyuribdi.

- Sen shunaqa uddaburro ekansan, qani, menga devning oltin qozonini olib kel-chi, - debdi Kenja botirga.

- Yo'q, xon hazratlari, bunaqaga kelishmagandik, - debdi Kenja botir. - Siz agar oltin gilamni olib kelsang, o'rtoqlaringga bittadan kulcha non beraman, deb va`da qilgan edingiz.

- Ko'p valaqlama! - debdi xon g'azab bilan. - Agar oltin qozonni olib kelmasang, o'rtoqlaringni dorga ostiraman.


Kenja botirning yana dev oldiga borishdan boshqa chorasi qolmabdi.

- Menga uzun kosov bering, men sizga oltin qozonni olib kelib beraman, - debdi u xonga.

Xon kosov berishni buyuribdi va Kenja botir tuyaga minib qumga ketibdi.

Uzoq yuribdimi, qisqa yuribdimi, xullas, u devning hujrasi oldiga kelib to'xtabdi.

Dev hamon oltin qozon oldida o'tirib, tuxum po'choqlarining yog'da erishini kutib o'tirar ekan. Kenja botir kigiz tagidan kosovni tiqib, qozonning tagiga taq-taq ura boshlabdi.



Devning g'azabi qo'zib baqiribdi:

- Eh, la' nati qozon, tuxum po'choqlarini eritmaganing bir sari, hali mening jig'imga ham tegadigan bo'ldingmi! - U qozonning ikki qulog'idan ushlab, undagi yog' bilan tuxum po'choqlarini cho'yan qozonga ag'darib, hujradan tashqariga uloqtirib yuboribdi.

Kenja botir qozonni olib, quduqda sovitib, tuyasiga ortibdi-da, xon saroyiga yo'l olibdi. Oltin qozonni ko'rgan xon battar hayron bo'libdi. U xizmatkorlariga bayram kunlari shu qozonda palov tayyorlashni buyuribdi.

- Sen, yigit, juda abjirga o'xshaysan. Hoziroq devning oldiga jo'na, menga uning oltin tovug'ini olib kel. Olib kelmasang, o'rtoqlaringni dorga ostiraman.

Kenja botirning rozi bo'lishdan boshqa chorasi yo'q ekan.

- Mayli, - debdi Kenja botir. - Buyuring, menga matrab bersinlar.

Xon unga matrab berishni buyuribdi va Kenja botir yo'lga ravona bo'libdi. U devning hujrasi yaqiniga kelsa, dev hamon o'sha ish bilan band ekan. Faqat uning ko'zlari qonga to'lgan va ko'rinishi dahshatli ekan. Kenja botir kigiz tagidan kosovni olib, sekingina oltin tovuqning katagiga suqibdi. Tovuq qanotlarini yoyib qaqolabdi.

- Qa-qa, qa-qaq!


Devga bu qaqolash:

- Dev ahmoq! Dev ahmoq! - degandek eshitilibdi.

- Eh, yaramas! Yog' ichida erimaydigan tuxum berganing kamlik qilgandek, yana ustimdan kulyapsanmi? - debdi dev va tovuqni katagidan olib tashqariga uloqtiribdi. Kenja botir tovuqning ustiga matrabni tashlab, tuyasiga minib jo'nab qolibdi.

Xon oltin tovuqni ko'rib xitob qilibdi:

- Ana endi barcha xonlarning menga havasi keladi, chunki oltin tovuqning qaqolashi bulbul sayrashidan ko'ra yoqimliroq! - Xon Kenja botirga o'girilib: - Sen, yigit, shunaqa kuchli ekansan, menga endi devning o'zini keltir. O'shanda men barcha ertaklarda maqталadigan bo'laman.



- Insofingiz bormi, xon hazratlari? - debdi Kenja botir. - Axir bunaqaga kelishmagandik-ku!

84 - Ko'p gapirma! - dedi xon. - Agar mening huzurimga tirik devni olib kelmasang, o'rtoqlaringni dorga ostiraman.

- Mayli, - debdi Kenja botir. - Men devni olib kelishim uchun katta sandiq kerak. Keyingisini o'zingizdan ko'ring.

Xon katta sandiqni mahbuslardan bo'shatib, Kenja botirga berishga buyuribdi.

- Endi menga echki terisini bersinlar, - debdi Kenja botir. - Terim-ing har bir tolasiga bittadan qo'ng'iroqcha osishsin.

Aytganlarining hammasi bajarilgach, Kenja botir echki terisini yo-pinib olibdi, sandiqni tuyasining ustiga ortibdi. Sandiq shunday og'ir ekanki, tuya o'rnidan tura olmay qolibdi. Kenja botir sandiqni yelkasiga ortib dev oldiga piyoda ketibdi.

Devning hujrasi tomiga chiqib, qo'ng'iroqchalarni chala boshlabdi. Dev qo'rquvdan qaltirabdi.

- Kim u? Jinmisan, shaytonmisan? - deb baqiribdi.

- Men arslonman, - debdi Kenja botir. - Tuxum po'choqlarining hidi dimog'imga kirib, bu yerga keldim. Qarasam, bu yerda go'sht ham bor ekan. Bu yoqqa chiq, dev, men seni yeyman.

- Meni yema, arslonjon! - deb iltijo qilibdi dev. - So'ragan nar-sangni beraman.

- Bo'pti, - debdi Kenja botir. - Hujrangni menga bo'shatib ber, sen o'zing anavi sandiqqa tushib ol.

Dev hujrasidan yugurib chiqib sandiq ichiga tushib ohbdi.

- Qopqog'ini ustingga yopib ol, - deb buyuribdi Kenja botir.

Dev bu buyruqni ham bajaribdi. Kenja botir tomdan sakrab tush-ib, sandiqni qulflab olibdi va yelkasiga ortib kelgan yo'lga ravona bo'libdi.

- Endi dev ham mening qo'limda, - deb maqtanibdi xon. - Qani, men uning bir turqini ko'ray-chi!

U sandiqni ochar-ochmas dev sandiqdan otilib chiqib xonni



parchalab tashlabdi. Keyin u Kenja botirga tashlanibdi. Kenja botir tashqariga qochib chiqib, tovuqxonaga berkinib olibdi. Dev uni topib, oyoqlaridan tortib chiqaribdi.

- Ana endi men seni yeyman! - deb baqiribdi dev.

- Meni qanday yeysan? Axir tovuqning qumalog'iga belanib yotibman-ku.

- Hechqisi yo'q, seni hammomda cho'miltirib olaman.

- Unda roziman, ketdik hammomga, - debdi Kenja botir.

Ular xonning hammomiga kirishibdi. Hammomga kirgach:

- Meni tovuqxonadan olib chiqayotganingda senga ham qumaloq tegibdi, kel, birga cho'milamiz, - debdi Kenja botir.

Dev o'ziga razm solib:

- Seni yeyish ham qimmatga tushadigan bo'ldi, - deb to'ng'illabdi.

- Endi tog'oralarga tushamiz, - debdi Kenja botir. - Men o'ng tomondagi tog'oraga tushaman, sen chap tarafdagisiga.

Kenja botirning tushgan tog'orasida sovuq suv ekan, devning tushgan tog'orasida qaynoq suv ekan. Dev issiq suvli tog'oraga tushishi bilan qaynoq suvda pishibdi.

Kenja botir xon saroyidan devning oltin gilami, oltin qozoni va oltin tovug'ini olib, o'rtoqlari bilan qishloqlariga qaytibdilar.

U onasi bilan uzoq yillar baxtli hayot kechiribdi.

## AHMADNING AQLI

Bir shaharda Ahmad degan kambag'al yashar ekan. Uni hamma tentak der ekan, ammo u:

- Pulim bo'lganda nimalar qo'limdan kelishini ko'rsatib qo'yardim, - der ekan.

Bu gapni bir boy savdogar eshitib qolib:



Men senga pul beray, sen savdogarlik qil, qani, foyda olib kelarmikinsan yo zarar, ko'raylik-chi! - debdi.

Savdogar Ahmadga bir oz pul berib, uni karvonsaroyga boshlab boribdi. Savdogarlar ayni o'sha paytda boshqa shaharga savdo uchun otlanib turishgan ekan.

Ahmad hamma puliga eski latta-putta sotib olib, hammasini bir necha toy qilib bog'labdi va ularni tuyaning ustiga ortibdi. Karvon yo'lga chiqqanda savdogarlar Ahmadning olib ketayotgan molidan xabar topib kulishibdi:

- O'ho', Ahmad, aqling joyida-ku! - deb kesatishibdi.

- Foyda-zararni hisoblagandan keyin kulamiz, - debdi Ahmad. - O'shanda ko'ramiz, kimga to'yu kimga aza.

Bir necha kundan keyin karvon katta bir shaharga kirib kelibdi. Shahar chuqur bir daryoning bo'yida ekan. Savdogarlar karvonsaroyga tushishibdi, Ahmad esa o'zining tuyalari bilan yalang qirg'oqda qolibdi. U tuyalaridan yuklarini tushirib, lattalarni bir joyga to'plabdi-da, yoqib yuboribdi. Lattalardan hosil bo'lgan kul butun qirg'oq bo'ylab yoyilib ketibdi.

Har kecha suvdan baliqlar qirg'oqqa chiqib, oy yorug'ida yayrashar va o'zlari bilan olib chiqqan durlarni o'ynasharkan. Og'izlaridan durlarni otishar, tongga yaqin ularni yig'ib olib, yana suvga sho'ng'ib ketishar ekan. Lekin Ahmad lattalarni yoqqan kechasi baliqlar durlarni yig'ishtirib olisholmabdi, durlar ko'l orasida ko'rinmay qolgan ekan.

Ahmad ertalab kullarni bir joyga to'plab, ularni elakdan o'tkazibdi va bir qop dur yig'ib olibdi. Keyin u karvon yurgan yo'llar ustiga chiqib, tuya tezaklarini yig'ib, ulardan tappilar yasabdi-da, tappilarning ichiga durlarni yashiribdi. Bu orada savdogarlar o'z mollarini sotib bo'lib, Ahmadni olib ketgani qirg'oq bo'yiga kelishibdi.

Ular tappilarni ko'rib rosa kulishibdi.

- Ahmad haqiqiy savdogar ekan! - deb masxara qilishibdi. - Latta-puttasini go'ngga almashib foyda ko'ribdi.





- Endi bu go'ngni yetti kunlik yo'ldan olib ketadi! - deb kesatibdi boshqasi.

- Har bir odam o'zining aqli bilan ish qiladi, - deb javob beribdi Ahmad xotirjamlik bilan.

- Aqling joyida bo'lsa shu ishni qilarmiding! - deb kulishibdi savdogarlar va yo'lga ravona bo'lishibdi.

Karvon yetti kun deganda o'z shahriga kirib kelibdi. Odatga ko'ra, ular oldindan chopar jo'natishibdi.

Chopar shaharga kelib karvonning omon-eson qaytganligini, savdo yaxshi bo'lganligini xabar qilibdi va Ahmadning eski-tuski latta-larni tappiga almashtirganligini va bozorga sotish uchun olib kelayotganligini aytishni ham unutmabdi. Bu gapdan hamma kulibdi, ammo Ahmadga pul bergan savdogarning qovog'i tushib ketibdi.

"Endi hamma mening ustimdan kuladi", - deb o'ylabdi savdogar va Ahmadni kutib olgani chiqmabdi.

Karvon shaharga kirib kelibdi, savdogarlarni qarindosh, tanish-bilishlari kutib olib, omon-eson kelganlari bilan muborakbod qilishibdi, lekin Ahmadni hech kim kutib olmabdi, faqat uning ustidan kulishibdi, xolos.


Kechqurun savdogarlar ziyofat uyushtirishibdi. Ahmad ham ziyofatga kelib, tuyalaridan yuklarni tushira boshlabdi. Ahmadga ishonib pul bergan savdogar qovog'ini solib o'tirar, uyatdan yerdan ko'zini olmas emish. Savdo qilib kelgan savdogarlar savdo ishlari bilan maqtanishar va xaridorlarni qanday aldaganliklarini gapirib berishardi.

Navbat Ahmadga kelibdi. Odamlar undan:

- Xo'sh, nimalarni qoyil qilding? Dono aqlingni nimalarga ishlatding? - deb so'rashibdi kesatib.

- Kam deganda undan kam bo'lmadi, ko'p deganda undan ko'p bo'lmadi, - debdi Ahmad va qoplaridan tappilarni yerga ag'daribdi.

Savdogarlar xaxolab kulib yuborishibdi, pul bergan savdogar esa baqirib:



- Yo'qol bu yerdan, yalqov! - debdi.

Shunda Ahmad birin-ketin tappilarni sindira boshlabdi, gilam ustida katta-katta durlar yaltirabdi.

Savdogarlar bu boylikni ko'rib og'izlari lang ochilib qolibdi, hozirgina Ahmadga "yo'qol", deb baqirgan savdogar esa, xuddi kaltake-sakdek gilam ustida emaklab, durlarga ochko'zlik bilan changal solarmish.

Ahmad hamma tappilarni sindirib bo'lgach, gilam ustida durdan xirmon hosil bo'libdi. Ahmad hasad va hayratdan qotib qolgan savdogarlarga qarab:

- Men savdo ishini qilmayman va sizlarga havasim ham kelmaydi! - debdi. Keyin u puli kuygan savdogarga yuzlanib: - Bu durlarning hammasi senga, ola qol! Men bularga o'xshab xalqni aldaganim yo'q, sen esa, meni kutib olishdan or qilding! - debdi-da, ziyofatdan chiqib ketibdi.





## YEVROOSIYO

89

### TURK XALQ ERTAKLARIDAN

*Turkiya Jumhuriyati Osiyoning g'arbiy qismi va Yevropaning janubi-sharqiy qismida joylashganligi uchun ham uni Yevroosiyo, deb ataydilar. Jumhuriyatning 97% Kichik Osiyo yarim oroli (Onado'lu)da, 3% Yevropa (Sharqiy Fpakiya)da, shimoldan Qora dengiz, g'arbdan Egey dengizi, janubdan O'rta dengiz bilan o'ralgan. Egey dengizidagi bir qancha orollar ham Turkiya Jumhuriyatiga qarashli. Jumhuriyatning maydoni 814578 km<sup>2</sup>, aholisi 69,5 milliondan ko'proq. Bu hududda juda qadim zamonlardan beri yuksak madaniyatga ega bo'lgan davlatlar mavjud edi. Turkiy elatlar bu hududga XI-asrdan boshlab ko'chib kela boshlagan. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, turklar, ya'ni turk tilida so'zlashuvchi kishilar 50 millionni tashkil etar ekan. Turklar antropologik jihatdan janubiy yevropoid irqning O'rta dengiz guruhiga mansub. Etnik jihatdan esa, XI-XIII-asrlarda saljuqiylar va mo'g'ullar istilosi natijasida O'rta Osiyo va Erondan Kichik Osiyoga ko'chib kelgan ko'chmanchi turk chorvador qabilalari (asosan o'g'uzlar va turkmanlar) va mahalliy aholidan tarkib topgan. Turklarning bir qismi bo'lgan uzlar va bijanaqlar Bolqon yarim oroli orqali Kichik Osiyoga kirib kelgan. Mahalliy aholidan yunonlar, armanilar, gurjilar bilan aralashib, ularni o'zlariga singdirib yuborganlar. Ularning kelib chiqishida alban, rumin, arab, kurd, slavyan singari etnik guruhlarning unsurlari ko'rinadi. Turklar xalq sifatida XV-asrlarda shakllanganlar. Bu xalqda ham etnik guruhlar bor: yuruklar, turkmanlar, taxtajlar, abdallar bo'lib, bu ko'chmanchi guruhlar tobora turk xalqining tarkibiga singib bormoqdalar. Mashhur "O'g'uznoma" turk xalqining ijod mahsulidir. Shuningdek, "Erganakon", "Go'ro'g'li", "Kitobi dadam Qo'rqut" dostonlari ham turk xalqiga taalluqlidir. Turk xalqi ertak, qo'shiq, maqol va matallarga ham boydir. Turklarning yozma adabiyoti XIII-asrning o'rtalariga mansub bo'lib, turk mualliflari ko'proq fors va arab tilida ijod qilganlar.*



## GO'ZAL MESHKOBCHI YIGIT



Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda bir podshoh bor ekan-u, uning sohibjamol bir qizi bor ekan. Vazirning qizi ham go'zallikda undan qolishmas ekan. Kunlardan bir kuni ikkala qiz deraza yonida chaqchaqlashib o'tirishgan ekan, go'zal meshkobchi yigit o'tib qolibdi. Malika uni ko'rib qolib, debdi:

- Meshkobchi, hoy meshkobchi, ayt-chi, qaysi birimiz chiroylimiz: vazirning qizimi yoki menmi?

- Ikkovingiz ham chiroyli ekansiz, - debdi meshkobchi yigit, - lekin vazirning qizi chiroyliroq ekan.

Meshkobchi shunday debdi-yu, o'z yo'liga ketaveribdi. Shu kundan boshlab malika vazirning qiziga g'ayirlik qiladigan bo'lib qolibdi.

Bir necha kun o'tganidan keyin malika qattiq kasal bo'lib qolibdi. Keksa ota uni davolatish uchun bir qancha donishmand hakimlarni chaqirtiribdi. Shunda qiz hakimlardan birini sekin chaqirib olib, bir hovuch oltin beribdi-da:

- Otamga borib: "A'lo hazrat, qizingiz vaziringiz qizining qonini ichmaguncha aslo tuzalmaydi", deb ayt, - debdi.

Hakim podshohning huzuriga kirib, qiz tayinlagan gaplarni aytibdi.

Podshoh vazirni chaqirib, unga hakimning gapini aytibdi. Vazir qattiq qayg'uribdi. Chunki u qizini juda ham yaxshi ko'rarkan. Vazir qizini saqlab qolish uchun katta bir mushukni o'ldirib, qonini podshoh saroyiga olib boribdi. O'zi uyiga qaytib kelib, yong'oq daraxtidan ichidan qulflanadigan qilib sandiq yasatibdi. Ichiga qizini solib, bozorga olib boribdi. Shu paytda go'zal meshkobchi yigit bozorda yurgan ekan. U sandiqni sotib olibdi-da, uyiga olib borib qo'yibdi.

Meshkobchi ertasiga erta bilan turib, o'zining kundalik vazifasini bajarishga jo'nabdi. Qiz shunda sekingina sandiqni ochib chiqib, uyni



supurib-sidiribdi-da, meshkobchiga o'rin solib qo'yibdi. Keyin oz-roq ovqat yeb, yana sandiqqa tushib yotibdi.

Kechqurun go'zal meshkobchi yigit uyiga kelib qarasa, hammayoq saranjom-sarishta: uy supurib-sidirilgan, o'rin solingan. "Kimdir kelib ketibdi", deb o'ylab, yotib uxlabdi.

Ertasiga ham erta bilan meshkobchi suv tashigani ketibdi. Qiz uyni yig'ishtirib, yana sandiqqa tushib yotib olibdi. Meshkobchi kechqurun uyiga qaytib kelsa, yana hammayoq yog' tushsa yalagudek supurib-sidirilgan, ashylar hammasi saranjom-sarishta emish. Shunda sandiq uning esiga tushib qolibdi.

- Ey, buning ichida kim bor? Qani, bu yoqqa chiq-chi, afti basharangni ko'ray, - debdi u.

Qiz indamabdi. Meshkobchi nima ham qila olardi? Bir oz o'tirgach yotib uxlabdi.

Erta bilan u qo'shnisidan bir oz go'sht sotib olib, uyga qo'yibdi-da: "Uyimga xo'jayinlik qilib yurgan odamni zora shu safar qo'lga tushira olsam", deb o'ylabdi.

Yigit uydan chiqib ketishi bilanoq qiz sandiqdan chiqib, uyni yig'ishtiribdi. Go'shtni pishirib, laganga suzibdi-da, keyin kir yuvishga o'tiribdi.


Shu payt daf'atan uyga meshkobchi qaytib kelib qolibdi.

- Voy! - deb qiz undan yuzini yashiribdi.

- Ey jonon, Endi sen menikisan, men bo'lsam seniki, - debdi meshkobchi. - Qo'rqma, taqdirning o'zi ikkovimizni bir-birimizga bog'lab qo'yganga o'xshaydi.

U odamlarni chaqirib kelib, qizni nikohlab olibdi. Shundan keyin ular bir-birlariga mehr qo'yib, totuv hayot kechira boshlabdilar.

Kunlardan bir kuni meshkobchi xachirlarga sovg'a-salomlar ortibdi-da, xotinini eshakka mindirib, onasining oldiga yuboribdi. Yosh kelinchakning husn-jamolini ko'rib, qo'shnilarning hasadi kelibdi. Ular meshkobchiga: "Xotining buzilib ketdi",



deb xat yozib yuborishibdi. Meshkobchi darg'azab bo'lib, xotini o'ldirmoqchi bo'libdi.

92

U onasining uyiga borgan ekan, xotini quvonib, yuguranicha peshvoz chiqibdi. Qarasa, erining qo'lida pichoq, avzoyi buzuq. Xotini uyning shundoq yonginasidan oqib o'tadigan daryoga o'zini tashlabdi. To'lqin uni o'z og'ushiga olib, dengizga oqizib ketibdi. Dengizda qiz baliqchilarning to'riga ilinibdi. Baliqchilar to'rni tortib olib qarashsa, oy desa og'zi bor, kun desa ko'zi bor bir yosh juvon yotgan emish. Buni ko'rgan baliqchilar o'zaro uni talashishibdi.

- Men olaman, - debdi biri.

- Yo'q, men olaman, - debdi ikkinchisi.

Janjal mushtlashishga aylanay deb turganda baliqchi chol gapga aralashibdi.

- Kamondan uzilgan o'qni kim birinchi bo'lib olib kelsa, go'zal juvon o'shaniki bo'ladi, - debdi.

Ular shartga rozi bo'lishibdi. Kamondan o'q uzilibdi. Uchala baliqchi uning ketidan yugurib ketishibdi. Meshkobchining xotini yolg'iz o'zi qolibdi. U baliqchilar to'rini yig'ishtirib olib qochibdi.


U qochib ketayotgan ekan, allaqanday badbashara bir chol yo'lini to'sibdi. U go'zal juvonnini ko'rib, shu onda oshiqi shaydo bo'lib qolibdi.

- Ey pari-paykar, endi sen menikisan! Men seni sira qo'ldan chiqarmayman, - debdi u.

Lekin meshkobchining xotini bu gapni eshitib dovdirab qolmabdi. Cholning boshiga baliqchilarning to'rini yopib, ura qochibdi.

Axiri u horib-charchab bir buloq boshiga yetib boribdi. Buloqning bo'yida bir tup daraxt bor ekan. Shu daraxtning ustiga chiqib, dam olib o'tiribdi.

Ko'p o'tmay bu yerga bir shahzoda kelibdi. U suv ichmoqchi bo'lib, buloqqa engashgan ekan, suvda daraxtda o'tirgan go'zalning aksini ko'rib qolibdi. Shahzoda tepaga qarasa, daraxtda, shoxlar orasida



sohibjamol bir juvon o'tirganmish. Shahzoda bir ko'rishdayoq oshiq bo'lib qolibdi va unga uylanmoqchi bo'libdi.

- Shahzoda, xayriyatki, buloqning suvidan ichib qo'ymadingiz, - debdi mug'ambir juvon, - uning suvi sehrlangan. Kishiga baxtsizlik keltiradi. Yaxshisi, mening yonimga chiqib o'tiring, nima bo'lishini ko'ramiz.

Shahzoda juvon aytganidek qilib, uning yoniga chiqib o'tiribdi. Bir soatcha vaqt o'tar-o'tmas uchala baliqchi buloqning tepasiga yetib kelibdi. Ular buloqdan suv icha turib, suvda o'zlari yo'qotgan juvonning aksini ko'rib qolishibdi-da, behush bo'lib yiqilishibdi.

Ko'p o'tmay buloqning boshiga haligi badbaxt chol yetib kelibdi. U ham suv ichmoqchi bo'lib buloqqa engashgan ekan, suv betida pari-paykarning aksini ko'rib yiqilibdi.

Bir ozdan keyin buloqdan suv olgani go'zal meshkobchi yigit kelibdi. U buloqqa engashgan ekan, suv betida xotining aksini ko'rib, hushidan ketib yiqilibdi. Shahzoda bularni ko'rib hayron qolibdi. U o'z yaqinlarini chaqirib, bu yotganlarning hammasini olib borib qamashni buyuribdi.


Shu zahoti uning buyrug'i bajo keltirilibdi. Lekin bu ishi meshkobchining xotiniga yoqmabdi. U:

- Ey shahzoda, bu baliqchilar meni dengizdan tortib olishdi. Manovi chol bo'lsa meni xafa qildi, mana bu go'zal meshkobchi yigit Esa mening erim bo'ladi, - debdi.

- Ey sohibjamol, gaplaring rost bo'lsa, ularni ozod qilaman, - debdi-da, shahzoda baliqchilarni bo'shatib yuborishni buyuribdi. Cholning esa kallasini oldiribdi. Keyin meshkobchiga:

- Ol xotiningni. Lekin ehtiyot bo'l, bundan keyin qo'lingdan chiqarib yuborma, ikkovinglar umrbod baxtli bo'linglar, - debdi.

Go'zal meshkobchi barno yigit qirq kechayu qirq kunduz to'y-tomosha qilib, qaytadan vazirning qiziga uylanibdi. Shunday qilib, ular murod-maqsadlariga yetibdilar.



## MINNATDOR TULKI



Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda kichkinagina bir qishloqda bir tegirmonchi bor ekan.

U yangi so'yilgan tovuq go'shtini yaxshi ko'rarkan. Shuning uchun ham katagidan besh-oltita tovuq arimas ekan.

Kunlardan bir kuni ayyor tulki katakka kirib, hamma tovuqlarni yeb ketibdi. Tegirmonchi yana bir qancha tovuq sotib olib kelib katakka qamabdi. Tulki ularni ham saranjomlabdi. Tegirmonchi, o'g'rini qanday tutsam ekan, deb kecha-kunduz bosh qotiribdi. U o'ylay-o'ylay axiri bir yo'l topibdi. O'ra kovlab, tovuqlarni o'shanga qamabdi.

Kechasi tulki yana kelibdi. Qarasa, katak bo'sh emish. Tulki sinchiklab u yoq-bu yoqqa yugurib, tovuqlar o'raga qamab qo'yilganidan xabardor bo'libdi. U sakrab o'raga tushibdi. Qarasa, tushgan joyi jahannam, omon-eson chiqib ketishning sira iloji yo'q.

U tegirmonchining qahridan qo'rqib, tovuqlariga tegmabdi.

Erta bilan tegirmonchi o'ra boshiga kelganida:

- Baraka topkur, meni o'ldirma! - deb yalinibdi tulki. - Mening bu yerdan chiqib ketishimga yordamlashib yubor, men sendan o'la-o'lguncha minnatdor bo'lib yuraman.

Tegirmonchining qahri kelibdi:

- Ho' ayyor maxluq! - deb o'shqiribdi u. - Sen mening qanchadan-qancha tovuqlarimni qiyratib yubording. Endi bo'lsa minnatdorchilikdan gapirasan!

Tulki yalinerib uni holi joniga qo'ymabdi. Tegirmonchi ko'ngilchanlik qilib, uni o'radan chiqarib qo'yibdi. Ular tegirmonning oldigacha birga borishibdi.

- Endi sen menga bir ozroq kumush tanga ber, o'zing meni shu yerda kutib tur, - debdi tulki.





Tegirmonchi unga pul beribdi. Tulki pulni olib, to'ppa-to'g'ri hind podshohining qasriga boribdi-da, darvozani taqillatibdi. Podshohning xizmatkorlaridan biri chiqib darvozani ochibdi.

- Un podshohi sizning podshohingizga ko'pdan-ko'p salom deb yubordi, - debdi tulki. - Podshohimiz o'zining hamma kumush tangalarini hisoblab ko'rmoqchi. Shunga podshohingiz o'zining kumush tangalar o'lchaydigan tarozisini berib turmasmikin? Bo'shagan zahoti darrov qaytarib olib kelardim.

Xizmatkor ichkari kirib ketib, bir ozdan keyin kumush tangalar o'lchaydigan tarozini olib chiqib beribdi. Tulki tarozini olib, bir necha kun atrofda aylanib yuribdi-da, yana hind podshohining qasriga qaytib kelibdi. U taroziga tegirmonchidan olgan kumush tangalarini solib, xizmatkorning qo'liga berarkan:

- Marhamat, tarozingizni oling. Un podshohi sizlarga katta rahmat aytdi, - debdi.

- Buning ichida kumush tangalar nima qilib yotibdi? - deb so'rabdi xizmatkor.


- Mening podshohimda bunaqangi tangalar tog' bo'lib uyulib yotibdi, - deb javob beribdi ayyor tulki. - Uni o'lchaganda taroziga yopishib qolgandir-da, hechqisi yo'q. Bu bilan shohimning davlati kamayib qolmaydi.

Tulki tegirmonchining oldiga qaytib kelib, bir-ikki kun dam olibdi-da, keyin:

- Yana menga besh-olti lira oltin ber, - debdi.

- Sen meni xonavayron qilmoqchiga o'xshaysan, - debdi qizishib tegirmonchi, - bundan keyin senga sariq chaqa ham bermayman!

- Baxillik qilma, mening hurmatli Un podshohim, - debdi tulki uni ko'ndirishga urinib. - Hozirchalik mening senga nimalar qilib berishimni xayolingga ham keltira olmaysan. Menga bir oz oltin lira bera qol. Tulki tegirmonchidan ozroq oltin lira olibdi-da, to'ppa-



to'g'ri borib yana hind podshohining darvozasini taqillatibdi. Xizmatkor chiqib darvozani ochibdi.

96)

- Bu safar oltin liralari o'lchaydigan tarozingizni berib tursalaringiz, - debdi tulki, - bizning Un podshohimiz o'zining oltinlarini o'lchab ko'rmoqchi. Bo'shagan zahoti olib kelib beraman.

Tulki tarozini olib, bir necha kun o'rmonda aylanib yurib, keyin tegirmonchidan olgan oltinlarni taroziga solib, hind podshohining qasriga Eltibdi.

- Buning ichida oltinlar nima qilib yotibdi? - deb so'rashibdi xizmatkorlar.

- Podshohimizning ombori to'la oltin tanga, - deb javob beribdi tulki, - o'shalarni o'lchagan Edik. Shunda yopishib qolgandir-da. Bu bilan uning davlati kamayib qolarmidi?!

Tulki tegirmonchining oldiga qaytib kelgan ekan, u fig'oni chiqib:

- Senga bergan oltin-kumush tangalarim qani?!- deb baqiribdi.

- Bir oz sabr qilgin, - debdi tulki, - avval chaqmoq chaqadi.

Keyin momaqaldiroq bo'ladi.

Oradan bir necha kun o'tgach, tulki shaharga tushib, jarchiga debdi:

- Hammaga xabar qil. Biz hind podshohining qizirikiga sharobxo'rlikka ketyapmiz. Kim biz bilan borishni istasa, safar taradudini ko'raversin.

Jarchi ham:

- Un podshohi bilan jo'nashni istaganlar uch kundan keyin falon joyda tayyor turishsin! - deb jar chaqiribdi.


Belgilangan kuni podshohning ziyofatini yeb, sharobini ichishni istaganlardan ellik ming otliq yig'ilib, yo'lga tushishibdi.

Oldinda tulki yo'l boshlab boribdi.

Zo'r tantana bilan ketayotgan otliqlar besh kun deganda katta yo'l bo'yiga yetib borishibdi. Havo bulut ekan. Birdan jala quyib, hammayoqni shalabbo qilib yuboribdi. Ba'zi otlar tik sohilda yurolmay, sirg'anib







ko'lga tushib ketishibdi. Bir qancha otliq g'arq bo'lib ketibdi.

Tulki omon qolganlarning hammasini yig'ib hind podshohining qasriga olib boribdi. U yugurib borib, podshoh huzurida ta'zim bajo keltiribdi-da:

- Janobi oliylari, yo'lda kela turib dahshatli jaladan biz o'zimizgina omon qoldik. Otlarga ortib olib kelayotgan qanchadan-qancha bebaho buyumlarimiz jalada nes-nobud bo'lib ketdi, - debdi.

Hind podshohi avvaliga nima gapligini tushunolmabdi. U:

- Hoziroq saroy tikuvchisining oldiga boringlar. Zarar ko'rganlarga yangi liboslar tikib bersin, - debdi.

Tikuvchilar ishga tushib ketishibdi. Kelgan mehmonlarning ko'pchiligi yangi liboslar olishibdi.

Tulkining buyurtmasiga ko'ra Un podshohiga ham qimmatbaho matodan joma tikib berishibdi.

Tikuvchilar libos tikishayotganda, kelgan mehmonlar podshohning bog'iga kapa tikib, o'rnashib olishibdi. Shunda podshoh hayron bo'lib.

- Bu kelganlar kim? - deb so'rabdi. Tulki zo'r ehtirom bilan uning huzurida ta'zim bajo keltirib:

- Bular Un podshohining mulozimlari, - debdi. Keyin kelgan odamlarning oldiga qaytib: - Boringlar, men sizlarga qanday o'rgatgan bo'lsam, xuddi shunday qilib podshohning qizini so'ranglar, - deb shivirlabdi.


Besh-olti e'tiborli odamlar oldinga chiqib:

- Biz sizning huzuringizga qizingizni Un podshohiga berishingizni so'rab keldik, siz shunga nima deysiz? — deyishibdi.

Hind podshohi nima deyishini bilmay hayron bo'lib qolibdi.

- Taqdir qilgan bo'lsa, bersam berarman. Men nima ham derdim, - debdi u.

Keyin podshoh mehmonlarni oliy navli xushbo'y sharoblar bilan ziyofat qilishni buyuribdi.



98)

Ziyofatni yeb, mehmonlar uylariga qaytadigan bo'lishibdi.

- Biz katta qilib to'y qilmoqchi edik, - debdi tulki podshohga, - lekin biz bu yoqqa kelayotganimizda, sizga aytganimdek, yo'lda ko'p narsalarimiz nes-nobud bo'lib ketdi...

Hind podshohi uning so'zini kesib:

- Hechqisi yo'q! Biz, albatta, Un podshohidan ko'ra kambag'alroqmiz. Lekin shu yerda ham yaxshilab to'y-tomosha qilishga qurbimiz yetadi, - debdi.

Shu zahotiy oq to'yga tayyorgarlik boshlanib ketibdi. To'y qirq kecha-qirq kunduz davom etibdi. Hind podshohi minglab kishilarga oltin-kumushlar qadalgan kimxob to'nlar kiygizishni buyuribdi.

Oxiri Un podshohiga ham navbat kelibdi.

- Xo'sh, qalay, senga bular yoqadimi? - debdi tulki sekingina uning yoniga borib.

- G'oyatda mamnunman! - debdi tegirmonchi.

To'y tamom bo'libdi. Bir necha kundan keyin kelin-kuyov qaytadigan bo'lishibdi. Podshohning ko'pgina mulozimlari ham ular bilan birga yo'lga chiqishibdi. Yana tulki hammani boshlab boribdi.

Ayyor tulki oldinda keta turib o'tloqda bir talay tuya boqib yurgan kishilarni uchratibdi. Tulki ularga:

- Yo'lda kelayotgan odamlarni ko'ryapsizlarmi?- debdi.


- Ko'rishga-ku ko'ryapmiz, lekin ular kimlar ekan, bila olmadik, - deyishibdi podachilar.

- Bo'lmasa bilib qo'yinglar, ular sizlarni talash uchun kelishyapti, - debdi tulki, - bordi-yu, ular sizlardan: "Bu tuyalar kimniki?" deb so'rashsa, siz ularga: "Un podshosi janobi oliylariniki", deb ayt-inglar. Shunda ular sizga tegmaydi, - debdi.

Dabdaba bilan kelayotgan kishilar tuya boquvchilarning oldiga kelib:

- Bular kimning tuyasi? - deb so'rashibdi.

- Bu tuyalar bizning hukmronimiz Un podshohiga taalluqli, - deyi-shibdi tuya boquvchilar.



Ular yo'lda davom etishibdi. Tulki yana oldinda boribdi. Yo'lda u qo'yu sigirlarni boqib yurgan cho'pon va podachilarni uchratibdi.

- Hov yo'lda kelayotgan odamlarni ko'ryapsizlarmi? - debdi tulki ularga. //99  
- Ular sizlarni talamoqchi bo'lib kelishyapti. Bordi-yu, ular bu mollarning kimnikiligini so'rab qolishsa: "Bizning xojamiz - Un podshohi janobi oliylariga taalluqli" , deb aytinglar. Shunda ular sizlarga tegishmaydi.

Podachi va cho'ponlar tulkinging aytganidek qilishibdi. Shunday qilib, hind podshohining mulozimlari podshohning qizi bilan kuyovini kuzatib boraverishibdi. Tulki yana oldinga tushib yuguribdi.

Uzoqdan unga devlar qasri ko'rinibdi. Devlar shu paytda qattiq uyquda ekanlar. Ayyor tulki sekingina qasrning oldiga borib, uning atrofidan o't qo'yib yuboribdi. Devlar kuyib ketishibdi. Tulki tezda orqasiga qaytib, lovillab yonayotgan qasrni ko'rsatib:

- Mayli, xafa bo'lmanglar! Yaxshiki, biz uning ichida emasmiz. Unda o'zimiz ham qo'shilishib yonib ketardik. Lekin, afsuski, butun boyligimiz o'sha yerda edi. Uni qutqarib qololmadik, - debdi.

Shoh qizini kuzatib kelayotgan mulozimlar qasrning kuyib kul bo'lganini ko'rishibdi.


Hind podshohi xuddi o'sha yerga qizi bilan kuyoviga atab ko'rkam va muhtasham saroy qurdirib beribdi. Qasrni xorijiy savdogarlardan sotib olingan qimmatbaho buyumlar bilan to'ldiribdi. Shunday qilib, mehmonlar o'n to'rt kun shu yerda turishibdi-da, keyin uy egalari bilan xayrlashib, o'z yurtlariga qaytib ketishibdi. Qasrda esa tegirmonchi - Un podshohi, hind podshohining qizi hamda ayyor tulki birga yashay boshlabdilar.

Oradan ko'p yillar o'tibdi. Kunlardan bir kuni tulki ming'irlab:

- Tobim kelishmay turibdi. O'lib qolmasam yaxshiydi, - debdi.

Ertasiga xizmatkorlar borib qarashsa, u o'lib yotgan emish. Kelib podshohga:

- Janobi oliylari, tulkingiz olamdan o'tibdi, — deyishibdi. Un podshohi sovuqqonlik bilan:



- Qasrdan olib chiqib, uloqtiringlar! - debdi.

Xizmatkorlar endi podshohning aytganini qilishmoqchi bo'lib turishgan ekan, tulki irg'ib o'rnidan turib:

- Men senga shuncha yaxshilik qilsam, sen bo'lsang, meni uloqtirib yuborishni buyurding, - deb baqiribdi.

Un podshohi qah-qah urib kulibdi-da:

- Men sening o'lmaganingni bilardim, - debdi.

Bir necha kundan keyin tulki chindan ham jon beribdi. Podshoh u yana hiyla qilayotgan bo'lsa kerak, deb o'ylabdi-da, oldiga kelib sekin-sekin chaqiribdi:

- Mening tulkim, tulkiginam!

Biroq tulki javob bermabdi. Shunday qilib, tulkini zo'r hurmat bilan dafn etishibdi.


Tegirmonchi podshohning qizi bilan umrining oxirigacha muhtasham qasrda yashabdi. Bu tulkining unga minnatdorchilik yuzasidan qilgan yordami ekan.



Bor ekan-da, yo'q ekan, och ekan-da, to'q ekan, bo'ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, qarg'a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan, qirg'ovul qizil ekan, dumlari uzun ekan, toshbaqa tarozibon ekan-u, qurbaqadan qarzdor ekan.

Juda qadim zamonda bir podshoh bo'lib, uning peshanasida yakka-yu yagona qizi bor ekan. Shoh uni juda ham yaxshi ko'rarkan, undan bir nafas ham ajralgisi kelmas ekan. Qiz bo'lsa shu qadar chiroyli ekanki, hatto butun dunyoni qidirganda ham bunaqangisini topib bo'lmas ekan. Ko'p yigitlar uning jamolini ko'rishga zor ekanlar-u, lekin bu hech kimga muyas-





sar bo'lmagan ekan. Chunki podsho qizini ostona hatlab tashqari chiqishiga yo'l qo'ymas ekan.

Yaman podshosining o'g'li shu qizni ko'rish ishtiyoqida o'z yurtini tark etib, yo'lga chiqibdi. Qizning shahriga yetish uchun yetti yil yo'l yurish kerak ekan.

- Borib, baxtimni sinab ko'raman, - debdi yigit.

Shunday qilib, u ikki yil yo'l yuribdi. Liboslari yirtilibdi. Puli ham tugabdi. U, ochimdan o'lmay, deb tilanchilik qilibdi. Ba`zan unga ovqatlanish nasib bo'libdi, ba`zi kunlarda og'ziga uvoq ham solmabdi. Shu ahvolda u allaqancha joylarni kezib chiqibdi.

Kunlardan bir kuni u bir joyga kirsam, hammayoq tokzor, meva-zor bog'lar emish. Yoz fasli, havo issiq ekan. Yigit ochligidan boqqa kirib, shosha-pisha mevalardan uzib eya boshlabdi.

U ancha vaqtgacha bog'ma-bog' kezibdi. Bir boqqa kirib qarasa, saroy bor ekan. Saroyni yalmog'iz kampir qo'riqlar ekan. Uning uyqusi qattiq ekan. Uch kunda bir marta uyg'onib, bog'ni aylanib kelarkan-da, yana yotib uxlarkan. Yigit bog'da mevalardan yeb yurgan paytda yalmog'iz kampir uyg'onib, bog' aylanishga chiqib qolibdi. Yigit uni ko'rib, qo'rqqanidan yeb turgan mevasini tashlab, bir daraxt-ning orqasiga yashirinibdi-da:

"Falokat yuz berdi! Ko'rib qolguday bo'lsa, meni yeb qo'yadi, endi nima qilsam ekan?" deb o'ylabdi.

Yalmog'iz kampir havoni hidlay-hidlay yigit yashiringan tomonga juda ham yaqin kelib qolibdi.


Yigit: "Bo'lar ish bo'ldi!" - deb daraxt orqasidan chiqibdi-da:

- Onajon, taqdirim sening qo'lingda. Menga rahming kelsin. Azob berma, - debdi.

Unga qarab kampirning rahmi kelibdi.

- Ey inson, bu yerga qanday kelib qolding? Hozir seni yeb qo'ysam nima bo'ladi? - debdi u.

- Nima ham derdim, yeyaver! Demak, xudoning o'zi senga



meni yemish qilib yuborgan ekan, - deb yigit ho'ng-ho'ng yig'labdi.

- Aftidan, sen yomon mushkul savdoga tushib qolganga o'xshaysan.

102 Bu yerlarga nima maqsadda kelding?

Balki u menga yordam berar, deb o'ylabdi-da, yigit terakning bargiday qaltirab, unga bor gapni gapirib beribdi.


- U qizning yurti bu yerdan to'qqiz oylik yo'l, - debdi kampir, - bordi-yu, u yerga yetib borganingda ham baribir sen uni ko'rolmaysan. Uning jamolini ko'rish ishtiyoqida yonganlar juda ko'p bo'lgan. Lekin bu ularning hech qaysisiga nasib bo'lmagan. Unga oshiqi beqaror bo'lganlarning ko'plari qizning husnu jamolini ko'ra olmay halok bo'lib ketishgan. Yaxshisi, bu fikringdan qayt. U yerga yetib borgan taqdiringda ham adoyi tamom bo'lasan. O'zini ko'ra olmaysan-u, ishq o'tida tobora ko'proq qovrilasan.

- Uning ishqida shuncha yo'lni bosib keldim. Endi bu yo'ldan qaytish yo'q. Qanday bo'lmasin, men uni topaman, - debdi yigit.

- Mayli, ahding shunchalik mustahkam ekan, bora qol. Lekin shuni esingda tut. Bir jodugar bor. U o'sha qizni sehrlab qo'ygan. Uni hech qayoqqa chiqarmaydi. Ehtiyot qilib qo'riqlab yotibdi. Bir podshoning o'g'li uning ishqida oshiqi beqaror. SehrGAR bo'lsa yigitni yomon ko'radi. Mana, bir necha yildirki, yigit behud yotibdi. Agar sen o'z sevganing visoliga yetishni istasang, avval ana shu sehr-joduni botil qilishing kerak. Shundan keyingina sen o'z sevgan qizingning diydorini ko'rish sharafiga muyassar bo'lasan, ishq yo'lida murodingga yetasan.

- Men bu sehr-joduni qanday botil qila olaman? - debdi yigit.

- O'g'lim! Shu vaqtgacha men buni hech kimga aytmagandim. Lekin sen juda ko'p azob chekibsan. Shuning uchun senga yordam qilmoqchiman. Sen o'z yo'lingdan ketaver. Bir joyda sehrli boqqa duch kelasan. Unda oq gul ochilib turibdi. Sen shuni omon-eson olib borib, qizning chakkasiga taqsang, bas. Jodugarning barcha sehr-jodulari botil bo'ladi-ketadi. Shunda qiz: "Mana shu gulni olib kelgan-



ga tegaman", deydi. Hatto sen bormasang ham ularning o'zlari seni axtarib topib, sevgilingning huzuriga olib borishadi. Ana shunda sen murodingga yetasan.

Yigit shu zahoti yo'lga tushibdi. U qidira-qidira sehrli bog'ni topibdi. Boqqa kiraverishda sehrgar kampirning katta qizi - mushuk o'tirgan ekan.

"Bu qanaqa maxluq ekan, sher desam, sherga ham, yo'lbars desam, yo'lbarsga ham o'xshamaydi,- deb o'ylabdi yigit. - Yaqiniga borsammikan, bormasammikan? Tavakkal, bo'lganicha bo'ldi. g'ani, borib ko'ray-chi". Shunday qilib, u mushukka yaqin borgan ekan, sehrgarning qizi unga xayrixoh bo'lib, yo'l ko'rsatibdi.

Shahzoda boqqa kirib, yo'lkalarda uzoq vaqt kezib yuribdi. Axiri yalmog'iz kampir aytgan gulni topibdi. U gullarga mahliyo bo'lib, qaysi birini uzishni bilmay qolibdi. Ancha vaqtgacha uni uzsammikan, buni uzsammikan, deb ikkilanib turib, oxiri birini uzib olibdi. Shu payt kimningdir ingragan ovozi eshilibdi.

"Gullarning hech qaysisiga tegmasam bo'lar ekan, baloga qoldim. Tutib olsa nima qilaman?" deb o'ylab, o'zi kirib kelgan darvozaga qarab yuguribdi. Borsa, darvoza oldida tumshug'ini ko'pik bosgan ikkita mushuk ko'zlarini chaqchaytirib o'tirishgan emish. Yigitga ular hozir unga tashlanadiganday tuyulibdi.


- Ey yigit, orqa-o'ngingga qaramay chopaver, - deb baqirishibdi mushuklar, - jodugar ko'rib qolsa, seni qiyma-qiyma qilib tashlaydi.

Yigit bog'dan o'qday otilib chiqib ketibdi.

Yigit xavf-xatar tamom bo'lganiga ishonganidan keyingina gulni yashirib, go'zal malikaning shahriga jo'nabdi.

Yigit shaharga churuk kiyimda, och, horib-charchab kirib boribdi. U bir oz dam olay, deb qahvaxonaga kiribdi. Bu yerga malikani ko'rish ishtiyoqida kelgan bir talay yigitlar to'planishgan ekan. Ular yigitdan qayoqdan kelganini va qayoqqa ketayotganini surishtirishibdi.

- Men karvonboshi edim, - debdi u, - yo'lda qaroqchilar hujum



104

qilib, bor mol-mulkimni tortib olishdi. Olti oy yo'l yurib, shu yerga yetib keldim.

Hammaning unga rahmi kelib, mehmon qilibdi. Yigit qornini to'yg'azib, dam olgani yotibdi. Yigitlar bir joyga g'uj bo'lib olishib, allanarsalarni shivirlab gaplasha boshlabdilar. Yigit quloq solib boqsa, ular o'zi sevgan qiz to'g'risida gapirishayotgan ekan. Ular qizni tarbiyalayotgan enagani aldash yo'li bilan o'z maqsadlariga erishmoqchi bo'lishibdi. Lekin bu o'jar kampirni qanday qo'lga olsa bo'lar ekan, deb rosa boshlari qotibdi.

Tong otibdi. Yigit shahar aylangani chiqqan ekan, ko'chada shohi ko'ylak kiygan kampirni uchratibdi.

"Balki shu o'sha qizning enagasi bo'lsa kerak. Gapga solib ko'rsam, balki uning kimligini bilib olarman", deb o'ylab, yigit uning oldiga boribdi.

- O'g'lim, qayerliksan? - debdi kampir musofir yigitni ko'rib.

- Ey onajon! Men bechora bir sayyohman. Har yili bog'imda ochilgan gullarni sotib, borgan yurtimda yashab yuraman. Shunday qilib, sizning shahringizga kelib qolgandim. Men gullarimni sotib tugatayozdim. Faqat bittagina gul qoldi.

- Qani, bir ko'ray-chi! - debdi kampir.

Yigit unga gulni ko'rsatibdi.

- Iya, juda ham chiroyli ekan-ku! Buning necha pul? - debdi kampir.

- Qari kampirga bunaqangi gulning nima keragi bor? Bu gul faqat navqiron, sahibjamol qizlarga yarashadi, - debdi yigit.

- O'g'lim, buni men o'zim uchun olmayman. Mening qizim ham yo'q. Lekin men malikaning xizmatidaman. Bu gulni unga sovg'a qilmoqchiman. Biroq buni sotib olishga pulim yetmaydiganga o'xshaydi.

- Onajon! Sovg'a qiladigan bo'lsangiz, menda shu bir donagina qoldi. Sizga shuni tortiq qila qolay. Olib borib, podshoning qiziga bering.

Shunday qilib, yigit gulni kampirga topshiribdi. Kampir o'z malikasiga loyiq sovg'a topganidan xursand bo'lib ketibdi. U gulni qizga eltib beribdi.



- Oh, onajonim! Menga juda ham ajoyib gul topib kelibsan, - debdi qiz va quvonib chakkasiga taqib olibdi.

Kampir qizga o'zining odatdagi pand-nasihatlarini qilayotganda yigitning muhabbati qizning qalbiga o'tib, unda ishq o'tini alangalatib yuboribdi. Lekin qiz hayajonning sababini tushuna olmay:

- G'alati bo'lib ketayotibman. Otamga ayt, menga boqqa chiqib, bir oz aylanib kelishga ruxsat bersin. Meni allaqanday bir qayg'u qattiq ezyapti, - debdi.

Kampir shu zahoti podshoning huzuriga borib, bor gapni unga aytib beribdi.

U qiziga enaga bilan bog' aylanishga ruxsat etibdi.

- Ey onajon! Bu gulni qayerdan olding? - deb so'rabdi qiz bog'da aylanib yurganida. - Uni chakkamga taqishim bilanoq qalbimda nima-dir yonganga o'xshadi.

- Bolaginam, uni menga bechorahol bir yigit tortiq qilgan edi. Men qari narsaga gulning nima keragi bor, deb uni senga olib kelgandim.

- Onajonim! Senga gul bergan o'sha yigitni uzoqdan bo'lsa ham menga bir ko'rsatmaysanmi?


- Bolaginam. Men uni qayerdan topaman? Men uni ko'chada uchratgan edim. Uning hozir qayerdaligini kim biladi deysan?!

- Bilganingni qil, - debdi achchiqlanib malika, - lekin sen menga o'sha yigitni ko'rsatishing kerak. Aks holda, otamga aytaman, seni o'limga hukm qiladi.

- Xo'p, malikam, uni axtarib topib kelaman, - debdi o'takasi yorilib kampir.

Yigit bo'lsa o'zini qo'ygani joy topolmay, bog' oldida kampirni kutayotgan ekan. Kampir uni ko'rib:

- Ey o'g'lim, sen menga qanaqa gul taqdim qilgan eding? Men malikamga eltib bergandim, uni chakkasiga taqishi bilanoq ahvoli



106

ruhiyasi o'zgarib qoldi. U hozir seni ko'rmoqchi. Faqir oilaning farzandiga o'xshaysan. Sarf etgan vaqtingga haq to'layman, - debdi.

Yigit buni eshitib juda ham xursand bo'lib ketgan bo'lsa-da, lekin o'zini kampirga ikkilanayotganday qilib ko'rsatib:

- Pul bermasang ham mayli, sen uchun borsam bora qolay, - debdi.

Kampir ham quvona-quvona uni saroyga olib borib, qizga ko'rsatibdi. Yigitni ko'rishi bilanoq malikaning qalbida unga nisbatan muhabbat alangalanibdi.

U yigitning qo'liga: "Afandim, men sizni jonu dilimdan yaxshi ko'rib qoldim. Agar lozim topsangiz, shu bugun kechasi devordan oshib boqqa tushing. O'sha yerda uchrashamiz", deb xat yozib beribdi.

Yigitning quvonchi ichiga sig'may ketibdi. U nariroqqa borib kampirni kutib turibdi. Kampir tezda saroydan chiqib:


- Ehtiyot bo'l, o'g'lim! Hech kimsaga churq etib og'iz ochma. Bordi-yu, podsho bilib qolsa, naq hammamizning boshimizni oladi. Xatda ko'rsatilganday ish tut. Lekin ehtiyot bo'l, qo'lga tushib qolib o'tirma, - deb qaytib ketibdi.

Yigit kech kirishini sabrsizlik bilan kutibdi. g'orong'i tushishi bilanoq devordan oshib, boqqa tushibdi. Malika allaqachon shu yerda uni kutib turgan ekan. U yugurib borib yigitning bag'riga otilibdi. Keyin uni hovuz bo'yiga yetaklab boribdi. Ular turli-tuman taomlardan tanovul qilishibdi. Keyin quchoqlashib yotib uxlab qolishibdi.

Tong otibdi. Qizining o'rnida yo'qligidan tashvishlangan podsho uni axtarib topib kelgani atrofga odam yuboribdi. Podshoning o'zi birdan qizining hovuz bo'yida bir yigit bilan quchoqlashib yotganining ustidan chiqib qolibdi.

Podsho g'azablanib:

- Mening bog'imga begona odam qayo, dan kirdi? Shu vaqtgacha ostona hatlab ko'chaga chiqmagan qizimni qanday qilib yo'ldan ozdirdi? - debdi.



Shu payt oshiq bilan ma`shuqa uyg'onib qolishibdi. Ular podshoni ko'rib, qo'rqqanlaridan dag'-dag' titrabdilar. Podsho yigitning kimligini surishtira boshlabdi. U yigit o'z sarguzashtini batafsil gapirib beribdi. Shunda podsho:

- O'g'lim, sen mening qizimni og'ir kulfatdan qutqazding. g'o'rqma. Men qizimni senga beraman, - debdi.

Podsho ularning ikkovini saroyga olib kiribdi, vazirni chaqirib:


- hozirchalik hech kimning bundan xabari yo'q, ikkovini nikohlab qo'yish kerak, - debdi.

- Xo'p bo'ladi, - debdi vazir.

Shunday qilib, nikoh o'qilibdi. To'y-tomosha qirq kecha-qirq kunduz davom etibdi. Kelin bilan kuyov o'zlarining xonayi xilvatlariga kiribdilar. Shunday qilib, ular murod-maqсадlariga yetibdi.

Qani endi biz ham uy-uyimizga tarqalishsak bo'lar.





## YAQIN SHARQ

### AFG'ON XALQ ERTAKLARIDAN

*Afg'oniston Islom Davlati janubi-g'arbiy Osiyoning eng chekka sharqiy qismida joylashgan, jug'rofiy o'rniga binoan O'rta Sharq mamlakatlari hududiga ham kiritiladi. Maydoni 653-2,2 ming km<sup>2</sup>, aholisi 27 millionga yaqin kishi.*

*Afg'onistonda yashovchi mahalliy aholi o'zini pashtu yoki paxtu deb ataydi. Afg'onistonda afg'on tili va pushtu tili atamasi ham bor. Afg'on yoki pushtu tili eroniy tillarning sharqiy guruhiga mansub. Afg'onistonda ikkita rasmiy til bor: biri dariy, ikkinchisi afg'on(pushtu). Afg'onistonning Qandahor, Jalolobod, G'azna, Xost, Farax viloyatlari, Pokistonning Vaziriston, Balujiston va boshqa hududlarida, Peshovar shahrida afg'on tili tarqalgan va unda 25 milliondan ko'proq kishi so'zlashadi. Shu aholining uchdan ikki qismi Pokistonda yashaydi. Afg'on tili tarkibida lahjalar juda ko'p, ammo ular ikki guruhga bo'linadi: sharqiy va g'arbiy. Janubiy lahja ham borki, boshqa lahjalardan farqlanadi.*

*Afg'on (pushtu) adabiy tili 2 lahjali asosga ega bo'lib, Afg'onistonda o'ziga nisbatan qadimiyroq va boyroq yozma an'analarga ega bo'lgan dari tili bilan yonma-yon qo'llanishi sharoitida rivojlanmoqda.*





## ODIL HOKIM



109

Bir kuni ikki kishi ovqatlanib o'tirgan ekan. Ularning birida besh-ta, ikkinchisida uchta kulchasi bor ekan. Xuddi shu payt ko'chadan o'tib borayotgan bir yigitcha ularning yoniga kelib salom beribdi. Ular salomga alik qaytarib, yigitchani nonushtaga taklif etishibdi. Yigitcha taklifni qabul qilib, ularga qo'shilibdi va nonushta tugagandan so'ng yo'lovchi ularga sakkiz oltin tashlab:

- Olinglar, bu sizning kulchalarangiz haqi, - debdi.

Ular oltinlarni o'zaro bo'lisha boshlashibdi. Beshta kulchaning egasi:

- Oltinlarning beshtasi meniki, uchtasi esa seniki, - deb baqiribdi.

Uchta kulchaning egasi bo'lsa, oltinlarni teng bo'lamiz, deb turib olibdi. Janjal borgan sayin kuchayib, hech bir-birlari bilan kelisha olishmabdi.

Shunda ular odil hokim oldiga borib, unga bo'lgan voqeani so'zlab berishibdi. Hokim uch kulcha egasiga qarab:


- O'sha yigitcha senga rozi bo'lib, o'z ixtiyori bilan uch oltinni beribdi-yu, nega sen ularni olmading?

- Janob, men unga rozi bo'lmadim. Men o'z ulushimni to'g'ri talab qildim, - deb javob qilibdi haligi odam.

- Sen hali o'z ulushingni talab qilyapsanmi? - debdi hokim. - Ammo sening ulushing bor-yo'g'i bir oltin, qolgan yettitasi boshqaning haqi.

- Nega unday bo'larkan, janob, menga bor-yo'g'i bir oltin tegarkanmi? - shovqin solibdi uch kulcha egasi. - Men uch oltinga ham rozi bo'lmay tursamu, sen bo'lsang bor-yo'g'i bir oltin beryapsan!

- Sizlar uch kishi edinglar, - deb javob qilibdi hokim, - kulchalar esa hammasi bo'lib sakkizta. Agar har bir kulchani uchga



110

bo'lgan taqdirda, ulardan yigirma to'rt bo'lak chiqadi. Agar sizlar teng yegan bo'lsalaring, unda har biringizga sakkiz bo'lakdan to'g'ri keladi. Sening uch kulcha noningdan to'qqiz bo'lak chiqadi. Undan sen sakkiz bo'lagini yegansan, bor-yo'g'i bir bo'lagi qolgan. Boshqa odamning beshta kulchasidan o'n besh bo'lak chiqqan. Uning sakkizinchisini o'zi tamaddi qilgan bo'lib, yetti bo'lagi qolgan.

Agarda o'sha yo'lovchi yigit sakkiz bo'lak non yegan bo'lsa, shundan bir bo'lagi seniki bo'lib, qolgan yetti bo'lagi uniki. Demak, senga tegishlisi - bir, uniki - yetti oltindir. O'zing yaxshilab hisob-kitob qilib, o'ylab ko'r, - debdi.

- To'g'ri, endi tushundim, gapingga qo'shilaman, - deb javob qilibdi haligi odam.

## AHMOQ DO'ST DUSHMANDAN BATTAR

Bir podsho shikorbop oq lochinni boqar va uni ardoqlab saqlarkan. Kunlardan bir kuni lochin uchib ketib, bir kampirni pg tomiga borib qo'nibdi. Kampir uni tutib olib, tomosha qila boshlabdi. Kampirga lochinning tumshug'i qiyshiqday ko'rinibdi va:


- Voy, bechora! Bunday tumshug'ing bilan qanday don cho'qiyan? - debdi.

Kampir o'tkir pichoq olib, lochinni ustki tumshug'ini qirqib tashlabdi. Keyin ustkisini ham, pastkisini ham tekislab bo'lib, o'z ishidan zavqlanib:

- Mana endi sen donni bemalol cho'qiy olasan, - debdi.

Keyin kampir lochinning panjalarini ko'zdan kechira boshlabdi, nazarida, qushning tirnoqlari juda o'sib ketganday tuyulibdi.

- Voy, bechora-ey! - debdi u. - Tirnog'ingni olib qo'yish hech kimning esiga kelmadimi? Tirnoqlaring tufayli oyoqda zo'rg'a turibsan.



Kampir uning tirnoqlarini ham olib qo'yibdi. Jonivorga rahmi kelib, nima ko'ziga ortiqcha ko'rinsa, barchasidan xalos qilibdi.

Podsho oq lochinning uchib ketganidan xabar topib, uni topib kelganga katta mukofot e'lon qilibdi. Odamlar qidira-qidira qushni kampirnikidan topib, podsho huzuriga olib kelishibdi. Unga kampirni lochinga mehri tushib qolganini, boqqanini, lochin nodon kampir qo'lida og'ir ahvolga tushib qolganini so'zlab berishibdi.

Podsho esa lochinga qarab taniyolmabdi, ichida qattiq qayg'uribdi, ammo hech kimga hech narsa demabdi. Faqat uni qayta uchirib yuborishni buyuribdi va o'zicha, bahosini bilmagan odamning qo'lga tushganning holiga voy, deb xulosa qilibdi.

Èmonlikning bordir ikki belgisi, ey do'stlar,  
È u dushman - bilib turib yog'dirar kulfat,  
È u do'sti nodon erur, dushmanga ulfat.

## XASIS IKKI CHUV TUSHADI

Bir kuni xasis asalga non botirib yeb o'tirgan ekan, oldidan notanish odam o'tib qolibdi. Xasis o'zini noqulay sezib, uni birga nonushta qilishga chaqiribdi. Notanish odam taklifni to'g'rilikcha qabul qilib, iziga qaytibdi. Bunday bo'lishini o'ylamagan xasis darrov nonni yashiribdi, lekin asalni yashirishga ulgurmabdi. "Hechqisi yo'q, asalni nonsiz yeya olmaydi", - debdi xasis o'zicha. Mehmon dasturxonga kelib o'tirgandan so'ng xasis unga qarab:

- Asalni yaxshi ko'rsang, yeyaver, - debdi.

- Ha, asaldan yaxshi narsa bormi, - deb javob qilibdi mehmon. -

Bir asalxo'rlik qilaylik-chi.

Mehmon asaldan maqtab-maqtab tushira boshlabdi.

- Ha, asal yaxshi narsa, - debdi xasis. - Faqat juda ko'p yema, bo'lmasa yurak og'riq qiladi.



- To'g'ri aytasan, yurak og'riq qiladi. Faqat kimni? Seni bo'lsa kerak hoynahoy? - javob qilibdi mehmon.

112

## ODIL QOZI

Bir qurumsoq odamning ichida yuz afg'oniysi bo'lgan hamyoni yo'qolib qolibdi. U qancha qidirmasin, baribir topolmabdi. Shunda u: "Kimki hamyonimni yuz afg'oniysi bilan birga topib, keltirib bersa, suyunchisiga o'n afg'oniy beraman", deb e'lon qilibdi.

Hamyonni bir insofli odam topib olibdi-yu, egasiga keltirib beribdi.

- Va'da qilgan o'n afg'oniyini bering, - debdi hamyonni topib olgan odam.

- Bilasanmi, hamyonda yuz o'n afg'oniy bor edi, sanab ko'rsam, unda faqat yuz afg'oniy qolibdi. Demak, o'n afg'oniy senda qolgan.

- Sen o'z hissangni olibsan! Yana mendan nimani xohlaysan? - deb javob beribdi xasis. Haligi odam qoziga borib, bo'lgan gapni aytibdi.

Qozi xasisni chaqirtirib:

- Nega uning haqini bermayapsan? - deb so'rabdi.

- Uni o'zi mana shu hamyondan haqini olib bo'lgan. Men unga tag'in nimani beray? - deb javob qilibdi u.

Qozi hamyonni qo'lga olib, ko'zdan kechiribdi va u oldin qanday bog'langan bo'lsa, xuddi shunday qayta bog'labdi. Keyin xasisga qarab:

- Agar hamyoningda yuz o'nta afg'oniy bo'lsa, bunda faqat yuzta afg'oniy bor, demak, bu hamyon seniki emas. Bor, hamyoningni o'zing qidirib top, buni esa topgan odamning qo'lga qaytarib ber. Bu hamyonning egasi topilsa, o'shanga qaytarib beradi, - debdi.



## CHUMCHUQNING UCH HIKMATI



113

Bir kuni chumchuq uchib keta turib tuzoqqa duch kelibdi.

- Odamlardan chetda nima qilib yotibsiz? - deb so'rabdi chumchuq undan.

- Ovloqda xotirjam va xavfsiz bo'laman, - deb javob beribdi tuzoq.

- Unda nega yerda yotibsiz? - yana so'rabdi chumchuq.

- Men ojiz yaratilgan bir maxluqman, ulug'lik xudoga xos.

- Nega buncha ozib ketgansiz? - savol berishda davom etibdi chumchuq.

- Chunki ko'p ibodat qilaman.

- Nega bo'yingga arqon o'ralgan? - yana qiziqibdi chumchuq.

- Kambag'alning kiyimi shunaqa bo'ladi, - javob beribdi tuzoq.

- Yoningdagi tayoq nimaga kerak? - tinchimabdi chumchuq.

- Shunga suyanaman.

- Anavi donni nima qilasan? - deb yana ijkilabdi chumchuq.

- Yeguligimdan qolgan narsa shu. Biron och qolgan yo'lovchi uchrasa, donni o'shanga beraman, - deb javob beribdi tuzoq.

- Mendan boshqa muhtoj topilarmikin, - deb chirillabdi chumchuq. - Donni menga ber.


- Jonim bilan, - javob beribdi tuzoq. - Uchib tushib yeyaver. Birontasi yegandan ko'ra sen yeganing ma'qul.

Chumchuq daraxt ustidan qanot qoqib tushib, tumshug'ini donga tekkizishi bilan tuzoq uning bo'yniga sirtmog'ini tortibdi.

- O'! Ablah yolg'onchi! - chirqillabdi chumchuq. - Bunaqa ishni sendan boshqasi qilmasa kerak.

U sirtmoqda chirqillar ekan, ovchi kelib uni olib ketibdi.

"Aqlli odamlar to'g'ri aytishar ekan, tavakkalchining boshi kal, deb. Endi qanday qilib qutlishning yo'lini topishim kerak", - deb o'ylabdi chumchuq.



114

Ancha o'ylab, keyin ovchiga murojaat qilibdi:

- Ey, inson, gapimga quloq sol! Umid qilamanki, so'zlarim senga foyda keltirar. Oldin gapimni eshit, keyin meni nima qil-sang ixtiyoring.

Ovchi oldiniga chumchuqning gapidan juda hayron bo'libdi.

- Xo'sh, gapir-chi, - debdi keyin.

- O'zing ham bilasanki, meni yeb birovning qorni to'ymaydi va hech kim semirmaydi, - deb gap boshlabdi chumchuq. - Agar meni ovqat o'rnida ko'rsang, yeb qo'ya qol. Agar senga aqli gap kerak bo'lsa, nafsingni tiy va mening aytgan uchta hikmatli gapimga quloq sol. Birinchi hikmatni qo'ling-da turib aytaman. Ikkinchisini daraxt-ning pastki shoxiga qo'nib turib aytaman, uchinchisini esa, daraxt-ning tepasiga chiqib olib aytaman.

- Mayli, - debdi ovchi. - Ayt.

- Birinchi hikmat shuki, tirik ekansan, qilgan ishingga achinib yurma.

"Bu chumchuqning gaplari qiziq", deb o'ylabdi ovchi.

Chumchuq uchib borib daraxtning pastki shoxiga qo'nib:

- Ikkinchi hikmat shuki, biron narsani o'z ko'zing bilan ko'rmaguncha, ishonma, - debdi.


Chumchuq daraxtning boshiga qo'nib olgach:

- Ey, inson! Mening halqumimda har biri yigirmata oltin tanga og'irligida ikkita dur bor. Bu durlar senga va sening avlodingga bir umrga yetar edi, qaraginki, senga nasib qilmagan ekan, - debdi.

Ovchi buni eshitib dodlab yuboribdi, asabiylashib barmoqlarini qisirlatar, boshiga urib yig'larmish. Oxiri o'zini bosib:

- Mayli, bo'lar ish bo'ldi, uchinchi hikmatingni ayta qol, - debdi.

- Senga oldingi ikki hikmat nima foyda berdi-yu, uchinchisi-ni so'raysan, - javob beribdi chumchuq. - Men senga: "O'tgan ishga achinma, ko'zing bilan ko'rmaguncha ishonma", dedim. Halqumimda ikkita og'ir dur bor desam ishonding. Men shu



kichkina gavdam bilan o'nta oltin tangani ham ko'tara olmasman, halqumimda qanday qilib shuncha og'ir narsani ko'tara olishim mumkin? Uchinchi hikmatni senga aytishning hojati yo'q endi.

Chumchuq shunday deb uchib ketib, ko'zdan yo'qolibdi, ovchi esa ag'rayganча joyida turib qolibdi.

## TO'G'RI DAVO

Bir semiz podshoh bor ekan. Shunaqa semiz ekanki, semizligidan uncha-muncha joyga sig'mas ekan. Bo'ynini qashlashga ham qo'li yetmas ekan. U barcha tabiblarni yig'ibdi, o'zini davolashlarini, sal bo'lsa ham ozdirishlarini buyuribdi. Tabiblar uni qancha davolashmasin, u battar semirar, battar kengayib borar ekan. Oxiri bir aqlliroq tabib topilibdi. U podshohning bilagini ushlab ko'rib:

- Agar podshohi olamga ma'qul bo'lsa, men munajjimlik kitoblarini varaqlab chiqsam, tabiatdagi dorilarni o'rganib chiqay, shundan ke-yin ulardan birini sizga tavsiya qilay, - debdi.


- Juda yaxshi, - debdi podshoh. - Munajjimlik kitoblarini o'qib chiq, hammasini bilib olib, keyin menga dori ber, - deb buyuribdi podshoh.

Tabib ketibdi va ertasiga ertalab kelib podshohga:

- Sizni davolash uchun hech qanday dori topolmadim, - deb ma'lum qilibdi.

- Bu qanaqasi? - deb baqiribdi podshoh. - Nima uchun menga dori yo'q bo'lar ekan?

- Kitoblarda yozilishicha, umringizdan atigi qirq kun qolibdi, qirq kun o'tib o'lar ekansiz, - debdi tabib pinagini buzmay.



116)

Podshoh qattiq g'azablanibdi va baqirib debdi:

- Modomiki menga dori topilmagan ekan, bu tabibni zindonga tashlanglar, agar aytgan kunida o'lmasam, buning o'zini dorga osaman.

Tabibni zindonga tashlashibdi, podshoh esa o'lim haqida o'ylagancha qolaveribdi. Tunu kun o'lim haqida o'ylab g'am chekibdi, buni eshitgan qarindoshlari va do'stlari ham yig'layverib yuragini ezishibdi. Qirq kun ichida podshohning rangi sarg'ayib ketibdi, cho'pdek ozib ketibdi. U qirq kun muddat o'tgach tabibni zindondan oldirib, unga debdi:


- Endi seni dorga osaman, nega menga yolg'on gapirding?

- Shuning uchunki, - debdi tabib, - sizning davolanishingiz uchun boshqa dori yo'q edi.

Podshoh juda xursand bo'lib ketibdi va tabibga shohona hadyalar beribdi.








## YAHUDIY XALQ ERTAKLARIDAN

117

*Isroil davlati Yaqin Sharqda, Osiyoning g'arbiy qismida, O'rta Dengiz bo'yida joylashgan. Maydoni 14,1 ming km<sup>2</sup>, aholisi 6 million kishidan ko'proq. Bu davlat 1948 yilda barpo bo'lgan va dunyodagi yosh davlatlardan biri hisoblanadi. Bu davlat barpo bo'lgunga qadar yahudiylar dunyo bo'yicha sochilib ketgan edilar. Ammo ularning o'zlariga xos davlat tarixi bo'lgan. Miloddan avvalgi 935 yildan oldinroq yahudiy davlati bo'lgan va bu davlat miloddan avvalgi 935 yilda parchalanib ketib, uning o'rnida janubiy Falastinda quldorlik davlati barpo bo'lgan, bu davlat Quddusi sharifni poytaxt qilgan edi. Quddusi sharif Bobil podshosi Novuxodonosor ikkinchi tomonidan 5-miloddan avvalgi 586 yilda vayron qilingach, yahudiylarning ko'p qismi Bobil podsholigiga qul bo'lgan. Ana shundan boshlab yahudiy xalqi boshiga ko'z ko'rmagan, quloq eshitmagan ko'rgiliklar tushgan; ularga forslar ham, vizantiyaliklar ham, rimliklar ham, ispanlar ham hukmronlik qilganlar. Yahudiy xalqi zulmlardan bezib dunyo bo'ylab tarqab ketganligi shundan. Milodiy 66-73 yillar davomida Iudeya urushi davrida Yahudiy podsholigi uzil-kesil barham topdi.*

*Yahudiylar juda qadimiy madaniyatga ega bo'lib, bu madaniyat qator Sharq va G'arb xalqlari madaniyatlariga kuchli ta'sirini o'tkazgan. Yahudiy tilida yaratilgan falsafiy, badiiy, diniy adabiyotlar hanz jahon madaniyatida bosh o'rinni egallab turibdi. Bibliya, Injil singari muqaddas diniy kitoblar yahudiy tilida yaratilgani bunga yorqin misoldir.*

*Yahudiy tili deganda turli davrlarda, turli mintaqalarda qo'llanib, turlicha nomlanib kelgan tillarning umumlashma nomini anglaymiz. Jumladan: 1) qadimiy yahudiy tili- som tillaridan biri bo'lib, miloddan avvalgi XII-III asrlarda yaratilgan Injil kitobida, Falastindan topilgan miloddan avvalgi VIII asrlar va milodiy II asrlarga oid sopol parchalaridagi yozuvlarda saqlangan. O'sha davrda bu til xanaan ham deb atalgan ekan. Xanaan tili milodiy I asrlariga qadar so'zlashuv tili ham bo'lganligini tarix ta'kidlab o'tadi. Bu tilda boy adabiy meros, falsafiy va diniy adabiyot bor. Ammo bu*



118)

til davrlar o'tishi bilan keskin o'zgarishlarga uchrab, uning davomi bo'lgan hozirgi ivrit tili mustaqil til sifatida shakllandi. 2) Ifrit- qadimiy yahudiy tilining qayta tirilgan, o'zgargan zamonaviy shakli bo'lib, hozirda Isroil davlatida arab tili bilan birga davlat tili hisoblanadi. Ivrit tilida 4 million-dan ko'proq kishi so'zlashadi. Bu til XVII asr oxiri va XIX asr boshlarida shakllandi. 3) Idish tili german tillaridan biri bo'lib, ashkenazlar, ya'ni germaniyalik yahudiylarning so'zlashuv va adabiy tili hisoblanadi. Bu til X-XIV asrlar oralig'ida nemis lahjalaridan birining negizida qadimiy yahudiy tilining, keyinchalik esa slavyan tillarining kuchli ta'siri ostida shakllandi. Bu til jahonning juda ko'p mamlakatlariga tarqalgan, ammo Isroilning o'zida ivrit tili tomonidan siqib chiqarilmoqda. Bu tilda taxminan 8-9 million kishi so'zlashadi va ularning lahjalari tarqalgan hududiga qarab belgilanadi, masalan, polyak lahjasi, ukrain lahjasi va boshqalar. O'rta Osiyodagi yahudiylarning tili lahja hisoblanadi va bu lahja tojik tilining Samarqand-Buxoro lahjalari asosida shakllangan. Lekin bu lahjada qadimiy yahudiy tilidan juda kam so'zlargina saqlanib qolgan.

Yahudiy yozuvi oromiy yozuvdan kelib chiqqan g'arbiy som yozuvining bir tarmog'idir. Bu yozuv idish, ivrit, ladino (ispaniya yahudiylari so'zlashadigan til) va boshqa tillarda so'zlashuvchi qadimiy va hozirgi yahudiylarning barchasiga taalluqli. Bu yozuvni "yahudiy kvadrat yozuvi", deb ham ataydilar, chunki harflarga kvadrat shakli berilgan. Bu yozuv Injilning qadimiy ahdi yaratilgan davrdan boshlab qo'llanib kelinadi. Tarixning guvohlik berishicha, bu yozuvga qadar ham qadimiy yahudiy yozuvi bo'lgan ekan, bu yozuvning namunalari toshbitiklarda, tangalarda saqlanib qolgan. Ammo qadimiy yahudiy yozuvining hozirgi kvadrat yozuv bilan biron bog'liq jihati yo'q.

Yahudiy xalqi folklorida Bibliya va Injildan tashqari epik asarlar yo'q, ammo yahudiy xalqi ham maqoi va matallarga, qo'shiqlarga, ertaklarga boy.



## ZIYRAK BOLA



119

Ikki do'kondor bilan shunday bir voqea ro'y bergan ekan.

Ularning do'konlari yonma-yon turar va o'rtasidan taxta bilan to'silgan ekan, xolos. Do'kondorlardan biri yog' sotsa, ikkinchisi atir-upa sotar ekan.

Bir kuni kechqurun do'konni yopishdan oldin atir-upa sotadigan do'kondor taxta to'siqning tirqishidan qo'shnisining do'koniga mo'ralabdi, qarasa, oltin dinorlarni sanab, qizil bir ro'molga tugayotganmish. U ham ko'zi bilan qo'shnisi sanayotgan dinorlarni sanay boshlabdi: bir yuz oltmish beshta oltin tanga ekan. Do'kondorning ochko'zligi g'alaba qilibdi; u qo'shnisining pullariga ega chiqishni juda ham istab qolibdi. U yugurgancha ko'chaga chiqib qichqira boshlabdi:

- Yordam beringlar! Talab ketishdi! Pullarimni o'g'irlab ketishdi!

Darhol mirshablar yetib kelishibdi.

- Kimdan shubhang bor? - deb so'rashibdi mirshablar undan.


- Bilmasam... Pullarimni sanab qizil ro'molga tukkanimdan keyin yog' sotadigan qo'shnimdan boshqa hech kim do'konimga kirmagan edi. Ro'molda bir yuz oltmish besh dinor bor edi, - debdi do'kondor.

Mirshablar darhol yog' sotuvchining do'koniga kirib tintuv o'tkazishibdi va odamning ko'zi tushmaydigan bir burchakdan qizil ro'molga o'ralgan bir yuz oltmish beshta oltin dinorni topishibdi.

Yog' sotuvchi bu pullar o'zimniki, deb qasam ichibdi, xudoni o'rtaga solib uvvalo yalinibdi, mirshablar uning gapiga ishonmay, qo'llarini bog'lab zindonga tashlashibdi.

Qozi ishni ko'ra boshlabdi, ammo kim haq, kim nohaq ekanligini aniqlay olmabdi. Bu g'alva bilan shahar hokimining o'zi ham shug'ullanibdi, ammo yog' sotuvchiga ishonishni ham, uning qo'shnisiga ishonishni ham bilmabdi. Shaharda bu haqda duv-duv gap tarqalibdi-yu, ammo tugunni hech kim yecha olmasmish.

Bir kuni shahar hokimi shahar tashqarisida aylanib yurib qandaydir o'yin boshlagan bolalarga duch kelib qolibdi. Bolalardan birining:



120

- Kelinglar, qozi-qozi o'ynaymiz. Sen yog' sotuvchi bo'lasan, u uning qo'shnisi, men qozi bo'laman, - deganini eshitib qolibdi.

Hokim bir daraxt panasiga o'tib olib, kuzata boshlabdi. Bolalar katta bir toshni yumalatib olib kelib, unga qozi bo'ladigan bolani o'tqazishibdi. Uning huzuriga do'kondorlar qiyofasidagi ikkita bola kelibdi.

- Bu bir yuz oltmish besh dinor meniki, men uni yog' sotib topganman, - debdi biri.

- Yo'q, bu mening pullarim, - deb javob beribdi ikkinchisi, - men bularni sanab, qizil ro'molga o'rab, qutining ichiga solib qo'ygan edim, sen do'konimga kirib o'g'irlading.

Ikkovining ham da'vosini eshitib, "qozi":

- Menga tovoqda qaynoq suv keltiring, - deb buyuribdi.

- Nega? - hayron bo'lishibdi bolalar.

- Men uning ichiga oltin dinorlarni tashlayman. Agar suv yuziga yog' tomchilari suzib chiqsa, demak, bu pullar yog' sotuvchiniki; u kuni bo'yi o'zining tovari bilan o'ralashadi, uning barmoqlari yog'li bo'ladi albatta, tangalarga ham yog' yuqqan bo'ladi. Agar suv yuziga hech narsa chiqmasa, unda pullar uning qo'shnisiniki bo'lib chiqadi.

Hokim bu gapni eshitgach, berkingan joyidan chiqib, "qozi" bolani o'pibdi, uning ismi va turarjoyini yozib olib, saroyiga shoshilibdi.

U saroyga kelgach, uzoq kutilgan sud ertaga bo'lishini e'lon qilibdi. Bu xabar shaharga tez tarqalib, ertasiga qozixona oldida minglab odamlar to'planishibdi.

Ikkala do'kondor shikoyatlarini aytgach, hokim bir tovoq qaynoq suv bilan ro'molga tugilgan dinorlarni olib kelishni buyuribdi. U tangalami tovoqning ichiga solgan ekan, bir zumda yuzaga yog' tomchilari suzib chiqibdi.

- Tovoqni xalqqa ko'rsatinglar, - deb buyuribdi hokim, - bu pullar kimga tegishli ekanligini xalqning o'zi aytsin.

- Yog' sotuvchiniki! Yog' sotuvchiniki! - Bir ovozdan qichqirishibdi odamlar.

Pullar darhol egasiga qaytarilibdi, uning ochko'z qo'shnisi bir umiga zindonga hukm qilinibdi. Hamma hokimning fahmi va donolig-

ini maqtay boshlagan ekan, hokim kichkina bolani qo'lida ko'tarib:

- Men emas, ayyor yolg'onchini mana bu bola fosh qildi, bu chigal ishni qanday hal qilishni menga shu bola o'rgatdi, - degan ekan.

121

## MARDIKOR VA XO'JAYIN

Kunlardan bir kuni boy dehqon mardikor yollabdi. Erta-mertan ikkovi dalaga yo'l olishibdi. Peshin bo'lgach, ikkovining qorni ochib, bir daraxtning soyasiga o'tirishibdi.

- Ovqat yo'q, - debdi xo'jayin, - lekin buning ahamiyati yo'q, ikkovimiz ovqat yeyayotgandek harakat qilsak bas.

Xo'jayin cho'ntagidan qalamtarosh olib, non kesayotgandek, non ustiga pishloq qo'ygandek va uni og'ziga olib borayotgandek va nihoyat o'tkir yaxshi sharob ichayotgandek harakat qilibdi. Mardikor ham uning barcha harakatlarini takrorlabdi.

"Ovqatlanib" bo'lishgach, xo'jayin endi ishga tushishni taklif qilibdi. Mardikor o'rnidan turib, qo'lida kurak bilan bir joyda u yoqdan bu yoqqa borib kelaveribdi.

- Nima qilib vaqtни bekor o'tkazyapsan? - deb baqiribdi xo'jayin.

- Ko'rmayapsizmi, xo'jayin, oldin ovqatlanayotgandek harakat qilgan edim, endi ishlayotgandek harakat qilyapman, - deb javob beribdi mardikor.

Kechqurun xo'jayin xotiniga:

- Mardikorga ertalabga yegulik va ichkulik narsalar tayyorlab qo'y, - deb buyuribdi.

Ertasiga dehqon mardikorga:

- Mana senga yegulik narsalar, mana bu kurak, bog'ga jo'na, daraxtlarning tagini yaxshilab chopiq qil, - debdi.

- Xo'p bo'ladi, xo'jayin.

U bog'ga yetib kelgach, tugunni ochib, taomlarni yebdi, ichkiliklarni ichibdi, keyin yergacha egilib ta'zim qilib, go'yo bog' bilan gaplashayotgandek bo'libdi:



- Xayrli tong, ey, hurmatli bog'!
- Salom! Shisha idishdagi nima?
- Yaramas nordon sharob.
- Tugundagi nima?
- Mog'orlagan non.
- Undoq bo'lsa, oshna, yotib uxla.

Mardikor bog'ning o'rtasidagi anjir daraxti tagiga cho'zilib, uyquga ketibdi. Kechqurun xo'jayinning oldiga kelibdi.

- Xo'sh, nima ishlar qilding? - deb so'rabdi xo'jayin.
- E, xo'jayin, so'ramang, hamma daraxtlarning tagini chopiq qilishdan tashqari qurigan daraxtlarning shoxlarigacha butaladim.
- Barakalla! Ancha-muncha ishni bajaribsang.

Ertasiga ertalab mardikor yana bog'ga kelib, nonni yeb, sharobni ichib bo'lgach, bog' bilan kechagi suhbatni takrorlabdi:

- Xayrli tong, ey, hurmatli bog'!
- Salom! Shisha idishdagi nima?
- Yaramas nordon sharob.
- Tugundagi nima?
- Mog'orlagan non.
- Undoq bo'lsa, oshna, yotib uxla.

Mardikor yana daraxt tagiga cho'zilib, qattiq uyquga ketibdi.

Kechqurun xo'jayin undan:

- Xo'sh, qalay, ishlarni bajarib bo'ldingmi? - deb so'rabdi.
- Ha-da, xo'jayin, yana qurigan daraxtlarning shoxlarini butalab tashladim.

- Ie, hech vaqo ish qilmabsang-da?

- Xuddi shunday, xo'jayin, kecha ham, o'tgan kuni peshindan keyin ham.

Ertasiga xo'jayin bog'ga mardikordan oldin kelib qarasa, u hech narsa qilmaganligini ko'ribdi.

Mardikor kelishidan oldin butoqlarning orasiga yashirinib olibdi. Mardikor bog'ga kirib kelgach, xo'jayin uning bog' bilan suhbatini eshitibdi:

- Xayrli tong, ey, hurmatli bog'!



- Salom! Shisha idishdagi nima?
- Yaramas nordon sharob.
- Tugundagi nima?
- Mog'orlagan non.
- Undoq bo'lsa, oshna, yotib uxla.

Xo'jayin mardikorning anjir daraxti tagiga cho'zilib olganini ko'rib, nima gapligiga tushunibdi.

Kechqurun xo'jayin xotiniga:

- Mardikor bog'ga ketayotganda tugunga yangi non va yaxshi sharobdan bergin, - deb tayinlabdi.

Ertasiga mardikor bog'ga kelib non bilan sharobni pok-pokiza tushirgach:

- Xayrli tong, hurmatli bog'! - deb qichqiribdi.
- Salom! Tugundagi nima, shishadagi-chi?
- Mazali non va shirin sharob.
- Bo'lmasa, ishga tush!

Mardikor kurakni qo'lga olib kun bo'yi tinmasdan ishlabdi. Kechqurun xo'jayin:

- Xo'sh, bugun nima ishlar qilding? - deb so'ragan ekan, hamma ishni bajardim, xo'jayin, deb 'javob beribdi mardikor.





## ILM VA AQL EGASINING FAZILATI HAQIDA

Rivoyat qilishlaricha, bani Abbos xalifalari orasida barcha ilmlarda Ma`mundan ko`ra bilimliroq xalifa bo`lmagan ekan. U har haftada ikki kunni olimlar munozarasi bilan o`tkazar, shu kunlarda uning huzurida qonunshunoslaru mutakallimlarl o`z tabaqa va martabalariga muvofiq o`tirib bahs qilisharkan.


Kunlardan birida Ma`mun olimlar bilan o`tirgan ekan, juldur, oq kiyim kiygan begona bir odam majlisga kirib, panaroq bir joydan o`rin olibdi. Olimlar so`z boshlab mushkul masalalarni hal qilishga kirishib-dilar. Odat bo`yicha har bir masala majlis ahllarining har biridan birma-bir so`ralar va har kim biron latif va qiziq javob topib aytarkan. Masala aylanib haligi begona kishiga yetib kelgach, u so`z boshlab barcha qonunshunoslarning javobidan ko`ra a`loroq javob beribdi. Uning so`zi xalifaga juda maqbul tushib, uni oldingi joyidan yuqoriroq yerga o`tkazishni buyuribdi.

Ikkinchi masala o`rtaga tashlanib, javob navbati unga yetganida, birinchi masalaga bergan javobidan ko`ra ham ajibroq javob qaytaribdi. Amir al-mo`minin uni boyagidan ham yuqoriroq yerga o`tkazishni amr etibdi. Uchinchi masala ham aylanib u kishiga yetgach, avvalgi ikkala javobiga qaraganda ham to`g`riroq va chiroyliroq javob beribdi. Shundan keyin Ma`mun uni o`ziga yaqinroq joyga o`tkazishni buyuribdi.

Munozara tugagach, suv keltirib qo`llar yuvilibdi-yu, taomlar tortilib, ovqat yeyilibdi. Nihoyat, qonunshunos olimlar o`rinlaridan turib chiqib ketibdilar. Biroq Ma`mun haligi kishiga javob bermay, uni o`z yoniga chaqirib, mehribonlik ko`rsatibdi, in`om-ehsonlar berishga va`da qilibdi.

Bir payt ajoyib nadimlar yig`ilibdi-da, sharob majlisi muhayyo qilinib, may kosalari davrada aylana boshlabdi. Navbat






haligi kishiga yetgach, u o'rnidan turib: "Agar amir al-mo'minin izn bersalar aytadigan bir so'zim bor", debdi. Xalifa: "Istaganingni ayt", deb ijizat bergan ekan: "Ra'yi oliyga ma'lumki, — deb so'z boshlabdi notanish odam, — bugungi sharofatli majlisda olim va fozillarning eng bilimsizi va pastlaridan edim; mendan zohir bo'lgan ozgina aql va bilim tufayli amir al-mo'minin meni chaqirib o'zlariga yaqinlashtirdilar, boshqalarga nisbatan yuqoriroq martabaga ko'tardilar va mening xayolimga kelmagan darajaga yetkazdilar. Endi u kishi meni xorlikdan keyin aziz qilgan va tanglikdan so'ng farog'atga yetishtirgan o'sha ozgina aqlni mendan ayirmoqchilar. Amir al-mo'minin kaminadagi shu aql, bilim va fazilatga hasad qilmasinlar, chunki qulingiz sharob ichsa, undan aql ketib, jaholat keladi, adab qochib, ilgarigi past darajaga tushib, odamlar nazdida yana haqir va noma'lum bir odam bo'lib qolaman. Ra'yi oliydan umidim shuki, u kishi fazilat, saxovat va xushtabiatlari tufayli kaminadan shu gavharni o'g'irlamasinlar".

Xalifa Ma'mun undan bu so'zlarni eshitgach, uni maqtabdi, tashakkur aytib, hurmatini yana ham oshiribdi. Keyin unga yuz ming dirham pul, bir ot va yaxshi kiyim in'om qilibdi. Shundan keyin har majlisda boshqa qonunshunos olimlarga qaraganda uning martabasini oshirib, o'ziga yaqinroq yerdan joy beradigan bo'libdi. Nihoyat u barcha olimlar orasida eng yuqori martabaga erishgan ekan.

## HOTAMI TOYI

Saxiy va oliyhimmat kishilar haqidagi hikoyalar juda ko'p, ulardan biri Hotami Toyil hikoyasidir. Hotami Toyi bandalikni bajor keltirgach, uni bir tog' tepasiga dafn qilibdilar. Qabr yonida ikk t



tosh havza bunyod etib, toshdan sochlarini yoyib o'tirgan qizlar haykalini tiklabdilar. Shu tog' etagidan daryo oqib o'tar ekan. Bu yerga qo'ngan yo'lovchilar tuni bilan dod-u faryod urib, nola qilayotgan kishilarning baqiriq-chaqiriq ovozini eshitishar, tong otganda esa tosh qizlardan bo'lak hech narsa topmas ekanlar.

Hz qabilasidan ajralgan himyariylar1 podshosi Zul-Kuro shu vodiya tushib, tunab qolibdi...

Haligi joyga yaqinroq kelsa, qulog'iga dodu faryod eshutilibdi. Shunda podsho: "Bu qanday faryod?" – deb so'rabdi. "Bu Hotami Toyining qabri, oldida ikkita tosh havza va sochlarini yoyib o'tirgan qizlarning tosh haykallari bor. Bu yerda tunab qolgan kishiga mana shunday dodu faryodlar eshitaladi", – deb javob beribdilar unga. Himyariylar podshosi Zul-Kuro shunda Hotami Toyidan kulib: "Ey hotam, bu kecha sening mehmoningmiz, qornimiz och", – debdi.


Shundan keyin uni uyqu bosib uxlab qolibdi, bir payt cho'chib uyg'onibdi-yu: "Ey arablar, bu yoqqa kelib, tuyamdan xabar ol-inglar!" – deb baqiribdi.

Shoh xizmatchilari kelib qarashsa, Zul-Kuroning tuyasi o'lim talvasasida ti pirschilab yotgan emish. Uni darrov so'yib, go'shtini qovurib yeyishibdi. Podshodan voqeani so'rashgan ekan, u: "Uxlab qolib tushimda Hotami Toyini ko'rdim, u qo'lida qilich bilan yonimga kelib: "Sen bizning mehmonimizsan, ammo seni ziyofat qilgani hech narsamiz yo'q edi", dedi-da, tuyamni qilichi bilan urdi. Agar so'yib yubormaganimizda, harom o'lardi", – debdi.

Tong otgach, Zul-Kuro o'z mulozimlaridan birining tuyasiga minibdi-da, tuya egasini orqasiga mingashtirib, yo'lga ravona bo'libdi. Tush vaqtida ularga bir yo'lovchi ro'baro' kelibdi. Yo'lovchi bir tuyaga minib, ikkinchisini yetaklab olgan emish. "Kim bo'lasan?" – deb so'rashibdi undan. "Hotami Toyining o'g'li – Adiy bo'laman. Himyariylar amiri Zul-Kuro qaysingiz?" – debdi yo'lovchi. Unga amir Zul-Kuro ni ko'rsatishgan ekan u: "Tuyangizning evaziga mana bu tuyani minib







oling, otam tuyangizni siz uchun so'yibdi", — debdi. "Bu ishlardan qanday voqif bo'lding?" — deb so'rabdi podsho. "Bu kecha tushimda otam kelib: "Ey dilbandim, himyariylar podshosi Zul-Kuro mendan mehmon qilishni so'radi, uni ziyofat qilgani hech narsam yo'qligi sababli o'z tuyasi bilan mehmon qildim. Bir tuya olib, uning ketidan yetib bor, u shu tuyani minib olsin", dedilar".

Zul-Kuro tuyani olibdi. Hotami Toyining ham tirikligidagi, ham o'lganidan keyingi saxiyligidan taajjubda qolibdi.

## AJOYIB TASODIFLAR

Bag'dodda allaqancha mol-mulkka ega bo'lgan bir boy bo'lgan ekan, biroq uning boyligi sovurilib ketib zo'r-bazo'r kun kechiradigan bo'lib qolibdi. Bir kuni kechasi qattiq uxlab yotgan ekan, tushida bir kishi kelib: "Sening rizqing Misrda, o'sha yerga bor", — debdi.

Shundan keyin u kishi Misrga qarab yo'lga chiqibdi. Shaharga kechasi yetib borib, bir masjidga tunabdi. Shu masjid yonida bir hovli bor ekan. Bir guruh o'g'rilar masjidga kirib, undan haligi hovliga tushishibdi. O'g'rilarning harakatidan uydagilar uyg'onib qolib dod-faryod ko'tarishibdi, voliy o'z odamlari bilan yordamga yetib kelguncha o'g'rilar qochib ketishibdi. Voliy masjidga kirib, u yerda uxlab yotgan bag'dodlik kishini ko'ribdi-da, ushlab olib qamchi bilan rosa savalabdi. U bechoraning o'lishiga sal qolibdi; keyin olib borib qamab qo'yibdi.


Qamoqda uch kun yotganidan keyin voliy uni chaqirib, so'roq qilishga kirishibdi: "Qaysi shahardansan?"-"Bag'doddanman", — debdi u. Voliy yana savol tashlab: "Nima sababdan Misrga kelding?"- deb so'ragan ekan, bag'dodlik kishi javob berib: "Tushimda bir kishini ko'rdim, u sening rizqing Misrda, o'sha yerga bor", dedi. Misrga

kelib bilsam, u kishi xabar bergan rizq sening kaltaging ekan", – debdi. Buni eshitib, voliy shu qadar qattiq kulibdiki, hatto aql tishlarigacha ko'rinib ketibdi. Keyin: "Ey ahmoq,- debdi u kishiga, – men bir odamni uch marta tush ko'rdim, u har safar menga: "Bag'dod shahrida, falon mahallaning falon yerida bir hovli bor, hovlining o'rtasida hovuz tagiga juda ko'p miqdorda pul ko'mib qo'yilgan, o'sha yerga borib pullarni ol", – desa ham borganim yo'q. Sen bo'lsang tush ko'rdim deb ahmoq bo'lib shu tomonlarga kelib yuribsan, axir bu nihoyati bir bosinqirash, xolos-ku". Shu gaplarni degandan keyin unga bir oz pul beribdi-da: "Bor endi, o'z shahringga yetib ol", – debdi. U eson-omon Bag'dodga qaytib kelibdi. Voliy tasvirlab bergan joy o'sha kishining o'z hovlisi ekan. Uyga yetib kelgach, hovuzning tagini qazisa, allaqancha oltin chiqibdi. Mana shundaqa tasodiflar ham bo'lar ekan.

## ANUSHERVON BILAN BIR QIZ

Odil podsholardan bo'lmish Xusrav Anushervonl bir kuni ot minib ovga chiqibdi-da, bir kiyikning ketidan quvib, lashkarlaridan ajralib ketibdi. Shu tariqa ancha yo'l bosgandan keyin uzoqda bir qishloq ko'rinibdi. Qattiq chanqab qolgan ekan, o'sha qishloqqa boribdi, yo'l ustidagi bir eshikni taqillatib, chaqirib suv so'rabdi.

Bir qiz chiqib, uni ko'rgan zamoniyoq uyga qaytib kiribdi-da, bitta shakarqamishni siqib, chiqqan shirasini suv bilan aralashtiribdi, keyin uni bir kosaga solib, ustiga tuproqqa o'xshash-u, lekin xushbo'y narsadan bir oz qo'shib, Anushervonga tutibdi. Shoh kosada tuproqqa o'xshagan narsani ko'rgach, oz-ozdan ichib oxirlatibdi. So'ngra qizga qarab: "Ey qiz, qanday shirin va ajoyib suv ekan bu! Ammo ichidagi loyqatib turgan quyqasi bo'lmaganida yana ham yaxshi bo'lardi", –



degan ekan. "Ey mehmon, – debdi qiz, – loyqatib turgan quyqani ataylab soldim". Shoh: "Nega bunday qilding?"-deb so'rasa, u shunday javob beribdi: "Qarasam, qattiq chanqagan ekansiz, suvni bir ho'plashdayoq ichib qo'ysangiz zarar ko'rasiz deb qo'rqdim. Loyqasi bo'lmaganda, shunday bo'lishi mumkin edi..."

Podshohi odil Anushervon qizning so'ziga, zakovati va aqliga taajjub qilib, uning aytgan gaplari to'g'ri, fahmi o'tkirligiga tushunibdi.

"Haligi suvni nechta qamishdan siqib olgan eding?"- deb so'rabdi shoh. "Bitta qamishdan", – deb javob beribdi qiz. Anushervon hayratda qolib, qizdan shu qishloqdan olinadigan xirojning ro'yxatini so'rabdi. Qarasa, olinadigan xiroj oz ekan. "Bitta qamishdan shuncha suv chiqadigan qishloqning xiroji nega bunchalik oz", – deb poytaxtga qaytgach, bu qishloqdan olinadigan xirojni ko'paytirmoqchi bo'libdi.

Shu maqsad bilan qishloqdan chiqib, ov qidirib ketibdi. Kechga yaqin yolg'iz o'zi o'sha qishloqqa qaytib kelib, haligi eshikdan yana suv so'rabdi. O'sha qizning o'zi chiqibdi-da, podshohi tanib, suv olib chiqish uchun qaytib uyga kiribdi-yu, hadeganda chiqavermabdi. Nihoyat qiz chiqqach, Anushervon undan: "Nega kechikib ketding?" – deb so'rabdi...

U shunday javob beribdi: "Chunki bitta qamishdan kifoya qiluvchi suv chiqmadi. Uchta qamishni siqdim, shunda ham oldingi bitta qamishdan chiqqancha suv ololmadim".-"Buning sababi nimada?" – debdi Anushervon. "Sababi shuki, – debdi qiz, – sultonning niyati o'zgardi". Shoh: "Buni qayoqdan bilding?" – deb yana so'ragan ekan, qiz bunday javob beribdi: "Oqil odamlarning aytishicha, odamlarga nisbatan sultonning niyati o'zgarsa, ulardan baraka ko'tarilib, xayru ehson kamayarmish". Anushervon kulib, o'ylab qo'ygan fikridan qaytibdi. Qizning zakovati, fahmi va chiroyli gaplari shohga juda ma`qul tushib, uni o'ziga xotin qilib olgan ekan.



## SINDBOD BAHRIY HIKOYASI




Sindbod Bahriy hikoyasini shunday boshladi: Tijorat qilib shahar va orollarni tomosha qilishga juda mushtaq bo'lib qoldim. Bu ishni o'zimga jazm qilib, ko'pdan-ko'p savdo mollari oldim va safarga kerakli yarog'larni tayyorlab, dengiz sohiliga keltirdim. U yerda yangi, chiroyli bir kema yasatdim. Yelkanlari nafis matodan edi. Kema yaxshi jihozlangan, xizmatchilar ham ko'p edi. Savdogarlar qatori men ham yukimni kemaga ortdim. Shu bilan safarga jo'nab ketdim. Safarimiz juda yaxshi bo'ldi, dengizdan dengizga, oroldan orolga o'tdik. Qaysi joyga borib to'xtasak, savdogarlar, davlat arboblari, sotuvchi, oluvchilarga uchrashib oldi-sotdi qildik va mol ayirboshladik.

Taqdir bizni daraxtlari ko'p, mevalari pishgan, gullari ochilgan, qushlari sayragan, anhorlari tiniq, chiroyli bir orolga oborib tashladi. U yer turg'un xalq va o'tparast odamlardan xoh ekan. Savdogarlar, yo'lovchilar orolga chiqib qush va daraxtlarni tomosha qilib, tangrining qudratiga taajjub qildilar. Ular qatori men ham bir daraxtzordagi tiniq chashma tepasiga kelib o'tirdim. Bir oz yeydigan ovqat olgandim, shu joyda tanovul qilib oldik. U joyning havosi menga juda xush keldi, vaqtim chog' bo'lib, o'zimni mudroq bosdi, rohatlanib uyquga g'arq bo'ldim. Sof havo va xushbo'y hidlardan lazzatlandim. O'rnimdan tursam, orolda na inson va na jin bor: na savdogarlar, na kemachilar meni eslamay, oroldan jo'nab ketibdilar.

Uyoq-buyoqlarni qarab hech kimni topmadim. Juda xafa bo'ldim. Yuragim yorilgudek bo'ldi.

Na yemak, na ichmak, hech narsa yo'q edi. O'z holimga yig'lab nola qila boshladim. Qilgan ishimdan, nafsım so'ziga quloq solganımdan pushaymon yedim. O'z yurtım, o'z shahrimda rohat-farog'atda va ayshishratda yashardim. Na mol, na yer-suvga muhtoj edim.






Orolda bir joyda o'tirgani toqatim qolmadi. Bir baland daraxtga chiqib, tevarak-atrofga qaray boshladim – osmon, suv, daraxtlar va qushlardan boshqa narsa ko'rmadim.

Bir vaqt ko'zimga katta oq bir sharpa ko'rindi. Daraxtdan tushib u tomonga yurdim, borib qarasam, aylanasi keng, baland, katta oq gumbaz ekan. Atrofini aylanib eshigini topmadim. Silliqligidan unga chiqishning iloji yo'q edi.

Turgan joyimni belgilab gumbazning aylanasini o'lchab chiqdim. Aylanasi to'la ellik qadam ekan. Ichkarisiga kirish uchun o'y o'ylay boshladim. Kun oxiriga yetib, botishga yaqinladi. Birdan kun botib, qorong'i tushdi. Quyosh ko'zimdan g'oyib bo'ldi. Quyoshni bulut qopladi deb o'yladim. Yoz vaqti edi. Hayron bo'lib boshimni ko'tarib qaragandim, jussasi katta, qanotlari keng, havoda parvoz qilib yurgan qushni ko'rdim. Quyoshni to'sib orolga qorong'ilik solgan shu ekan. Buni ko'rib yana ham taajjublandim. Keyin bir hikoya yodimga keldi, ba'zi orollarda katta-katta qushlar bo'lib, uni ruh deb atasharkan. U qush fillarni tumshug'ida ko'tarib kelib bolalariga yedirarkan. Tekshirib qarasam, bu gumbaz o'sha ruhning tuxumi ekan. Ollohning yaratgan maxluqlariga taajjub qildim. Shu holda turganimda, u qush kelib shu qubbaga qo'ndi, ikki oyog'ini orqasiga cho'zib, qanotlarini yoyib ko'kragiga bosdi. Shu alfozda uxladi. O'rnimdan turib boshimdan sallamni olib chuvatdim, ikki bo'lib pilta qilib eshdim, arqon bo'ldi. U bilan belimni mahkam bog'ladim. O'zimni qushning oyog'iga mahkam qilib bog'ladim. O'zimga: "Shoyad, bu meni biron mamlakat, shahar yo obod joyga yetkazar. Bu yerda turganimdan ko'ra shunday qilganim yaxshiroqdir", – dedim.

Meni yana uxlab g'aflatda qolganimda olib uchib ketmasin, deb shu kechani uyqusiz o'tkazdim. Tong otgach, qush tuxum ustidan turib qattiq qichqirdi, havoning eng yuqori qatlamiga ko'tarildi. Men fazoga yetdik deb gumon qildim. Keyin qush men bilan yerga, bir baland joyga qo'ndi. Yerga yetganimda



134

shoshilib ikkala oyog'idan bog'langan bog'larni yechdim. Undan qo'rqib titrab turdim, lekin u meni sezmedi. Sallamni yechib olib o'zimni bo'shatdim, kiyimlarimni qoqib, u yerdan ketdim. Qush tumshug'i bilan yerdan bir narsani olib osmonga uchdi. Tikilib qarasam u juda katta bir ilon ekan. Uni olib dengiz tomonga ketdi. Men hayron turib qoldim. Bir vaqt qarasam baland bir joyda turibman. Ostimda katta va keng vodiya. Yonida osmonga o'rkachlagan katta tog'.


Uning balandligidan hech kim cho'qqisiga chiqolmagan bo'lsa kerak.

Qilgan ishimga o'zimni o'zim koyidim: "Koshki orolda bo'lsam, bu cho'ldan yaxshi edi. Bu joyda na daraxt, na meva, na anhor bor. Qachon bir musibatdan qutulsam, undan kattarog'iga va yomonrog'iga duchor bo'laman".

O'rnimdan turib shu vodiya qarab yurdim. Uning yerlarida turli xil ma'dan, javohir, munchoq teshadigan olmos toshlarni ko'rdim. Hech kim undan bir parchani ham kesib ololmaydi. U vodiya har biri xurmo daraxtiday katta ilon va ajdaholar yuribdi. Ular shunchalik kattaki, agar filga qarshi kelsa, uni ham yutib yuboradi. U ilonlar ruh yoki burgutning yuhb, burdalab tashlashidan qo'rqib, kunduzi bekinib, uyalaridan kechasi chiqarkan.

Qilgan ishimdan pushaymon bo'lib o'sha vodiya qoldim. Kech kirdi, ammo men hamon yurardim. Ilonlardan qo'rqib, yotadigan joy izlardim. Yemak-ichmakni ham unutilib, o'zim bilan ovora bo'lib qoldim. Yaqinroq bir yerda ko'zimga g'or chalindi. Borib qarasam, kirishi tor ekan, bir amallab kirdim. G'or og'zida katta bir tosh yotgan ekan, g'orni shu bilan bekitdim. "Shu yerda jon saqlayman, tong otgach bu yerdan chiqib, xudoning nima yozganini ko'rarman", deb qo'ydim o'zimga.

Qor ichiga ko'z tashlagandim, tuxum bosib, uxlab yotgan bir ilonni ko'rdim. Badanim jimirlab ketdi. O'zimni xudoning qazoyu qadariga topshirdim.



Tun bo'yi uxlamay chiqdim. Yorug' tushgandan keyin g'or og'zidagi toshni ming azoblar bilan o'rnidan surib g'ordan chiqdim. Ochlik va qo'rqinch, uyqusizlikdan mast kishidek boshim aylanib garang bo'lib vodiya yurardim. To'satdan so'yilgan bir narsa oldimga "pap" etib tushdi. Lekin hech kimdan darak yo'q. Juda taajjublandim. Ba'zi savdogar, musofir, sayyohlardan eshitgan hikoya esimga tushdi. Ularning aytishicha, olmos toshli tog'da ajoyib-g'aroyib voqealar bo'lib turarkan. Hech kim u yerdan o'ta olmas ekan. Lekin savdogarlar hiyla ishlatisharkan. Qo'y olib kelib so'yisharkan, terisini shilib, go'shtini parchalasharkan, tog' tepasidan vodiya tashlasharkan. Unga har xil toshlar yopishib qolarkan. Burgut, rahma (kalxatga o'xshagan qush) shu go'shtlarni changallab olib tog' tepasiga chiqib ketisharkan.

Savdogarlar kelib ularga hayqirishsa, qushlar go'sht tepasidan uchib ketisharkan. Savdogarlar borib u go'shtlardan yopishgan toshlarni ajratib olisharkan. Shu bilan go'shtlarni qushlarga, vahshiy hayvonlarga qoldirib, olmos toshlarni o'z mamlakatlariga olib ketisharkan. Boshqa yo'l bilan hech kim olmos toshga yetishishga qodir bo'lolmas ekan...

O'sha go'shtni ko'rganimda, shu hikoya esimga tushib, go'sht parchasiga yaqinlashdim. Toshlardan ko'pini tozalab qo'yninga, kiyimlarim orasiga, belbog'im va sallamga soldim. Shu holatda turganimda yana bir katta go'sht parchasi tushdi. O'zimni salla bilan go'sht parchasiga bog'ladim. Uni mahkam changallab olgandim, bir vaqt qarasam, yerdan ko'tarilganday bo'ldim. Bir burgut go'sht parchasini changallab havoga ko'tarildi. Bir tog' ustiga chiqquncha uchib bordi. U yerga tushib, go'shtni yulib yeyishga boshladi. To'satdan tog' ustida hayqirgan zo'r ovoz keldi, hayqirgan kishi bir narsani yog'och bilan qattiq qoqdi. Burgut hurkib, qo'rqib havoga uchdi. Men o'zimni go'shtdan bo'shatib oldim. Kiyimlarim qonga belangan edi. Shu on burgutga hayqirgan savdogar go'sht oldiga kelganda, meni ko'rdi




Menga gapirish qayoqda, qaytaga mendan qo'rqib titradi. Go'shtga yaqin kelib uni uyoq-buyoqqa ag'darib hech narsa topmadi.

Kaftini kaftiga urib: "Afsus, bu qanaqa hol?" – der edi. Men uning oldiga bordim. U: "Kimsan va nima vaj bilan bu joyga kelding?" – dedi. Men: "Qo'rqma, men insonlarning yaxshisidan biriman, o'zim savdogar edim, zo'r hikoyam va ajoyib bir qissam bor. Bu toqqa va bu vodiya kelishimning sababi ajoyib qissadir. Qo'rqma, mendan yomonlik ko'rmaysan. Ko'p olmos toshim bor, anchasini senga beraman. Zorlanma va qo'rqma", – dedim.

U kishi tashakkur aytdi, haqimga duo qilib tili so'zga kirdi. Qolgan savdogarlar ham uning yo'ldoshi bilan gaplashganligimni eshitib yonimga keldilar (ularning har biri vodiya go'sht tashlagan edi). Hamma qissamni va safarda ko'rgan qiyinchiliklarimni ularga hikoya qildim. Vodiya qanday kelib qolganimni aytdim. Men osilib chiqqan go'sht egasiga bir talay olmos berdim. U xursand bo'lib meni duo qilib, tashakkur aytdi. Savdogarlar menga: "Xudo haqqi, onadan tug'ma bo'lding. Bu joyga hech kim yetib kelib najot topgan emas. Salomat qolganing uchun Ollohga hamd bo'lsin!"- dedilar. Ular bir yaxshi tinch joyda yotdilar, men ham ular oldida yotdim. Ilonlar vodiysidan qutulib salomat qolganimga, obodon mamlakatga yetganimga juda sevindim. Tong otgach, katta toqqa tomon yurdik, ko'p-ko'p ilonlarni ko'rdik. Bir katta oroldagi chiroyli bo'stonga yetguncha to'xtamay yurdik.

Unda kofur daraxti bor edi. Har bir kofur daraxti soyasida yuz kishi dam olishi mumkin.

Bironta odam undan kofur olishni xohlasa, uzun narsa bilan daraxtning yuqorisidan teshadi. Idish tutsa, teshigidan kofur suvi oqadi. Kofur suvi yelimdek qotadi, bu daraxtning asalidir. Keyin daraxt qurib, o'tin bo'ladi. Shu yerda vahshiy hayvonning bir jinsi bor. Uni karkidon deb ataydilar. Yurtimizda qora mol boqqanday, u jazirada karkidon boqiladi. Ularning gavdasi tuya gavdasidan kattaroq bo'lib, o't yeyishadi. Boshi o'rtasida yo'g'on bir shoxi bor. Uzunligi o'n gaz



bo'lib, inson surati bor. U orolda qoramolning ham bir jinsi bor. Kemachilar, musofirlar, sayyohlarning aytishicha, bu karkidon katta-katta fillarni shoxida ko'tarib orol va dengiz qirg'oqlarida o'tlab yurarkan. Shoxida fil borligini o'zi ham sezmas ekan. Fil uning shoxida o'lib qolar ekan, kunning issig'idan filning yog'i erib karkidonning ko'ziga tusharkan. Shu bilan ko'r bo'lib qolarkan. Qirg'oqqa kelib yotganda ruh qushi kelib uni changalida ko'tarib, bolalariga olib borib, shoxidagi hayvonlarni ham qo'shib yedirarkan. Bu yerda govmishlarning ko'p xillarini ko'rdim. Bizda unaqa govmish yo'q. U vodiya men qo'ynimda saqlagan olmos toshlardan juda ko'p.

Savdogarlar uni mol va matolarga ayirbosh qildilar. Menga tanga-yu, tilla berdilar. Ular bilan birga yurib, chet mamlakatlarni tomosha qildim. Vodiya vodiya, shahardan shaharga o'tib to Basra shahriga yetguncha oldi-sotdi qildik. Basrada bir necha kun turdik.

Sindbod bahriy safaridan qaytgach, Bag'dod shahriga, o'z uyiga yetib keldi. Ko'p miqdorda har xil olmos toshlar olib kelgan edi. Har xil mol-matolar ham bor edi. Olib kelgan mollaridan sadaqa va hadyalar tarqatdi. O'rtoqlari bilan aysh-ishratga berildi. Boshidan kechirgan qayg'u-alamlarni unutdi. Yoru birodarlari uni ko'rgani kelib, safarda ko'rganlaridan so'rashar edilar. Sindbod ularga ko'rgan-kechirganlarini va tortgan mashaqqatlarini hikoya qilardi.




## KO'RLAR BILAN XASIS BOY



Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda bir uyda bir necha ko'rlar birga yashab, tilanchilik bilan kun o'tkazar ekanlar.

Kunlarning birida bir ko'r tilanchilik qilib, xasis boyning darvozasiga boribdi-da:

- Xudo yo'lga sadaqa bering, hotamtoylar, - debdi baland ovoz bilan.



- Kim? - deb so'rabdi xasis boy tashqariga qarab. Tashqaridan ovoz kelmagandan keyin, xasis boy darvoza oldiga kelibdi. Xasis boyning darvoza oldiga kelganini tilanchi ko'r sezibdi.

Xasis boy darvozani ochib:

- Nima deysan? - deb so'rabdi.
- Xudo yo'lga biror narsa sadaqa qilishingizni so'rayman.
- Ko'rmisan? - debdi boy.
- Ha, ko'rman, - debdi tilanchi.
- Qo'lingni ber, - debdi boy.

Tilanchi "Bir narsa berar ekan", deb qo'l uzatibdi. Boy tilanchini qo'lidan ushlab uyiga olib kiribdi. Uni eng baland boloxonaga olib chiqibdi. Tilanchi ovqat yoki biror kiyim-bosh beradi deb xursand bo'libdi.


Yuqoriga chiqqandan keyin:

- Nima so'raysan, ey ko'r? - debdi xasis boy.
- Xudo yo'lga sadaqa so'rayman, - debdi tilanchi.
- Xudo bersin, - debdi xasis boy.
- Nega shu so'zingizni pastda ayta qolmadingiz?
- Nega sen boshidayoq sadaqa so'ramay, xuddi men bilan oldi-berdisi borday, eshik ochdirib, tilanchilik qilding?..
- Nima qilmoqchisiz? - debdi tilanchi.
- Senga beradigan hech narsam yo'q, - debdi boy.
- Meni zinadan tushirib qo'ying.
- Zina oldingda turibdi, o'zing tushib ketaver! - debdi boy.

Tilanchi azob va mashaqqat bilan zinadan tusha boshlabdi. Bir necha zina qolganda oyog'i toyib yiqilib tushibdi. Boshi eshik qirrasiga tegib yorilibdi. U ko'chaga chiqib qayoqqa borishini bilmabdi. Shu payt o'ziga o'xshash bir necha ko'r tanishlari kelib qolishibdi.

- Bugun qancha pul topding? - deb so'rashibdi ular. U bo'lgan voqeani so'zlab:

- Bugun yonimda qolgan puldan bir oz sarf qilaman, - debdi o'rtoqlariga.



Xasis boy esa ularning orqasidan kelayotgan ekan. Ammo ular boyning kelayotganini sezmadilar. Tilanchi ko'r hovliga kelib uyiga kiribdi. Xasis boy ham unga bildirmay uyga kirib o'tiribdi.

Tilanchi ko'r o'rniga o'tirib, o'zining sheriklarini kutibdi.

Sheriklari ham yetib kelibdilar. Ular uyga kirgandan keyin tilanchi ko'r:

- Eshikni berkitinglar, u yoq-bu yoqni yaxshilab tekshiringlar! Biror begona kirib qolgan bo'lmasin, - debdi.

Xasis boy tilanchi ko'rning so'zini eshitgandan keyin o'rnidan turibdi-da, shiftga osig'liq turgan arqonga osilib olibdi. Ko'rlar uyning hamma tomonini timirskilab qarab chiqibdilar. Hech narsa va hech kimni uchratmadilar, keyin tilanchi ko'rning yoniga kelishib o'tiribdilar-da, yonlardagi pulni olib sanay boshlabdilar. O'n ming dirhaml ekan. Ular o'zlariga ozginadan pul olib, qolgan pullarni uyning burchagiga ko'mibdilar. Qotgan-qutgan nonlarini olib yeya boshlabdilar. Tilanchi ko'r uyda begona kishi borligini sezibdi-da, sheriklariga:

- Uyda begona kishi borga o'xshaydi, - deb, atrofni timirskilay boshlagan ekan, qo'li xasis boyning qo'lga tegibdi:


- Ana begona kishi, - deb qichqiribdi u. Hammalari birgalashib boyni savalabdilar. Ko'rlar bir ovozdan qichqirib:

- Birodarlar, yordam qilinglar! Bizning uyimizga o'g'ri kirib, pulimizni o'g'irlab olayotir, voydod, voydod! - deyishibdi.

Darrov odamlar to'planibdi. O'g'ri deb ko'rsatilgan xasis boy ham o'zining ko'zlarini yumibdi-da, hech kim shubhalanmaydigan ko'r tusiga kirib, hozir hokimga boraman, arz qilaman, deb dodlabdi.

Oradan ko'p o'tmay, hokimning malaylari ularning hammalari-ni hokim oldiga olib boribdilar. Ular orasida tilanchi ko'r ham bor ekan. Hokim yaqinroq kelishga buyurib:

- Nima gap? - deb so'rabdi.



140

- Bizni yaxshilab iskanjaga olmaguningcha sirni aniqlay olmasan, - debdi xasis boy, - oldin mendan boshlab, keyin mana bu yo'lboshchimizni tekshir, - deb tilanchi ko'rni ko'rsatibdi.

Hokim xasis boyning orqasiga to'rt yuz darra urishni buyuribdi. Xasis boyga kaltakning zarbi o'tgandan keyin bir ko'zini ochibdi. Yana ura boshlagan ekanlar, ikkinchi ko'zini ham ochibdi.

- Bu nima qilganing, la`nati?! - debdi hokim.

- Meni qutqazsang bo'lgani, voqeani aytib beraman, - debdi xasis boy.

- Biz to'rt kishi, - debdi u, - o'zimizni ko'rlikka solib, odamlarni aldaymiz, uylariga kiramiz, xotin-qizlarini ko'ramiz. Qulay vaqt top-sak mollarni olib, o'zlarini bo'g'ib o'ldiramiz. Shunday qilib anchagina pul to'pladik. Hozir o'n ming dirham pulimiz bor. Men sheriklarimga o'z hissamni bering, desam ular meni urdilar. Men sendan yordam so'rayman. Bularning har birini mendan ko'ra qattiqroq urilsa ko'zlarini ochadilar.

Hokim ularni siqa boshlabdi. Savalashni tilanchi ko'rdan boshlatibdi. Uni esi og'ib qolguncha uribdilar, lekin u ko'zini ochmabdi.

- To'xtatinglar, ko'zini ochar, - debdi hokim. Urishdan to'xtashibdi, lekin uning ko'zi ochilmabdi, hokim yana qolgan o'rtoqlarini ham urishga buyuribdi.

Xasis boy pulni olib kelish uchun hokim tomonidan bir kishi qo'shib berishni so'rabdi.

- Bular baribir osonlik bilan ko'zlarini ochmaydilar. Kishilar oldida sharmanda bo'lishdan uyaladilar, - debdi u.

Hokim pulni olib kelish uchun kishi yuboribdi. Ular pulni olib hokimga keltirib beribdilar. Hokim uch ming dirhamni xasis boyga berib, qolgan uch ko'rni shahardan chiqarib yuborishga farmon beribdi. Tilanchi ko'rlar peshonalariga bir urib, ko'z yoshlarini oqizgancha hokimga nafrat, boyga o'lim tilab bir umrga shahardan chiqib ketibdilar.





## QASSOB VA O'TMAS TANGA



141

Bag'dod shahrida bir ko'zi ko'r qassob bor ekan. U bu hunari orqasidan boy-badavlat yasharkan.

U qo'y so'yib sotar ekan. Qassob ko'p dunyo orttiribdi, shuning orqasidan yaxshi uy-joylar qurib olibdi. Yaxshi yuribdi, to'q yashabdi. Ancha vaqt shu xilda hayot kechiribdi. Kunlarning birida bir mo'ysafid kishi keta turib uning do'koni yonida to'xtabdi. Bir qancha dirham pul berib, go'sht berishni so'rabdi. Qassob go'sht tortib beribdi. Mo'ysafid go'shtni olib yo'lga tushibdi. Qassob cholning bergan dirhamlariga qarasa oppoq yaltiroq emish. Ularni bir tomonga alohida qilib, ayirib qo'yibdi. Mo'ysafid har kuni go'sht olganda shu yo'sin yangi pul keltirib beraveribdi. Besh oydan ortiqroq vaqt o'tibdi. Qassob cholning pulini ayrim sandiqqa solib, mahkam berkitib saqlab boraveribdi. Bir kuni yig'ib qo'ygan puliga qul olmoqchi bo'lib sandiqni ochib qarasa, pul emas, hammasi kesilgan oq qog'ozlar emish. Qassob o'zini yerga urib yig'lab baqiribdi. Atrofidagi odamlarga voqeani tushuntirib beribdi. Kishilar hayron bo'lib, nima deyishlarini bilmay, uyulariga tarqalishibdi. g'assob yana avvalgicha qo'y so'yib, o'z ishini davom ettiraveribdi. Qassob o'sha go'sht olgan cholning yana bir kelishini kutib toqatsizlanibdi. Ittifoqo oradan ko'p o'tmay mo'ysafid go'sht olish uchun do'konga kelibdi. Qassob uning yoqasidan ushlab hokim oldiga sudray boshlabdi. Shunda u odamlarga qarab:


- Bu xiyonatkor cholning menga qilgan ishlarini ko'ringlar. - debdi.

Chol bo'lsa:

- Yaxshilikcha meni qo'yib yubor, bo'lmasa odamlar orasida siringni ochib sharmanda-yu sharmisor qilaman, - debdi.

- Kimni sharmanda qilasan? - debdi qassob.

- Seni, qo'y go'shti deb odam go'shti sotishingni fosh qilaman.



142

- Yolg'on so'zlama, la'nati, - debdi qassob.

- Bo'lmasa odam go'shti osib qo'yilgan do'kon kimning do'koni?

- debdi chol.

- Agar shunday bo'lsa, molim ham, jonim ham, hammasi seniki bo'lsin! - debdi qassob.

- Birodarlar, - debdi chol odamlarga qarab, - bu badbaxt qassob qo'y go'shti deb, odam go'shti sotadi. Ishonmasanglar, do'konini qaranglar! - debdi chol.

Odamlar do'konga borib qarasalar, qo'y emas, odam osilib turganmish. Hamma birdan qassobga yopishib, uni sudray boshlabdi.

Qassobning eng yaqin kishilari bo'lsa:

- Sen hali bizlarga qo'y go'shti deb odam go'shtini sotib yurgan edingmi? - deb yuzlariga ayovsiz urishibdi, tepishibdi. Chol kelib uning ko'ziga chunon urgan ekan, qassobning ko'zi ko'r bo'lib qolibdi. Odamlar bu yaralangan kishini shahar hokimiga sudrab olib boribdilar.

- Bu muttaham qo'y go'shti deb odam go'shti sotib, bizni aldab yurgan ekan, - deb bo'lgan voqeani birma-bir gapirib beribdilar.

- Javob ber! - debdi hokim g'azab bilan.


Qassob o'zini oqlashga urinibdi. Lekin hokim quloq solmabdi.

Orqasiga besh yuz darra urib, hamma mol-mulk va pullarini tortib olishga buyuribdi.

Agar moli ko'p bo'lmaganda, ehtimol, urib o'ldirarkanlar. Nihoyat uni shahardan surgun qilibdilar. U shahardan chiqib, qayoqqa borishini bilmay qolibdi. Yura-yura bir katta shaharga yetib boribdi. O'zicha o'ylab-o'ylab, chuvak tikib tirikchilik qilishni ma'qul topibdi. Shu maqsadda kichkina bir do'koncha ochibdi. Kunlarning birida bir ish bilan bozorga borayotgan ekan, uzoqdan kelayotgan otlarning tuyoq tovushi eshilibdi. Odamlardan:

- Nima gap? - deb so'rabdi qassob.

- Shoh ovga ketyapti, - debdilar.



Qassob shohning o'tishini tomosha qilib turgan ekan. Shohning ko'zi qassobning ko'ziga tushibdi. Qassob boshini quyi solibdi. Shoh otining jilovini orqaga tortib, askarlariga qarabdi-da, qassobni quvishga buyuribdi. Askarlar qassobni quvlab ko'p uribdilar, qiynabdilar, o'lishiga oz qolibdi. Ammo qassob bu ishning sababini bilmabdi. Zo'r-bazo'r uyiga qaytibdi. U bo'lib o'tgan voqeani shoh xodimlaridan biriga aytib, yerga yiqilibdi.

- Shoh ko'zi qing'ir odamlarni yoqtirmaydi. Ayniqsa u ko'zi qiyshiq kishini ko'rsa, o'ldirmaguncha qo'ymaydi, - debdi shoh kishisi.

Bu so'zni eshitgan qassobni vahima bosibdi. Boshqa shaharga qochishga qaror beribdi. O'sha ondayoq boshqa shaharga qochib ketibdi.

Boshqa shaharga borib, ko'p yillar yashabdi. Bir kun u tomosha qilib kelish uchun ko'chaga chiqibdi. Yo'lda ketar ekan, orqasidan kelayotgan otlarning tuyuq tovushini eshitibdi. Qassob qo'rqib berkinish uchun joy qidiribdi, ammo qulay joy topolmabdi. Qarasa, qarshisida yopiq eshik turganmish, uni ochmoqchi bo'lib, eshikni itargan ekan, eshik ag'anab tushibdi. Ichkari kirib, uzun yo'lakdan ketayotgan ekan, birdan ikki kishi orqasidan kelib ushlab, shunday deyishibdi:

- Seni uch kundan beri qidiraverib halak bo'ldik. Oyoqlarimizda oyoq qolmadi. Sening kasofatingga biz uxlaganimiz yo'q.

- Nima ishlaringiz bor? - debdi qassob.


- Sen bizlarni sharmanda qilib, hiyla bilan uy egasini so'ymoqchi bo'lgansan, - deyishibdi ular. — Sheriklaring bilan senga uning pullarini olish yetmadimi? Bizni iztirobga solib qo'rqitayotgan pichog'ingni ber! - deb qassobning yonini tintib, belbog'iga osilgan pichog'ini topib olibdilar.

G'assob ularga qarab:

- Juda qiziq va ajoyib voqealarni boshdan kechirdim, - debdi.

- Qanday voqealarni boshdan kechirgansan? - deb so'rashibdi.

Qassob boshimdan kechirgan voqealarni eshitib, zora meni



144

bo'shatsalar, deb hammasini aytib beribdi. Ular hatto bu sarguzashtlarga e`tibor ham bermabdilar. Uning yoqasidan bo`g`ib uribdilar, kiyimlarini shilibdilar, badanidagi qamchi izlarini ko`rib:

- Ey la`nati, agar sen o`g`ri, muttaham bo`lmasang, qamchi izlari orqangda qanday paydo bo`lgan? - deb hokim oldiga sudrabdilar. Qassob o`zicha:

- Gunohim bilinib qoldi. Endi hokim meni o`ldirmay qo`ymaydi, - deb yig`labdi. Uni hokim huzuriga olib boribdilar.

- Ey muttaham! Sen bularning uyiga kishi o`ldirish uchun kiribsan. Kishi o`ldirishga seni nima majbur qildi? - debdi hokim g`azab bilan.

- Xudo haqi, ey hokim, - debdi qassob, - so`zlarimga yaxshi quloq solib, e`tibor berishingizni iltimos qilaman.

- Yegan kaltaklarningning izlari ham juda katta jinoyat qilganingni isbot qilib turibdi. Odamlarga jabr qilgan o`g`rining so`ziga quloq solish adolatdan emas, -debdi hokim.

U qassobni yuz darra urishga, tuyaga teskari mindirib, shahar atrofini aylantirishga buyuribdi. Qassobni tuyaga mindiribdilar. Odam gavjum joylarda to`xtatib:

- Mana, o`g`rilar uchun eng kichik jazo, - deb jar solibdilar.

Hokim qassobni shahardan surgun qilishga buyuribdi.

Qassob shahardan chiqib boshi oqqan tomonga qarab jo`nabdi. Yo`lda keta turib bir nuroniy chol bilan uchrashibdi. Boshidan kechirganlarini birontasini qoldirmay hikoya qilib beribdi.

Chol qassobning hikoyasini eshitib:

- Odamlarga xiyonat qilishning mukofoti shu bo`ladi. Sen molidunyo orttirish uchun hammani aldagansan. Echki go`shtini qo`y go`shti deb o`tkazgansan. O`shanda ham kam tortib bergansan. Shuning uchun bu ko`rgiliklaring oz.

"To`g`ri odamga gard yuqmas, gard yuqsa ham dard yuqmas", deganlar. Savdogarlik qilib kishilarni aldamaganingda, shu azoblarni tortmagan bo`larding, -debdi.



## UCH OLMA VA O'LIK JUVON



145

Bir kuni xalifa vaziri Ja`farga shunday debdi: - Bugun shaharga tushib, amaldorlar harakatini tekshiramiz, kim to'g'risida norozilik eshitsak, uni mansabdan uzoqlashtiramiz.

- Jonim bilan, - debdi Ja`far.

Xalifa, Ja`far va Masrur shaharga tushibdilar. Ular bozorning chek-kasidagi yo'ldan ketayotganda, boshida savat ko'targan, qo'lida hassa ushlagan bir cholni uchratibdilar. U bitta-bitta qadam bosib kelayotgan emish:


- Qanday hunaring bor, ota? - deb so'rabdi xalifa.

- Men baliqchiman, bola-chaqam bor, uydan chiqqanimda kun ko'tarilmagan edi. Shu vaqtgacha hech narsa topmadim. Bolalarim oldiga nima deb borishimni bilmay, ularning ko'z yoshlarini ko'rishga toqat qilolmay, o'limimga rozi bo'lib kelayotirman, chirog'im, - deb javob beribdi chol.

- Biz bilan Dajla daryosiga borib, bizning baxtimizga qarmoq solsang, nima chiqsa yuz dinor berar edim, debdi xalifa.

- Jonim bilan, - debdi chol sevinib.

Baliqchi ular bilan birga daryo labiga boribdi. Qarmoq tashlabdi, bir narsa ilinganday bo'libdi, qarmoqni tortibdi. Qarasa: qopqora qulflangan sandiq emish. Xalifa sandiqni qimirlatmoqchi bo'libdi. Og'irlik qilibdi. Keyin baliqchiga yuz dinor pul beribdi, baliqchi uyiga ketibdi. Ja`far bilan Masrur sandiqni ko'tarib, xalifa bilan saroyga qaytibdilar. Sham yoqilibdi. Ja`far bilan Masrur kelib sandiqni buzibdilar. Unda qizil gul bilan o'ralgan bir quti bor ekan, uni ham buzibdilar. Qutida yoyilgan gilam, ostida esa paranji ko'rinibdi. Paranjini ochib qaragan ekanlar, bo'g'izlab o'ldirilgan juda chiroyli bir xotin yotgan emish.



146

Buni ko'rgan xalifaning rahmi kelib, ko'zlaridan yosh oqibdi.

- Ey vazirlar ichidagi it, - debdi Ja`farga qarab, - bu qanday gapki, mening davrimda odamlarni bo'g'izlab, daryoga tashlabdilar?! Axir, buning javobgarligi mening zimmamda-ku! Qotilni albatta topib, uni eng dahshatli azob bilan o'ldiraman. Mening zuryotim - Abbosiy xalifalar haqi! - deb qasam ichibdi xalifa.

So'ngra Ja`farga qarab: "Buning qotilini topib keltirmasang seni va sening qirq urug'ingni mana shu saroy darvozasi oldida dorga ostiraman", - debdi.

Ja`far uch kun muhlat so'rabdi, xalifa muhlat beribdi. O'sha ondayoq Ja`far shaharga yo'l olibdi. U nima qilishini bilmay, g'amgin bo'libdi. Bu xotinning qotilini qayerdan topaman, agar tuhmatdan boshqani keltirsam, uvoliga qolaman, debdi o'zicha. Nima qilishini bilmay, uch kunni o'tkazibdi. To'rtinchi kuni xalifa Ja`farga kishi yuboribdi, Ja`far xalifa huzuriga kelibdi.


- Qotil qani? - deb so'rabdi xalifa.

- Men qayerdan bilay? - debdi Ja`far.

Xalifa g'azablanibdi. Ja`farni saroy darvozasi yoniga olib borib oshga buyuribdi. Osmasdan oldin butun shahar xalqiga xalifaning vaziri Ja`far va uning qirq avlodining osilishi to'g'risida jar solishni buyuribdi. Ja`far va uning qirq avlodini jazolashni ko'rish uchun har tomondan odamlar to'planibdilar. Lekin ularning osilish sababini hech kim bilmas ekan. Dor hozirlanibdi. Vazir va boshqalar dor ostiga keltirilibdi. Jallodlar xalifaning farmonini kutar ekanlar.

Shu payt juda ham chiroyli bir yigit shoshib yetib kelibdi. U odamlar orasini yorib, Ja`farga tomon intilar emish. U Ja`far oldiga kelib, unga:

- Sen bu jazodan qutulgansan, sandiqdagi o'lik xotinning qotili men, meni osinglar! Mendan qasos olinglar, - debdi. Ja`far o'zining dor ostidan qutulishiga sevinibdi, ammo yosh yigitning ahvoliga achinibdi. Bu yigitni ko'rganlar hayron bo'lishib, bir-biri bilan shivirlashib gapirishibdilar.



Birdan munkaygan bir chol yetib kelibdi. U juda shoshilib, yurganicha odamlarning orasini yorib, Ja`far oldiga boribdi.

- Ey vazir, bu yigitning so'ziga ishonmang. U xotinni men o'ldirganman. Men jazolanishim kerak,- debdi. Yigit bo'lsa:

- Ey vazir, bu qari chol aqldan ozgan, gapirgan gapining mazmunini nimadan iborat ekanini o'zi ham bilmaydi. Xotinni men o'ldirganman, meni osinglar,- debdi.

- Ey, o'g'lim, - debdi chol, - sen yoshsan, hali dunyo orzu-havaslariga qonmagansan!

Men esa yoshimni yashadim, oshimni oshadim, orzu-havaslarining hammasini ko'rgan, dunyodan bezgan bir kishiman. Bu xotinni men o'ldirdim, men jazolanishim kerak, tez osinglar, - debdi chol.

Vazir hayratda qolib, yigitni ham, cholni ham shoh oldiga olib boribdi. Xalifa oldida ular yer o'pibdilar.

- Xotinni o'ldirgan qotilni keltirdim, - debdi vazir.

- Qani u? - debdi xalifa.

- Mana bu yigit xotinni men o'ldirganman, deydi. Bu mo'ysafid bo'lsa, "Yigit yolg'on aytyapti, uning qotili men", deydi. Ularning har ikkisini sizning oldingizga keltirdim.

Xalifa cholga ham, yigitga ham diqqat bilan qarab:

- Qaysi biring o'ldirding? - debdi g'azab bilan.

- Men, - debdi yigit.

- Bo'lmagan gap, men o'ldirdim, - debdi chol.


- Har ikkisini ham os, - debdi xalifa Ja`farga. Ja`far qarshi chiqibdi.

- Bularning har ikkisini osish adolatdan emas, shohim, - debdi Ja`far.

- Xotinni men o'ldirdim, - debdi yigit.

Xalifa hayron bo'lib bu voqeaga qiziqibdi:

- Nima uchun xotinni nohaq o'ldirding, yana hech kim bilmagan bu sirni o'zing kelib bildirib qasos kutayotirsan?! - debdi xalifa.



- Hurmatli xalifa, - debdi yigit, - bu xotin amakimning qizi, mening xotinim edi. Bu chol amakim - qizning otasi.

148) Biz ancha umr kechirib, uch o'g'il ko'rdik, u meni juda yaxshi ko'rar edi. Men undan hech qanday yomonlik ko'rmagan edim. Shu oying boshida u qattiq kasal bo'ldi, tabiblarga boqizdim, tuzaldi. Hammomga olib bormoqchi bo'ldim.

- Hammomdan oldin bir narsaga havasim kelayotir, - dedi.

- Nima istaysan, ayt, - dedim.

- Olma bo'lsa, hidlar edim, bir ozgina yer edim,- dedi. Men olma topib kelish uchun shaharga jo'nadim. Butun shaharni izladim, topolmadim. Agar bittasi bir dinor tursa ham olar edim. G'amgin xayollar bilan kechani o'tkazdim. Tong otgandan keyin shahar bog'larini birma-bir aylanib yurib, bir kekxa bog'bonga duch keldim-da, undan so'radim.

- Ey o'g'lim, hozir olmani topish qiyin, balki topilmas, - dedi. - Uni hozir faqat Basradagi hokimning bog'idan topish mumkin. Unda bog'bonlar xalifa uchun olma saqlaydilar.

Men uyga qaytdim. Unga bo'lgan muhabbatim ko'nglimni tinchitmadi.

Bog'bon tayinlagan tomonga jo'nadim. Kecha-kunduz demay o'n besh kun yo'l bosdim. Basra saroyining bog'bonidan uch dinoriga uchta olma sotib olib, xotinimga keltirib berdim. U olmani olib qo'ya qoldi. Uning kasali kuchaydi. O'n kun qattiq yotib qoldi, keyin tuzaldi. Men ham do'konga ishga chiqdim. Olish-sotish bilan mashg'ul bo'ldim. Tush vaqti do'konda o'tirgan edim, bir qora qul o'tib qoldi. Uning qo'lida olmalardan biri bo'lib, o'ynab borar edi.

- Ey yaxshi kishi, bu olmani qayerdan olding, menga ham kerak Edi?, - deb so'radim undan.

- O'ynashimdan oldim, - deb kuldi qul. - Men boshqa yoqqa ketgan edim, qaytib keldim. Sevgilim kasal bo'lib, uning yonida uchta olma turgan ekan. "Ahmoq erim shu olma uchun Basraga





borib, uch olmani uch dinorga sotib olib keldi", dedi o'ynashim. U menga birini hadya qildi.

Qulning so'zini eshitgan zamon dunyo ko'zimga qorong'i bo'lib ko'rindi. Bu so'zlarni eshitib, devona bo'lgan edim. O'rnimdan turib do'konni berkitdim. Xotinim yoniga bordim, qaragam olmaning ikki-tasi turibdi.

- Uchinchisi qani? - deb so'radim.

- Bilmadim, e'tibor ham berganim yo'q, - dedi u. Qulning so'zi to'g'riligi tasdiqlandi, pichoqni qinidan oldim. Orqadan kelib ko'ksiga tizzamni tirab o'tirdim, indamay gardaniga pichoq urdim-da, kallasini shartta kesib oldim. Parda bilan o'rab qutiga joyladim, ustiga gilamcha yopib, sandiqqa soldim. O'z xachiringa ortib Dajlaga olib bordim. O'z qo'lim bilan daryoga tashladim. Mendan tezroq qasos oling! Bu sirni hech kim bilmagan edi, katta o'g'linga ko'zim tushdi. U yig'lardi. U onasining voqeasidan bexabar edi.

Men undan:


- Nega yig'laysan? - deb so'radim.

- Men, - dedi o'g'lim yig'lab, - olmalarning birini olib, ukalarim bilan ko'chada o'ynab yurgan edim, novcha bir qora qul kelib sapchib olmani qo'limdan oldi.

- Qayerdan olding? - deb do'q urib so'radi.

- Kasal onam uchun otam ataylab Basraga borib, u yerdan uchta-sini uch dinorga keltirdi, dedim. Men bu gapni ikki-uch qayta takrorladim, lekin qul olmani qaytarmadi. Aksincha meni urib, o'z yo'liga ketdi. Oyimdan qo'rqqanimdan, o'shandan beri uyga kirolmay, ukalarim bilan shahar atrofiga chiqib aylanib yuribman.

Bu so'zni eshitib, qulning so'zi amakimning qizi uchun tamom tuhmat ekanini aniq bildim. Nohaq o'ldirganimga pushaymon bo'lib, alamimdan yig'ladim. Keyin bu mo'ysafid amakim kirib keldi. Men o'tgan voqeani gapirib berdim. Yonimga o'tirib amakim ham yig'lay boshladi. Yarim kechagacha yig'lashdik, besh kungacha aza tutdik. Biz



bu kungacha uning nohaq o'lganiga qayg'uramiz. Buning hammasi o'sha qulning kasofati tufayli bo'ldi. Mana uning o'ldirilish tarixi, avlodingiz hurmati, meni tezroq osing, usiz hayot kerak emas, - debdi yigit.

"Albatta shu qulni jazolaymiz", debdi xalifa.

- Yigit uzrli ekan, qulni o'ldirish kerak, - debdi xalifa Ja`farga qarab:  
- Agar o'sha qulni topib keltirmasang, uning o'rniga seni o'ldiraman.

Ja`far o'rnidan qo'zg'alibdi, qulni qayerdan topaman, deb zor-zor yig'labdi, "Zora bu gal ham avvalgisidek qutulsam", deb umid qilibdi. Biror hiyla izlab topishni istamay, uch kungacha uydan chiqmay o'tiribdi.

To'rtinchi kuni uyiga qozini chaqirtirib, vasiyat qilibdi. Bolalar bilan xayrlashibdi. Bolalari tinmay yig'labdi, Ja`far ham o'zini yig'idan to'xtata olmabdi. Birdan xalifa yuborgan kishi kirib kelib shunday debdi:

- Xalifa juda g'azablangan, sizni yo'qlamoqda. Agar bugun qulni topmasangiz, o'zingizni o'ldiradi.

Ja`far bu so'zni eshitib, yana yig'lay boshlabdi. Bolalari bilan yig'lab xayrlashibdi. Ja`far xayrlashish uchun eng sevgan kichik qizi yoniga boribdi. Chunki uni boshqa bolalaridan ko'ra yaxshi ko'rar ekan. Uning boshini ko'kragiga bosib xayrlashmoqchi bo'lgan ekan, qizning cho'ntagida do'ppaygan bir narsaga ko'zi tushibdi.

- Cho'ntagidagi nima? - deb so'rabdi u qizidan.


- Olma, - debdi qiz, - men buni olganimga to'rt kun bo'ldi. Qulimiz Rayhon keltirgan ekan, ikki dinor pulga zo'rg'a sotib oldim. Ja`far qul bilan olmaning daragini eshitgandan keyin o'zida yo'q xursand bo'lib:

- Rayhonni chaqir, - debdi.

Rayhon kelib salom beribdi.

- Badbaxt, - debdi Ja`far Rayhonga, - bu olmani qayerdan olding?

- Ey xo'jam, - debdi qul. - Agar yolg'on kishini halokatdan



qutqazsa, haqiqat ham qutqazadi. Men bu olmani sizning hujrangizdan o'g'irlaganim yo'q. Bundan olti kun ilgari shaharning bir ko'chasidan o'tib ketayotgan edim, bir to'da yosh bolalarga ko'zim tushdi. Birining qo'lida shu olma bor ekan, tortib oldim. Bolani urdim, u yig'lab turib shunday dedi:

- Ey amaki, bu olma oyimning olmasi. Oyim kasal edi, otamdan olma so'radi. Otam shu bilan tuzalarmikin deb, Basra degan joydan uchta olmani uch dinorga sotib olib keldi. Men birini o'ynash uchun bildirmay olib chiqdim.

Bola, bering, deb qancha yalinsa ham, men unga e'tibor bermay, olib kelaverdim. Bu yerda kichik malika ikki dinor oltinga sotib oldi.


Ja'far bu gapni eshitib xotinning o'limiga uning quli Rayhon sabab bo'lganini anglabdi. Qul unga yaqin bo'lganligi uchun achinibdi.

Ja'far qulni o'zi bilan birga xalifa oldiga olib borib, voqeani boshdan-oyoq gapirib beribdi. Xalifa bu voqeani eshitib hayron bo'libdi. Xalifa, ibrat bo'lsin deb, bu hikoyani yozib tarqatish zarurligini aytibdi.

## SUV TASHUVCHI BILAN ZARGARNING XOTINI

Qadimda Buxoro shahrida bir suv tashuvchi o'tgan ekan. U o'ttiz yil muttasil bir zargarning uyiga suv tashirkan. Zargarning husnu jamol, odobu kamolda tengi yo'q, shuningdek, oru nomusli, diyonatli bir xotini bor ekan.

Kunlardan bir kun suv tashuvchi odati bo'yicha suvni xumlarga quyibdi, zargarning xotini hovlining o'rtasida yurgan ekan, suv tashuvchi uning oldiga borib qo'lini ushlabdi-da, uqalab siqibdi, keyin qo'yib yuborib chiqib ketibdi.



152

Eri bozordan kelgach, xotini unga: "Bugun bozordan xudo i taoloning g'azabini keltiradigan nima ish qilganingizni aytib ber-ing", – debdi.

"Oллоhi taoloning g'azabini qo'zg'atadigan hech narsa qilganim yo'q", – deb javob beribdi u. Xotini qo'yarda-qo'ymay: "Xudo haqqi, Oллоhi taoloning g'azabini keltiradigan biron ish qilgan-siz! Shu qilgan ishingizni boricha aytib bermasangiz, uyingizdan bosh olib chiqib ketaman, bundan keyin diydorimni ham ko'rmaysiz", – deb turib olibdi. "Nima qilganimni aytib bera-man, – debdi eri nihoyat, – odatga ko'ra, do'konda o'tirgan edim, oldimga bir xotin kelib bilaguzuk buyurib ketdi. Oltindan bilguzuk yasadim-da, bir chekkaga olib qo'ydim. Xotin kelgach, uni olib berdim, xotin qo'lini ochib bilaguzukni taqdi. Qaragan kishini maftun etadigan bilagining oqligi va qo'lining chiroy-liligidan hayratda qolib, qo'lini ushlab siqdim-da, uyoq-buyog'ini aylantirib ko'rdim". Buni eshitib: "Oллоhu akbar! – debdi xotini. – Nega bunday qildingiz? O'ttiz yildan beri uyimizga suv tashib, shu vaqtgacha biron xiyonat ish qilmagan odam xuddi shu bugun qo'limni ushlab siqdi va uyoq-buyoqqa aylantirib ko'rdi".- "Xudodan omonlik so'raylik, xotin!- debdi eri. – Qilgan ishimga tavba qildim, menga Xudodan mag'firat so'ra!" Buni eshitgan xotin Xudodan o'zi bilan eriga mag'firat tilabdi.

Ertasiga ertalab suv tashiydigan kishi kelib o'zini xotinning oyo-qlariga tashlabdi-da: "Ey bekam, meni shayton yo'ldan ozdiribdi, qilgan gunohimni kechir",- deb uzr so'rabdi. "Tur, ishingni qila ber, u xato sendan bois bo'lmagan. Erim do'konida qilgan kirdikori bilan bunga sabab bo'libdi. Xudo bu dunyodayoq uning qasosini oldi".

Xotini eriga suv tashuvchining qilgan tavba-tazarrularini aytib bergan ekan, zargar: "Bir zarbaga bir zarba! Agar men bundan oshirganim-da, suvchi ham oshirgan bo'lardi", – debdi.

O'sha chog'larda bu so'z odamlar orasida masal bo'lib qolibdi.



## SHIRIN BILAN BALIQCHI



153

Xusravl shoh baliqni yaxshi ko'rarkan. Kunlardan bir kun u o'z xonasida xotini Shirin bilan o'tirsa, bir baliqchi katta baliq ko'tarib kelib Xusravga taqdim etibdi. Baliq unga juda yoqib, baliqchiga to'rt ming dirham berishni buyurgan ekan, Shirin:

"Shu yaxshi ish bo'lmadi", — debdi. Xusrav:

"Nima uchun?" — deb so'rasa, Shirin shunday javob qilibdi: "Shuning uchunki, bundan buyon hashamlaringizdan birontasiga shuncha pul bersangiz juda kam ko'rib: "Menga nihoyati bir baliqchiga bergancha in'om qiladi", deydi. Bordi-yu, undan kam bersangiz: "Meni tahqir qilyapti, baliqchiga berganidan ham kam beradi, deydi", "To'g'ri aytasan, — debdi Xusrav, — ammo bergan hadyasini qaytarib olish podsholar uchun xunuk ish, endilikda ko'zda tutarmiz".

"Hadyani qaytarib olish uchun bir tadbir topaman", — debdi Shirin. Xusrav qanday tadbirligini so'ragan ekan, Shirin javob berib bunday debdi: "Agar qaytarib olishni istasangiz, baliqchini chaqirib: "Bu baliq erkakmi yoki urg'ochimi?" — deb so'rang. Agar u, "erkak, desa, biz urg'ochisini xohlardik, deng. Bordi-yu, urg'ochi, desa, bizga erkagi kerak, deb ayting".

Podsho baliqchining orqasidan odam yuborib, chaqirtirib kelibdi. Baliqchi zukko va o'tkir farosatli odam ekan. U kelgach, Xusrav: "bu baliq erkakmi, urg'ochimi?" — deb so'ragan ekan. Baliqchi yer o'pib: "Erkak ham emas, urg'ochi ham — xunasa", — deb javob beribdi. Uning bu so'zidan Xusrav kulib, yana qo'shimcha to'rt ming dirham berishni buyuribdi.


Baliqchi xazinadorning oldiga borib sakkiz ming dirhamni olibdi, qopga solib orqalab chiqib ketayotgan ekan, bir dirhami yerga tushib ketibdi. Baliqchi qopni yerga qo'yibdi-da, engashib dirhamni:

ni olibdi. Shoh bilan Shirin bu voqeani ko'rib turishgankan, Shirin shohga shunday debdi: "Ey shoh, bu odamning xasis va pastkashligini qara: tushgan bir dirhamni ham podshoning biron xizmatkori topib ola qolsin, deb tashlab ketgisi kelmadi". Bu so'zni eshitgandan keyin podshoning ham achchig'i kelib: "To'g'ri aytasan, Shirin!" — debdi-da, baliqchini qaytarib kelishni buyuribdi, u kelgach: "Ey past himmat! Odam emas ekansan! Bir dirhamni qoldirib ketishga baxillik qilib shuncha pulni yelkangdan qo'yib yerga egilib o'tiribsan-a!" — deb xitob qilibdi. Baliqchi yer o'pib debdi: "Xudo podshoning umrini boqiy qilsin! Men u dirhamning qiymati uchun emas, shu sababdan oldimki, uning bir tomonida podshoning surati, ikkinchi tomonida esa ismi bor. Biron kishi bilmasdan uni bosib olishi mumkin, deb o'yladim, shunday bo'lgan taqdirda podshoning ismi ham, surati ham xo'rlanar, men esa gunohkor bo'lib qolardim". Baliqchining so'zlari podshoga juda ma'qul tushib, zavqlantirib yuboribdi. Baliqchiga yana qo'shimcha to'rt ming dirham berishni buyuribdi-da, butun mamlakatga shunday deb jar soldiribdi: "Har kim xotinining ra'yiga qarashda ehtiyot bo'lsin, kimki o'ylamay-netmay uning gapiga kirar ekan, bir dirham deb ikki dirhamni boy beradi".

## XALIFA MA'MUN VA EHROMLAR

Xorun ar-Rashidning o'g'li Ma'mun Misrga kirgach, ehromlarni buzib, ularning ichidagi narsalarni olmoqchi bo'libdi. Biroq katta pullar sarf qilib, qancha urinmasin, ularni buza olmabdi.

Faqat bir ehromdan kichkina tokcha olibdi, xolos. Ma'mun o'sha o'zi ochgan tokchadan uni ochish uchun sarflagancha pul topibdi. Ma'mun bundan taajjubda qolib, ehromlarni buzish niyatidan qaytibdi.



Ehromlar uchta bo'lib, dunyo ajoyibotlaridan hisoblanarkan. Mustahkamligi, ajoyib ishlanganligi va balandligi bilan ularga to'g'ri keladigan bino yer yuzida topilmas ekan. Ular katta-katta toshlardan bino qilingan ekan. Quruvchilar toshni ikkala tomonidan teshib, unga tikka temir qoziq o'rnatgan ekanlar-da, keyin ikkinchi toshni teshib uning ustiga tushirishgan ekan. So'ngra qo'rg'oshinni eritib qoziq tepasidan quyilgan, butun bino tugaguncha handasa tartibi bilan shu xilda ishlab chiqilgan ekan. Har bir ehromning balandligi o'sha vaqtda ishlatilgan gaz bilan yuz gazcha kelarkan. Ehromning tagi to'rt tomonli bo'lib, har tomoni pastdan yuqoriga qarab toraya boravergan, har tomonning uzunligi uch yuz gaz ekan.


Qadimgilarning hikoya qilishicha, g'arbiy ehromning ichida rang-barang toshdan yasalgan o'ttizta xazina bo'lib, ular qimmatli javohirlar, son-sanoqsiz boyliklar, ajoyib suratlar va qurol-aslahalar bilan to'la emish. Bular hikmat bilan tayyorlangan yog' bilan moylangani tufayli, qiyomatgacha ham zanglamasmish. Unda yana sinmasdan bukiladigan shisha, xilma-xil murakkab dorilar, maxsus tayyorlangan suvlar va boshqa narsalar bormish. Ikkinchi ehromda esa tosh lavhalarga yozilgan kohinlar tarixi saqlanarmish.

Har bir kohin uchun bittadan hikmatli lavha bo'lib, unda kohinning ajoyib hunar va a`mollari yozilganmish. Devorlarga esa kursida o'tirib, har turli ishlar qilayotgan odamlarning surati sanamlarga o'xshatib ishlab qo'yilganmish.

Har bir ehromni bir soqchi qo'riqlab turarmish, bu soqchilar ehromlarni zamona hodisalarining zarbidan saqlab turishar ekan.

## O'G'RINI URIB KYETGAN QAROQCHI

Bir kishi avvalboshdan o'g'ri bo'lganekan. Keyin Xudoyi taolaga tavba qilib, o'g'rilikni tashlabdi-da, do'kon olib gazmolfurush ik




156

bilan shug'ullana boshlabdi. Shu yo'sinda bir qancha muddat o'tibdi. Kunlardan bir kun u do'konni qulflab uyiga ketgach, hiylakor o'g'rilardan biri do'kon egasiga o'xshab kiyinibdi-da, kechasi kelib, to'ppa-to'g'ri bir kalit bilan do'konni ochibdi. Keyin qorovulga: "Mana shu shamni yoqib ber", – debdi. Qorovul shamni olib, yoqib kelgani ketibdi, qorovul kelguncha do'konga kirib hisob daftarini qo'liga olibdi-da, unga tikilib nimanidir barmog'i bilan hisoblabdi. Qorovul shamni keltirgach, sahar vaqtiga qadar hisob-kitob qilib o'tiraveribdi, keyin qorovulga: "Bir tuya bilan tuyakash olib kel, ba`zi mollarni boshqa bir joyga olib borish kerak", – debdi. Qorovul tuyakashni tuyasi bilan boshlab kelibdi, o'g'ri to'rt bo'g'cha gazmol olib chiqib, tuyaga ortibdi. Keyin u do'konni qulflabdi-da, qorovulga ikki dirham berib, o'zi tuyakashning orqasidan yo'l olibdi. Qorovul uni do'konning egasi deb qolaveribdi.

Tong otib, kun yorishgandan keyin do'konning haqiqiy egasi kelgan ekan, qorovul uni bergan ikki dirhami uchun duo qilibdi. Do'kon egasi qorovulning so'zini inkor etib ajablanibdi. Do'konni ochib qarasa, sham erib oqib bo'lgan, hisob daftari esa yerda ochilib yotganmish. Mollarini sinchiklab ko'zdan kechirgan ekan, to'rt bo'xcha mol o'g'irlangani ma`lum bo'libdi. Do'kondor qorovuldan: "Nima hodisa ro'y berdi?" – deb so'rasa, kechasi ro'y bergan voqeani hikoya qilib, tuyakashning bo'xcha ortganlarigacha gapirib beribdi. "O'sha mol ortgan tuyakashni topib kel", – debdi do'kondor, qorovul: "Bosh va ko'z ustiga",- deb uni boshlab kelibdi. "Sahar paytida molni qayerga olib bording?" – deb so'rabdi do'kondor. "Qirg'oqdagi falon joyga olib borib, falonchining kemasiga yukladim",- debdi tuyakash. Do'kondor: "Yur, birga o'sha yerga boramiz", – debdi-da, tuyakash bilan boshlashib daryo qirg'og'iga borishibdi. "Mana kema, ana uning egasi",- debdi tuyakash.

Do'kondor kemachidan: "Savdogar bilan mollarni qayerga olib bording?" – deb so'ragan ekan, u javob berib: "Falon joyga olib bor-





dim, savdogar bir tuyakashni yollab mollarni yuklab ketdi, qayerga ketganini bilmadim", – debdi. "Mollarni olib ketgan tuyakashni topib kel", – debdi do'kondor. Qayiqchi uni topib kelgach: "Qayiqdagi mollarni savdogar bilan qayerga olib bording?" – deb so'rabdi. Tuyakash: "Falon joyga", degan ekan: "Yur, men bilan borib o'sha joyni ko'rsat", – debdi do'kondor. Shundan keyin tuyakash uni qirg'oqdan uzoq bir joyga boshlab boribdi-da, molni olib kehb tushirgan karvonsaroy bilan o'sha savdogarning hujrasini ko'rsatibdi.

Do'kondor hujraga kirib qarasa, to'rt bo'xcha moli shundayicha turganmish.


Molni olib, tuyakashga beribdi, o'g'ri choponini bo'xchalar ustiga qo'yib ketgan ekan, do'kondor uni ham olib tuyakashga uzatibdi. Tuyakash bularning hammasini tuyaga ortibdi. Do'kondor hujrani qulflab, tuyakash bilan yo'lga tushibdi.

O'g'ri ularni yo'lda uchratib qolib, ketlaridan kelaveribdi. Molni qayiqqa ortganlaridan keyin: "Ey birodar, sen Xudo yo'lga kirgan odamsan, molingni olding, undan hech narsa yo'qolgani yo'q, endi mening choponimni berib ket", – debdi o'g'ri.

Do'kondor kulibdi-da, o'g'rini xafa qilmay, uning choponini qaytarib beribdi. O'g'ri qilmishiga pushaymon bo'lib, o'z yo'lga qarab ketgan ekan.

## RUH QUSHINING TUXUMI

Mag'rib aholisidan bir odam turli mamlakatlar, dengiz va sahrolarni kezib safar qilib yurar ekan, taqdir uni bir orolga keltirib tashlabdi. Bu orolda uzoq muddat istiqomat qilib turgandan keyin o'z mamlakatiga qaytib ketibdi. U hali tuxumdan chiqmagan ruh bolasining qanotidan bitta patni ola kelgan ekan. Patning naycha



158


bir mesh suv ketarkan. Ruh qushining bolasi tuxumdan chiqqanidan keyin qanotining uzunligi ming quloch keladi, deyishadi.

Odamlar u patni ko'rib hayron bo'lishibdi. U odamning ismi Abdurahmon Mag'ribiy ekan, Xitoyda ko'p turganidan Chiniy nomi bilan mashhur ekan. U ko'rgan-bilganlaridan turli ajoyibotlar haqida hikoya qilib yurarkan. Shulardan birini eshiting: — Bir vaqtlar u Xitoy dengizi bo'ylab safar qilibdi. Bir payt u bir guruh odamlar bilan Xitoy dengizida ketayotgan ekan, uzoqdan juda katta bir orol ko'rinibdi. Kema shu orolga kelib to'xtabdi.

Kemadagi odamlar suv va o'tin g'amlab olish uchun qo'llariga bolta, arqon va mesh olib orolga tushishibdi, haligi odam ham shular bilan birga ekan. Ular kattakon, uzunligi naq yuz gaz keladigan oppoq va yaltiroq gumbazni ko'rib qolishibdi. Yaqinroq borib qarashsa, u gumbaz ruh qushining tuxumi ekan. Uning tuxumini bolta, tosh va kaltaklar bilan urib yorishgan ekan, ichidan tog'dek jo'ja chiqibdi. Uning qanotidan patni yulib olishibdi.

Jo'janing pati hali rosa yetilib o'smaganligiga qaramay, odamlar bir-birlariga yordamlashib, zo'rg'a yulib olishibdi. Keyin jo'janing go'shtidan ham ko'targancha olib ketishibdi.

Yelkanlarini ochib kechasi bilan to quyosh chiqquncha suzishibdi. Shamol ham kemaga yordam beribdi. Ular shu alfozda suzib ketishar ekan, to'satdan katta bulutga o'xshash ruh qushi uchib kelaveribdi. Changanalida kemadan katta tog'dek bir tosh ham bor emish. Qush kemanding tepasiga kelgach, changalidagi toshni odamlarning ustiga tashlabdi. Ammo kema nihoyatda tez ketayotganidan toshdan oldin o'tib ketibdi-yu, tosh kelib dengizga tushibdi. Mana shu holat ham hammani dahshatga solibdi. Xudo ularga salomatlik bag'ishlab, halokatdan qutqarib qolibdi. Shundan keyin ular haligi go'shtni pishirib yeyishibdi. Oralarida soqoli oppoq chollar ham bor ekan, ertasiga tong otganda qarashsa, haligi chollarning soqoli qorayib qolganmish.




Bu go'shtdan yegan odamlardan birontasining ham soch-soqoli oqarmabdi.

Bu odamlarga yoshlik qaytib, soch-soqollarining oqarmay qolganiga sabab, o'sha kuni qozon kavlagan cho'pning o'q yasaladigan daraxtdan ekanida, degan mish-mish gaplar bor. Ba`zilar, bunga sabab, ruh bolasining go'shti, deyishadi.

Xullas, bu bir ajoyibot-da!





## FORS XALQ ERTAKLARIDAN



*Fors xalqi asosan Eron Islom Respublikasida istiqomat qiladi. Eron Islom Respublikasi Janubiy Osiyodagi davlat. Maydoni 1648.ming km2, aholisi 66,5 milliondan ortiq kishini tashkil etadi. Bu hududda poleolit davridanoq inson hayoti mavjud bo'lgan. Eronliklar haqidagi dastlabki ma lumotlar Ossuriyaning qadimgi yozma obidalarida uchraydi. Miloddan avvalgi 834 yilda shoh Salmanasar uchinchining sharqqa tajovuzini bayon qilgan mixxatlarda qadimgi fors tilida so'zlashuvchi xalqlar istiqomat qilgan Parsua mamlakati haqida gap boradi. Miloddan avvalgi 3-ming yillikda Eron hududida davlatlar qaror topgan, 2-ming yillikda bu hududga hind-eron tilida so'zlashuvchi qabilalar kirib kela boshlagan. Eronning hozirgi nomi ham o'sha oriylar nomidan olingan (qadimiy aryana so'zidan). Yunonlar bu mamlakatni Persiya (Forsiya), deb ataganlar va bu nom 1935 yilga qadar iste'molda edi. Ruslar hanuz "fors" atamasini "pers", deyдилar.*


*Eron hududida tarix mobaynida bir necha davlatlar paydo bo'lgan, bu hudud ham qo'ldan qo'lga o'lgan va nihoyat 1925 yildagina mustaqil davlat sifatida maydonga keldi.*

*Hozirda Eronda istiqomat qiluvchi forslar ham, mamlakatdan tashqaridagilari ham o'zlarini eroniy deb atayдилar. Butun dunyo bo'yicha fors tilida so'zlashadigan aholi 26 milliondan ko'proq kishini tashkil etadi. Forslarning Eronga kirib kelishi miloddan avvalgi 2- va 1-ming yilliklarga to'g'ri kelib, ular asosan O'rta Osiyo hududidan borib qolganlar. Forslarning xalq bo'lib shakllanishida mo'g'ul, turk, arab qabilalarining ishtiroki bor. Bu xalq millat sifatida XIX asr oxirida shakllangan.*

*Fors tili hind-evropa tillari oilasidagi eroniy tillar guruhining janubi-g'arbiy tarmog'iga mansub. Bu til asosan Eronda, shuningdek,*







*Afg'oniston, Pokiston, Hindiston, arab mamlakatlari, Kavkazorti hududlari va O'rta Osiyoda tarqalgan. Fors tili tarixida qadimiy, o'rta, yangi davrlar bor. Hozirgi fors tili tojik tili hamda Afg'onistondagi dari tillari bilan birgalikda axamoniylar sulolasi shohlarining miloddan avvalgi 6-IV asrlarga oid mixxat yodgorliklaridagi qadimiy fors, milodiy VI-VII asrlarga oid yodgorliklardagi o'rta fors, IX-X asrlarda shakllangan mumtoz adabiyotdagi yangi fors tilidan kelib chiqqan. Fors tili o'rta asrlarda Hindiston, Ozarbayjon, Turkiya va Turkiston hududlarida ham adabiy til sifatida qo'llangan. Fors tilining lahja va shevalari juda ko'p, ulardan asosiysi tehton lahjasi hozirgi fors adabiy tiliga asos bo'lgan. Boshqa sharqiy tillarda bo'lganidek, fors tili tarkibida arabcha so'zlar bor va ular leksikaning 50 foizini tashkil etadi, shuningdek, fors tilida turk, ingliz, fransuz tillaridan o'zlashgan so'zlar ham uchraydi.*

*Eron adabiyoti asosan uch bosqichda rivojlangan: qadimgi eroniy adabiyot, o'rta asr eroniy adabiyot va zamonaviy eroniy adabiyot. Qadimiy eroniy adabiyotining ilk namunalari qadimiy fors tilida yaratilgan. Axamoniylar sulolasi davridagi mixxatlarda xalq qahramonlik eposining ko'rinishlari bor. Arablar Eronni VII asrda bosib olgach, bu adabiyotda arab adabiyoti va islom mafkurasining ta'siri kuchaydi. O'rta asrlarda fors tili yuksalib, mumtoz she'riyatning asosiy tiliga aylandi. Mo'g'ullar istilosi davrida madhiya va qahramonlik eposi rivoj topdi. Eronda shia mazhabining qaror topishi bilan xalq orasida marsiya janridagi qo'shiqlar paydo bo'ldi.*

*Fors xalqida ertaklar ko'p. Lekin boshqa xalqlardan uslub jihatidan bir qadar farq qiladi. Ko'pgina xalqlarda "bir bor ekan, bir yo'q ekan", deb boshlanadigan ertaklar forslarda "rostmi, yolg'onmi, ishqilib..." yoki "sizga yolg'on, menga chin", deb boshlanadi, ammo ko'chma syujetlar fors ertaklarida ham ko'plab uchraydi.*



## QAYSAR



Rostmi, yolg'onmi, aytishlaricha, o'tgan zamonda er-xotin bor ekan. Xotini mehnatkash, qovushimli ekan-u, eri dangasa va bekorchixo'ja ekan. Uning dangasaligi sabab bo'lib har kuni er-xotin janjallashishar ekan. Bir kuni xotin erining dangasaligi va bekor o'tirishidan zerikib:

- Hoy, er, bu nima degan gap?! Nega ertadan kechgacha uyning ichida o'tirasiz? Odamlarga o'xshab biron ish qilsangiz bo'lmaydimi, loaqal ko'chaga chiqib havo almashtirib kelsangiz nima qilarmish? - debdi chidolmay.

- Menga ko'chada nima bor? - debdi er. - Otam menga meros qilib qancha buqa, sigir, qo'ylar qoldirgan. Cho'ponlar menga sut, jun, pul olib kelib turishibdi, ikkovimiz yomon yashayotganimiz yo'q. Uyning hamma ishlarini - bichish-tikishini, supurish-sidirishini qilish sening vazifang.

- Og'ilxonadagi buzoqni ham men sug'orishim kerakmi? - deb so'rabdi xotin. - Buzoqni har kuni sug'orish jonimga tegdi, bundan buyon men sug'ormayman. O'zingiz sug'oravering!

- Bo'lmasa senga nega uylanganman?


- Shuning uchunki, uy ishlarini qilishim kerak, sizga qarashim kerak, buzoqni sug'orish uchun emas-ku.

- Yo'q, nimaiki desam shuni qilishing uchun uylanganman, chaqirganimda tomda bo'lsang ham sakrab tushib, oldimda qoqqan qoziqdek turishing kerak, agar tomdan sakra, desam ham aytganimni bajarish vazifang. Axir maqolda bekorga aytilmagan: "Er - xotinning piri", deb. Er nima desa, xotin quloq qoqmay bajarishi shart.

- Yo'q, bunaqasi hech qachon bo'lmaydi! - debdi xotin chaqchayib.

Buzoq bahona rosa janjallashishibdi, oxiri xotin bugun buzoqni so'nggi marta sug'oradigan bo'libdi, ertasidan esa, kim birinchi bo'lib gapirsa, o'sha sug'oradigan bo'lishiga kelishishibdi.





Ertasiga xotin vaqtli uyg'onibdi, o'rin-ko'rpalarni taxlab, hovlini supuribdi, nonushta tayyorlabdi, ammo churq etib og'iz ochmabdi. Er ham uyg'onibdi. Qarasa, xotini hamma ishlarni qoyil qilganmish, ammo u ham churq etmay nonushta qilibdi. Xotin uyda qolsam, bir narsa deb gapirib yuboraman, deb o'ylab, chodrasini boshiga yopinib qo'shnikiga chiqib ketibdi, ketayotganda eshikni yopmay ochiq qoldiribdi.

Xotin qo'shnikida o'tira tursin, erning qilgan ishlarini tomosha qiling.

Xotin chiqib ketgach, er uying ostonasiga o'tirib olibdi. Shu payt gadoy kelib qolib, sadaqa so'rabdi. U qancha iltijo qilsa ham, uy egasi lom-mim demasmish. Gadoy xudo yo'liga xayr qilishini yana iltijo qilibdi. Gadoy qarasaki, uy egasining to'rt muchasi sog', unga qarab turganmish, ammo gapirmasmish. Gadoy uni garang va soqov deb o'ylabdi. Er esa, o'zicha o'ylarmish:


- Bu xotininimning ishi, ataylab gadoyni yuborgan, hozir gapirib yuborsam, xotininim berkingan joyidan chiqib: "Qani, buzoqni sug'orib keling-chi", deydi. Anoyini topibdi, agar yer osmonga chiqib ketganda ham, osmon uzilib yerga tushganda ham, g'iq etmayman.

Uy egasidan javob ola bilmagan gadoy uy ichiga kiribdi, xaltasini yerga qo'yib, hamma nonlarni, pishloqlarni va nimaiki topsa hammasini xaltasiga joylab o'z yo'liga ravona bo'libdi. Er hammasini ko'rib turib, inday olasmish, gapirsa buzoqni sug'orish bo'yniga tushishidan qo'rqibdi.

Gadoy ketgach, sartarosh paydo bo'libdi. Uying ostonasida o'tirgan odamni ko'rib:

- Soch-soqolingni qirtishlab qo'yaymi? - deb so'rabdi.

Savoliga javob bo'lmabdi. Sartarosh agar istamasa, biron narsa dagan bo'lardi, sukut - alomati rizo, deb o'ylabdi va ko'zguni uning ro'parasiga qo'yibdi.



- Soqolingni qirtishlab, sochlaringni jingalak qilsam, nima deysan? - deb so'rabdi.

Yana javob yo'q.

Sartarosh ustarani toshga urib charxlab, uning soqol-mo'ylovini qirtishlab tashlabdi, basharasi kaftdek silliq bo'lib qolibdi, keyin sartarosh sochlarini jingalak qilib, ikki chakkasidan gajaklar burab qo'yibdi. Ishini tugatgach qo'lini cho'zibdi, ish haqini so'rabdi. Er esa, bez bo'lib o'tirganmish. Sartarosh usta haqini qayta-qayta so'rabdi, lekin so'roviga javob ola bilmabdi.

- O'zingni kar-soqovlikka solma, haqimni ber, men yo'limga ketay,- debdi sartarosh.

Yana javob bo'lmagach, sartarosh uni bir yonboshiga ag'darib, cho'ntagini kavlabdi, pulining hammasini olib yo'liga ketaveribdi.

Sartarosh ketishi bilan uy oldiga o'sma-surma sotadigan bir xotin kelibdi. Silliqqina bo'lib o'tirgan erkak kishini ko'rib, uning qoshiga o'sma qo'yibdi, yuziga elik surtibdi, labiga qizil surtib, qo'llarini xinolabdi-da, yo'liga ravona bo'libdi.

Shu payt uyning yonidan o'g'ri o'tib ketayotgan ekan. Qarasa, ostonada erkak kiyimida bir ayol o'tiribdi, pardoz-andozi joyida. U yaqin kelib:

- Xonim, eshikni lang ochib olib, nega chodrasiz o'tiribsiz? Sochlaringiz nega qirqilgan? - deb so'rabdi.


U esa g'iq etmasmish.

O'g'ri yaqinroq kelib qarasa, bu ayol emas, erkak ekan, kimdir uni mazax qilibdi. O'g'ri uning kallasiga ikki marta chertibdi.

- O'lganing yaxshi-ey! Nega savolimga javob bermaysan'?

Er tag'in o'ylarmish: "Bilaman, meni gapirtirish uchun sizlarni xotinim yuboryapti, gapirib yuborsam, ertaga buzoqni sug'organi olib borishim kerak. Lekin men ham anoyilardan emasman".

O'g'ri qarasaki, uning savollariga javob bo'lmas ekan, shunda u uy ichiga kirib, hammayoqning tit-pitisini chiqaribdi, yengil,



qimmatbaho narsalarni xaltasiga joylab, uy egasini bir urib ag'darib, jo'nab qolibdi.

Endi gapni buzoqdan eshiting.

Bechora buzoq og'ilxonada tashnalikdan o'layozibdi. U shoxi bilan eshikni bir urib ochib, hovlining o'rtasiga chiqib olib ma`ray boshlabdi.

Er yana o'ylarmish: "Bu ayyor xotin buzoqqa ham ma`rashni o'rgatibdi, ma`rab meni gapirishga majbur qilmoqchi. Shu paytgacha hech kimga og'iz ochmadimmi, buzoqqa ham indamaganim bo'lsin".

Shu payt xotin uyga qaytibdi va hovli o'rtasida ma`rab turgan buzoqni ko'ribdi. Buzoq xotinni ko'rib, uning oldiga yugurib kelib, surkala boshlabdi; suv so'rayotgan bo'lsa kerak-da. Shu payt xotinning ko'zi eriga tushibdi. Oldiniga uni tanimabdi, men yo'g'imda ikkinchi xotinni olib kelib olibdi, deb o'ylabdi.

- Ey, xotin, sen bu yerda nima qilib o'tiribsan? - deb so'rabdi.

Shu payt er sakrab o'rnidan turib baqiribdi:

- Yutqazding! Yutqazding! Qani, tezroq buzoqni sug'organi olib bor-chi!


Xotin soqol-mo'ylovi qirilgan, pardozi-andozi qilgan eri ekanligini bilgach:

- Voy, bo'ying lahadda chirisin! Nima balo qilding? Soqol-mo'ylovingni kim qirib tashladi? Kim pardozi qilib qo'ydi? - deb qichqiribdi.

U erining boshiga ikki musht tushirib, buzoqni sug'organi olib boribdi. Qaytib kelib, uy ichiga kirsaki, sandiqlar ochilgan, hammayoq shi pshiydam emish. U bu yerga o'g'ri kirganligini, hamma narsani olib ketganligini tushunibdi.

- Nima balo, o'lib qolganmidangiz yo uxlab yotganmidangiz? Ovoz bersangiz o'larmidangiz? - deb erini yumma talabdi.

- O'lganim ham yo'q, uxlaganim ham yo'q, - debdi er. - Lekin meni gapirtirish uchun ularning hammasini sen yuborganligingni bilardim. Gapiradigan bo'lsam, buzoqni men sug'orishimga to'g'ri kelardi-da.



- O'lganingiz yaxshi siz qaysarning! - deb qichqiribdi xotin. - Qaysarligingiz bilan hamma mulkingizdan, diyonatingizdan ayrilibsiz. O'g'ri qachon ketdi, qaysi tomonga?

- Chiqib ketganiga yarim soatcha bo'lgandir, ammo qaysi tomonga ketganligini ko'rmadim.

Xotin buzog'ini yetaklab, o'g'rining ortidan quvibdi. Ko'chada o'ynab yurgan bolalardan:

- Mana bu uydan yelkasiga tugun ortib chiqqan erkakni ko'rmadinglarmi? - deb so'rabdi u.

- Nega ko'rmaymiz? Ko'rdik! U shahardan chiqib ketdi.

Xotin ham buzog'ini yetaklab shahardan chiqib yo'lga ravona bo'libdi. Ozgina yo'l yurgach, oldinda uyini shilib ketgan, ko'rinishidan o'g'riga o'xshagan odamni ko'rib qolibdi. U qadamini tezlatib, unga yetib olibdi va hatto bir oz o'tib ham ketibdi.

Yonidan buzoq yetaklagan xotin o'tib ketganini ko'rib, o'g'ri to'vush beribdi:

- O', singiljon, qayerga ketyapsan?

- Men - yo'lovchiman, o'z shahrimga shoshyapman.

- Nega buncha shoshilmasang?

- Sahro joyda bir o'zim qolmay deb, kun yorug'ida karvon saroyga yetib olish uchun shoshilyapman. Yonimda himoyachim bo'lganda o'zimni ham, buzog'imni ham qiynab buncha tez yurmasdim.

- Istasang, birga ketaylik, - deb taklif qilibdi o'g'ri.


- Mayli, - deb rozi bo'libdi xotin.

Ikkovi yo'l ustida gaplashib ketishibdi. Xotin shunday noz-karashmali ekanki, buni ko'rgan o'g'ri:

- Singiljon, ering yo'qmi? - deb so'rashga majbur bo'libdi.

- Agar erim bo'lganda bu sahroda yolg'izgina bo'lib mana shu buzoq bilan yurmagan bo'lardim, - deb javob beribdi xotin.

Shu tarzda suhbatlashib ketishibdi va o'g'ri xotining unga turmushga chiqishni taklif qilibdi. Xotin ham rozi bo'libdi va shaharga



kirib borishlari bilan qozining oldida qalin bilan mahrni belgilab, nikohdan o'tishga kelishishibdi. Ular bir-birlariga va`dani qattiq berib, yo`lda davom etibdilar.

Ular quyosh botishidan oldin bir qishloqqa kirib kelishibdi.

- Yaxshisi, qishloq oqsoqolining uyiga borib, bir kecha yotganimiz ma`qul, unga er-xotinmiz, deb aytamiz, - deb taklif qilibdi o'g'ri.

- Yaxshi bo'lardi, - deb rozi bo'libdi xotin. - Lekin aslida bunday bo'lmaydi, faqat nikoh o'qitgandan keyin.

O'g'ri rozi bo'libdi.

Oqsoqol ularni xush kutib olibdi. Kechki taomdan keyin ularga o'rin solib berishibdi. O'g'ri xonaning bir burchagida, xotin boshqa burchakda yotibdi. Tunning yarmida o'g'ri xurrakni baland otgach, xotin o'rnidan turibdi.

Xotin oqsoqolning omboriga kirib ozgina un olib, suyuq xamir qoribdi, suyuq xamirning bir qismini o'g'rining kavushiga, bir qismini oqsoqolning kavushiga quyibdi. Keyin o'g'rining qopchig'ini ko'tarib hovliga olib chiqibdi-da, buzoqning ustiga qo'yib, ko'chaga chiqib olibdi va o'z uyiga qarab ravona bo'libdi.

Eshikning g'iyqillashidan oqsoqolning xotini uyg'onib ketib, erini uyg'otibdi:

- Hoy, eshik g'iyqilladi-ya, - debdi u, - turib qarang, tag'in mehmonlar u-bu narsamizni ko'tarib ketgan bo'lmasin.


Oqsoqol apil-tapil o'rnidan turib kavushini kiygan ekan, oyog'iga xamir yopishibdi. U kavushini oyog'idan yechib hovli yuziga otib yuboribdi-da, o'zi yalangoyoq mehmonlar yotgan uy eshigi oldiga kelibdi. Qarasa, eshik ochiq emish. Mo'ralab qarasa, ikkita mehmondan faqat erkagi yotganmish.

- O', mehmon! - deb chaqiribdi oqsoqol.

O'g'ri uyg'onibdi.

- Nima gap, tinchlikmi? - so'rabdi u oqsoqoldan.

- Xotiningiz mening kavushimni rasvo qilib, eshikni ochib ketib qoldi, u-bu narsani ko'tarib olib ketmadimikin?



168)

- Yo'g'-e, u biron narsani o'g'irlashi mumkin emas, - deb javob beribdi o'g'ri. - Ba`zan kechasi turib ketadigan odati bor.

Lekin yon-veriga qarasa, qopchig'i yo'q emish, uni xotin olib ketganini bilibdi.

- Qani, orqasidan borib ko'ray-chi, - debdi o'g'ri oqsoqolga. - Tag'in qaroqchi-paroqchiga uchrab qolmasin; buzog'ini tortib olib, o'zini cho'ri qilib sotib yuborishadi-ya!

U kavushini kiygan ekan, oyog'i jiqqa xamirga botibdi. U arang uydan chiqib olib, kavushini bir amallab tozalabdi va oqsoqol bilan xayrlashib xotinni izlab yo'lga tushibdi. U oqsoqolning uyidan urinib-surinib chiqquncha xotin yarim yo'lga yetib olgan ekan, oftob ham ufqda ko'rinib qolgan ekan. O'g'ri uning ketidan quvishda davom etibdi.


Yarim yo'lga yetgach, o'g'ri uzoqda qochib ketayotgan ayol bilan buzoqni ko'rib qolibdi. Xotin yo'lda keta turib orqasiga qarab-qarab qo'yar ekan. U ham quvib kelayotgan o'g'rini ko'rib qolibdi. Buzog'iga dermish:

- Oh, buzoqjon, sen tufayli shu hodisalar bo'ldi. Agar o'g'ri bizga yetib olsa, meni o'ldiradi, seni esa, olib ketadi, meni keyin tushingda ham ko'rmaysan. G'ayrat qil, buzoqjon, shoxing bilan qorniga ur. Ana, yetib kelib qoldi.

Xotin buzoqning bo'ynidagi arqonni yechib olibdi. O'g'ri yaqinlashib qolgan ekan. Buzoq unga qarshi tikka yugurib borib, shoxlarini qorniga uribdi. O'g'ri yerga yiqilibdi. Xotin xursand bo'lib buzog'ini o'pib erkalabdi va u bilan birga uyiga omon-eson kirib kelibdi.

Uyda ahvol o'sha-o'sha emish. Er yuzidagi pardozi bilan gapirmay jim o'tirganmish.

Buzoq xo'jayinining bunaqa o'tirishini ko'rib, xotinga qarab qo'yibdi va o'g'rini urgandek uning ham qorniga suzish uchun orqaga tislaniydi. Xotin buzoqning niyatini sezib, uni ushlab qolibdi.



- Unaqa qilma, buzoqjon! - debdi xotin. - Qaysar bo'lsa ham har holda bizning boquvchimiz.

Buzoq boshini yerga quyi solib, og'ilxonaga kirib ketibdi.

O'sha voqeadan keyin er o'zi buzoqqa xashak soladigan va uni sug'oradigan bo'libdi.

Tepaga chiqqan edik - osmon ekan, pastga tushgan edik - yer ekan, cho'pchagimiz ham oxiriga yetgan ekan.

## TULKI BILAN XO'ROZ

Rostmi yo yolg'onmi, har qalay bir qari xo'roz bo'lgan ekan. U bir necha bor tulkinging domiga ilingan ekan-u, ammo har gal bir amallab uning qo'lidan omon chiqar ekan. Kunlarning birida u qishloq chekkasidagi maydonchada don cho'qilab yurgan paytda birdan bekinib kelayotgan tulkiga ko'zi tushibdi.

Qishloqqacha qochib bora olmasligiga ko'zi yetibdi. U bazo'r yonidagi keksa qayrag'och tepasiga chiqib olibdi. Tulki daraxt tagiga kelib:


- Hoy, xo'roz! Nega meni ko'rishing bilai daraxtga chiqib olding?  
- deb so'rabdi.

Xo'roz unga qarab debdi:

- Nima, yugurib borib seni quchoqlab olaymi?

- Ha-da! Hali hech narsadan bexabarmisan? Shoh chor atrofga elchilarni yuborib: "Mening saltanatimda biror odam bolasi, biror jonzot o'zidan kichkinani xafa qilmasn". Bundan keyin bo'rilar bilan qo'ylar bir buloqdan suv ichadilar, lochin bilan kabutarlar bir inda yashaydilar" deb xabar qilishlarini buyuribdi. Qo'rqmay yonimga tushaver, birga sayr qilamiz.

- Jo'ralar bilan sayr qilish yaxshi, lekin birga emas. Bir oz sabr qil, bu yoqqa shamol kabi uchib kelayotgan hayvonlar yetib kelsin,



170

o'shanda hammamiz birga aylanamiz, - deb javob qilibdi xo'roz.

- U qanday hayvonlar bo'ldi ekan?

Bo'rilarga o'xshaydi, faqat quloqlari bilan dumlari uzunroqmi?

- Balki ovchi itlardir?

- Ha, ha, topding, xuddi o'zi!

Ovchi itlarni ko'z oldiga keltiribdi-yu, tulki tiraqaylab qochishga tushibdi. Xo'roz uning ketidan:

- Nega qochib ketyapsan? - deb baqiribdi.

- Ovchi itlar bilan chiqisha olmayman.

- Hozirgina, shoh barcha jonzot o'zidan kichikni xafa qilmaslikni buyurgan, demayotganmiding?

- Axir ovchi itlar cho'lga chiqib ketgan edilar, shoh farmonini eshitmagan bo'lishsa-chi? Meni nimtalab tashlashlari mumkin.

Shunday debdi-yu, tulki ko'zdan g'oyib bo'libdi.



## LAQMA AYIQ



Bir kun ayiq tush ko'ribdi. Tushida u uch bo'lak yog'li go'shtga ega bo'lganmish. Tushida ko'rgan o'ngida keladi, deb o'ylabdi-yu, uyqudan tura solib o'sha bo'laklarni qidirib topgani yo'lga chiqibdi.

Uzoqdan bir uloqchaga ko'zi tushibdi-yu, shuni ta'qib qilib boraveribdi. Uloqcha ham uni sezib qolibdi, ammo qochib qutulishning ilojini topa olmabdi. Shunda dangal ayiqqa ro'para borib, ikki bukilib salom beribdi.


- Sen meni bilasanmi o'zi? - so'rabdi undan ayiq.

- Bo'lmasam-chi. Qishlog'imizning katta hojisini hamma biladi. Men bo'lsam hammadan ko'proq bilaman, axir otangizning uyida ashulachi bo'lganman.

- Unda menga ham ashula aytib ber, - iltimos qilibdi ayiq.

Uloqcha bir ovozi chiqarib ma'ray boshlagan ekan, uni cho'pon





eshitib qolibdi. U ovchi itlari bilan yugurib kelib, ayiqni savalay ketibdi, itlar talabdi, ayiq zo'rg'a qochib qutulibdi.

Yo'lda keta turib bir juft qo'chqorga duch kelibdi. "Men ularni yeb qo'ya qolay", deb o'zicha o'ylabdi ayiq.

U qo'chqorlarni oldiga chaqiribdi, qo'chqorlar qochib qutulishning iloji yo'qligini fahmlab, ikkalovi ham ayiqning oldiga kelibdi.

- Shaxsan qishlog'imiz hojisinging o'ziga yem bo'lishdan g'oyatda mamnunmiz, - deb gap boshlashibdi ular.

Shu mahal qo'chqorlar o'rtasida ayiq oldin kimni yeyishi kerakligi ustida bahs boshlanib ketibdi. Oxiri ulardan biri:

- Hoji domla ruxsat bersalar: bir muguzlashib musobaqa o'ynasak, kim g'olib chiqsa, shuni birinchi bo'lib yesalar, - deya taklif qilibdi.

Ular ayiqning o'zini hakam saylashib, besh qadamdan orqaga chekinishibdi-da, bor kuchlari bilan yugurib kelib ayiqning biqiniga kalla qo'yishibdi. Shoxlari ayiqning ikkala biqiniga kelib sanchilibdi! Sho'rlik ayiq o'zidan ketib yiqilibdi, anchadan keyin o'ziga kelib qarasa, qo'chqorlardan nom-nishon yo'qmis.

Ayiq daraxt tagida bir necha soat yotib, bir oz o'ziga kelibdi-da, ke-yin yana yo'lga tushibdi. Oradan ko'p o'tmay, ro'parasidan bir tuya chiqibdi. Ayiq o'zicha: "Hammasidan bunisi soz bo'ldi, semiz, go'shti ham ko'proq", - deb o'ylabdi.

Ayiq ovozing boricha baqirib debdi:

- Hoy tuya! Joyingda to'xta, tushimga kirganding, men seni yeyishim kerak.


- Assalomu alaykum, hoji domla, - javoban debdi tuya.

- Sen meni qayerdan taniysan? - so'rabdi ayiq.

- Sizni kim bilmaydi, - javob beribdi tuya. - Men esa azaldan bilaman sizni, axir men otangizning xabarchisi edim. Hozir ham otangizdan maktub olib kelyapman.

- Qani u?

- U paypog'imga yozib qo'yilgan, - javob qilibdi tuya.



Ayiq maktubni o'qimoqchi bo'lib tiz cho'kkan ekan, tuya uning ko'kragiga qarab bir tepibdi-ku. Ayiq sho'rlik o'n qadam nariga uchib tushib, hushidan ketibdi. Quyosh botish oldidan u hushiga kelibdi va shundan keyin tushining ta'birini anglabdi.

## SHANGUL, MANGUL VA TANGUL

Bu voqea bo'lganmi yoki bo'lmaganmi, ammo bir echkning Shangul, Mangul va Tangul degan uchta bolasi bo'lgan ekai. Bir kuni ona echki bolalariga:

- Men sizlarga yem olib kelish uchun ketaman, sizlar bu yerda to'polon qilmay o'tiringlar, avvaliga eshik tagidan qaranglar: qora oyoqni ko'rsangiz - demak, bo'ri bo'ladi! Bordi-yu, qizil bo'lsa, unda bilinglarki, bu sizning onalaringiz.

Makkor bo'ri bu gaplarni eshitib turgan ekan, ona echki uyidan chiqib ketishi bilan panjalarini xinaga bo'yab, eshikni taqillata boshlabdi. Echki bolalari:

- Kim u? - deb so'rashibdi.


- Eshikni ochinglar. Men sizlarga yem olib keldim, - deb javob qilibdi bo'ri.

- Oyog'ingni ko'rsat! - chuvillashibdi uloqchalar.

Bo'ri eshik tirqishidan bo'yalgan panjasini ko'rsatibdi, uloqchalar qarashsa, qizil emish - eshikni ochib yuborishibdi. Bo'ri lip etip ichkarigakiribdi-yu, Shangul bilan Mangulni ushlab chibdi. Tangul esa qochib qutulibdi.

Echki uyga qaytib kelib qarasa, ko'cha eshigi lang ochiqmish, uyda biror kimsa ko'rinmasmish. U bolalarini chaqira boshlabdi. Tangul onasining ovozini eshitib, bekinib yotgan joyidan chiqibdi. U onasiga bo'lgan voqeani miridan-sirigacha so'zlab beribdi.

Ona echki rosa yig'labdi, so'ng:



- Sen bo'ring bir adabingni berib qo'yay! - debdi.

Ona echki bo'ri uyining tomiga chiqib mo'ridan qarasa, bo'ri ovqat qilishga hozirlik ko'rayotganmish. Echki bo'ring qozoniga tuproq tashlab, tomda do'pirlab sakray boshlabdi. Bo'ri:

- Tomda do'pirlab mening qozonimga tuproq tashlayotgan kim u? - deb o'shqiribdi.

Echki unga:

*Echkiman, bo'ynimda ko'ng'iroqchalar,  
Tomlarni chertaman tuyoqlarimda.  
Qadayman dushmanga o'qday muguzim,  
Mahkam turib metin oyoqlarimda,  
Höy, kim olib ketgan Shangulimni, chiq!  
Hoy, kim olib ketgan Mangulimni, chiq!  
Mard bo'lsang olish, kel, yakkama-yakka.*

Bo'ri:

Menman olib ketgan Shangulingni, men,

Menman olib ketgan Mangulingni, men.

Sen-ku sen; qo'rqmayman xudoyingdan ham.

Echki qorin topib, ichiga yog', pishloq, suzma to'ldirib, charxchiga olib borib, unga:


- Charxchi, charxchi, mana shularni olib meni shoxlarimni charxlab ber! - deb iltamos qilibdi.

Bo'ri ham qorin topib, ichini havoga to'ldirib, sartaroshning oldiga borib:

- Mana shuni olib qoziq tishlarimni charxlab ber! - debdi.

Sartarosh qorinning og'zini ochgan ekan, undan faqat pishillab havo chiqibdi. Ammo sir boy bermay, ichida: "Men seni shunday boplayki, ertak qilib aytib yurishsin!" - debdi.

Sartarosh ombiri bilan bo'ring hamma qoziq tishlarini sug'urib



tashlab, o'rniga yog'och tish o'rnatib qo'yibdi.

174 Echki bo'ringa uyiga borib, uni jang qilgani olib chiqibdi. Ular ariq bo'yiga yetib borganlarida echki bo'riga qarab:

- Kel, oldiniga bir suvga to'yib olaylik! - debdi.

Echki tumshug'ini suvga tiqibdi-yu, ammo suv ichmabdi.

Bo'ri bo'lsa suvdan to'yganicha ichib, qornini meshday shishirib olibdi, shu bois o'zini ëmon his eta boshlabdi.

Echki:

- Men jangga fayyorman! - debdi.

U xiyol orqaga tisarilibdi-da, keyin o'qday yugurib kelib o'tkir shoxlarini bo'ringa qorniga sanchibdi. Bo'ri uning bo'ynidan tishlam-oqchi bo'lgan ekan, hamma qoziq tishlari to'kilib tushibdi.

Echki fursatdan foydalanib, bo'ringa qornini yorib tashlabdi, bo'ri til tortmay o'libdi.


Ona echki bo'ri inidan bolalari Shangul bilan Mangulni olibdi-da, uyda ularni zoriqib kutib o'tirgan Tangulning oldiga olib ketibdi.

*Tepalikka borsak, bor ekan ayron,  
Pastga tushsak, ardob ekan unda ham.  
Ertagimiz o'ngmay bo'ldik-ku hayron.  
Tepalikka borsak, bor ekan ardob,  
Pastga tushsak, ayron ekan unda ham.  
Ertagimiz raso bo'ldi bobma-bob.*



## SASSIQ POPSHAK

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, o'rmonda bir sassiqpopishak yasharkan. U o'ziga daraxt tepasidan in yasab olgan ekan. Bir kuni o'zicha shaharni ko'rgisi kelib qolibdi. Sassiqpopishak shaharga uchib kelib



baland devorga qo'nib olib, chiyov-chiyovlay boshlabdi. Bolalar uning ovozinini eshitib, uni tutib olmoqchi bo'lishibdi.

Bolalar tuzoq qo'yish bilan ovora bo'layotganlarini ko'rib sassiqpopishak o'zicha ularning ustidan kula boshlabdi. Shu yerdan o'tib borayotgan bir donishmand undan:

- Kimning ustidan kulyapsan? - deb so'rabdi.

- Mana shu bolalarning aqlsizligidan, ular meni tutib olish uchun tuzoq yasashyapti, axir men uchib borayotganimda yer ostidagi suvni ko'ra olamanu. Go'yo men ularning tuzog'ini ko'rmayotgandek! - javob qilibdi u.

- Bemavrid kulayotgan bo'lma tag'in. O'zingga ehtiyot bo'l, - debdi donishmand.

Bolalar nima qilishibdi deysizmi? Tuzoqni qo'yib bo'lgach, ular dan biri:

- Tuzoqqa don qo'ymasa bo'lmaydi. Donsiz tuzoqqa qanaqa qush qo'nadi?- deb qolibdi.

Ular xo'rak qidira ketishibdi. Oradan ko'p o'tmay chigirtka bilan chuvalchang topib kelib, tuzoqqa qo'yishibi-da, o'zlari chekkaga o'tib poylab turishibdi. Sassniqqopishak tuzoqni esidan chiqarib, chigirtka bilan chuvalchangni yegani devordan uchib tushibdi-yu, tuzoqqa ilinibdi. Bolalar yugurib kelib sassiqpopishakni tutib olishibdi, o'g'iga chilvir bog'lab sudrashibdi.


Shu orada haligi donishmand qaytib kelaётgan ekan. Qarasa, bolalar sassiqpopishakni ushlab olib, ovora qilaётganmish.

U yaqin kelib:

- E-e, sassiqpopishak! Sen emasmiding bolalarniig ustidan kulgan? "Yer ostidagi suvni ko'ra olaman! Tuzoqni ko'rmaymanmi", deganding-ku.

Sassiqpopishak unga javoban:

- To'ppa-to'g'ri. Ammo shayton ochko'zlik panjasi bilan ko'zimni ko'r qildi, boshimni aylantirib, tilimdan oldi. Ikki barmog'i bilan nigohimni to'sdi, tuzoqni ko'rmadim. Yana ikki barmog'i bilan qulog'imni berkitdi, donishmand maslahatini eshitmadim. Nima qilishim kerakligini surishtirmasligim uchun og'zimni qolgan beshinchi



barmog'i bilan yopdi. O-o, donishmand, o'tinaman, meni qutqar!

Donishmand bolalarni chaqirib:

- Beozor parrandaga ozor berish noloyiq mardumlar ishi. Yaxshisi, uni ozodlikka qo'yib yuboringlar, - debdi.

Bolalar darhol sassiqpopishakni chilvirdan bo'shatishibdi va u o'rmonga qarab uchib ketibdi. U shu kunlarda ham o'sha yerda uchib yurganmish.



## KAMPIR

Bir kampir bo'lgan ekan. Uning kattaligi elakday uyi, taqsimchaday yotoqxonasi va hovlisida bir tup supurguday keladigan jiyda daraxti bo'lgan ekan. Bo'y-rasi va to'shagini hisobga olmaganda, uyi aytarli bo'm-bo'sh ekan.

Kunlardan bir kun kampir kechki ovqatini yeb bo'lib, tashqariga chiqqan ekan, shunaqayam kuchli shamol esibdiki, badani junjikib ketibdi. U g'irra iziga qaytib o'rnini hozirlabdi-da, uxlashga yotibdi. Ko'zi ilinar-ilinmas kimdir eshikni taqillatibdi. U eshikni ochgan ekan, ostonada chumchuq turganmish. Chumchuq:

- Buvijon! Tun shunday sovuq, shamol esyapti, tunaydigan joyim yo'q. Meni bir kechaga uyingizga qo'ying! Ertalab quyosh chiqishi bilan uchib ketaman! - debdi.

Kampirning chumchuqqa rahmi kelib debdi:

- Juda yaxshi, hovlidagi jiyda shoxiga qo'na qol.

Kampir chumchuqni yotqizib, o'zi ham uxlagani kirib ketibdi. U uyquga ketib ham ulgurmagan ekan, yana kimdir eshikni taqillatibdi. Kampir eshikni ochib qarasa, eshak turganmish.

- Tun shunday sovuq, shamol esyapti, meni bo'lsa xotirjam uxlaydigan joyim yo'q. Bir kechaga tunashga ruxsat bera qol! Tong otishi bilan uy-ingdan chiqib ketaman.

Kampirning eshakka ham rahmi kelibdi:



- Juda yaxshi, uyingning biror burchagiga joylasha qol, - debdi.

Kampir eshakni joylashtirib o'zi ham uxlashga endi yotibdi.

Shu mahal yana eshik taqillabdi. Eshikni ochib qarasa, ostonada tovuq turganmish.

- Buvijon, shamol esyapti, tun sovuq, boradigan joyim yo'q Tunagani menga joy ber! Ertalab, xo'rozlar qichqirishi bilan uyingdan chiqib ketaman, - deb iltimos qilibdi tovuq.

- Juda yaxshi, hovlining biror chekkasiga joylasha qol, - javob beribdi kampir.

Kampir tovuqni ham joylashtirib endi yotgan ekan, yana eshik taqillabdi. U o'rnidan turib eshikni ochgan ekan, qarag'a turganmish.

- Buvijon, tun sovuq, meni bo'lsa tunashga tuzukroq joyim yo'q, - deya gap boshlabdi qarag'a. - Meni uyingga qo'ya qol! Erta saharda qushlar boshlarini ko'tarishlari bilan uchib ketaman.

- Juda yaxshi, - javob qilibdi kampir va uni eshakning yag'riniga o'tqazib qo'yibdi.

Eshik yana taqillabdi. Kampir shamni olib eshikni ochib qarasa, it turganmish.

- Senga nima kerak? - deya so'rabdi undan kampir.

- Tun sovuq, - javob qilibdi it, - kirib yotadigan joyim yo'q. Mana shu yerda yotib uxlashga ruxsat ber! Hammomlar ochilishini e'lon qiluvchi karnaylar chalinishi bilai o'rnimdan turib chiqib ketaman.

Kampirning itga rahmi kelib, uni eshakning yoniga yotqizibdi.

Kampir ertalab hayvonlarning shovqinidan uyg'onib ketibdi. U chumchuqning oldiga borib:

- Qani tur, tong otdi, kelgan joyingga jo'na! - debdi.

Chumchuq bo'lsa unga qarab:


- Men senga sayrab beraman, - debdi.

- Mayli, qola qol, - rozi bo'libdi kampir.

Keyin eshakning oldiga boribdi.

- Tezroq qimirla, jo'nab qol, allaqachon tong otdi! - baqiribdi.

- Men ovozimni yoyib hangrashim mumkin, meni haydamang, - yalinibdi eshak.



178

- Mayli, sen ham qola qol, - debdi-da, borib tovuqqa yaqinlashibdi. Qani tur, ketadigan vaqting bo'ldi, tong otib bo'ldi!

- Axir men senga kukulayman, katta-katta tuxumlar tug'ib beraman.

- Mayli, sen ham qola qol, - boshini qimirlatibdi kampir. Kampir keyin qarg'aning oldiga borib:

- Tur, jo'nab qol-chi! - debdi.

- Men sizni alqab qag'illayman, odamlarni uyg'otaman. Sizga foydam tegadi.

- Bo'pti, sen ham qola qol, - degan javob bo'libdi.

Nihoyat kampir itning yoniga kelib:

- O'rningdan tur, jo'na! Kun yorishdi, - deb baqiribdi.

- Men axir sen uchun vovillayman-ku, o'g'rilarni tutib beraman.

Yaxshi emasmi?

- Sen ham qola qol, - javob boribdi kampir.

Shunday qilib, hayvonlarning hammasi shu yerda qolibdi. Ular ahil-inoq bo'lib, uy ishlarida yordam bera boshlashibdi.




## DUMSIZ SHOQOL

Rostmi, yolg'onmi, aytishlaricha, o'tgan zamonda Mohiziyor degan bir odam yashagan ekan. U karnbag'al ekan, faqat to'yib ovqatlanishni, qora kunimga yarasa, deb bir-ikki chaqa jamg'arib qo'yishni va ajali yetgach, xudoning oldiga yorug' yuz bilan borishni orzu qilar ekan. Uning orzulari amalga osha boshlabdi.

Qahraton qish kechalaridan birida Mohiziyor o'z kulbasida o'tirgan ekan, eshik taqillabdi, ochib qarasa, podadan adashib qolgan bir echki shoxi bilan eshikka urayotgan ekan. Mohiziyor uni kulba ichiga olib kiribdi, echking oldiga yemish qo'yibdi, suv ichiribdi, xullas, kulbasidan unga joy beribdi.

Oradan ikki-uch oy o'tib, echki ikkita uloqcha tug'ibdi. Keyingi





yil uloqchalar ham echkiga aylanib, ikkitadan uloqchalar tug'ib berishibdi. Mohiziyor shunday qilib ko'p echki podasiga ega bo'lib, boyib ketibdi. O'ziga yaxshi bir uy qurib olibdi, bog' barpo qilibdi, lekin ko'ngli toza emas ekan, kambag'allarga yordam bermas ekan, hatto gadoyga ham sadaqani ravo ko'rmas ekan. U chaqani chaqaga qo'shibdi, dirhamni dirhamga, dinorni dinorga qo'shib yig'ar emish. Tovuq va xo'rozlar boqib, ularni semirtiribdi va vaqti-vaqti bilan ulardan birini so'yib yer ekan.

Bir kuni Mohiziyor tovuq va xo'rozlarining kamayib qolayotganligini sezib qolibdi. Ma'lum bo'lishicha, uning uyi yaqinida uy parrandalarining kushandasi shoqol o'rnashib olgan ekan. U har kuni kechasi tovuqxonaga kelib, bir-ikkita tovuqni hiqildog'idan olib, iniga olib ketar va o'sha yerda maza qilib yer ekan. Mohiziyor tovuqlarini kim o'g'irlayotganligini bilmas ekan, shoqol juda ham abjir o'g'rilardan ekan. Nihoyat, Mohiziyor tovuqxonasini boshqa joyga ko'chirib, unga qulf solibdi, hovli yuzasiga echki va qo'ylarini yoyib yuboribdi.


Shoqol tunda qarasaki, hovlida tovuqlar bilan xo'rozlar o'rnida echki va qo'ylar yurganmish. Shoqol xafa bo'layozdi, keyin bo'ringning yordami bilan tovuq va xo'rozlar o'miga echki va qo'ylarni olib ketishga qaror qildi. Ammo bu qaroridan darrov qaytibdi, chunki bo'riga ishonch yo'q ekan-da. Shoqolning bir o'zi Mohiziyorning uyini kuzata boshlabdi. Tez orada Mohiziyorning Makkaga hajga ketmoqchi ekanligini bilib olibdi.

Bir kuni shoqol tumshug'i bilan panjalarini yaxshilab yuvib, Mohiziyorning uyiga kelibdi. U Mohiziyorga ta'zim bajo keltirib yer o'pibdi, panjalarini ko'kragi ustiga qo'yib Mohiziyorning oldida tiz cho'kibdi.

- Ey, shoqol! Nima ishing bor edi? Nega kelding? - deb so'rabdi Mohiziyor.

- Sizni ziyorat qilgani keldim, taqsir. Eshitishimcha, hajga ketayotgan ekansiz. Agar meni xizmatkor qilib yollasangiz, yo'qligingizda uyingizni qo'riqlardim.

"O'zim ham mol-holimni kimga topshirib ketsamikin, deb o'ylab o'tirgan edim, - deb xayolidan o'tkazibdi Mohiziyor. - Agar mollaringni



odam bolasiga topshirsam, u albatta ming xil hiyla o'ylab topib, go'sfand oyida qo'ylarim qo'zilaganda, kamida yuztasini o'ziga oladi. Bu to'rt oy-oqli shoqolning kelgani durust bo'ldi. Mol-holimga shu qarab turadi".

- Ey, shoqol, - debdi Mohiziyor. - Seni o'zim bilan olib ketgim kelyapti, birga muqaddas joyning ostonasini o'pardik, sen u yerni duming bilan, men soqolim bilan supurardik. Lekin sening bu yerda qolganing va mening mol-holimni qo'riqlab turganing ma'qul. Men qaytib kelgach, Makkaga sen borasan.

Shoqol xursand bo'lib ketibdi.

- Mayli, - debdi u. - Shunday qila qolaylik.

Bir necha kun o'tib Mohiziyor uy-joyini, mollarin shoqolga topshirib, o'zi safar tadorigini ko'ra boshladi.

Buni eshitib qo'ylar juda bezovtalanishibdi, Mohiziyorga:

- Axir bu shoqol bo'ri avlodidan-ku, bizlarni yeb tugatadi, - deyishibdi.


- Bo'ringning hamma avlodi ham qo'y yeyavermaydi, masalan, it ham bo'ri avlodidan, lekin sizlarni qo'riqlab yuribdi-ku, - deb ularni xotirjam qilibdi Mohiziyor.

Mohiziyor kajavaga o'tirib, Balx darvozasidan chiqib ketishi bilananoq shoqol molxonaga kirib qo'ylarning holidan xabar olgan bo'libdi va to'g'ri yoshlikdan birga o'sgan do'sti bo'ringning oldiga boribdi. Shoqol unga hamma gapni aytib berib, qo'ylarning oldiga boshlab kelibdi.

O'sha kunning o'zidayoq ikkovi beshta qo'yni yorib, yeyishibdi. Buni ko'rgan echkilar darhol juftakni rostlab, boshqa echki podalari-ga qo'shilib olibdilar. Dangasa qo'ylar joylarida qolaveribdilar va bo'ri bilan shoqol ularni birin-ketin yeyaverishibdi.

Kunlar o'tibdi, kunlar ketidan oylar o'tibdi, yil ham oxirlab qolibdi. Shaharda hojilar safardan omon-eson qaytayotganlari haqida xabar tarqalibdi. Shoqol Mohiziyorga nima deb javob berishni o'ylab qolibdi. Shoqol hali biron narsa o'ylab topmasdan Mohiziyor kelib qolib, to'g'ri og'ilxonaga o'tibdi, qo'ylaridan xabar olibdi.

Shoqol yig'lay boshlabdi, ko'zyoshlarini oqizib, hiqillab Mohiziyorga:




- Xo'jayinjon! - debdi. - Siz ketganingizdan keyin nimalar bo'lganini bilsangiz edi! Birinchi oydayoq karvon bilan ketganlarning hammasi kasal bo'lib, ko'plari o'libdi, degan xabar keldi. Men o'zimga-o'zim qasam berdimki, agar siz sog'-salomat qaytsangiz yuzta qo'yni so'yib beva-bechoralarga beraman, dedim. Ertasiga sizning sog'-salomatligingizni eshitib yuzta qo'yni so'yib ochlarga ulashdim. Keyingi oyda karvon adashib qumga chiqib ketganligi va yuz kishi chanqoqlikdan o'lgani haqida xabar keldi. Yana xudo uchun qasam ichdim, agar siz sog'-omon bo'lsangiz yuzta semiz qo'yni so'yib, bevalarga tarqataman, dedim. Ertasiga sizning sog'-salomatligingiz haqida xabar keldi, qasamimni bajarib, yana yuzta qo'y so'ydim. Uchinchi oyda karvonga qaroqchilar hujum qilibdi, sakson odam o'ldirilibdi, degan xabar keldi. Bu gal agar siz o'ldirilganlar qatorida bo'lmasangiz ikki yuzta so'yaman deb ahd qildim. O'ldirilganlar orasida yo'qligingizni bilgach, juda ham suyunib ketdim. Nihoyat bir odam shaharga kelib, sizning o'lganingiz haqida xabar tarqatdi. O'krab-o'krab yig'ladim, motam libosini kiydim, ruhingizning shod bo'lishi uchun ikki yuzta qo'yni kambag'allarga tarqatib berdim. Ikki kungina oldin boshqa bir odam kelib, sizning sog'-salomat ekanligingizni, erta-indin kelib qolishingizni xabar qildi. Quvonchdan o'zimni tutib turolmadim, qolgan qo'ylarning hammasini sizning poyqadamingizga so'yib, go'shtini kambag'allarga tarqatib yubordim. Sizni tirik va sog'-salomat ko'rganimdan juda xursandman!

- Hoy, yaramas! - deb baqiribdi Mohiziyor. - Meni bu cho'pchagingga ishondi, deb o'ylaysanmi? Xudoga qasamki, tong otishi bilan sening go'shtingdan kabob tayyorlayman!

U belidagi belbog'ini yechib shoqolning bo'ynidan bog'labdi va daraxt oldiga olib borib, dumidan osib qo'yibdi.

- Shu yerda shu tarzda osilib turgin, ertaga ertalab bo'yningdan osaman, - debdi u.

Shoqol qo'lga tushganligini sezibdi, Mohiziyor qo'ylariga juda ham achinib ketgan va albatta, ertalab uni osishi aniq ekan. Shoqol o'z dumini bilan xayrlashishdan boshqa iloj topolmabdi. U o'z dumini chaynashga tushibdi va tongotar mahalida chaynayverib, oxiri uzibdi. O'zi esa shalop etib yerga tushibdi. G'alati ovoz eshitgan Mohiziyor



182)

yugurib tashqariga chiqibdi, qarasa, daraxtda dum osilib turgan-mish, shoqol esa juftakni rostlayotganmish.

- Hoy, shoqol! - deb qichqiribdi Mohiziyor uning ketidan. - Agar qushga aylanib osmonga uchib ketsang ham, agar baliq bo'lib dengiz tubiga tushib ketsang ham, baribir, qo'limga tushasan. Endi yaxshi belging bor - duming yo'q!

Shoqol ishning chatoqligini, u dumsiz bo'lganligi uchun topish osonligini fahmlab qolibdi. Shoqol boshqa shoqollarning ham dumsiz bo'lishi kerakligi haqida o'ylab qolibdi, agar shoqollarning hammasi dumsiz bo'lsa, ularning orasidan uni topish mumkin bo'lmay qolardi-da.

U uzoq daydib yuribdi, nihoyat bir bog'ga duch kelibdi. Shunda u bir tepalik ustiga chiqib uvillay boshlabdi, uning uvillagan tovushiga ellik-oltmish shoqol to'planibdi. Shoqol:

- Ey, shoqollar! - deb xitob qilibdi. - Ertayu kech sizlarning haqingizda o'ylayman, sizlarning och yurishingizga achinib ketaman. Men yaxshi bir bog' topdim, unda hamma narsa bor- nok deysizmi, uzum deysizmi, istaganingizning hammasi muhayyo. O'shaqqa bor-inglar, istaganlaringcha yenglar.

Shoqollar uning ketidan ergashishibdi, u shoqollarni bog'ga boshlab olib kelibdi-da, o'zi bog'bonning oldiga yuguribdi.

- Bog'bon bobo. bog'ingizga shoqollar yopirildi, hamma mevalar-ni yeb, yemaganlarini payhon qilishyapti, - deb xabar beribdi u. - Lekin bir o'zingiz ularni hech narsa qilolmaysiz. Azbaroyi sizni hur-mat qilganimdan bir maslahat bermoqchiman: shunday qilingki, shoqollar sizning borligingizni sezishmasin va cho'chishmasin.

- Bu qanaqasi tag'in? - ajablanibdi bog'bon.

- O'zingizni xursand qilib ko'rsating, lekin ularga: "Mevalardan istaganingizcha yeyaveringlar, faqat bitta shart bilan: har kim bitta shoxni yoki daraxtni tanlab olsin, men daraxtga dumlaringizni bog'lab qo'yaman. Rosa to'yganingizdan keyin men dumlaringizni yechib yuboraman, yo'llaringizga ketaverasizlar", deng. Shoqollar bunga rozi bo'lishadi, siz ularning dumlarini daraxtga bog'lab qo'yasiz, bu yog'ini esa, menga qo'yib bering, - debdi shoqol.



Bog'bon shoqol aytganidek qilib, o'zi nari ketibdi.

Biron soat o'tgach, dumsiz shoqol kelib, sheriklaridan:

- Bilasizlarmi, bog'bon qayerga ketdi? - deb so'rabdi.

- Yo'q.

- U dehqonlarni chaqirgani ketdi, hozir ular qo'llarida so'yil va kaltak bilan yetib kelishadi.

Shoqollar qo'rqib ketishibdi. Ba`zilari:

- Yolg'on aytyapsan, - deyishibdi.

Boshqalari:

- Endi nima qilamiz? - deyishibdi vahima bilan.

- Agar o'lgingiz kelmasa, unda dumlaringni chaynanglar, boshqa iloj yo'q, - debdi dumsiz shoqol.

Shoqollarning hammasi dumlarini chaynab tashlab, yerga dumalay boshlabdilar va bog'bon dehqonlar bilan yetib kelmasdan qochishga tushibdilar.

Endigi gapni Mohiziyordan eshiting. U shoqoldan juda jahli chiqib, uni qanday qilib jazolashni o'ylay boshlabdi.

"Men albatta shoqolni tutishim kerak, - deb o'ylabdi u. - Uning quloqlari va burnini kesib, arqonga bog'lab, sharmandasini chiqarib, ko'cha va bozorlardan olib o'taman, odamlar bilib qo'ysinlarki, hayvon odam bolasiga hech qachon do'st bo'lmaydi".

U qo'liga kaltak olib dumsiz shoqolni izlab ketibdi. Lekin uni qancha sarson bo'lib izlamasin, topolmabdi. To'satdan bir tepalikning qiyaligida dumsiz shoqolni ko'rib qolibdi. Mohiziyor kaltakni boshi uzra baland ko'tarib, uning kallasini nishonga olib otibdi, lekin shoqol sal o'zini chetga olib, kaltak zarbilan qutulib qolibdi.

- Men senga yomonlik qilmagandim-ku, nega meni urmoqchi bo'lyapsan?- debdi shoqol.

- Hali bu menga yomonlik qilmaganingmi? Hamma tovuqlarim, xo'rozlarim va qo'ylarimni nafsingga urib bo'lding-ku!

- U men emas, boshqa shoqol edi.

- Sening belging aniq: dumsizsan.



Shoqol kulibdi:

- Aybsizlar shu tarzda aybdorlarning o'rniga jazo olarkan-da!  
Agar bir dumsiz shoqol senga ziyon keltirsa, boshqalarida nima ayb?  
Bizning avlodimizda barcha erkaklarda dum yo'q. Ishonmasang, sabr qilib tur, o'z ko'zing bilan ko'rasan.

Shoqol bir uvillagan ekan, har tomondan uning oldiga dumsiz shoqollar yetib kelishibdi.

Mohiziyor o'z ishidan xijolat bo'lib:

- Kechirasizlar, dumsiz tug'ilganlaringni bilmabman, - debdi.

Lekin shoqollar o'z sheriklarining yolg'oniga shubhalanib:

- Biz dumsiz tug'ilmaganmiz, falokatdan qutulish uchun o'z dumlarimizni chaynab tashlaganmiz, - deyishibdi.

- Qani, aytinglar-chi, nima bo'lgan edi? - deb so'rabdi Mohiziyor.

Shoqollar bo'lgan voqeani i pidan ignasigachaaytib berishibdi va Mohiziyor bu o'sha dumsiz shoqolning ishi ekanligini tushunibdi.

- O', yaramas! O'z joningni qutqarish uchun o'rtoqlaringga xiyanat qilibsanku, - debdi Mohiziyor.

Shoqollar ham o'zlarining aldanganliklarini bilib qolishibdi. Mohiziyor ularning yordami bilan o'sha shoqolni topib, baquvvat bir shoxga osibdi, shoqol boshqalarga ibrat bo'lib, uzoq vaqt osilib turgan ekan.





## TUSHUNILISHI QIYIN BO'LGAN BA'ZI SO'ZLAR VA JUMLALARGA IZOH

*batat* - kxmerlar yovvoyi barangni shunday deb ataydilar.

*bel-bel* - bir-biriga suyanib yurmoq.

*beshikkerti* - qadimda bir-biriga yaqin oilalarda farzandlar tug'ilib, biri qiz, boshqasi o'g'il bo'lsa, bir-birlariga unashtirib qo'yilgan va buni beshikkerti, deyilgan, bolalar katta bo'lishgach, er-xotin bo'lishlari shart edi. Lekin bu odat ko'proq hukmdorlar xonadoniga mansub bo'lib, siyosat uchun farzandlarini beshikkerti qilganlar.

*bo'taloq* - tuyaning bolasi.

*go'sfand* - qo'y; eroniylar turkiylardagi qo'y yilini go'sfand, deb ataydilar.

*dinor* - Arab va Ajam mamlakatlarida pul birligi: oltin tanga.

*dirham* - Sharqdagi bir qancha mamlakatlarda pul birligi: kumush tanga.

*doshqol* - qozon.

*zaifona* - ayollarga xos: bu o'rinda ayollar poyabzali.

*zangi* - habash, negr: bu yerda qul ma'nosida.

*kajava* - tuya, ot, eshak singari uy hayvonlari qo'shiladigan yumshoq o'rinli arava.

*kaynnar* - boshi odamnikiga o'xshagan yovvoyi qush.

*kanchil* - janub tomonlarda yashaydigan tulkisimon yovvoyi hayvon: kosadum.

*ko't-ko't* - bir-biriga yonboshlamoq.

*mazammat* - yomonlash, ta'na.

*mardona* - erkaklarga xos; bu yerda: erkaklar poyabzali.


*megajin* - cho'chqaning urg'ochisi.

*mehmondorchilik uch kun bo'libdi* - har qanday mehmonning izzati uch kun degan ma'noda; turkiy xalqlarda mehmon birovning uyida uch kundan ortiq turishini man qilganlar.

*pud* - O'rta Osiyo xalqlaridagi qadimgi og'irlik birligi; bir pud - 16 kilogramm.

*sayisxona* - ot bog'lanadigan joy: otxona.

*sampagita* - yosuman guligao'xshagan o'simlik: filippinlarning milliy ramzi hisoblanadi.



*som* - Koreyadagi og'irlik o'lchovi: bir som bizning 150 kilogrammga teng.  
*tanob* - maydon o'lchovi; joylarda tanob o'lchovlari o'ziga xos; umuman, bir gektar yerning oltidan biridan boshlab yarim gektarigacha bo'lgan yer.

*uning qo'lini o'g'lining qo'li ustiga qo'ydi* - forslarda ham turkiy xalqlarda bo'lganidek, qadimda kuyov bilan kelin to'ygacha ko'rishmaganlar. Lekin fors ertaklarida onaning o'g'il qo'lini bo'lajak kelin qo'li ustiga qo'yib qo'yish voqeasi ko'p uchraydi. Bu shu narsani anglatadiki, forslarda ham aynan turkiy xalqlardagidek, ayollar o'ranmasdan bemalol yurganlar, kelin bilan kuyovning to'ygacha bir-biri bilan ko'rishmasligi islomdan keyin vujudga kelgan islomiy odat. Qadimgi odat bo'yicha nikoh erkin bo'lgan.

*xadi* - ilinmoq.

*xo'roz urishtirish* - eskilik sarqiti hisoblanadi; qadimda, hali ko'ngil-ochar o'yinlar paydo bo'lmasdan oldin yigitlar bir maydon bo'lib xo'roz urishtirganlar va bu qimorning bir turi hisoblangan. Xo'roz urishtirish ikki raqibning urishiga va pichoqlashishgacha borgan. Mustaqillikdan keyin ba'zi ongsiz odamlar bu o'yinni joriy qilmoqchi bo'ldilar, ammo muvaffaqiyatsiz urinish bo'ldi.

*xo'sh bo'lsin, zo'sh bo'lsin ham yo'l bo'lsin* - "xo'sh" - salom degani, qadimiy turkiylarda bir-birlariga ko'rganda "zo'sh-xo'sh bo'lsin", deganlar. "Yo'l bo'lsin", degan ibora hol-ahvol so'rashish turlaridan biri.

*chigirtka* - tropik iqlimdagi mamlakatlarda bo'yi 6 santimetrga yetadigan chigirtkalar ham uchraydi, ular qasir-qusur ovoz chiqaradilar.

*chilkiшта* - bargi duv-duv to'kilmoq.

*chumaz* - tariqqa o'xshagan don.

*chxonval* - buddaviy dinda: xudolar xudosi.

*yada toshi* - to'g'risi: yoda toshi. Qadimda yada toshidan foydalanib yomg'ir chaqirish odati bo'lgan. Ammo bu ertakda qiz hasratini aytadi, bu, albatta, qiziq hodisa.

*o'ngir* - yovvoyi hayvonlar makoni.

*o'tin-cho'pga qiynalib qolmoq* - ro'zg'or ishlarida bir o'zi qolib, qiynalmoq ma'nosida.

*'qanjiq* - itning urg'ochisi.





## MUNDARIJA

Erkin Yusupov. Biri biridan maroqli.....	3
--	---

### *MARKAZIY OSIYO* O'ZBEK XALQ ERTAKLARIDAN

Oltmish og'iz yolg'on.....	8
Tushning ta`biri - jiyda.....	13
Yaxshilik va Yomonlik.....	15
G'amsiz kishi bormi?.....	19
Xo'ja savdogar.....	21
Bit o'ldi - burga azador bo'ldi.....	31
Yoriltosh.....	33
Yursang sayoq, yeysan tayoq.....	37
Bermasvoyning shumligi.....	39

### QIRG'IZ XALQ ERTAKLARIDAN (*Asror Samad tarjimasi*)

O'z shahrini qutqargan bola.....	45
Aql, Boylik, Baxt.....	46
Bola va sehrigar.....	49

### QOZOQ XALQ ERTAKLARIDAN (*Asror Samad tarjimasi*)

Qodirning baxti.....	55
Mashshoq boy bilan Aldarko'sa.....	61



## QORAQALPOQ XALQ ERTAKLARIDAN (*Asror Samad tarjimasi*)

188

Janay elchi.....	64
O'mirbek laqqi hangomalaridan.....	66

## TOJIK XALQ ERTAKLARIDAN (*Asror Samad tarjimasi*)

Podshohning tikuvchi bo'lgani va podachi qizining n alika bo'lgani haqida.....	70
Sinchalak.....	75

## TURKMAN XALQ ERTAKLARIDAN (*Asror Samad tarjimasi*)


Kenja botir.....	79
Ahmadning aqli.....	85

## *YEVROOSIYO* TURK XALQ ERTAKLARIDAN

Go'zal meshkobchi yigit.....	90
Minnatdor tulki.....	94
G'alati gul.....	100

## *YAQIN SHARQ* AFG'ON XALQ ERTAKLARIDAN

Odil hokim. <i>Aziz Boboxonov tarjimasi</i> .....	109
Ahmoq do'st dushmanidan battar. <i>Aziz Boboxonov tarjimasi</i> .....	110



Xasis ikki chuv tushadi. <i>Aziz Boboxonov tarjimasi</i> .....	111
Odil qozi. <i>Aziz Boboxonov tarjimasi</i> .....	112
Chumchuqning uch hikmati. <i>Asror Samad tarjimasi</i> .....	113 (189)
To'g'ri davo.....	115

## YAHUDIY XALQ ERTAKLARIDAN

(*Asror Samad tarjimasi*)

Ziyrak bola.....	119
Mardikor va xo'jayin.....	121

## ARAB XALQLARI ERTAKLARIDAN

(*Ubaydulla Karimov tarjimasi*)

Ilm bilan aqlning fazilati haqida.....	126
Hotam-i Toyi.....	127
Ajoyib tasodiflar.....	129
Anushervon va bir qiz.....	130
Sindbod Bahriy hikoyasi.....	132
Ko'rlar bilan xasis boy.....	137
Qassob va o'tmas tanga.....	141
Uch olma va o'lik juvon.....	145
Suv tashuvchi bilan zargarning xotini.....	151
Shirin bilan baliqchi.....	153
Xalifa Ma`mun va ehromlar.....	154
O'g'rini urib ketgan qaroqchi.....	155
Ruh qushining tuxumi.....	157

## FORS XALQ ERTAKLARIDAN

Qaysar. <i>Asror Samad tarjimasi</i> .....	162
Tulki bilan xo'roz. <i>Aziz Boboxonov tarjimasi</i> .....	169
Laqma ayiq. <i>Aziz Boboxonov tarjimasi</i> .....	170
Shangul, Mangul va Tangul. <i>Aziz Boboxonov tarjimasi</i> .....	172
Sassiqqopishak. <i>Aziz Boboxonov tarjimasi</i> .....	174
Kampir. <i>Aziz Boboxonov tarjimasi</i> .....	176
Dumsiz shoqol. <i>Asror Samad tarjimasi</i> .....	178

Adabiy-badiiy nashr

**Jahon xalq ertaklari**

# OSIYO

*Muharrir* Yusuf Berdiyev  
*Rassom* Uyg'un Solihov  
*Texnik muharrir* Erkin Hojiqulov  
*Musahhih* Nilufar Mavlonova

Bosishga 18.02.2011 yilda ruxsat etildi. Bichimi 70x84 1/16.  
"TimesUz" garnitura. Ofset bosma. 12,0 shartli bosma toboq.  
300 nusxa. Buyurtma № 12. Bahosi shartnoma asosida.

"MERIYUS" xususiy matbaa nashriyot korxonasi nashrga  
tayyorlandi va chop etildi.  
Gen.Uzoqov ko'chasi, 2-A uy.